O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLATUNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI
O’ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIKTARIXI: AN’ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY - AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI

SAMARQAND – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI
O’ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIK TARIXI: AN’ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY - AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI
(24-25 iyun 2024y.)

SAMARQAND – 2024

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIK TARIXI: AN’ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR”

Anjuman dasturiy qo‘mita tuzilishi

№	F.I.Sh.	Vazifasi
1	Dj.B.Vafayeva	Samarqand davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi mudiri, a’zo
2	Sh.S.G‘afforov	Samarqand davlat universiteti O‘zbekiston kafedrasi professori, a’zo
3	G.B.Normurodova	Samarqand davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi professori, a’zo
4	B.S.G‘oyibov	Samarqand davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi professori, a’zo
5	R.Sh.Xoliqulov	Samarqand davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi dosenti, a’zo
6	M.I.Nasrullayev	Samarqand davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi dosenti, a’zo
7	F.A.Narmanov	Samarqand davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi dosenti, a’zo

Ma’sul muharrir
D.B.Vafaeva, falsafa fanlari nomzodi, *professor*

Taqrizchilar:
B.S.G‘oyibov, *tarix fanlari doktori, professor*
G.Normurodova, *tarix fanlari doktori, professor*

Masalalarning xolisona yoritilganligi, keltirilgan dalil va ilmiy muomalaga kiritilgan ma'lumotlar ishonchliligi bo'yicha mas'uliyat mualliflar zimmasidadir. Maqolalarda ilgari surilgan fikr-mulohazalar konferensiya tahrir hay'atining nuqtai-nazari bilan hamohang bo'lmasligi mumkin.

MUNDARIJA

1-SHO‘BA. O’ZBEKISTON HUDUDIDA ILK DAVLATLARNING VUJUDGA KELISHI: MUAMMONING NAZARIY ASOSLARI VA ILK O’RTA ASRLAR O’ZBEKISTON HUDUDIDAGI DAVLATCHILIK JARAYONLARI.

Nasrullaev M.I.: O‘ZBEKISTONNING JANUBIDA QADIMGI DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI MASALASIGA DOIR.	9-11
Eshov B.J.: DAVLATChILIK VA ETNOGENEZ MASALASIDA AYRIM NAZARIYa VA QARAShLARNING TAHLILLARI.	11-14
Suyarov M. S.: YUNON-BAQTRIYA DAVLATIDA ELLINIZM MADANIYATI TARAQQIYOTI	14-20
Bobojonov B. B.: KESH - SHAHRISABZNING ENG QADIMGI SHAHARSOZLIK TARAQQIYOT BOSQICHLARINING TARIXIY SHAKILLANISHI	20-25
Karomov Sh.: MARKAZIY OSIYO HUDUDIDA ILKDAVLATLARNING ShAKILLANIShI VA DASTLABKI TARAQQIYoT BOSQIChLARI HAQIDA AYRIMMULOHAZALAR.	25-28
Hazratov N. B.: XITOY TARIXIY MANBALARIDA KESH SHAHRINING YORITILISHI (ILK O‘RTA ASRLAR DAVRI)	29-32
Is’hoqov M, G‘oyibov B.: SUG‘DIY *cwyws* (*Kāwus*) ISMINING TALQINI MASALASI (SUG‘DShUNOSLIKKA OID QAYDLAR)	32-34
Вафаева Дж. Б.: К ВОПРОСУ О РАЗЛИЧИЯХ МЕЖДУ ЗОРОАСТРИЗМОМ И МАЗДАКИЗМОМ.	34-38
Xoliqulov A.Yo.: MUG‘ TOG‘I ARXIV XUJJATLARIDA SUG‘D MAHKAMACHILIGINING AKS ETILISHI.	38-43
Namazova U.N.: OILA – SUG‘D JAMIYATINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA	43-50
Xoliqulov A.Yo.: SUG’DDA BOZORLAR FAOLIYATI: NARX-NAVO VA SARFIYOT MASALALARI.	50-55

2-SHO‘BA. RIVOJLANGAN O’RTA ASRLAR VA XONLIKLAR

DAVRIDA DAVLATCHILIK.

Tashmurodov U. M.: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI.	56-60
G‘aniev K. G’.: ALIShER NAVOIY TEMURIYLAR DAVLATChILIGI MA’NAVIY ASOSLARINING AYRIMJIHATLARI HAQIDA	60-65

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIK TARIXI: AN’ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR”

Хасанова Ш. Х, Урунходжаев У.: ИЗ ИСТОРИИ СРЕДНЕВЕКОВЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ САМАРКАНДА (МЕДРЕСЕ И ШКОЛЫ). ВОПРОСЫ 3Д ОТЦИФРОВКИ ЭТИХ ОБЪЕКТОВ.	65-77
Mamarasulov D. T.:ALISHER NAVOIY ULUG‘BEK MADRASASINING MUNOSIB VORISI.	77-81
Beknazarov J. A.: BUXORO XONLIGI SIYOSIY HAYOTIDA KENAGAS URUG’INING O’RNI	81-84
Ergashev U. K.: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA G‘UZOR BEKLIGI TARIXINING O‘RGANILISHI.	84-90
Mamanov M. D.: XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI – XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA SAMARQAND BEKLIGIAHOLISINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI.	90-94
Rahmonova P.B.: ASHTARXONIY SHAHZODALAR VA VALI MUHAMMADXON O‘RTASIDAGI ZIDDIYATLAR	95-103
Begaliev N.X. QARShI YO‘LIDA JOYLAShGAN SARDOBALAR TARIXI	104-108
Yoo Inyoung. ILK O‘RTA ASRLAR KOREYA VA O‘ZBEKISTON TARIXIDAGI O‘ZARO ALOQADORLIGI MASALASINING O‘RGANILISHI	108-114

3-SHO‘BA. O‘ZBEKISTON MUSTAMLAKACHILIK VA MUSTABID SOVET TUZUMI DAVRIDA

Gofforov Sh. S.: THE PLACE OF RESETTLEMENT POLICY IN THE TRANSFORMATION OF TURKESTAN INTO A RUSSIAN COLONY.	116-123
Normurodova G.B.: TURKISTONDA ILK JADID MAKTABI XUSUSIDA	124-127
Raximov B. E. TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDAGI XORIJIY FUQAROLAR FAOLIYATIDAN	127-132
Bobodustov B. M.: XIX ASRNING OXIRI– XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VOHASINING IRRIGATSIYA TEXNIKASI TARIXI	132-135
Tangirov Sh. A.: SAMARQAND VILOYATINING 1868-YILDAN KEYINGI MA’MURIY-HUDUDIY TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR	136-139
Xolxujayeva Y. U.: TURKISTON O‘LKASIDA DINIY MASALALARNING YORITILISHI (1867-1917-YILLAR MISOLIDA)	139-142

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIK TARIXI: AN’ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR”

Narmanov F. A. TARIX TA’LIMI MAZMUNINING SOVET DAVRI O‘QUV DASTURLARIDAGI TAHLILI	142-146
Nurboev Q. A.: XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SAMARQAND ERONIYLARINING HUQUQLARINING CHEKLANISHI VA QATOG‘ONLAR.	147-150
Shotemirova A. U.: SANOAT KORXONALARINI TASHKIL ETIShBORASIDAGI DASTLABKI ISHLAR (SAMARAND VILOYATI MISOLIDA)	150-153
Abdiyeva M. A.: O’ZBEKISTONDA SANOAT TIPIDAGI HUNARMANDCHILIK ARTELLARI SONINING ORTIB BORISHI	154-164
VA SANOAT MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHNING AHVOLI.	
Xaydarov D.O.: O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY SHAHARLARMASALASINI O‘RGANISHNING AYRIM METODOLOGIK YONDASHUVLARI	165-170

4-SHO‘BA. MUSTAQILLIK YILLARIDA O’ZBEKISTON DAVLATCHILIK TARAQQIYOTI: ISLOHOTLAR VA ISTIQBOLLAR.

Abdulloev Sh. A.: O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA’LIMI TIZIMIDA AMALGA OShIRILGAN TADBIRLAR VA ULARNING NATIJALARI (2016-2022).	171-176
Tursunova D.: MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX VILOYATIDA XOTIN-QIZLAR HUNARMANDCHILIGI.	176-179
Rustamova M. M.: O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIK ISLOHOTLARI	179-183
Xoliqulov R. Sh., Isroilov K.: O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI ARAFASIDA KAMBAG‘ALLIKNI YUZAGA KELISHI SABABLARI VA OQIBATLARI.	183-189
Isamutdinov R. R.: MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA MAHALLA INSTITUTINING SIYOSIY-HUQUQIY ASOSLARINI SHAKLLANISHI	189-194
Usarov S. R.: ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLAR CHAQIRIQLARI VA O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATI.	194-199
Yaqubov G‘. S.: O‘ZBEKISTONDA HARBIY TA’LIM TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	199-204
Хасанова Ш.Х.: ПРОБЛЕМЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ САМАРКАНДА	205-211

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIK TARIXI: AN’ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR”

Qurbonov B. G‘.: O‘ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI FAOLIYATI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	211-215

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIK TARIXI: AN’ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR”

KIRISH

O‘zbekiston davlatchiligi tarixi salkam 3000 yillik tarixga ega bo‘lib, jahon sivilizatsiyasi tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda davlatchilik tarixini o‘rganish yangi bosqichiga ko‘tarildi va davlatchilik tarixining an’analari hamda transformatsion jarayonlariga tegishli bo‘lgan tadqiqotlar ko‘lamining kengayishiga olib keldi.

O‘zbekiston xududida davlatchilik tarixinning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari turli omillar negizida rivojlandi, bular jumlasiga: sug‘orma dehqonchilik, shaharsozlik madaniyati, o‘troq dexqonchilikning vohalar bo‘ylab yoyilishi, hunarmandchilikning rivoji va ixtisoslashuvi, qadimgi savdo yo‘llarining rivojlanishi natijasida iqtisodiy va madaniy aloqalar hamda savdo-sotiqning taraqqiy etishi, tabiiy-geografik shart-sharoitlar, mustaqil davlatlarning tashkil topishi va boshqaruvning takomillashuvi va boshqalar kiradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan omillarni O‘zbekistonning eng qadimdan to hozirgi davrgacha davlatchiligi qaror topishidagi roli muhim bo‘lib, bu jamiyatdagi boshqaruv bilan bog‘liq bo‘lgan qonunchilik asoslarini, aholining ijtimoy qatlamlarini, davlat tuzumining xususiyatlarini, taraqqiyot bosqichidagi siyosiy-ma’muriy bo‘linish va markaziy hamda mahalliy boshqaruvning asoslarini, o‘zbek xalqining shakllanishidagi davlat va jamiyat siyosatini yo‘nalishlarini chuqur tadqiq qilishga imkon beradi. Shu nuqtai nazaridan, ushbu konferensiya to‘plamidan o‘rin olgan ilmiy maqolalar ham, mutaxassis olimlar va tadqiqotchilarning aniq va izchillikda yoritilgan keng ilmiy izlanishlari natijasi sanalib, hozirgi globallashuv davrida xalqimiz milliy o‘zligini anglashda dolzarb hisoblanadi.

1-SHO‘BA. O‘ZBEKISTON HUDUDIDA ILK DAVLATLARNING VUJUDGA KELISHI: MUAMMONING NAZARIY ASOSLARI VA ILK O‘RTA ASRLAR O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI DAVLATCHILIK JARAYONLARI.

O‘ZBEKISTONNING JANUBIDA QADIMGI DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI MASALASIGA DOIR

Mahmud Ibodullayevich Nasrullayev
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi
dotsenti

Annotatsiya: Maъruzada mamlakatimizning janubida qadimii davlatchilikning vujudga kelişi, uning asosii hususiyatlari, rivojlaniş jaraëni kabi masalalar uşbu mavzuga oid adabiët, davrii matbuot materiallarini ўrganiş va uni taҳlil qiliş asosida ëritiladi. Respublikamiz tadqiqotchilarining uşbu masalaga ëndaşuvlari aks ettiriladi va şu bilan birga qadimii davlatchilikning vujudga kelişida maҳallii omil va anъanalarning ўrni va roli kўrsatib beriladi.

Kalit so`zlar: davlatchilik belgilari, ҳuquqiy asos, odat, anъana, ҳarbiy demokratiya.

Insoniyat tarixining muhim bosqichi hisoblangan davlatchilikning shakllanish jarayoni uzoq davom etganligi va g‘oyatda murakkab kechganligi bilan xarakterlanadi. Qadimgi davlatchilik dunyoning turli hududlarida bir biridan mustaqil tarzda, turlicha tarixiy sharoitlarda vujudga kelgan bo‘lsada, uning umumiy, bir-biriga o‘xshash jihatlari ham talayginadir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bir necha million yillarni qamrab olgan insoniyat tarixida dastlabki davlatlarning paydo bo‘lishi – nisbatan ancha kech yuz bergan jarayondir. Davlatchilikning shakllanish va rivojlanish jarayonlari insoniyat birnecha million yillik tarixining so‘nggi 6 ming yili bilangina bog‘liq tarzda kechdi. Fikrimizcha bu jarayon neolit davrining oxirlarida, eneolit va bronza davrlarida mehnat qurollarining shu vaqtga qadar bo‘lgan davrlarga nisbatan misli ko‘rilmagan darajada takomillashuvi va buning natijasida qo‘shimcha mahsulotning paydo bo‘lishi bilan boshlangan edi. Bu esa o‘z navbatida ibtidoiy jamiyat uchun xarakterli bo‘lgan o‘zlashtiruvchi ho‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tishga olib keladi.

Ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tish natijasida jamiyatning rivojlanishi jarayonlari tezlashib ketadi. Ishlab chiqarish kuchlari o‘sgani sari mehnat

taqsimoti va aholining mulkiy tabaqalanishi ham chuqurlashib borgan va mahsulot ayirboshlash imkoniyatlari tug‘ilgan. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ayirboshlash va savdoning taraqqiy etishi natijasida asta – sekinlik bilan yirik aholi yashash manzilgohlari – katta qishloqlar va keyinchalik shaharlar shakllangan. Hozirgi O‘zbekiston hududlarida shaharchilik madaniyati talablariga javob beradigan va taxminan 4000-3500 yil ilgari birinchi bo‘lib vujudga kelgan shahar Jarqo‘ton shahri hisoblanadi.[1]

Asosiy aholi qatlamini qon-qarindoshlar tashkil qilgan urug‘ manzilgohlaridan farqli ravishda shaharlar aholisi boshqacha tamoyillar asosida shakllangan edi. Mamlakatimiz hududlaridagi shaharlar asosan dehqonchilik yuqori darajada taraqqiy etgan hududlarda, stixiyali ravishda vujudga kelgan bozorlar atrofida va hunarmandchili markazlarida vujudga kelgan edi. Ayrim holatlarda yirik urug‘ manzilgohlari ham shaharlarga aylangan. Lekin bunday holatlarda ham aholining etnik yaxlitligi boshqa urug‘ va qabilalar vakillari ko‘chib kelib o‘rnashishi munosabati bilan tez orada barham topgan. Bozor atrofida shakllana boshlagan va keyinchalik shaharga aylangan kishloqlarga birinchi bo‘lib tijoratchilar va hunarmandlar kelib o‘rnashganlar. Shahar manzilgohlarining kengayishi natijasida ular nafaqat savdo-hunarmandchilik, balki madaniy va ma’muriy markazlarga ham aylana boshlaydilar. Natijada kasbiy jihatdan shahar aholisining xilma-xilligi borgan sari oshib borgan. Chunki shaharga dastlab kelib o‘rnashgan tijoratchi va hunarmandlar qatoriga, uni boshqarish, tashqi dushmandan himoya qilish, ijtimoiy ma’naviy ehtiyojlarni qondirish zarurati tufayli, harbiylar, amaldorlar, kohinlar va ularga xizmat qiluvchilar qo‘shila boshlaganlar. Bundan tashqari shahar aholisining bir qismi dehqonchilik bilan shug‘ullanishni ham davom ettirgan. Shu bilan birga hunarmandlar ham dehqonchilikdan to‘la ajralmaganlar. Ularning kattagina qismi hatto XX asrning boshlariga qadar ham o‘z kasblari bilan bir qatorda dehqonchilik bilan shug‘ullanishni kanda qilmaganlar[2].

Shaharlarning vujudga kelishi davlatchilik shakllanishining eng muhim omillaridan biridir. Zero insoniyat tarixidagi ilk davlatlar aynan shaharlar vujudga kelishi va ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy mavqelari oshib borishi bilan deyarli bir vaqtda sodir bo‘lgan.

Rivojlanish jarayonlari tezlashgan sari shaharlarning hududi kengayib, aholisining miqdori oshib borgan. Shunga bog‘liq tarzda ularga rahbarlik qilish zarurati paydo bo‘lgan. Natijada, o‘sha vaqtlardayoq urug‘ boshqaruviga nisbatan ancha ustun bo‘lgan, shahar miqyosida vujudga kelayotgan ko‘plab muammolarni hal qilishga qodir bo‘lgan boshqaruv tizimiga ehtiyoj tug‘iladi. Bu tizim urug‘ boshqaruv tizimidan tubdan farq qilgan. Yechiladigan muammolar doirasi kengayib, ular harbiy, mudofaa, obodonchilik, irrigatsiya inshootlari qurish, boshqaruvni tashkil qilish kabi masalalarni qamrab ola boshlaydi. Urug‘ doirasida jamoatchilik asosida rahbarlik qilinib, oqsoqollar o‘z kasbi korlariga ega bo‘lgan bo‘lsalar, shahar boshqaruvida rahbarlarga boshqa ish bilan shug‘ullanishga vaqt ham, imkoniyat ham qolmaydi. Ular asta-sekin professional xodimlarga aylana borganlar. Rahbarlar oilasini ta’minlash, boshqaruvdagi turli

ehtiyojlarni qondirish soliq yig‘ishni talab qildi. Natijada harbiylar, amaldorlar qatoriga soliq yig‘uvchilar ham qo‘shila boshlaydi.

Shaharlar rivojlanib, atrofdagi dehqonchilik hududlarini, boshqa kichik shaharlarni o‘z ta’sir doiralariga olganlari sari, boshqaruv ham kengayib va murakkablashib davlat boshqaruviga aylana boshlaydi.

Davlatchilik barcha hududlarda bir vaqtning o‘zida shakllanmagan. U avvalo iqlimiy sharoiti qulay bo‘lgan hududlarda yuzaga kelgan. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari joylashgan hududlarning barchasi tabiiy geografik muhitning qulayligi bilan xarakterlanadi[3]. Aynan shunaqa joylarda oldin bozorlar yoki yirik dehqonchilik markazlari keyinchalik esa dastlabki shahar davlatlar shakllangan. Bu jarayonda ishlab chiqarishning rivojlanishi, qo‘shimcha mahsulot miqdorining oshishi, mahsulot ayirboshlash va savdo-sotiq munosabatlari rivojlanishining roli katta bo‘lgan. Bu jarayon eng oldin Nil daryosi havzasida, ikki daryo oralig‘ida (Dajla va Frot) miloddan avvalgi 4- ming yillikda amalga oshganligi barchaga ayon.

Sovetlar davrida va mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistondagi qadimgi davlatchilik haqida so‘z ketganda miloddan ilgari VIII-VII asrlarda yuzaga kelgan Qadimgi Baqtriya, Qadimgi Xorazm va So‘g‘diyona davlatlari qayd etilib kelinar edi. Bu davlatlar katta hududlarni qamrab olgan yirik davlat birlashmalari bo‘lgan. Lekin, ushbu davlat birlashmalari qay tarzda vujudga kelganligi, ular shakllangunga qadar mavjud bo‘lgan siyosiy birlashmalarning mohiyati kabi muammoli masalalar tarixchilar tomonidan yetarli darajada asoslanmasdan qolavergan edi.

Mustaqillik yillarida A,A, Asqarov, A.S.Sagdullaev, T.Sh.Shirinov, Sh.P.Shaydullaev kabi olimlarning izlanishlari O‘zbekistonda eng qadimgi davlatchilik ilgari aytilganidan ancha oldin, ya’ni miloddan avvalgi 2000-1500 yillar oralig‘ida hozirgi Surxondaryo viloyati hududlarida shakllanganligini ko‘rsatdi va bu davlatchiligimizni 1000 yilga qadimiylashtirish, bu jarayonning butun dunyo miqyosida bo‘lgani singari shahar davlatlar shakllanishidan boshlanganligini asoslash imkoniyatini berdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. http://surxon.gov.uz/aboutr/16-surkhondarjo-vilojati.html
2. История Узбекистана. Том 3, Ташкент, “Фан”, 1993, стр.121.
3. Авдиев В.И. Қадимги Шарқ тарихи. - Тошкент, 1964. – 17-саҳифа.

DAVLATChILIK VA ETNOGENEZ MASALASIDA AYRIM NAZARIYA VA QARAShLARNING TAHLILLARI

Eshov Bahodir Jo‘rayevich
Qarshi davlat universiteti
professori, tarix fanlari doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonlik olimlarning

davlatchilik, shaharlar hamda etnogenez masalalariga oid nazariyalari va ilmiy qarashlari qisqacha tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. O‘zbek davlatchiligi, xalqlar etnogenezi, o‘zaro assimilyatsiya, migratsiya jarayonlari.

Markaziy Osiyo tarixchilari orasida jiddiy tortishuvlarga sabab bo‘lib kelayotgan mavzular bo‘yicha mintaqadagi beshta davlatdan har birida mutaxassislarning u yoki bu darajada o‘z munosabatlarini bildirganliklari va bildirib kelayotganliklari ko‘zga tashlanadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, ushbu respublikalar orasida ayrimlaridan nisbatan ko‘proq, ayrimlarida esa nisbatan kamroq olimlarning bu masalada fikr bildirayotganliklari diqqatni tortadi. Xususan, Qozog‘iston, Tojikiston va O‘zbekiston tarixchilari masalaga nisbatan faolroq yondashayotgan bo‘lsa, Qirg‘iziston va Turkmaniston olimlari masalaga birmuncha passiv munosabat bildirganliklari ta’kidlab o‘tish kerak bo‘ladi.

Deyarli o‘ttiz yil ichida Markaziy Osiyo xalqlari tarixida qaysi xalqlar yetakchilik qilganligi, qaysi hududlarda davlatchilik oldin, qaysi hududlarda birmuncha keyin paydo bo‘lganligi, shuningdek, boshqaruvchi sulolalar qaysi etnoslarga tegishli ekanligi masalasida tortishuvlar va bu masalaga u yoki bu darajada ilmiy va ob’ektiv yondashgan tadqiqotchilarga o‘zbekistonlik tarixchilar misolida qarab chiqilsa quyidagicha holatga duch kelish mumkin. O‘zbekistonlik yetakchi tarixchi olimlardan akademik A. Asqarov, A. Sagdullaev, E.V. Rtveladzelar qo‘shni respublikalardagi ayrim yirik tarixchi olimlarning fikrlariga javob tariqasida bir necha maqola e’lon qilganliklarini aytib o‘tish zarur [1, S. 267-268]. Ushbu olimlarimiz qo‘shni respublikalar o‘tkazilayotgan xalqaro anjumanlarda ko‘tarib chiqilgan masalalarga o‘z munosabatini bildirar ekan, asosan Markaziy Osiyo xalqlari davlatchiligi va etnogenezi masalasida ilmiy jamoatchilik noroziligiga sabab bo‘layotgan omillarga to‘xtalganliklari ko‘zga tashlanadi. Quyida ushbu olimlarimiz va yana boshqa bir qator o‘zbekistonlik tarixchilarning nuqtai nazarlari bilan tanishib chiqsak.

A. Asqarov Markaziy Osiyoning qadim xalqlari kimlar ekanligi, mintaqadagi ilk davlatlar masalasida o‘zining bir qator qarashlarini ilgari surgan bo‘lib, unga ko‘ra mintaqada eroniy va turkiy xalqlar ancha qadimdan yashab keladi. Unga ko‘ra, eroniy xalqlar, xususan, sharqiy eroniy elatlar miloddan oldingi ikki ming yillikda, ya’ni bronza davrida mintaqaning yetakchi elati sifatida ko‘rina boshlagan va ilk temir davrida – miloddan oldingi VII – VI asrlarda tarix sahnasiga chiqqan Katta Xorazm, Sug‘d va Baqtriya davlatlari ular tomonidan barpo qilingan ilk davlatlar edi. O‘z navbatida A. Asqarov turkiy elatlarning Markaziy Osiyoda keng ko‘lamda ko‘rina boshlagan davri sifatida miloddan oldingi ikkinchi mingyillikning o‘rtalarini belgilab, xitoy yilnomalarida

“di” (dili, tele) ko‘rinishlarida uchraydigan, “Avesto”da tur deb tilga olingan ko‘chmanchilarni oriylar bilan tenglashtirib, ularni mintaqaning janubiga – Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i va unga tutash hududlarga ko‘chishi G‘arbiy Sibir, Oltoy, Yettisuv orqali yuz berganligini ta’kidlaydi. Shu tariqa u tojikistonlik R. Masov, N. Negmatov va boshqalar tomonidan 2000 yillarning boshlarida olg‘a

surilgan “oriylar – tojiklarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ajdodlaridir” degan mazmundagi harakat qildi[2,C.87]. Tadqiqotchining bu qarashi oriylar dastlab yashagan G‘arbiy Sibir - Oltoy hududlarida olib borilgan arxeologik qazishmalarda qo‘lga kiritilgan moddiy buyumlar (urush va mehnat qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, kiyim-kechaklari), shuningdek, xitoyshunos olim A. Xo‘jaevning xitoycha manbalarga tayanib olg‘a surgan fikrlariga asoslangan. Biroq bu kabi to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, bilvosita ma’lumotlarga tayangan holda oriylarning etnik mansubligi va tili borasida bunday keskin fikrlarni bildirish bir qator tortishuvlarga sabab bo‘ladi. Tadqiqotchining bu qarashlari tojikstonlik va dunyo tarixchilari tomonidan qattiq tanqid qilinganidek o‘zbekistonlik olimlar ham uning bu kabi qarashlarini tanqid ostiga olishdi.

Undan anchagina farqli qarashlarni bildirgan A. Sagdullaev esa Markaziy Osiyo respublikalarida, ayniqsa, Qozog‘iston, Turkmaniston va Tojikistonning bir guruh olimlari tomonidan ilgari surilgan va davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, mintaqa ilmiy jamoatchiligining noroziligiga sabab bo‘layotgan masalalarga e’tibor qaratdi. Uning fikricha, mintaqa xalqlaridan birortasini sof etnik guruh deb bo‘lmaydi, mintaqada qadimdan to bugungi kungacha tashkil etilgan davlatlar aholisi turli tilli bo‘lib, ularning etnogenezida farqli etnik komponentlar ishtirok etishgan. Markaziy Osiyo hech qachon ko‘p asrlar davomida bitta davlat qo‘l ostida bo‘lmagan, mintaqani bitta bayroq ostida birlashtirish fikri mavjud bo‘lmagan, mintaqadagi davlatchilik ming yillar davomida katta-kichik vohalarda hukm surgan turli darajadagi siyosiy uyushmalar (mas. Xorazm, Baqtriya, Sug‘d va h.k.) sifatida o‘zini namoyon qilgan. Shu bilan birga, unga ko‘ra, mintaqada turkiylarning paydo bo‘lishini qadimiylashtirishga urinish yaramaydi. Shuningdek, A. Sagdullaev Markaziy Osiyodagi, shu jumladan, O‘zbekiston ilm-fani olamida an’anaga aylangan talablar haqida so‘z yuritib, ilmiy asarlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarda hozircha ko‘pchilik tomonidan qabul qilinib, fanda o‘z o‘rnini topib ulgurmagan qarashlar va konsepsiyalarni erkin o‘rtaga tashlash, ularni ayniqsa, o‘quv qo‘llanma va darsliklarga kiritish odat tusini olmoqdaligini yozib, shunday asarlar sirasiga A. Asqarovning «O‘zbek xalkining etnogenezi va etnik tarixi» o‘quv qo‘llanmasini kiritish mumkin, deb ta’kidlaydi [3, S. 267-268].

A. Sagdullaevning ko‘plab fikrlarida jon bor, biroq uning ayrim qaydlari mintaqadagi qadimgi davlatchilikda eroniy elatlarning o‘rnini yuqoriroq, boshqalarnikini esa nisbatan kamroq ko‘rsatgandek tasavvur uyg‘otadigan jihatlar hak ko‘zga tashlanadi.

E.V. Rtveladze ham bir qator maqolalarida Markaziy Osiyoning ayrim respublikalarida keng yoyilayotgan biryoqlamali qarashlarga o‘z munosabatini bildirar ekan, Turkmanistondagi mintaqa tarixi bo‘yicha biryoqlamaliklarni

tanqid qilib, olti mingyildan beri turkman xalqi mintaqada yetakchi millat bo‘lganligi, ko‘plab yirik sulolalar (Parfiya, Kushon, Eftaliylar, Saljuqiylar, Xorazmshoh-Anushteginiylar va h.k.) faqatgina turkmanlarga tegishli ekani haqidagi qarashlar tobora urchib ketayoganligiga to‘xtaladi. Turkmanistonlik bir guruh tarixchilar va hukumatning talabi ostida aytilayotgan bu talqinlarning bir qismida jon bor bo‘lsa-da, katta bir qismi absurd fikrlardir[4].

E.V. Rtveladze va u bilan birga “Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar” hammualliflik qilgan ilmiy monografiyaning taqdiqotchilar mintaqaning qadimgi davlatlari va ularning etnik tarkibi haqida shunday yoztishgan: “O‘rta Osiyodagi ikki daryo oralig‘i – alohida tarixiy-geografik va tarixiy-madaniy hududlar uning sivilizatsiyasi ikki buyuk daryo: Amudaryo (qadimgi Oks) va Sirdaryo (qadimgi Yaksart) tufayli ko‘plab ming yilliklar mobaynida mavjud bo‘ldi. Bu joyda yuzaga kelgan davlatlar qadimgi davrlarda ham, o‘rta asrlarda ham umumiy belgilar bo‘lishiga qaramay, O‘rta Osiyoning boshqa qismlaridagi davlatlardan ko‘plab belgilariga ko‘ra ajralib turgan O‘rta Osiyodagi ikki daryo oralig‘i hududi doirasining o‘zida shimoliy viloyatlar (Xorazm) va janubiy viloyatlar (Baqtriya) ayniqsa qadimgi davrlarda etnik va madaniy, til va yozuv, davlat quriligi tizimi jihatidan bir-biridan farq qilgan. Bu har bir viloyatga xos bo‘lgan madaniy-genetik tillar, darajasi har bir viloyatda turlicha o‘lgan o‘troq va ko‘chmanchi xalqlarning raqobatlashuvi bilan belgilangan” deb yozgan bo‘lsa-da [5, B. 47]. ayrim o‘rinlarda ushbu fikridan birmuncha farqlanuvchi qarashlarni ham aytib o‘tgan.

Ushbu olimlardan anchagina farqli yondashgan olimlar ham bo‘lib. Ular orasida G. Hidoyatov, Sh. Kamoliddin, A. Xo‘jaevlar o‘zlarining bir qator yangicha qarashlari bilan ajralib turadi. Masalan, G. Hidoyatov Somonyilar sulolasining Markaziy Osiyo tarixidagi o‘rni tojikistonlik olimlar tomonilan ancha bo‘rttirilgan deb qarasa, Sh. Kamoliddin ushbu sulolaga asos solgan xonadon – Bahrom Chubin va uning avlodlarini turkiylar bilan bog‘lashga urinadi. Unga ko‘ra, Somoniylarning ajdodlari asli balxlik, farg‘onalik va chochlik turkiy boshqaruvchi toifaga aloqadordir. Bu borada ko‘plab maqola va kitoblar nashr qildirgan Sh. Kamoliddining qarashlari [6] Tojikistonlik bir qator olimlarning noroziligiga sabab bo‘lganligini aytib o‘tish kerak [7, S. 103-126]. Har ikkala tomonning qarashlarida birmuncha kamchiliklar mavjud bo‘lib, Bahrom Chubin va uning avlodlari – Somonxudot bilan bog‘liq o‘z davri manbalarining oz yetib kelganligi, ko‘pchligi rivoyat xarakteridagi ma’lumotlardan iborat ekanligini aytib o‘tish zarur.

Sh. Kamolliddin mintaqaning qadimgi toponimlariga to‘xtalish mobaynida ko‘plab joy nomlarini turkiylar bilan bog‘lashi diqqatga sazovor. Biroq u keltirgan shahar va yirik qishloqlar nomlarining sezilarli bir qismi tarixiy va lingvistik tomondan to‘laqonli isbotlab berilmagan yoki ishonchlilik darajasi yetarlicha emas. Tadqiqotchi bir necha o‘nlab turkiy toponimlarni, shu jumladan, Toshkent, O‘zkend, Boykend (?), Tunkent, Sutkend, O‘tror, Qorachuq, Talas va hokazo kabi yirik qadimiy aholi maskanlarining turkiy ekanligini yozma manbalar asosida ko‘rsatib bera olgan bo‘lsa-da, uning Toxariston, Marv, Buxoro

va Xorazm kabi tarixiy-geografik viloyatladagi o‘nlab toponimlarni turkiy negizda qidirishi yetarlicha o‘z tasdig‘ini topmagan. Ayniqsa, uning -xon, -qon, -gon kabi qadimgi eroniy topoformantlar bilan tugaydigan joy nomlarida turkiy asos ko‘rishga intilishi ilmiy jihatdan asoslanmagan [8, S. 41-42].

Milodiy III – IV asrlarga kelgach, “Baqtriya” atamasi iste’moldan chiqib, uning o‘rnida “Toxariston” atamasi keng yoyila boshlaganini ilk o‘rta asrlarga tegishi ham mahalliy manbalar (hind, baqtriy, sug‘diy tilli yozma manbalar va numizmatik materiallar), ham xitoy yilnomalaridagi “Tuxolo” (Toxar) atamasi tasdiqlaydi. Ayniqsa, xitoy yilnomalarida miloddan oldingi so‘nggi mingyillikning oxirgi asrlari va milodning dastlabki asrlarida Baqtriya atamasi “Dasya” deb qayd etilgan bo‘lsa, ilk o‘rta asrlarda esa bu atama o‘rnida asosan “Tuxolo” etnotoponimi ishlatila boshlaganligi ko‘zga tashlanadi [9, tom I. – S. 287; tom II. – S. 321].

Xullas, Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, uning uzviy bir qismi bo‘lgan O‘rta Osiyo xalqlari tarixining eng qadimgi davrlari, ayniqsa, miloddan oldingi II – I mingyilliklar va milod boshidagi ilk davlatlar va uning aholisi mavzusida keyingi o‘nyilliklarda o‘zbekistonlik yetakchi olimlar tomonidan bildirilgan qarashlar bilan qisqacha tanishib chiqish shuni ko‘rsatadiki, bu masala haligacha to‘laqonli o‘z yechimini topmagan. Shu bilan birga, mintaqada hind-oriylar, shu jumladan, eroniylar va oltoy til oilasiga mansub turkiy elatlarning migratsiyasi va mintaqa xalqlari davlatchiligiga qo‘shgan ulushlari to‘g‘risida birmuncha yangi fikrlar aytilganligi ko‘zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: ЎзР ФА ШИ, 2014; Аскаров А. История происхождения узбекского народа. – Ташкент: “Узбекистан”, 2018; Ртвеладзе Э.В. Государственное объединение «Большой Хорезм»– миф, созданный учеными или историческая реальность? / Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент: Издательство «Узбекистан файласуфлари миллий жамияти», 2013; Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллеев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Адолат, 2001; Сагдуллаев А.С. Проблема инноваций в учебном процессе (на примере изучения этногенеза и этнической истории) / «Ўзбекистон тарихи фанидаги инновациялар». – Тошкент, 2012. – С. 267-268.

2. Негматов Н. Перманентной макроцивилизации страны народа Арианы 8000 лет // Газета «Вароруд» № 51 (87) от 24.XII. 2003 г.

3. Сагдуллаев А.С. Проблема инноваций в учебном процессе (на примере изучения этногенеза и этнической истории). – С. 267-268.

4.Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С. Современные мифы о далеком прошлом народов Центральной Азии. – Ташкент, 2006.

5.Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллеев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Адолат, 2001. – Б. 47.

6. Камолиддин Ш. Саманиды. Из истории государственности Узбекистана в IX-X вв. Saarbrucken: Lambert Academic Publishing, 2012.
7. Довуди Д. Сказки узбекского учёного Ш. Камолиддина о происхождении Саманидов // Тўроннома/Туран-наме. №1, 2021. – С. 103-126.
8. Камолиддин Ш. С. Древнетюркская топонимия в Средней Азии. – С. 41-42,
9. Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. –М. - Л.: Изд. АН СССР. – том I. – 1950. – С. 287; том II. – С. 321.

YUNON-BAQTRIYA DAVLATIDA ELLINIZM MADANIYATI TARAQQIYOTI

Suyarov Mahmud
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU Tarix fakulteti magistranti
suyarovmahmud2@gmail.com

Annotatsiya. Tarixning qadimgi davrida hozirgi O‘zbekistonning janubiy qismida faoliyat yuritgan Yunon-Baqtriya davlati ellinistik davlat sifatida o‘z taraqqiyoti jarayonida yunon va Sharq madaniyatlari uyg‘unlashuvini o‘zida mujassam etdi. Surxondaryo viloyati esa ushbu davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazi edi. Yunon-Baqtriya davlatining ikki madaniy jarayonlarni o‘zida aks ettirishini davlat shaharsozligi va arxitekturasi, hunarmandchiligi, jumladan, kulolchiligi, tasviriy san’ati, haykaltaroshligi, mavjud bo‘lgan va qabul qilingan diniy ta’limotlari, iqtisodiy hayot asosi bo‘lgan tanga pul muomalasi hamda davlat aholisi o‘zlashtirgan yunon tili, yozuvi misolida ko‘rishimiz mumkin.
Kalit so‘zlar: Yunon-Baqtriya, Oyxonim, Surxondaryo, ellinistik, shaharsozlik, yunon yozuvi, yunon xudolari, zardushtiylik, haykaltaroshlik, tanga

Yunon-Baqtriyani boshqargan yunon podsholari, jumladan, Yevkratid, Antimax kabi podsholar bu hududda yunon madaniyatini keng yoyishga harakat qildilar. Ushbu davlati hukmronligi davrida bir qator shaharlar bunyod etildi. Ular qatoriga O‘zbekiston hududida qurilgan Eski Termiz, Dalvarzintepa, Dunyotepa, Hayitobodtepa, Jondavlattepa kabi shaharlarni hamda Afg‘oniston hududida qurilgan Oyxonim, Tojikiston hududida qurilgan Taxtisangin, Saksanoxur kabi shaharlarni kiritishimiz mumkin [1, b. 165]. Baqtra, Yevkratideya, Demetreya kabi shaharlar ham mavjud bo‘lganligi manbalarda qayd etilgan. Yunon-Baqtriya hukmdorlari arxitektura, tasviriy san’at va haykaltaroshlik san’atlari vositasida o‘zlarining madaniyati hamda diniy ta’limotini yoyishga harakat qildilar. Yunon-Baqtriyada yunon me’morchiligi an’analari qurilish sohasiga keng joriy qilinganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu davlatning hozirgi o‘rnidan antik davrga oid bir qancha shahar xarobalarining topilganligi davlat asoschisi

Diodotning bejizga “mingta Baqtriya shahri podshosi” deya ulug‘lanmaganligidan dalolatdir[1].

Hozirgi Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumani hududidan topib o‘rganilgan Dalvarzintepa yodgorligi Yunon-Baqtriya podsholigining yirik shaharlaridan hamda madaniy markazlaridan biri bo‘lgan. U ark va shahriston qismlaridan tarkib topgan bo‘lib, ibodatxona qoldiqlari topilgan. Ahamoniylar hukmronligi davrida paydo bo‘lgan eski Termiz shahri esa aynan Yunon-Baqtriya podsholigi hukmronligi davrida yirik shahar sifatida yuksalgan. Kushonlar davrida yirik shahar birlashmasiga aylangan Zartepa ham bu davrda vujudga kelgan. Ularning barchasida savdo hamda hunarmandchilik rivojlanib, iqtisodiy hayot markazlari sifatida taraqqiy etishgan.

Hozirgi Afg‘onistonning shimolida saqlanib qolgan Oks Aleksandriyasi ya’ni Oyxonim xarobalari Yunon-Baqtriya davlati madaniy jarayonlarining ko‘zgusi vazifasini o‘tab berdi. Arxeologik qazishmalar davomida topilgan teatr xaroblari, gimnaziya o‘quv muassasasi, kutubxona, g‘aznaxona, yunon xudolari ibodatxonasi, saroy qoldiqlarining topilishi madaniyatlar aralashuvining yuksak namunasi hisoblanadi. Oyxonimni fransuz arxeologi D. Shyumberje maxsus ravishda qazib o‘rgandi [2, c. 51]. Oyxonim Yunon-Baqtriya davlatining eng muhim madaniy, iqtisodiy va siyosiy markazlaridan bo‘lgan. Shahar xarobalarini o‘rganish davomida undan saroy qoldiqlari topilgan. Saroyda tantanali tadbirlar o‘tkaziladigan zal, xizmatchilarning xonalari mavjud bo‘lgan. Saroy hovlisida doriy, korinf uslubidagi ustunlar joylashtirilgan[3, c. 117-118]. Shuningdek qurilishda ioniy uslubidan ham keng foydalanilgan. Bu esa saroyning yunon qurilish uslublari bilan aralashgan tarzda qurilganligining dalilidir[4, c. 590-591]. Saroydagi zalda barpo etilgan haykallarda yunon ma’budlari tasvirlangan.

Yunon-Baqtriya davlatining hozirgi o‘rnida joylashgan ko‘plab shahar xarobalarini ilmiy jihatdan o‘rganish natijasida topilgan ko‘plab tangalar ham bu davr siyosiy hayoti, iqtisodiy holati va madaniyati haqida boy ma’lumot beradi. Ma’lumki, tangalar numizmatik manba sifatida zarb ettirilgan davlatning nomi, hukmdorning ismi, unvoni, tashqi ko‘rinishi, uning hukmronlik yillari va boshqa jihatlar haqida boy ma’lumotlarni taqdim etadi. Yunon-Baqtriya hukmdorlarining tangalarida ham bundan mustasno emas. Oltindan yasalgan tangalar stater, kumush tangalar tetradraxma nomi bilan yuritilgan. Tangalarni zarb etishda Yunon-Baqtriya hukmdorlari Salavkiylar sulolasi podsholaridan o‘zlashtirgan bir odat mavjud edi. Unga ko‘ra, tanganing bir tomonida hukmdorning o‘zi tasvirlangan. Uning teskari tomonida podsho ehtirom etgan yunon xudolari tasvirlagan. Bunga misol tariqasida Evkratid tangasini keltirishimiz mumkin. Unda dubulg‘a kiygan shoh tanganing bir tomonida, ot ustidagi egizak Dioksurlar [5, c. 221]. esa uning ikkinchi tomonida tasvirlangan. Ushbu tangalarning o‘sha davrda mavjud bo‘lgan boshqa davlatlar hududlaridan arxeologik qazishmalar natijasida topilishi esa davlatning faol tashqi iqtisodiy aloqalarida dalolatdir.

[1] https://www.hrono.ru/biograf/bio_b/baktrii.html, 10.06.2024.

Yunon – Baqtriya hukmdorlarining tangalari bu davr san’atining noyob namunalari ham hisoblanadi.

Vaxsh daryosining Amudaryoga quyilish qismidagi hozirgi janubiy Tojikiston hududidan topilgan mashhur “Amudaryo xazinasi”da ko‘plab ko‘plab oltin hamda kumush buyumlar, tangalarni uchratishimiz mumkin [6, b. 101]. Ular orasida Yunon-Baqtriya podsholari Diodot hamda Yevtidem tasvirlari tushurilgan tangalar ham mavjud. Shuningdek, qimmatbaho buyumlar orasida zeb-ziynat buyumlari, hayvon va insonlarning oltindan yasalgan haykallarining topilishi ushbu davrda zargarlik sohasining naqadar taraqqiy etganligini hamda o‘zining rangbarangligi bilan ajralib turganligini ko‘rishimiz mumkin [7, b. 75].

Jamiyatning diniy hayotida ham yunon va zardushtiylik xudolarining vazifa va obrazlari umumiylashtirildi, qiyoslandi. Mahalliy dinlardan zardushtiylik hamda yunonlar diniy ta’limoti uyg‘unligini zargarlik, tasviriy san’at hamda shaharsozlik misolida ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Ahuramazda Zevsga, Mitra Geliosga va Anaxita Afinaga qiyoslandi. Dilberjinda Dioksurlar ibodatxonasi, Bandixonda Gerakl haykalchalarini tayyorlovchi qolip, Oyxonimda Zevsning katta haykalining parchalangan bo‘laklari, yana 12 Olimp xudolarining tasviri tushirilgan gips qolip,
Dionis haykalchalari esa Dilberjindan topilgan. Bularning barchasi yunon san’ati, arxitekturasi ta’siridir. Baqtriyaliklar hamda skiflarning afsonalaridagi hayvon va ilohiy kishilarning ham san’at buyumlarida tasvirlanishi yunon diniy ta’limoti mutloq yetakchi dinga aylanmaganligi, mahalliy diniy qarashlar ta’siri ham saqlanib qolganligining isbotidir. Zardushtiylik dini ham ushbu davlat hududida san’atning ravnaq topishida o‘zining ta’sirini ko‘rsatgan. Jumladan, qimmatbaho metallar hamda sopoldan yasalgan buyumlarda Zardushtiy xudolar Mitra va Anaxita haykallarining topilishi fikrimiz isbotidir. Bu davrdagi hukmron diniy ta’limotlar sifatida aynan zardushtiylik hamda yunonlarning ko‘pxudolikkla asoslangan diniy ta’limotini keltirishimiz mumkin. Yunon-Baqtriyaning hukmdorlaridan biri Demetriy o‘zi zarb etirgan tangalarning birida yunonlar dehqonchilik va ovchilik ilohasi hisoblangan Demetra bilan mahalliy diniy ta’limot xudosi bo‘lmishni Naxidni bitta tangada tasvirlashi ularning bir xil darajada e’zozlanganligidan darakdir.

Hukmdorlar yunon xudolarini mahalliy xalq kiyimida yoki zardushtiylik xudolariga o‘xshash holda tasvirlash orqali o‘zlarining diniy ta’limotining targ‘iboti maqsadlarini ko‘zlagan. Jumladan, yunonlarning Quyosh xudosi Gelios zardushtiylarning quyosh va yorug‘lik ilohasi Mitraga o‘xshash tarzda ya’ni boshidan nur sochgan tarzda tasvirlangan. Salavkiylardan farqli o‘laroq, Makedoniyalik Aleksandr ham, Yunon-Baqtriya hukmdorlari ham mahalliy aholining urf-odatlari, diniga hurmat bilan munosabatda bo‘lishgan. Bu orqali ular ko‘chib kelgan yunonlar hamda mahalliy aholining o‘zaro murosada yashashiga erishmoqchi bo‘lishgan hamda ikki madaniyat aralashmasidan yangi, yuksak madaniyat yaratishni maqsad qilishgan. Aralash nikohga ruxsat berilganligi ham bu siyosatdan ko‘zlangan maqsadni ifodalaydi.

Yunon tili va yozuvining ham madaniy jarayonlarga ta’siri bo‘lgan. Yunon-Baqtriya davlatida yunon tili davlat tili maqomida bo‘lgan. Yunoniston davlatchiligi tarixi, adabiyoti hamda madaniyatining aholi orasida keng targ‘ib qilishga mo‘ljallangan gimnaziyalar, maktablar, teatrlar Yunon-Baqtriya davlati shaharlarida bunyod etilib, faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu tilda qadimgi davrda yaratilgan falsafiy va ilmiy asarlar bu tarixiy davr ilm-fani asosini tashkil qiladi. Yunon-baqtriya yozuvi namunalarining topilishi esa davlat taraqqiyotining yuqoriligidan dalolatdir. Davlatda klassik yunon yozuvining 24 ta harfdan iborat alifbosiga yana bir harf qo‘shish orqali yunon yozuvi asosidagi baqtriya yozuvi yaratilgan. Teatrlarda til to‘sig‘i borligi sababli yunon aktyorlari o‘zlarining tragediya va komediyalardan iborat tomoshalarini matnsiz, so‘zsiz imo-ishoralar vositasida namoyish etishgan. Bu usuldan ko‘zlagan maqsad yunon tilini bilmagan tomoshabinlar uchun ham teatr namoyishlarining tushunarli bo‘lishi edi. Hajviy, tragedik hamda musiqiy raqslar, sirk namoyishlari ushbu tadbirlardan o‘rin olgan.

Ellinizm madaniyati qadimgi davrdan meros bo‘lib qolgan turli, asosan diniy mazmundagi haykaltaroshlik san’ati namunlari ham ushbu davr madaniy hayotining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Haykaltaroshlik hamda tasviriy san’atning rivojida ellinizmning namoyon bo‘lishini ya’ni yunon hamda mahalliy an’analar qorishishini ko‘rishimiz mumkin. Davlat diniy hayotiga nazar soladigan bo‘lsak, unda buddizm, zardushtiylik hamda yunonlarning ko‘p xudolikka asoslangan diniy ta’limotining aralashib ketishini ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi, Zevs, Dionis va Afrotida haykallarining topilishi hamda Gerakl, Afina kabi yunon ilohiy siymolarining sopol terrakota haykalchalari yasalishi mahalliy hunarmandchilikda G‘arb madaniyatining aks etishi hisoblanadi [8, b. 43-44].

Yunon-Baqtriyaning Hindiston hamda Parfiya kabi davlatlar bilan madaniy aloqalari davlat yuksak taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Kulolchikilda yunon va mahalliy madaniyat sintezlashuvini ko‘zga tashlanadi. Surxondaryo viloyati Boysun tumanidan topilgan Uzundara qal’asi xarobalarini o‘rganish natijasida ko‘plab qo‘lda yasalgan spool buyumlarning o‘rganilishi natijasida yunon hunarmandchiligining mahalliy aholi tomonidan keng o‘zlashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin [9, c. 108]. Yunon-Baqtriya shaharlari savdo yo‘llari chorrahasida joylashganligi mamlakat iqtisodiy hayoti jadal taraqqiy etganligidan darakdir. Shaharsozlikda ham mahalliy ham yunon me’morchiligi yutuqlaridan foydalanishgan Ijtimoiy hayotning har jabhasida mahalliy va yunon an’analari sintezlashuvi G‘arb va Sharq madaniyati aralashuvi holatini yaqqol ko‘rsatib berdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibragimov R. Arxeologiya. – T.: Fan, 2022. 233 b.

2. А. А. Попов. Место Греко-Бактрии в истории и культуре древности // Вестник СПбГУКИ · № 4,· 2015. С 49-54.
3. В. И.Сарианиди. Бактрия сквозь мглу веков. Москва.: Мысль, 1984. С 157.
4. Д. П. Шульга, Ч. Цзяньвэнь, Н. В. Головко. Кочевой мир, Греко-Бактрийское царство и Китай: Этнокультурная ситуация на юге центральной азии в III–II вв. до н.э. // ΣΧΟΛΗ Vol. 14, 2, 2020. С 588-608.
5. Попов А. А. Греко-бактрийское царство. – СПб.: Изд-во С.-Петерб,. 2008. 1987. С 240.
6. N.A.Egamberdieva. Arxeologiya. -T .: Fan va texnologiya, 2011. 176 b.
7. M. Is’hoqov, I. Xudaynazarov. Yordamchi tarixiy fanlar. -Toshkent: Noshir nashriyoti, 2019. 288 b.
8. Qoraboyev U., Soatov G‘. 0‘zbekiston madaniyati. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011. 196 b.
9. Н.Д. Двуреченская. К вопросу о северной границе Бактрии. С 108.

KESH - SHAHRISABZNING ENG QADIMGI SHAHARSOZLIK TARAQQIYOT BOSQICHLARINING TARIXIY SHAKILLANISHI

Bobojonov Behruz Bahodir o‘g‘li
Shahrisabz davlat Pedogogika instituti
o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Shahrisabzda eng qadimgi davrlardan boshlab mahalliy aholi tomonidan yaratilgan va qolaversa boshqa yurtlardan olib kelingan turli-tuman mahsulotlarni sotish, ichki va tashki savdo hamda savdo iqtisodiy inshoot-bozor, dukon, karvonsaroylar tizimi rivojlanishiga olib kelingani tadqiq qilinadi. Shuningdek, bozorlarning katta-kichikligi, boyligi va boshqa jihatlari shaharlarning mamlakatda tutgan o‘rni va siyosiy vaziyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgani mulohaza qilinadi.[2].
Kalit so‘zlar. Bozor, savdo sotiq, KATE, Shahrisabz Afrosiyobi, Registon, Chorsu, chaharbozor, Kunchiqar, Charmgar, Kushxona, Kunduzak.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, IX-X asrlarda O‘rta Osiyo shaharlarida bozor iqtisodiy ixtisoslashib professional mashg‘ulotga aylangan va XV asrning oxiri XVI asrlar orasida yanada rivojlangan. Avvolo shuni ta’kidlash joizki, o‘zbeklarda bozorga borib savdo-sotiq qilishni «bozor-o‘char qilish» deyiladi. Xush shu o‘rinda savol tug‘iladi; bozor degani savdo kilinadigan joy ekanligi ma’lum, lekin uchar degani qanday ma’noni anglatadi? Bozor so‘zining eroniy tillardagi qadimiy shakli vazar, ilk davrlarda vachar, vatsal, sug‘diy tekstlarda vatsar bo‘lgan bo‘lib, ma’nosi-bozor, savdo qiladigan joy [1]. O‘zbek tilida bozor-o‘char juft so‘z, sinonim va bir o‘zakdan hosil bo‘lgan. Uchar vachar so‘zining adaptatsiya shakli, sug‘d tilidan o‘zgartirib qabul qilingan, vachar

qadimiy eroniy tillardan fors-tojik tiliga bozor shaklida o‘tgan. Demak, o‘zaro aloqalar markazi bo‘lgan bozor so‘zining yasalishida turli xalqlarning o‘zaro madaniy aloqalari aks etgan.

O‘rta Osiyo shaharsozlik madaniyatining qadimdan rivojlangan viloyatlaridan biri bo‘lgan Qashqadaryo vohasi savdo-iqtisodiy munosabatlari Rastorgueva V.S.,Molchanova YE.K, Agzamova, G.Mukminova R, A.Sagdullayev, P. Ravshanov, KorayevS, Bobojonov Behruz, Suxareva O.A. tadqiqotlarida tahlil qilingan. Shaharlarning yirik savdo markazlariga aylanishida savdo-sotiq bo‘ladigan yerlar-bozorlarning ahamiyati beqiyos edi. Odatda shaharlarning mavjudligini ko‘rsatuvchi belgilardan biri bozorlarga doimo alohida ahamiyat berilgan. Bozorlarning katta-kichikligi, boyligi va boshqa jihatlari shaharlarning mamlakatda tutgan o‘rni va siyosiy vaziyat bilan chambarchas bogliq bo‘lgan[2]. Agar mamlakatda iqtisodiy tanazzul kechayotgan bo‘lsa bozorlarning ahvoli og‘irlashgan, aksincha bo‘lsa bozorlar gullab yashnaganligini kuzatish mumkin.

Sharq bozorlari Farb dunyosidagi savdo manzillaridan ko‘plab o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajrab turgan. Jumladan, O‘rta Osiyo shaharlarida shaharning markazi, yani yuragi bozorlar hisoblangan va aynan shu bois hukmdor saroyi yoki qasri emas balki aynan bozorlargina ko‘plab Sharq shaharlarining topografik markazi bo‘lgan. Shuningdek O‘rta Osiyo shaharlarida jamiyatning turli vakillari: mansabdor shaxslar, hunarmandlar, savdogarlar, ziyolilar va boshqalar bilan bir qatorda yirik yer egalari ham yashar edi. Bu esa bevosita O‘rta Osiyo shaharlari tarixiy taraqqiyotining ayrim davrlarida G‘arbiy Yevropa shaharlaridan ajratib turuvchi xususiyatlaridan biridir[3].

Shahar aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va savdo sotiq bilan mashg‘ul bo‘lgan. Bu yerda ko‘nchilik, kulolchilik, to‘qimachilik, tikuvchilik, kashtachilik, zardo‘zlik, temirchilik, degrezlik, misgarlik, zargarlik va boshqa hunarmandchilik turlari rivoj topgan. Shahrisabz ilk o‘rta asrlarda Kitob shahri o‘rnida joylashgan. KATE keltirgan ma’lumotlar, xususan, SH. S. Kamoliddinov yozishicha, vaqt o‘tishi bilan shahar markazi hozirgi Shahrisabz atrofiga ko‘chgan.[4] Jumladan, eski shahar tashqarisida yangi inshootlar qurilgan bo‘lib, shahar hukmdori saroyi va bozor ham shu yerda joylashgan. Keyinchalik shaharning mudofaa devori bilan o‘rab olinishi va mustahkamlanishi Amir Temur faoliyati bilan bog‘liq. Ammo XVII asrning ikkinchi yarimiga kelib iqtisodiy inqiroz sababli Shahrisabz ham og‘ir ahvolda qolgan. Bu hol XIX asr boshlarigacha davom etgan[5].

Shahrisabz shahri ham uch qism–o‘rtaqo‘rg‘on, qal’a va raboddan iborat bo‘lgan. Bek qo‘rg‘oni shaharning shimoli – sharqiy burchagida joylashgan hamda u xalq orasida Shahrisabz Afrosiyobi nomi bilan atalgan. Qo‘rg‘onning ikkita darvozasi bo‘lib, Sharqiy darvoza To‘pxona, janubiy darvoza Ko‘k darvoza deb nomlangan. Qo‘rg‘on oldida shaharning asosiy maydoni–Registon joylashgan. Shahar markazida joylashgan aylanma gumbazli Chorsudan shaharning to‘rt tomoniga ko‘chalar ketgan va bu ko‘chalar orqali shahar darvozalariga borilgan6[6]. Shaharni tashqi muhitdan ajratib turuvchi qal’a

devorining 6 ta darvozasi bo‘lgan. Shimoliy darvoza – Kitob, sharqiy darvoza– Kunchiqar, g‘arbiy darvoza – Kushxona, janubiy darvoza–Charmgar deb atalgan. Bundan tashqari, janubi-sharqiy burchakda ikkinchi darajali Qalmiq darvoza va Simxona darvozalari ham mavjud bo‘lgan. Shaharda 7 ta karvonsaroy va 2 ta hammom bor edi.

Shahar guzarlarga bo‘lingan va har bir guzar o‘z masjidiga ega bo‘lgan. A.L.Kun [7] keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, XIX asrning ikkinchi yarmida shaharda 14 ta guzar mavjud edi, XX asr boshiga kelib esa guzarlarning soni 53 taga yetgan.

Shahar aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va savdo sotiq bilan mashg‘ul bo‘lgan. Bu yerda ko‘nchilik, kulolchilik, to‘qimachilik, tikuvchilik, kashtachilik, zardo‘zlik, temirchilik, degrezlik, misgarlik, zargarlik va boshqa hunarmandchilik turlari rivoj topgan.

Shahar ahlining yana bir qismi hunarmandchilik buyumlari savdosi bilan shug‘ullangan. Ular Shahrisabz bozorlarida o‘zlarining alohida rastalariga ega bo‘lishgan. Yirik savdogarlar shaharlararo savdo-sotiq bilan shug‘ullangan. Jumladan Shahrisabz begi ham savdo uchun maxsus mablag‘ saqlagan. Savdogarlarning asosiy qismi shahar bozorlariga yaqin guzarlarida istiqomat qilishgan. Shahrisabzning markaziy bozori Chorsu bek o‘rdasidan janubda joylashgan. XV asrning oxiri - XVI asr boshlarida bunyod etilgan ushbu Chorsu bozori hozirgacha yaxshi saqlanib qolgan. Uning vujudga kelishini XV asr oxiri XVI asr boshlariga mansub deb hisoblaydilar.Chorsu timi XVIII asrning 80-yillariga oid, Niyozbek nomi bilan bog‘liq, qabilidagi qarashlar ham manjud. Yodgorlik 1598-1602 yil sanasi bilan ro‘yxatga olingan.

O‘rta Osiyo bozorlari qurilishi jihatidan bir qancha umumiy xususiyatlarga ega bo‘lgan. Odatda bozorlar odamlar gavjum bo‘ladigan shaharning markaziy qismida katta ko‘chalar kesishgan yerlarda va ko‘chalar bo‘ylab vujudga kelgan. Yirik shaharlarda tijoriy ishlab chikarishni o‘zida aks ettiradigan bitta asosiy bozor bo‘lgan. Bunday bozor ko‘pincha asosiy ko‘chalar kesishadigan joylarda o‘rnashgan bo‘lib, «chorsu», «choxarsu» deb yuritilardi. “Chorsu” so‘zi dastlab zardushtiylarning muqaddas Avesto kitobida *chovrusuk* (to‘rt tomonlama) shaklida uchraydi va “bozor” ma’nosini anglatgan. Keyinchalik bu so‘z *chaharsu* va nihoyat *chorsu* shaklini olgan[8]. Chorsular asosan usti yopiq gumbazli bozorlar bo‘lib ularning mayda ostki bo‘limlarda ma’lum mollar sotilar edi. Bundan tashqari, fors tilida yozilgan manbalarda *chaharbozor* (chorbozor) degan so‘z ham uchraydi. O‘rta Osiyoda qadimdan Chorsu bilan birga rasta deb yuritiladigan maxsus joylar, hamda *tim* va *tok* deb ataladigan qubba ko‘rinishidagi bozorlar ham bo‘lgan.

Tim so‘zi juda qadimiy so‘z bo‘lib, bir necha ma’nolarni anglatgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida usti yopik bozor yoki rasta tomi *tim* deyiladi, bozor korovuli timbon deyilgan. Arablar kelmasdan ilgari O‘rta Osiyoda *Tim* deganda har qanday bozor tushinilgan va bu so‘zning “bozor” ma’nosi so‘nggi vaqtlargacha saqlanib qolgan. *Tim* so‘zi Tojikistonning Mug‘ tog‘idan topilgan qadimgi (VIII-

asr) sug‘d yozuvlarida va arab tilida yozilgan manbalarda uchraydi. Sug‘d tilida ham *Tim* “do‘kon”, “savdo binosi” ma’nolarini anglatgan.

Timlar arxitektura jihatdan uzunchoqroq shaklda, g‘ishtdan qurilgan bo‘lib, usti yopik savdo inshootini tashkil qilgan. Unda turli rastalar joylashgan.

Shaharda har kuni savdo bo‘ladigan ushbu bozordan tashqari bir qancha mayda bozorlar mavjud bo‘lgan. Jumladan, shaharning g‘arbiy qismida joylashgan somon bozorida chorva mollari savdosi olib borilgan. Shaharda hunarmandchilik guzarlari, bozorlar, karvonsaroylar, bilan birgalikda ko‘plab masjid, madrasalar, hammom va boshqa jamoatchilik binolari xam qad kutargan. Umuman Shahrisabz shahri nafaqat hunarmandchilik balki yirik savdo madaniy markaz xam edi[9].

1875 yilda "Turkiston xabarlari" gazetasining muharriri N.A.Mayev Shahrisabz tashrifi haqida, bek o‘rdasi yaqinida, qa’la devori qarshisidagi keng maydondan odamlar bilan liq to‘la bozor boshlanib ketganligini qayd etadi[10]. Uni mahalliy amlokdorlar shahar bozori va butun shahar bo‘ylab olib yurishganini xotirlaydi. Bundan tashqari Chorsu bozorida kunduz kunlari savdo-sotiq bo‘lsa, kechalari o‘yinchi bolalarning tomosha ko‘rsatishligiga e’tibor qaratadi.

Shahrisabz vohasida juda qadimdan hunarmandchilik markazlari rivojlangan bo‘lib, ular asosan ma’lum bir soha bilan bog‘liq bo‘lgan guzarlarga bo‘lingan.

Shahrisabzda bir-biriga bog‘liq hunarmandchilik turlari bilan shug‘ullanuvchi aholi yonma-yon guzarlarda yashaganini kuzatish mumkin. Masalan, Shahrisabzda ko‘nchilik bilan bog‘liq bo‘lgan sovungarlik va yelimgarlik bilan shug‘ullanuvchi aholi shaharning janubiy sharqida joylashgan Katta charmgar, Kichik charmgar, Meshgar hamda Yoyilma guzarlarida yashagan. Shuningdek poyabzal tikish bilan shug‘ullanuvchi hunarmandlar xususan kovushdo‘zlar, Namaton guzarida, yuqorida tabaqa ahli uchun yashil teridan nozik va yuqori sifatli kovush tikuvchilar Kitob guzari, Etikdo‘zlar, Xo‘ja Mirhamid, Qalqon guzarida, Chuyton guzarida, Yaxdondo‘zlar va qamchindo‘zlar Kunduzak guzarida sovungarlar, Telpakdo‘z guzarida telpakdo‘zlar va po‘sindo‘zlar, Qassoblik guzarida qassoblar ko‘pchilikni tashkil etgan. Chitgarlar Rais guzarida, kulolchilik va Hazrati shayx guzarida asosan kulollar yashab , kulollik guzarining bir qismi charxchilik deb nomlangan. Bu yerda temirchilar yashagan. Shahrisabz degrezlari asosan Degrez va Chuyi xaytak guzarida misgarlar Hovuzi Mardon zargarlar esa Balaxovuz, Hovuzi Mardon hamda Kunduzak guzarlarida istiqomat qilganlar [11].

Sharq bozorlarining topografik jihatdan joylashishi diqqatga sazovordir. Shaharning markaziy qismida asosan zargarlar, sarroflar, temirchilar, turli kiyim-kechaklar bilan savdo qiluvchi va boshqa ko‘pgina bozorlar joylashgan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi va chorva bozorlari shaharning chetida yoki uning tashqarisida joylashgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki ba’zida chorva bozori sotilayotgan xayvon turiga qarab «ot bozor», «qo‘y bozor», «mol bozorga bo‘lingan. Bu bozorlar atrofida o‘z navbatida chorva uchun zarur bo‘lgan pichan va yeb-xashak

bozorlari bo‘lgan. Biz bunday manzarani, Shahrisabz bozorlarining ko‘rinishida ham kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Shahrisabzda ham Somon bozori shaharning chekka qismida yoki mol bozori shahardan tashqarida joylashgan bo‘lgan. Bozorlar nafaqat shaharlardagi, balki uning atrofidagi iqtisodiy hayotning rivojlanishiga ham ijodiy turtki bo‘lgan. Shahar atrofi va qishloqlarda yetishtirilgan mahsulotlar-paxta, zigir, galla, sholi, tamaki, chorvachilik mahsulotlari va boshka ko‘pgina boshqa mahsulot turlariga shaharlarda talab katta bo‘lgan. Bu mahsulotlar shahar mahsulotlarning ayrimlari shahar hunarmandlari uchun xom-ashyo hisoblangan. Bu esa ko‘plab hunar turlarining, xususan, qishloq ehtiyojlarini qondirishga ixtisoslashgan sohalarning rivojlanishiga samarali tasir ko‘rsatgan. Shu tariqa, shahar iqtisodiyotining yetakchi sohasi- hunarmandchilik bilan qishloklar o‘rtasida vujudga kelgan o‘zaro aloqadorlik bir tomondan, qishloqlardagi iqtisodiy taraqqiyotni, ikkinchi tomondan esa shahar xo‘jaligini shu jumladan shahar bozorlarining rivojlanishida asosiy omil bo‘lgan. Shahrisabzning savdo ahamiyati shahar aholisida savdogarlarning salmoqli qatlamining rivojlanishiga yordam berdi. Shahrisabz bozorining keng qatorlarida ma’lum tovarlar savdosiga ixtisoslashgan ko‘plab mayda savdogarlar bo‘lgan. Boshqa shaharlar bilan savdo qiluvchi yirik savdogarlar ko‘p bo‘lgan. Ular orasida, ayniqsa, shu maqsadda tuya boqadigan Shahrisabz bekligi ham bo‘lib, tuyalar shu sababdan Shuturxonni qabul qilgan kvartaldagi cho‘lga joylashtirilgan[12].

Xulosa qilib aytish mumkinki, Shahrisabzda eng qadimgi davrlardan boshlab mahalliy aholi tomonidan yaratilgan va qolaversa boshqa yurtlardan olib kelingan turli-tuman mahsulotlarni sotish, ichki va tashki savdo hamda savdo iqtisodiy inshoot-bozor, dukon, karvonsaroylar tizimi rivojlanishiga olib kelgan. O‘z navbatida esa bozorlar va savdo aloqalari urbanizatsion jarayonlarda doimo muhim mavqega va o‘ringa ega bo‘lgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rastorgueva V.S.,Molchanova YE.K. Srednepersidskiy yazik// Osnovi iranskogo yazikoznaniY. Sredneiranskiye yaziki M., 1081. S. 55
2. Agzamova G. So‘nggi o‘rta asrlar O‘rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo., 2000. 39-bet.
3. Mukminova R. G. Sotsialnaya differensiatsiya naseleniya gorodov Uzbekistana v X-XVII vv. Tashkent, 1985. S. 130
4. A. Sagdullayev va boshqalar. Qadimgi Kesh-Shahrisabz tarixidan lavhalar. - T:. 1998 .
5. P. Ravshanov. Naxshab va Kesh tarixi manbalari. Qarshi 2005
6. Ravshanov P. Xushvaqov N. Qashqadaryo tarixiga Sayohat. Toshkent, 2020.
7. Podrobno ob etom sm. A. K u n. Ocherki Shaxrisyabzskogo bekstva, SPb, 1880, otdelniy ottisk iz ZIRGO po otdeleniyu etnografii, t. 6
8. Korayev S. Geografik nomlar ma’nosi. Toshkent, 1978. 150-bet.

9. Bobojonov Behruz Bahodir o‘g‘li**.** Kesh–Shahrisabz vohasining tarixiy guzarlari.QarDU xabarlari.2022.
10. Suxareva O.A. K istorii gorodov Buxarskogo xanstva. T., ANUzCCR.
11. N.A.Mayev. Buxoro xonligi ocherklari.2012.24-bet
12. Suxareva O.A. K istorii gorodov Buxarskogo xanstva. T., ANUzCCR.

MARKAZIY OSIYO HUDUDIDA ILK DAVLATLARNING SHAKILLANISHI VA DASTLABKI TARAQQIYOT BOSQICHLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Sh.Karomov
Qar.Du.Doktoranti

Annotatsiya: mazkur maqolada Markaziy Osiyoda bo‘lib o‘tgan tarixiy-madaniy voqeliklar, bu jarayonlarning tarixiy ildizlari, asoslari va omillari haqidagi fikr mulohazalar bildirilgan. Markaziy Osiyo tarixining O‘zbekiston sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasini ilmiy asoslarda o‘rganishning dolzarbligi va sabablari haqida to‘htalib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: Xorazm, Baqtriya, Marg‘iyona, Sug‘diyona, Farg‘ona, Marv, Toxariston, O‘tror, Ustrushona

O‘zbekiston tarixi Markaziy Osiyo tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu borada Markaziy Osiyoda bo‘lib o‘tgan tarixiy-madaniy voqeliklar, bu jarayonlarning tarixiy ildizlari, asoslari va omillarini yangi ilmiy ma’lumotlar asosida tadqiq etish, mavjud muammolarni ko‘rib chiqish hamda umumlashtirilgan holda xulosalar chiqarish, Markaziy Osiyo tarixining O‘zbekiston sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasini ilmiy asoslarda o‘rganish dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun xam O‘zbekistonda so‘ngi yillarda antik va o‘rta asrlar davri bilan bog‘liq ilmiy ishlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Zero, “tarixiy merosni asrab avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustivor yo‘nalishlaridan biridir.”[1, B-592]

Hozir Uzbekiston deb ataluvchi hudud, ya’ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki, umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslashri mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko‘rku fayzini, mahobatini yo‘qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me’morchilik va shaharsozlik san’ati yuksak bo‘lganidan dalolat beradi[2]

Markaziy Osiyo xalqlarining shakllanishida va uning davlatchiligi paydo bo‘lishida tub o‘troq dehqon aholi alohida o‘rin tutganligi haqida muhim tarixiy xulosaga kelish mumkin. Markaziy Osiyo xalqlari ajdodlarining ilk davlatchiligi taraqqiyoti qadimgi shaharlar tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Ilk davlatlarning

tashkil bo‘lishida, jamiyat rivojining ichki qonuniyatlaridan tashqari (ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yuqori darajasi, hunarmandchilik, almashinuv va savdoning tez rivojlanishi, sug‘orma dehqonchilik va boshqalar) tashqi sabablar - kuchayib borayotgan siyosiy qarama-qarshiliklar va harbiy to‘qnashuvlar ham ta’sir qildi. Markaziy Osiyo ikki daryo oralig‘ida davlat birlashmalarining har xil shakllari mavjud bo‘lgan: Markaziy Osiyodagi qadimgi davlatchilik evalyusiyasini (taraqqiyotini) bir necha davrlarga ajratib ko‘rsatish mumkin: 1-davr miloddan avvalgi II ming yillikning II yarmi O‘zbekiston janubida davlatchilik tuzilmalarining ilk belgilari paydo bo‘ldi. Davlatning bunday namunasi Jarqo‘tonda topilgan. 2-davr miloddan avvalgi I ming yillikning boshi Xorazm Baqtriya, Sug‘d tarixiy madaniy viloyatlarining shakllanishi. 3-davr Ahamoniylar bosqini va Markaziy Osiyoning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirishi natijasida mahalliy davlatchilik rivojlanishidagi tanaffus. 4-davr miloddan avvalgi IV-II asrning ikkinchi yarmi. Aleksandr Makedonskiy bosib olgandan boshlab Yunon Baqtriya podshohligining qulashigacha. 5-davr miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmi va milodiy I asr boshi. Mahalliy davlatlar: Qang‘, Xorazm podshohligi; Sug‘d, Dovon davlatlarining mustahkamlanishi va yanada rivojlanishi. 6-davr milodiy I asr boshidan III asr o‘rtalarigacha. Mahalliy davlatchilikning ravnaq topishi. Insoniyat sivilizatsiyasining dastlabki o‘choqlaridan biri hisoblanadigan Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston o‘zining qadimiy shahar madaniyati bilan ham jahonga mashhurdir.

Jamiyat hayotida sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar mil.avv. III ming yillikning oxiri-II ming yillikning boshlariga kelib, Markaziy Osiyo hududlarida dastlabki shaharlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Shahar madaniyatining shakllanishi ham huddi jamiyat taraqqiyotida bo‘lgani kabi taraqqiyot yo‘li bilan rivojlangan. Miloddan avvalgi II–I asrlarda yuqorida ko‘rsatilgan o‘lkalarda yashovchi aholi ilk davlat uyushmalarini tashkil etganlar. Bu davlat uyushmalari o‘zining ma’lum hududi, chegaralariga ega bo‘lib, iqtisodiy–geografik makon katta bir viloyat sifatida shakllanib borgan. Bu davrlarda Xorazm, Baqtriya, Marg‘iyona, Sug‘diyona, Farg‘ona kabi viloyatlar mavjud edi[3]. Shuningdek, ilk davlatchilikning tarixiy Ildizlari faqat ichki sabablargagina bog‘liq bo‘lmay, balki qadimgi Sharqdagi yuksak darajada rivojlangan an’anaviy tarixiy-madaniy aloqalarga ham bog‘liq bo‘lgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan yuqori sifatli moddiy madaniyat buyumlari o‘zaro aloqalardagi mavjud texnologik va iqtisodiy ta’sirni ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuzlab ming yilliklarni o‘z ichiga qamragan insoniyat tarixida dastlabki davlatlarning paydo bo‘lishi – nisbatan ancha kech yuz bergan jarayondir. Davlatchilik tarixi insoniyat sivilizatsiyasining so‘nggi 5 ming yili bilan bog‘lanadi. Ilk davlatlar o‘z rivojlanish bosqichlarida turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlariga ega bo‘lib, ilk davlatlar xo‘jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari - dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik qaerda oldinroq rivojlangan bo‘lsa, o‘sha yerda paydo bo‘lgan. Xo‘jalik ishlab chiqaruvchi shakllarning taraqqiyoti aholi joylashuvi, hududlarning kentayishi va tashqi aloqalarning rivojlanishiga olib kelgan. Jamoalardagi ish, va ijtimoiy

mehnat taqsimoti, tashqi bosqinlardan himoyalanish, diniy urfni bajarish kabi masalalar ijtimoiy-madaniy hamda siyosiy boshqaruvning paydo bo‘lishiga asos solgan.Olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida Markziy Osiyoning tarixiy-madaniy viloyatlari (Baqtriya So‘g‘d, Xorazm) jamoalaridagi asosiy ishlab chikaruvchi kuchlar bir necha kichik oilalardan tashkil topgan uy jamoalari (katta oila vakillari) dan iborat bo‘lgan. Ushbu uy jamoalarining boshqaruv tartibida katta oilalar boshliqlar yoki uy egalari, shuningdek, alohida qishloq qo‘rg‘onlarini boshqaruvchi jamoalar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu jarayonda alohida uylar o‘rtasidagi qarindoshchilik munosabatlari kabi belgilar ikkinchi darajali bo‘lib borgan. Bu shunda ko‘rinadiki, har bir katta oila mumkin bo‘lgan qarindoshchilik aloqalariga qaramasdan, alohida xususiy mulkka, o‘z uy-joyiga, ishlab chiqarish qurollariga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva mollariga ega bo‘lganlar. Bir so‘z bilan aytganda, ular o‘zlarini iqtisodiy jihatdan ta’minlay oladigan xo‘jaliklarni aks ettirganlar[4,B-432].

Markziy Osiyoning Marv, Toxariston singari tarixiy-geografik viloyatlardan iborat muayyan voha hokimliklari - mulkliklar edi. Keltirib o‘tilgan ushbu viloyatlardan ko‘pchiligining siyosiy-ma’muriy tuzilishida o‘zaro o‘xshashliklar bo‘lishi bilan birga, ayrim o‘ziga xosliklar ham bo‘lgani ko‘zga tashlanadi. Ulardan ayrimlari hududiy jihatdan ancha keng bo‘lib, o‘z ichiga o‘nlab katta-kichik hukmdorliklarni olib, ko‘rinishidan konfederativ tuzilmalarga o‘xshasa, ayrimlari nisbatan kichikroq, o‘z nabatida esa yaxlitroq tuzilishga ega edilar. Masalan, Choch 3ta, Farg‘ona 6ta, So‘g‘d 10 ga yaqin, Toxariston 25 dan ortiq kichik hukmdorlik - mulklikni o‘z qaramog‘iga olgan bo‘lsa, O‘tror, Ustrushona, Xorazm, Marv vohalarida ko‘pincha bitta èki ikkita hukmdorlik mavjud bo‘lgan[5,S-65–76.]. Markaziy Osiyo viloyatlarining madaniy o‘xshashliklariga sabab xalqlarning qo‘shni-qarindoshligi, umumiy urf-odatlari, tili, savdo-sotiq, madaniy aloqalari, janubda yuqori darajada rivodlangan madaniyatning ta’siri, janubiy aholi bir qismining Xorazm chegaralari yonida va aynan viloyat hududiga tarqalishi deb faraz qilinadi. Agar ko‘rsatib o‘tilgan fikrlar, jumladan, oxirgisi to‘g‘ri bo‘lsa, qabilalarning ko‘chish jarayoni fors podshosi Kir II ning yurishlaridan ancha oldingi davrlarda boshlangan Janubiy viloyatlarning vakillari va mahalliy aholisi qo‘shilish natijasida yangi madaniy va etnik jarayonlar vujudga kelishi mumkin edi. Bu vaziyat, arxeologik va antropologik ma’lumotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyo va xususan O‘zbekiston hududida bronza davrida va miloddan avvalgi 1 ming yillikning boshlarida ancha taraqqiy topgan. Misol uchun, miloddan avvalgi IX - VIII asrlarda Janubiy So‘g‘diyonada (Qashqadaryo vohasi) charxda ishlangan idishlarning paydo bo‘lishi, qurilishida g‘isht bilan naxsaning ishlatilishi, uy-qo‘rg‘onlar va ayrim qal’alarning bino qilinishi Baqtriyaning So‘g‘diyonaga madaniy ta’sirini va baqtriyaliklar tomonidan ba’zi tumanlarning o‘zlashtirilishini tasdiqlaydi. Qadimgi Xorazm davlati miloddan avvalgi VII asrda Amudaryo o‘rta oqimi qismidan tortib Orolga yaqin bo‘lgan erlarda vujudga kelgan, degan xulosaning to‘g‘riligi tasdiqlandi. Bu davlat Marg‘iyonadagi Marv atrofida shakllanmagan,

chunki manbalarga ko‘ra, Marg‘iyona qadimgi Baqtriya davlatining yirik viloyati bo‘lgan. Baqtriya va Xorazm davlatining hududiy chegaralari O‘rta Amudaryo oqimidagi erlar orqali o‘tgan. Shu erlarda bir-biriga ro‘para holatda ikkita qadimgi istehkom - Odoytepa va Qushqal’a qurilgan. Xorazmliklar egalik qilgan erlar So‘g‘diyona, Marg‘iyona va Baqtriyaga tegishli o‘lkalarga borib taqalgan Balki shuning uchun ham Gekaney xorazmliklar viloyatini parfiylardan sharqiy tomonda joylashtirgan Gerodot esa parfiyaliklar va xorazmliklarini erlari chegaradosh bo‘lgan deb ko‘rsatgan[6].

Xulosa, o‘rnida shuni takidlash joizki mustaqillik yillarida Markziy Osiyo tarixni o‘rganishda har tomonlama xolis va ilmiy jihatdan mukammal va tarixiy dalillarga asoslangan holda yoritishga katta etibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2017-yilda imzolangan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalariga qaratilgan, Kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish va xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxasislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilganligi bugungi kunda Markziy Osiyo tarixini nafaqat o‘rganish, balki uni ilmiy jixatdan asoslangan dalillarga tayangan xolda tarixiy jarayonlarni ochib berishda haqqoniylik tamoyillariga asoslangan holda chuqur va atroflicha tadqiq etish hamda eng to‘g‘ri ilmiy xulosalarni taqdim etish biz tadqiqotchilarning oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга ўтамиз. 1-Жилд. – Тошкент.: “Ўзбекистон” НМИУ 2017-Б. 29 (592 б)
2. И.Каримов “Тарихий хотирасиз келажак йўқ” –Тошкент “Шарқ” нашриёти 1998
3. Ш.Шаякубов Ўзбекистон тарихи (маърузалар матни) Тошкент – 2018.
4. Эшов Б. ”Ўзбекистон давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи”. Биринчи китоб ”Янги аср авлоди”, 2019. –432 б.
5. Аскаров А. Некоторые вопросы истории становления узбекской государственности // Общественные науки Узбекистана. – Т., 1997. – № 3-4. –С. 65–76.
6. www.Xorazmiy.uz

XITOY TARIXIY MANBALARIDA KESH SHAHRINING YORITILISHI (ilk o‘rta asrlar davri)

Hazratov Nurali Burhon o‘g‘li
Qarshi DU mustaqil tadqiqotchisi
hazratovnurali@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Janubiy Sug‘dning ilk o‘rta asrlarda siyosiy va madaniy markazi bo‘lgan Kesh shahri hududi va uning xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni Xitoy tarixiy manbalari asosida yoritib berilgan.
Kalit so‘zlar: Dumo daryosi, Tuxulo davlati, Sulik mamlakati, Kesh shohi, hukmdor Shishpir, Xan Shu, Xun Yan.

Ushbu maqolada antik va ilk o‘rta asrlar davrida Sharq, xususan Xitoy tarixiga oid manba, tarixiy adabiyotlarda Kesh shahrining Janubiy Sug‘d, Turkiston mintaqasida, shuningdek, xalqaro munosabatlarda tutgan mavqeiga oid ma’lumotlarni tahlil etish maqsad qilib qo‘yildi. Shuningdek, Keshning iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatidagi rolini ham ko‘rsatishga harakat qilindi. Xitoy tarixiy manbalarida Kesh davlati va viloyatining tarixiy geografik tasnifi keltirilgan bo‘lib, ularda “Kesh (Shi) davlati poytaxti ham shu nom bilan yuritilishi, poytaxt Dumo (Tanqosdaryo)dan 10 li (1 li-479 m) janubda joylashganligi, ushbu yerlar qadimiy Qang‘yuy davlati yerlari ekanligi, hukmdor Chjao-u deb nomlanishi, hukmdor qarorgohi 2 li masofadagi mudofa devori bilan o‘rab olinganligi, doimiy qo‘shin soni 1000 kishini tashkil etishi, Shimolda Kan (Samarqand) davlatigacha 240 li, janubda Tuxulo (Toxariston) davlatigacha 500 li, G‘arbda Nashebolo (Nasaf)gacha 200 li, shimoliy-sharqda Mi (Maymurg‘)gacha 200 li atrofidagi yerlar ushbu davlat tasarrufida”[1, B. 274] ekanligi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Ilk o‘rta asrlarda ham Kesh Turkiston mintaqasida muhim madaniy markazlardan biri bo‘lgan deb aytishga dalillar yetarli bo‘lib bu davrda sug‘dlar,rivojlangan o‘rta asrlarda Movaraunnahr va xorazmliklar,so‘nggi o‘rta asrlarda buxoroliklar va xivaliklar xalqaro aloqalarda katta o‘rin tutib, turli o‘lkalarni o‘zaro bog‘lashda asosiy vositachi bo‘lib keldilar.[2, B. 432] Keshning mintaqadagi madaniy va siyosiy markazlardan biri ekanligini Syuan Szyan ma’lumotlari ham tasdiqlaydi. Uning ma’lumotlarida, Chu daryosidan Shaxrisabzgacha bo‘lgan hududlarni Sulik mamlakati deb nomlanganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, u ushbu mintaqada yagona til va madaniyatga ega xalqlar istiqomat qilishini yozib qoldirgan. Akademik V.V.Bartold Sulik buddaviycha-manixeycha talaffuzda Sug‘d so‘zining o‘zgargan shakli deb keltiradi. Bundan tashqari Farg‘onaning shimoliy-g‘arbiy hududlaridan Shahrisabzgacha bo‘lgan yerlar mil.avv II asrda Qang‘ davlati tarkibiga kirganligi, Xitoy manbalarida esa, bu yagona madaniy mintaqa deb qaralishi bilan bog‘liq fikr-mulohazalarni ham keltirib o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin.[3, B. 1020]

Shuningdek, Syuan Szyan xotiralarida; “Susheshuy (Chu daryosi)dan Szeshuanna (Shaxrisabz)gacha bo‘lgan yerlar qadimda Suli deb nomlanishi, mamlakatda qo‘llaniladigan yozuvlari 30 ta atrofida ekanligi, yozuvlarni tepadan pastga qarab yozishlari va o‘qishlari, kiyimlari charm va jundan, qisman matodan tayyorlanishi, kiyimlari etaklari kalta bo‘lishi, ayolar uzun soch qo‘yish, erkaklar sochlarini kalta oldirishi yoki butunlay qirtishlab tashlashi, peshonalariga naqshlar chizilgan mayin lenta taqib yurishlari”[4, B. 463] bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirib, aholining odatlari va turmush tarzi to‘g‘risida ham qimmatli malumotlar beradi.

Yozma manbalarga, xususan ilk o‘rta asrlarga oid ma’lumotlarga tayangan V.V. Bartold Kesh shahrini nafaqat janubiy Sug‘dda, balki butun Sug‘diyona mintaqasida dastlabki siyosiy yetakchi shahar bo‘lgan, degan fikrlarni ilgari suradi. Arxeologik manbalarda ham milodimiz boshlarida Sug‘d mintaqasida Kesh shahrining madaniy va siyosiy markazlardan biri bo‘lganligini asoslovchi dalillar mavjud. XX asrning 60-yillarida Qashqadaryo vohasida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida milodiy III-IV asrlarga oid tangalardagi sug‘diy yozuvlarni ayrim olimlar shoh Kanishka tarzida o‘qigan. Ammo, keyinchalik taniqli sug‘dshunos olima, O.I. Smirnova ushbu tangalardagi yozuvlarni tahlil etib, yozuvlarni “Kesh shohi (hukmdori)” tarzida o‘qilishini ko‘rsatib bergan.[5, B. 428] Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, Kesh shahri milod boshlarida nafaqat janubiy Sug‘dning, balki butun Sug‘diyonaning markaziy shaharlaridan hisoblanib, madaniy, iqtisodiy va siyosiy markazi bo‘lgan. Chunki tanga pullarni chiqarish va unda hukmdor tasvirlarining aks ettirilishi, shahar mavqeini, davlatning qudratini ko‘rsatuvchi omillar bilan bir qatorda shaharning mustaqil tarzda siyosat yuritganligidan ham dalolat beradi.Sug‘dning birinchi ixshidi Shishpir (taxm. VII asrning 40-60- yillarida hukumronlik qilgan) ilk bora mahalliy tanga pul muomalasini yo‘lga qo‘ygan hukmdorlardan bo‘lib hisoblanadi. U zarb qilgan tangalarning kattasi 25-26 mm diametrli, 5 gramm og‘irlikda, kichik tangalari esa, 19-22 diametr, 2,4 gramm og‘irlikda ekanligi, eng asosiysi uning Kesh hukumdori bo‘lganligi bilan bog‘liq ma’lumotlar Kesh shahrini antik davr va ilk o‘rta asrlarning dastlabki bosqichida Sug‘dning siyosiy, madaniy va iqtisodiy markazlardan biri bo‘lganligini ko‘rsatib beradi.[6, B. 287]

Tarixiy adabiyotlarning ayrimlarida So‘g‘d so‘zining kelib chiqishi ham aynan Kesh shahrining qadimiy nomlanishidan olinganligi bilan bog‘liq fikr-mulohazalar keltirib o‘tilganligini ko‘rishimiz mumkin. Xitoyning Xan sulolasi yilnomasi “Xan shu” (“Xan xonadoni tarixi”) asarining 96 bo‘limida “Qang‘ davlati haqida”gi ma’lumotlarda Suse davlatdagi beshta kichik knyazlik (syao van)lardan birinchisi ekanligi, knyaz poytaxti va o‘lka ham Suse deb nomlanishi, knyaz qarorgohidan Xitoyning Dunxuandagi chegara posti Yanguangacha 8025 li masofa ekanligi bilan bog‘liq ma’lumotlarni uchratish mumkin.[7, B. 432] Bundan Sug‘d o‘lkasining Keshning nomi bilan bir xil atalishi va uning markaziy shahri ham Kesh ekanligi bilan bog‘liq xulosaga kelish mumkin. V.V. Bartold keltirgan ma’lumotlar ham yuqoridagi fikr-mulohazalarni tasdiqlashga xizmat

qiladi. Turkiston o‘lkasining tarixiy geografiyasiga bag‘ishlangan asarida,olim Kesh Sug‘dning qadimiy poytaxti deb hisoblangani, ehtimolki Kesh shahrining xitoycha Suse nomlanishidan keyinchalik Sug‘d atamasi kelib chiqqan deydi. Ammo, tadqiqotchi ushbu atamalarning davrlar osha o‘zgarib borishini tahlil etuvchi asoslarni keltirib o‘tmaganligini ham qayd etib o‘tish lozim. Yuqorida keltirilgan numizmatik dalillar ham Keshning mintaqaning dastlabki siyosiy, madaniy va iqtisodiy markaz sifatidagi o‘rnini ko‘rsatib bera oladi.Keshning siyosiy mavqei arablar istilosi davrida ham nafaqat janubiy Sug‘d, balki Turkiston mintaqasida yetakchi mavqeda bo‘lganligini isbotlovchi ma’lumotlar tarixiy adabiyotlarda talaygina. Arab xalifaligi Movarounnahrni istilo qilgandan so‘ng ham ma’lum bir tarixiy davrda mahalliy sulolalar boshqaruvni o‘z qo‘llarida saqlab qolishga muvaffaq bo‘lganlar. Kesh shahri hukmdorlari ham o‘zining mahalliy sulolaviy hokimiyatini qo‘lida saqlab qolishga musharraf bo‘lgan.

Xitoy tarixiga bag‘ishlangan adabiyotlardagi ma’lumotlarda milodiy VIII asrning birinchi yarmida o‘lkamizdagi turli davlatlar, xususan Keshdan Xitoyga musiqachilar, raqqosalar bir necha bor xitoylik zodagonlar ko‘nglini xushlash uchun olib ketilganligi qayd etilgan. Xitoy saroyi va zodagonlar qasrlarida G‘arb musiqasi va raqslari Tan imperiyasi davrida ayniqsa ommalashadi. Tan davri yilnomalarida, Shi (Kesh) raqqosalari xususida, ularning raqslari haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ularning bayramona qirmizi rangda bo‘lishi, kiyimlari yengi parcha matosidan, oyoq kiyimlari qizil zamshi(qimmatbaho charm) matosidan tayyorlanish, raqqosalar shar ustida raqsga tushish uchun mo‘ljallangan maydonchada oldinga va orqaga shar ustida harakatlangan holatda raqsni sakrash orqali ijro etishi va tomoshabinni miriqib hordiq chiqarishi bilan bog‘liq ma’lumotlar uchraydi.[8, B. 285] Kesh davlati bilan Xitoyning Tan sulolasi davridagi madaniy-iqtisodiy munosabatlar Buyuk ipak yo‘lida savdo-iqtisodiy munosabatlar rivojlanib borishi bilan kuchayganligini ko‘rishimiz mumkin. Tan xonadoni tarixi (“Sin Tan Shu”)da Kesh shahri Shi deb nomlangan. Shuningdek, Tan xonadoni tarixi asarida, Keshning nomlanishi Syuysha, Szeshuanna tarzida ham keltirib o‘tiladi.

Kesh davlati xususidagi ma’lumotlarda esa, uning hududida 500 ta shahar borligi, bu shaharning butun Sug‘dda yetakchi bo‘lganligiga yana bir ishoradir. Chunki, milodiy VII asr uchun bu kabi ko‘p aholi manzili butun Sug‘d mintaqasidagina bo‘lishi mumkin edi. Keshning Xitoy davlati bilan aloqa o‘rnatishi xususida esa, Da-ye erasi (605-617) davrida boshlanganligi, knyaz Dichje Xitoy bilan yaxshi munosabatlarni rivojlantirishga harakat qilgan. Chen-Guan hukmronligining o‘n oltinchi yilida (642-643) knyaz Shasebi (sug‘dcha Shishpir) mahalliy mahsulotlardan Tan saroyiga tortiq sifatida yuborganligi tarixiy adabiyotlarda qayd etilgan.[9, B. 85]

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bichurin N.Y. (Iakinf) Sobraniye svedeniye, o narodax obitavshix v Sredney Azii v drevniye vremena. – M-L.: Izdatelstvo Akademii nauk, 1950.

2. Mavlonov O‘.M. Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.Monografiya-T.:Akademiya,2008
3. Bartold V.V. Obshiye raboti po istorii Sredney Azii. Raboti po istorii Kavkaza i Vostochnoy Yevropi. Sochineniya. T.II. Chast.1. – M.: Izdatelstvo Vostochnoy literaturi, 1963.
4. Syuan-Szan Zapiski o zapadnix stranax [epoxi] Velikoy Tan (Da Tan si yuy szi) /Syuan-Szan; vved., per. i komment. N.A. Aleksandrovoy; In-t Vostokovedeniya RAN. – M.: Vost. lit., 2012.
5. Trudi mejdunarodnoy konferensii arxeologii i kulture Sentralnoy Azii v Kushanskuyu epoxu. Dushanbe 27-sentabrya-6 oktabrya 1968 g. // Sentralnaya Aziya v Kushanskuyu epoxu. T. II. M.: Nauka, 1975.
6. Smirnova O.I. Ocherki istorii Sogda - M.: “Nauka” 1970.
7. Malyavkin A.G. Tanskiye xroniki o gosudarstvax Sentralnoy Azii: Teksti i issledovaniya. – Novosibirsk: Nauka, Sib. otd-niye, 1989.
8. Shefer E. Zolotiye persiki Samarkanda. Kniga o chujezemnix dikovina v imperii Tan. – M.: “Nauka”,Glavnaya redaksiya Vostochnoy literaturi. 1981.
9. Malyavkin A.G. Tanskiye xroniki o gosudarstvax Sentralnoy Azii: Teksti i issledovaniya. – Novosibirsk: “Nauka”, Sib. otd-niye, 1989.

SUG‘DIY *cwyws* (*Kāwus*) ISMINING TALQINI MASALASI (SUG‘DShUNOSLIKKA OID QAYDLAR)

Mirsodiq Is’hoqov
tarix fanlari doktori, TDShU professori

Bobir G‘oyibov,
tarix fanlari doktori, SamDU professori

Annotatsiya. Mazkur maqola tarixiy materiallar lingvisti va etnografik talqin qilingan holda sug‘diy *cwyws* ismi tahlil qilingan va ushbu so‘zning bugungi kun onomastikada aks etishi aoslangan. Shuningdek, maqola mualliflari sug‘diy va turkiy onamastikaga doir bir qator mustaqil fikrlarni ilgari surishgan.
Kalit so‘zlar: onomastika, “tong sahar”, *Kāvus*, sug‘ddiy hujjatlar, turk-sug‘d simbiozi

Ilk o‘rta asrga oid sug‘diy yozma yodgorliklar Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga doir muhim manba hisoblanadi. Ularda keltirilgan atamalar va shaxs imlari Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati xususida qimmatli ma’lumotlar beradi. Ayniqsa, sug‘diy manbalarda keltirilgan ismlarni tadqiq etish manbashunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Bu ismlarni to‘g‘ri talqin qilish esa sohaga doir muammoviy masalalar sanaladi. Shunday ismlar biri qadim eroniy asosli *cwyws* (*Kāwus*) ismi hisoblanadi. Bu sug‘diy jumla *Wyūs* (Viyus), *cwyws* (Kāwus) va *cwyws* (Chavyus) shaklida talqin qilingan holatlarni ham kuzatish mumkin.

cwyws (*Kāwus*) ismi Mug‘ tog‘i sug‘diy Nov. 3 – nikoh bitimi va Panch hukmdorligiga qaram mulk Martshkatdan topilgan sug‘diy hujjatda uchraydi. P.Lurening Martshkatdan topilgan sug‘diy hujjatlar talqiniga bag‘ishlangan maqolasidagi *cwyws* deb o‘qilgan shaxs ismini sug‘dshunos V.A. Livshisning taklifiga binoan *Kavus* ismiga o‘xshatilgan. Sal pastroqda esa muallif ismni *Kavus* ga o‘xshatishga shubha ham bildirgan [1].

V.A.Livshis esa o‘z izohlarida bu masalada quyidagi fikrni ilgari surgan edi: - “. ... *wy(’)ws = Wyūs*, kelinning otasining ismi, “tong, sahar” (avestocha *viiusa*) ma’nosidagi so‘z [2] erkak jinsidagi shaxs ismi hisoblanib, so‘zma-so‘z oromiycha “tonggi yulduz (Avrora)” ma’nosini anglatadi” [3]. Chunki bu ismni ayol kishining ismi deya talqin etish o‘zini oqlamaydi. Sug‘diy tilda *-h* qo‘shimchasi bilan tugagan ismlargina ayollik jinsiga mansub hisoblanadi. Turmush qurgan bosqichdagi ayol sug‘diy manbalarda *vathu(h)* [vaduh] deb ko‘rsatilgan [4]. Bu so‘zdagi *-th-* old qator tish oralig‘i sirg‘aluvchi tovushdir. Bu tovush hozirgi eroniy tillarda *-d-* tovushiga mos keladi. So‘z oxiridagi *-h* grammatik ayollik jinsiga ishorat qiladi [5]. Shu bois ismning erkak jinsiga mansubligiga shubha yo‘q.

Chilhujradan topilgan yog‘ochga yozilgan sug‘diy bitikda esa *cwyws* (Kavyus) *ismli* hukmdor (*xwβw*)ning 830 yillardagi hukmronligi bilan bog‘liq ma’lumot keltirilgan. Ushbu ismni V.A. Livshis qadim eroniy **Kavi Usan-* ning mahalliy shakli deb hisoblaydi [6]. Darhaqiqat, 810-830 yillarda arabiy manbalarga ko‘ra Ustrushonada *afshin* unvonida hukmronlik qilgan *Kāvus* ismli hukmdor bo‘lgan. keyinchalik arablar hokimiyatini tan olgani va islom dinini qabul qilgani ham ma’lum [7].

Yuqorida keltirilganlar Viyus, *Chavyus* va *Kāwus* ismlarida aloqadorlik borligi shubhasiz ekanligi va Martshkatdan topilgan hujjatdagi *Kāwus* ismi Chilhujradan topilgan yodgorlikdagi sug‘diy *cwyws* (Chavyus) ismining o‘zi ekanligi to‘g‘risidagi mulohazani ilgari surish imkonini beradi [8].

Biroq, *cwyws* ismini o‘rta asr manbalaridagi *Kāvus* ga o‘xshatmagan holda boshqa talqinni taklif qilish mumkin. Buning uchun sug‘diy predlog *hac-“dan”* ning reduksiyalashgan qisqa varianti *s-* mavjudligini hisobga olish lozim bo‘ladi. Ya’ni, predlog *s-* + *wyws* = *cwyws* “tong, erta tong, sahar pallasi” farishtasi sharofati bilan tug‘ilgan farzandga qo‘yilgan ismdir. Chunki, *wyws* “tong, sahar lahzasi, subhi sodiq” pallasiga sug‘diylar kunning eng mo‘tabar lahzasi sifatida e’tiqod bilan qarashgan. Bu esa Nov. 3 – nikoh bitimining 6-qatorida keltirilgan *wyws* ismli shaxs kelin Dug‘dg‘unchaning otasi bo‘lgani va V.A.Livshisning bu ismni “tongotar” deb tarjima qilgani to‘g‘ri ekanligini ham tasdiqlaydi.

Kuzatuvlardan ma’lum bo‘lishicha, *Tongotar* ismi ilk o‘rta asrlardayoq sug‘diylar bilan yonma-yon birga yashagan turkiylarga ham o‘tgan. Bu an’ana Qashqadaryo o‘zbeklari orasida hozirga qadar saqlangan. Qarshi shahrining qadimiy o‘zagi Yerqo‘rg‘on xarobalaridagi 1973-74 yilgi arxeologik qazishmalarda qatnashgan ishchilardan birining ota nasabi (familiyasi) Tongotarov edi (M.I.).

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Лурье П.Б. Согдийские документы из раскопок раннесредневекового Мартшката // Индоевропейское языкознание и классическая филология – XVI. Материалы чтений, посвященных памяти профессора Иосифа Моисеевича Тронского. г. Санкт-Петербург, 18-20 июня 2012 г. – СПб.: Наука, 2012. С 455-456.

2. Gershevich I. A grammar of Manichaen Sogdian. – Oxford, 1954. – I –X, 2-ed. – Oxford, 1961. §. 217.

3. Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. Санкт-Петербург. 2008. С. 37.

4. Исҳоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 45.

5. Gershevitch I. A grammar of Manichaen Sogdian. … P. 73-79.

6. Авесто. Яшт китоби. Ардвисура алқови (Обон Яшт). Мирсодиқ Исҳоқов таржимаси. Тошкент: “Шарқ”. 2001. – 45-47 бандлар.

7. Лившиц В. А. Согдийские документы из замка Чильхуджра // Scripta Gregoriana, Сборник в честь семидесятилетия академика Г. М. Бонгард-Левина. М., 2003. С. 83-84

8. Лурье П.Б. Согдийские документы из раскопок раннесредневекового Мартшката С. 455-456.

К ВОПРОСУ О РАЗЛИЧИЯХ МЕЖДУ ЗОРОАСТРИЗМОМ И МАЗДАКИЗМОМ.

Вафаева Джамиля Бакиевна
Самаркандский государственный Университет, проф. кафедры История Узбекистана e-mail:vdjama@rambler.ru

Аннотация.В статье на основе анализа первоисточников приводятся история развития зороастризма(маздеизм) и маздакизма и различия между этими двумя религиозно –философскими течениями. Показаны история распространения религии зороастризм и причины возникновения религиозно –философского течения маздакизм.

Ключевые слова: зороастризм, Ахемениды, борьба Добра и Зла, маздакизм, равенство имущества.

«Авеста» - священная книга религии зороастризм, которая является самой древней религией. «Авеста» является важным и единственным источником для изучения социально-экономической жизни, правовой системы и государственного устройства народов Средней Азии, Ирана, Азербайджана доисламского периода. Этот источник до настоящего

времени носил названия Апастак, Овисто, Овусто, Абисто, Авасто. Материал накапливался в течение 2000 лет, передавался из поколения в поколение в устной форме. После того, как зороастризм был признан религией, начался сбор произведений, а после распада зороастризма была собрана книга. «Авеста» получила наименование «Строго установленных законов и правил» [“Авеста”, С. 20].

Специалисты полагают, что зороастризм распространял свое влияние сравнительно медленно: вначале его идеи разрабатывались лишь немногими общинами единоверцев и только постепенно, со временем, последователями нового учения становились адепты маздеизма из касты магов. Империя Ахеменидов в VI-V вв. до н. э. во многом способствовала успеху зороастризма: были резко расширены политические границы Ирана и обеспечены контакты зороастрийцев с представителями иных доктрин, как ближневосточных (Египет, Вавилон), так и особенно иудейской.

Мало известно об успехах зороастризма в годы, последовавшие за крушением империи Ахеменидов и тем более в период эллинизма, когда влияние греческой культуры на всем Ближнем Востоке было весьма ощутимым. Но некоторые косвенные данные позволяют полагать, что зороастризм как доктрина на рубеже нашей эры не просто существовал, но даже процветал и расширял свое влияние, причем не только в собственно Иране, но и на соседних с ним землях. При этом следует иметь в виду, что речь идет уже о достаточно зрелом зороастризме, вобравшем в себя все уцелевшее наследие древнего маздеизма и разрабатывавшемся усилиями всех его жрецов, включая и потомков древних магов. Подтверждение этому находим у Ханыкова Н.В., который пишет: «Первым страшным ударом для Благой Веры стало вторжение в Персию проклятого Искандера (Александра Македонского) в IV в. до н.э. Завоеватель не только стремился захватить огромные богатства Империи, но и прикладывал большие усилия для уничтожения Благой Веры. Множество храмов, в которых горели священные огни, было разрушено, множество священников было убито. Авеста была сожжена. Наступили тёмные века междоусобиц, которые получили название периода эллинизма. Греки насаждали свою культуру завоёванным народам. Но благодаря тому, что Мазда Ясна передавалась устно, она смогла сохраниться на протяжении 500 лет. Возрождение Благой Веры начинается при парфянской династии Аршакидов. [Ханыков Н. В.]

Таким образом, религия Зороастра, маздеизм, приурочивается к далекому прошлому индоевропейских народов. Ее культ огня уносит нас к древним обычаям Индии, Греции и Рима, к священному очагу весталок. Его основная идея-дуализм и постоянная борьба Добра и Зла, олицетворенных в двух почти равных силах: с одной стороны — Ахура Мазда, или Ормузд, мудрый гений, а с другой — Ангра Майнью, или Ариман, гений-мучитель. Относительно этой идеи даже историки религий, обыкновенно питающие великое презрение к географии и хронологии, думают, что она могла возникнуть и расцвести только на иранском плоскогории, под иранским

небом: "потому что здесь исключительно резок контраст между зимой и летом, между ночью и днем, между пустыней и плодородной землей", между городским миром и анархией кочевой жизни. [Васильев Л., С.47]

Другое учение, появившееся в этот период, называется «маздакизм», по созвучию похожий на «маздеизм». Маздакизм (маздекизм; зендицизм [Васильев Л. С.62] — религиозно-философское учение, распространившееся в Иране и некоторых соседних странах в раннее средневековье. Названо по имени Маздака, сына Бамдада — руководителя маздакитского движения (хотя само учение возникло ещё в конце III века под влиянием распространявшегося манихейства). Основателем учения является зороастрийский священник Зардушт-и Хурракан из города Фесы провинции Фарс, отсюда и другое название этого учения — «зардуштакан»[«Авеста», 155].

В основу маздакизма легли идеи гностиков Карпократа и римлянина Бундоса, переселившегося в Иран в 300 году. Главный постулат маздакизма гласил, что в основе мирового процесса лежит борьба между светлым, добрым началом, действующим разумно и закономерно, и тёмным, злым началом, представляющим собой хаос и случайность, и что эта борьба неизбежно завершится (уже в «этом мире») победой «добра» над «злом».

Маздакизм содержал распространённые в ряде сект Ирана и Римской империи идеи о необходимости взаимопомощи, равенстве имущества и т. п. Призывая к борьбе за уничтожение социального неравенства, отождествлявшегося со «злом» и противопоставлявшегося «добру», к насильственному осуществлению «данного богом» всеобщего равенства, маздакизм стал в конце V века идеологией маздакитского движения крестьян и городской бедноты в государстве Сасанидов (начало 490-х годов — конец 520-х годов). В работе Низам аль Мулка приводятся данные о появлении и цели этого движения: «Первым, кто принес в мир пустое учение, был муж, появившийся в земле Аджам, его называли мубад мубадов; имя его Маздак, сын Бамдада. 343 Он захотел во время царя Кубада сына Фируза, отца Нушинрвана Справедливого нанести ущерб вере гябров, проложить в мире плохой путь. Повод был таков: тот Маздак хорошо знал звезды и по движению звезд сделал такой вывод, что в эту эпоху должен появиться муж и принести такую веру, которая уничтожит веру гябров, веру иудеев, христиан и идолопоклонников. Чудесами и силой он внедрит свою веру среди людей, вера его останется до дня восстания из мертвых. Вот на него и напало этакое мечтание, что, быть может, он будет этим. Он стал обдумывать, каким образом привлечь на свою сторону людей, объявить новое учение. Оглядевшись, он увидел в собрании государя к себе полное благоволение, так же как у всех вельмож. Никто никогда не слыхал от него ничего пустого до того, как он начал притязать на пророческое призвание. Тогда он приказал своим гулямам, 344 чтобы они провели из потайного места подземный ход, постепенно пробуравили землю, чтобы конечное отверстие оказалось среди храма огня, как раз там, где возжигали

огонь, — отверстие очень маленькое. Затем он заявил о своем пророческом призвании и сказал: "Меня послали, чтобы обновить веру Зардушта, |167| народ забыл смысл Зенд-Авесты, не так исполняет повеления бога, как проповедовал Зардушт» (Низом аль мулк).

Маздакиты стали захватывать имущество знати и передавать его нуждающимся. Несогласные с реформами были объявлены приверженцами зла и подверглись террору со стороны маздакитов. «Маздак говорил: "Имущество есть розданное среди людей, а эти все — рабы всевышнего и дети Адама. Те, кто чувствуют нужду, пусть тратят имущество друг друга, чтобы никто не испытывал лишения и нищеты, все были бы равными по положению". Когда же Кубад пошел дальше, согласился на общность имущества, |169| Маздак начал заявлять: "Ваши жены — ваше имущество. Следует вам считать жен как имущество друг друга, чтобы никто не оставался без участия в наслаждениях и вожделениях мира, чтобы двери желания были открыты перед всеми людьми". Многие люди все больше увлекались его учением по причине общности имущества и женщин, в особенности простонародье.» (Низом аль мулк).

Поэтому против маздакизма началась борьба, которая привела к победе идей зороастризма. О силе учения зороастризма в сасанидскую эпоху говорит и тот факт, что с приходом ислама долгое время шла борьба против этой религии. Вот что пишет об этом Низам аль мулк «Если и не придавать этому факту слишком большое значение, мне кажется бесспорным, что город Керман существовал уже при Сасанидах и что арабы-мусульмане обнаружили там один из основных очагов зороастризма [155]. Несмотря на воинствующую и жестокую пропаганду, они не смогли искоренить это древнее верование, отличающееся исключительной жизнестойкостью и продержавшееся вопреки всему на протяжении 1277 лет. Но вскоре исламизму удалось полностью подчинить себе последних огнепоклонников, так как из 12 тысяч семей гебров, проживавших в Кермане в конце прошлого века, к моменту осады этого города Ага Мохаммед-ханом их осталось здесь всего 70, а в соседних деревнях, таких, как Фирузан, Джуфар и Махан (или Махун), их насчитывается от 2 до 300 семей. Ежегодно от своей религии отрекается значительное число гебров. Преследования и гонения на них сразу же прекращаются. Короче говоря, все делается для того, чтобы заинтересовать их в акте отречения. Поэтому было заведено, что младший представитель семьи [168] гебров, принявший мусульманство, становится благодаря этому вероотступничеству ее главой и абсолютным владельцем движимого и недвижимого имущества своих родителей. Между мужчинами и женщинами не делается никакого различия: девушка из семьи гебров, вышедшая замуж за мусульманина и сменившая религию, предоставляет, следовательно, своему мужу право владеть всем, чем располагают ее отец и мать.»(Сиёсат номе).

Таким образом, при общности идей о «добре и зле», о «светлом, разумном»., которые также имеются в зороастрирзме, толкование добра,

разумного совершенно другое в маздакизме. Идея общности имущества, конечно привлекала простонародье, но при этом идея равенства во всём, даже общность жён, противоречила этическим принципам зороастризма.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1.«Авеста», Тегеран, Издательство «Марварид», 1998, перевод с фарси А. Ахмедова.
2. Васильев Л.С. История религий Востока.М.: Высшая школа, 1988, 266 С. Учеб. пособие для вузов по спец. "История".
3. Низам ал-Мульк Книга о правлении Сиасат – наме.Глава сорок пятая. https://www.vostlit.info/Texts/rus10/Siaset_name/frametext3.htm
4. Ханыков Н.В.Экспедиция в Хорасан.MEMOIRE SUR LA PARTIE MERIDIONALE DE L'ASIE CENTRALE https://www.vostlit.info/Texts/rus4/Hanykov/frametext5.htm
5. https://ru.wikipedia.org.

MUG‘ TOG‘I ARXIV XUJJATLARIDA SUG‘D MAHKAMACHILIGINING AKS ETILISHI.

Xoliqulov Azizbek Yorqulovich
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi
tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada ilk o‘rta asrlarda Sug‘dda davlat mahkamachiligi va iqtisodiy munosabatlarni hujjatlashtirish, savdo-sotiq ishlari, dalolat guvohnomalari va tilxatlarning yuritilishi hamda rasmiylashtirish tartiblari, haqida ma’lumot berilgan. Fikrlar Mug‘ tog‘i hujjatlari ya’ni hukdorlar va saroy a’yonlarining o‘zaro yozishmalari, xo‘jalik kirim va chiqimlari haqidagi dalolat guvohnomalari hisobotlari, tilxatlar haqidagi arxiv hujjatlari asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. Ilk o‘rta asrlar, Sug‘d podsholigi, Mug‘ arxivi, hujjatchilik an’anasi, tilxat, muhr, xo‘jalik dalolatnomalari.

Bizga tarixdan malumli, Mug‘ tog‘i hujjatlari Devashtich va uning atrofidagi a’yonlari hamda davlat mansabdorlarining o‘zaro yozishmalari, xo‘jalik hisobotlari, sarflangan oziq-ovqat va pul harajatlarining reestr-ro‘yxatlari, soliq yig‘imlari va sarflari, dehqonchilik, chorva va hunarmandchilik mahsulotlarining kirim va chiqimlari haqidagi dalolat guvohnomalari hamda tilxatlarini o‘zida jamlagan. Hujjatlar orasida Panch hokimi Devashtich nomi bilan bog‘liq farmonlar, turli shaxslarga ko‘rsatmalar davlat boshqaruv tamoyillarini tahlil qilishda muhim manbadir.

Mug‘ hujjatlari VII-VIII asrlar boshlaridagi Panch hokimligi saroyi xo‘jaligi va uni boshqarish bilan bog‘liq asosiy lavozimlarni egallagan shaxslar haqida qiziqarli ma’lumotlar beradi. Masalan, yuqorida qayd qilingan framandar lavozimida ishlagan Utt ismli shaxs faoliyat doirasi g‘oyat keng bo‘lgan. Bu shaxs ismiga ko‘ra turkiy xalq vakili bo‘lib, saroy xo‘jaligini boshqargan. A-1, A-2, A-3, A-6, A-16, A-18, B-11, B-13, B-15, B-18, B-19 raqamli hujjatlardan ma’lum bo‘lishicha, Utt zimmasiga Panch hokimligiga qarashli barcha qishloq xo‘jalik tarmoqlaridan markazga keladigan hamda markazdan viloyat bo‘ylab tarqatiladigan mahsulotlar taqsimoti ustidan nazorat qilish vazifasi yuklatilgan [8:132].

Hujjatchilik an’anasida u yoki bu hujjatlarni, ayniqsa tilxatlarning sanasi-yili, oyi va kunlarini belgilash qat’iy amal qilgan. Sana hujjatning boshi yoki oxirida ko‘rsatilib, birinchi yoki uchinchi shaxs tomonidan yozilgan. Ba’zan hujjat oxirida «Bu xat ikki nusxada tayyorlandi. Ularning birini sen hisobot uchun saqla», deb ta’kidlanadi. Matnda bu so‘z sug‘dcha «patsaxv», ya’ni «keyin beriladigan javob» ma’nosidagi atama bilan belgilangan. Jumladan, A-16 hujjatining sanasi nisbiy era sanasi bo‘lib, bu o‘rinda matnning oxirida «Devashtich podsholigining ikkinchi yilidir. Oyi-xvareznich, kuni-naxran ruch. Ushbu buyruqnoma muhrlandi podsho Devashtich tomonidan va yozildi ikkinchi nusxa podsho farmoniga ko‘ra», deb qayd etilgan. Mug‘ hujjatlarida har bir podsho o‘zi taxtga kelishidan boshlab yil hisobi yuritgani qayd etilgan. Oy va kun kalendar hisobi esa asosan zardushtiylik kalendar sistemasini davom ettirgan [2:26].

Hujjatchilikda bu qadar aniq hisobchilik an’anasi boshqaruv mahkamachiligining tashkiliy pishiqligini ko‘rsatadi. Hujjatlarning hisobotli deb qaralishi ilk o‘rta asr huquqiy munosabatlarining takomilligiga ham ishorat qiladi. Shundan xulosa qilib aytganda, ko‘pgina farmon mazmunidagi hujjatlar hokim Devashtich xatlarining nusxasidir. Ularning asl nusxalari Devashtich tomonidan tasdiqlangan va ba’zan loy muxr bilan mustahkamlangan. Podshoga tegishli muhr izi tushirilgan bulla (loyga bosilgan muhr izi, ya’ni naycha qilib o‘ralgan hujjatni chizimcha bilan o‘rab, ustiga loy yopishtirilgan va shu loyga muhr bosilgan) etib kelgan. Unda tog‘ ho‘kizi tasviri va «ushbu hujjat ishonchli» («ishonch ramzi», «asl») degan mazmunda sug‘dcha yozuv saqlangan [8:72]. Ikki, uch nusxada tuzilgan hujjat mahsulotni qabul qiluvchi shaxs, uni topshiruvchi va framandar uchun bittadan nusxada bitilgan va mazmuniga ko‘ra «teng ma’noli», «bir xil» deb atalgan. Tilxat, ko‘rsatma, buyruq hujjatlari ilk o‘rta asr Sug‘dida xo‘jalikni boshqarishda va boshqa hukmdorlar bilan olib borilgan siyosiy muloqotlarda, ayniqsa arab istilosi davrida, o‘ziga xos diplomatik munosabatlar mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Panch saroyida Devashtichga va bevosita framandarga bo‘ysunuvchi lavozim egalari haqida ham etarli ma’lumotlar mavjud. Masalan, davlat mahkamasining boshlig‘i dapirpat lavozimi. Bu lavozim atamasi ikki qismdan iborat: dapir-«yozmoq, yozish», pat- «boshliq», ya’ni kotiblarning boshlig‘i

degan ma’noni anglatadi. A-5 raqamli hujjatda bu lavozim egasiga to‘langan ish haqi to‘g‘risida ma’lumot berilgan [2:25-55].

Devashtich saroyida mahkamaviy hisobchilik va qayd hujjatlarining yuksak darajasi amal qilgan. Saqlangan hujjatlar puxta darajada ishlab chiqilgan idora yozishma uslubidan darak beradi. Bir tomonlama va ikki tomonlama hujjatlarni tayyorlagan kotiblarning savodxonligi, yozish malakasi yuqori darajada bo‘lgan. Etnik jihatdan ular asosan sug‘d va turklar bo‘lib, Devashtich saroyida har ikki til amal qilgan. V-13 raqamli qadimgi turkiy yozuvda bitilgan hujjatning Mug‘ arxivida mavjudligi shundan dalolat beradi [9:67-68]. Devashtich nomi bilan bog‘liq ikki dona arab tilidagi xat ham etib kelgan. Lekin bu matnlar sug‘dlarning arab tilini bilgani haqida xulosa qilish uchun etarli emas. Ehtimol, arab istilosi davri talabi bilan Devashtich saroyda arab tiliga ega kotib xizmatidan foydalangan.

Framandar Utt shaxsini o‘rganishda V.A.Livshis o‘z fikrini bildirgan. Uning fikricha, «Utt» bu turkiy tilda «olov» ma’nosini anglatadi. Shuning uchun u framandarni turkiy xalq vakili deb izohlaydi. Lekin Nov.3,4 hujjatida keltirilgan O‘ttakin bilan framandar Utt qiyofalarida bir shaxsni ko‘rish mumkin emas [8:136]. Shubhasiz framandar Utt Devashtich saroyining mansabdor shaxslaridan biri bo‘lgan. U Panjikent hukmdorligiga qarashli hududlar, shuningdek Yuqori Zrafshon qishloqlaridan (Fatmev, Iskodar, Qum, Madm va boshqalar) [6:86-94] saroy xazinasiga qishloq xo‘jalik mahsulotlari, harbiy qurol-aslaha va hunarmandchilik buyumlarini kelib tushishini nazorat qilgan. B-11 raqamli hujjat esa mazkur qishloqlardan kelgan don va chorva mahsulotlari bo‘yicha framandar tomonidan tuzilgan qaydnomalarni o‘zida aks ettirgan.

Shunisi qiziqki, framandar Utt asosiy vaqtini Panjikentdan tashqarida o‘tkazgan. Bunga Devashtichning ko‘rsatmalari haqidagi xatlar misol bo‘la oladi. Framandarning shahar tashqarisida qarorgohlari mavjud bo‘lib, ulardan biri Mag‘iyon daryosi vodiysida joylashgan Filmandar qishlog‘i edi. Ehtimol, shu sababli qishloq nomi Filmandar-farmandar deb nomlangan.

A-18 raqamli hujjat 10x8,5 sm hajmli. 10-12 qatordan iborat, yuqa ochiq kulrang qog‘ozga bitilgan sug‘dcha hujjat bo‘lib, unda Devashtich oziq-ovqat mahsulotlari bilan ish yurituvchi framandar Uttga bajarilmagan buyrug‘i tufayli undan noroziligi ifodalangan [8:181]. Devashtich farmoniga framandarning bo‘yin egmayotgani ta’kidlab o‘tilib, Zrunb aholisi holiga befarq bo‘lmasligi va ular ochlikdan qiynalmasliklari uchun 200 kapch un berishi lozimligi uqtirilgan. Hujjat yakunida «va bu ishni paysalga solma» iborasi ishlatilgan.

A-2 raqamli tekst 12x11 sm hajmli sug‘dcha hujjat bo‘lib, Devashtichning framandar Uttga maktub tarzida yo‘llangan buyruqnomasi hisoblanadi. Mazkur hujjatda ham Devashtich Aski Razrning och aholisiga 300 kapch un berilishi lozimligi va bu ishni paysalga solish kerak emasligini uqtirgan.

Teriga bitilgan 14,5x10,7 sm hajmli A-3 hujjatida ham Devashtichning Xufarn va Xutachan ismli kishilarga 200 kapch un berish haqidagi buyruqnomasi keltirilgan.

12-12,5x17 sm yuzali qog‘ozga bitilgan A-16 hujjatida Devashtichning xo‘jalik ishlari bo‘yicha amaldori framandar Uttga ushbu xatni olishi bilan Litfirga may berishi lozimligi ko‘rsatilgan. Qizig‘i shundaki, may toza sifatli bo‘lishi lozimligini ta’kidlash uchun Devashtich «kanizaklar ichadigan maydan» deb uqtirgan. Hujjat ikki nusxada Devashtich buyrug‘i bilan yozilgan bo‘lib, mayning qolgan qismi muhrlanishi va buyruqnomaning shu nusxasi tilxat o‘rnida saqlanishi lozimligi uqtirilgan [2:25].

Hujjatlarning boshlov va yakunlov qismlari an’anaviy ko‘rinishda, ayniqsa Devashtichga murojaat qiluvchi xatlarda dabdabali jumlalar ishlatiladi: «Janobi hukmdor, buyuk tayanchimiz»ga. Ba’zi hollarda yuqori lavozimli shaxslar nomidan tuzilgan hujjatlarda qisqa murojaat shakllari uchraydi [8:133].

V-4 raqamli «tegirmon ijarasi» haqidagi hujjatning muhim jihatlaridan biri-bu hujjatning muhrlanganligidir. Muhr matnda «g‘iroymitr» iborasi bilan ifodalangan. «G‘iroy» so‘zi «loy» degan ma’noni beradi. «Mitr» esa qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari orasida bitm va ishonch ma’budi sifatida (Mitra xudosining epitetlari) ma’lum [1:19]. Shuning uchun Uttakin ham Cher va uning farzandlari oldida majburiyatlar olar ekan, Nov. 4 raqamli hujjatda (nikoh shartnomasida) Mitraning nomini tilga oladi: «Sening va Mitraning ishtirokida (guvohligida)» [1:16]. Tadqiqotchi olim M.Is’hoqov muhr so‘zining etimologiyasini, ya’ni kelib chiqish tarixini xudo Mitraning nomi bilan bog‘liq deb qaraydi. Muhr hujjat naycha qilib o‘ralgach, ustki chok ustidan bosilgan. Uning izlarida ham yozuv qoldig‘i bo‘lib, sug‘dcha ekani aniqlangan. Hujjatda muhr bo‘lishi sug‘d muhrshunosligi-sfragistikasi uchun ham qimmatli material bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari hujjatlar loy muhr bilan shahodatlangani to‘g‘risida A-13 va A-16 raqamli hujjatlarning matnlarida ham qayd etilgan. A-2, A-3 kabi Devashtichning buyruqlari qayd etilgan hujjatlarda uning shaxsiy muhri-uzuk muhri izlari saqlangan. Devashtich muhrida esa zebu (qoramolning yovvoyi turi) tasviri bo‘lgan.

Arxivdagi hujjatning oxirida «Devashtich podsholigining ikkinchi yili, xvariznich oyi, nag‘ran ruch kuni bu xat Devashtich tomonidan muhrlandi va uning (podshoning) buyrug‘i bilan (ikkinchi) nusxa tayyorlandi», deb ta’kidlangan.

Xullosa qilib aytadigan bo’lsak, Mug‘ tog‘i qo‘lyozmalari orasidagi qator hujjatlar arab istilosi tufayli paydo bo‘lgan iqtisodiy tanglik, xo‘jalik qiyinchiliklariga ishora qiladi. Ularda odamlarni don mahsulotlari bilan ta’minlash masalalari tez-tez tilga olinadi. Bu muhim ish bilan podshoning o‘zi ham shaxsan shug‘ullangani alohida diqqatga sazovardir. Yuqorida ta’kidlanganidek, hujjatlardan birida Devashtich framandar Uttga Aski Razrdagi och odamlarga 300 kafch donni hech qanday paysalga solmasdan bergin, degan lo‘nda va talabchan ohangda buyruq bergan.

V-14 va V-16 kabi Afarun nomiga yozilgan maktublar uslubiy jihatdan oliy hukmdor Devashtichga yozilgan maktublardan deyarli farq qilmaydi [4:96]. Bu esa Sug‘d mahkamachiligida munshaot uslubining uzoq an’anaga ega bo‘lganligidan dalolat beradi.

Tarkibiy jihatdan yuqorida sanab o‘tilgan Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlari ilk o‘rta asrlarda Sug‘dda davlat mahkamachiligi, iqtisodiy munosabatlarni hujjatlashtirish, boshqaruv tizimida qat’iy hujjatchilik an’anasining yuksak darajasini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Исҳоқов М.М. Суғдиёна тарих чорраҳасида. Тошкент – Фан, 1990.
2. Исҳоқов М.М. Унутилган подшоликдан хатлар. Тошкент – Фан, 1992.
3. Лившица В.А. //Согдийские документы с горы Муг. Чтение, перевод, комментарий. Выпуск II. Москва. «Издательство Восточной литературы». 1962.
4. Мансуров Ў.Н. Суғд ёзма ёдгорликлари манбашунослиги масалалари Тошкент – 2003.
5. Отахўжаев А. Суғд шаҳрининг турк ҳокими.
6. Смирнова О. И. Карта верховый Зеравшана по мугским документам. М., 1960 («XXV Международ-ный конгресс востокове-дов. Доклады делегации СССР»).
7. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – М: Наука, 1970.
8. Согдийские документы с горы Муг. Выпуск II... -С. 72.
9. Согдийские документы с горы Муг. Выпуск III… -С.57.

OILA – SUG‘D JAMIYaTINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

U.N.Namazova
Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sug‘dda oila va jamiyat munosabatlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari manbalar asosida yoritilib berilgan. Shuningdek, ushbu maqola Sug‘d jamiyatidagi ijtimoiy tashkilot, xususan, oila tizimi haqidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.
Kalit so‘zlar: Sug‘d, oila, jamiyat, ilk o‘rta asrlar, Mug‘ tog‘i, zardushtiylik, Avesto, G‘urak, Divashtich, “Kad”.

Ilk o‘rta asrlar Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini egallagan Sug‘d tarixiy-madaniy vohasida oila va uning xususiyatlari to‘g‘risida bugungi kunga qadar maxsus dissertatsion ish yozilmagan. Lekin Sug‘dda oila va uning tarixan shakllanishining ba’zi nazariy jihatlarini o‘zida aks ettirgan tadqiqotlar yaratilganini e’tirof etish lozim. Sug‘d ilk o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan davlat uyushmasi hisoblanib, uning mavjudligi Arab xalifaligi istilosi natijasida yakuniga yetgan. Ammo Sug‘dda oilaviy munosabatlar ildizlari qadim davrlarga oid bo‘lib, bu masalani tadqiq etishdan oldin, Markaziy Osiyo hududida oila va jamiyatning shakllanishi bilan bog‘liq masalalarga to‘xtalib o‘tish lozim bo‘ladi.

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIK TARIXI: AN’ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR”

Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududi insoniyat tamaddunining tamal toshlari qo‘yilgan mintaqalardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonning muhim geostrategik mintaqada joylashganligi bu yerda turli davrlarda Eron va Hindiston yoki Yevropa va Xitoy o‘rtasidagi madaniyatlar kesishganini kuzatish mumkin.

Markaziy Osiyoda neolit davri (er. av. VI-IV ming yy.)ga kelib, dehqonchilik va chorvachilikning paydo bo‘lishi, keyinchalik dehqonchilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqishi natijasida aholining ma’lum qismlari dehkonchilik, chorvachilik yoki hunarmandchilikka ixtisoslasha bordilar. Aholining ma’lum bir sohaga ixtisoslashuvi tajribaning ortishiga va ish qurollarining takomillashuviga, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmining o‘sishiga, uning sifati yaxshilanishiga olib keladi. Ishlab chiqarish hajmining o‘sganligini bronza davri (eramizdan avvalgi III-I ming yy.)da don saqlanovchi omborlarning, katta hajmdagi don va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari saqlanovchi idishlarning ko‘payganligidan bilish mumkin [1]. Natijada insonning eng kam ehtiyojidan ortiqcha mahsulot paydo bo‘ladi. Ushbu ortiqcha mahsulot urug‘ va qabila boshliqlari tomonidan o‘zlashtiriladi va jamiyatda sekin-asta xususiy mulk shakllana boshlaydi. Ortiqcha mahsulotning vujudga kelishi va mulkchlik munosabatlarining o‘zgarishi o‘z navbatida tabaqalanishni keltirib chiqardi.

Shaxsiy mulk dastlab dehqonchilik vohalarida oziq-ovqat mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari, ishlab chiqarish qurollari ko‘rinishida, chorvachilik vohalarida esa, chorva ko‘rinishida o‘z shaklini topgan. Asta sekinlik bilan jamiyatda tovar ayirboshlash ekvivalentlari paydo bo‘lganligi sababli, xususiy mulk nafaqat natural shaklda, shu bilan bir qatorda mahsulotlar ayirboshlash uchun qabul qilingan pul o‘rnida ishlatilishi mumkin bo‘lgan turli xil vositalar ko‘rinishida ham to‘plana boshlagan. Markaziy Osiyo qadimgi dehqonchilik jamiyatlari aholisiga tegishli qabrlardan topilgan ko‘plab hayvon va geometrik tasvir ko‘rinishidagi muhrlar xususiy mulkning paydo bo‘lganligi va to‘plana borganligi haqida guvohlik beradi [2].

Yuqorida ta’kidlanganidek, xususiy mulkning vujudga kelishi bilan jamiyatda ijtimoiy va mulkiy tengsizlik yuzaga kela boshlaydi. Xususiy mulk odatda qabila va urug‘ boshliklarida to‘plana borgan. Bu bejiz emas, sababi, aynan ular urug‘ va jamoaga tegishli mulklarni taqsimlash huquqiga ega bo‘lganlar. Shuning bilan birga katta yer maydonlariga ham ega bo‘lganlar. Ayni paytda ularning oddiy jamoadoshlari esa, ba’zi hollarda arzimagan mol-mulkka, ko‘p hollarda hech qanday mol-mulkka ega bo‘lmaganlar. Jamiyatdagi tabaqalanishning qaysi biri: ijtimoiy tabaqalanish oldin paydo bo‘lganmi yoki mulkiy tabaqalanish, degan savolga javob berish ancha mushkul. Ko‘pchilik mutaxassislar ular bir vaqtda paydo bo‘lgan, ya’ni ijtimoiy mavqe’dagi farqlar mulkiy tengsizlikka olib kelgan bo‘lsa; o‘z navbatida, mulkiy tengsizlik jamiyat a’zolarining ijtimoiy tengsizligiga olib kelgan, deb hisoblashadi [3].

Arxeologik tadqiqotlar hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlari hisoblangan shaharlarda aholining ijtimoiy va mulkiy tabaqalanish jarayoni qishloqlardagiga qaraganda nisbatan tezroq borganligini ko‘rsatmokda [4].

Masalan, metall, muhr, qurol-yarog‘ singari hokimiyat ramzlari va diniy xarakterdagi buyumlar mavjud qabrlar aksariyat holda ilk shaharlar – Oltintepa, Ulug‘tepa, Jarqo‘ton, Sopollitepa kabi yodgorliklarga tegishli. Agarda ilk shaharlarga tegishli qabrlarda 6-9 xil ko‘rinishdagi buyumlar uchrasa, kichikroq aholi manzilgohlaridan topilgan qabrlarda 2-3 xil ko‘rinishdagi buyumlargina uchraydi [5]. Bu haqdagi ishoralar yozma manbalardagi ma’lumotlar orqali ham oydinlashadi. Avestoda keltirilgan ma’lumotlar ushbu ma’lumotlarni to‘ldiradigan ahamiyatga ega.

Avvalo Avestoning asosiy ob’ekti-inson bo‘lganligini ta’kidlash lozimdir. Undagi barcha fikr insonga, uning oilasiga, sidqidildan e’tiqodiga, jismoniy va ruhiy pokligiga, ezgu dunyoning ravnaqi uchun astoydil safabarlik bilan qilinadigan yaratuvchilik mehnatiga, ijtimoiy barqarorlikka, tinchlik va osoyishtalikka qaratilgan [6].

Zardushtiylik va Avestoda aks etgan dunyoning markazi inson va uning oilasi *nmana*dan boshlanadi. *Nmana*ning ham otasi ham rahnamosi dastlab *nmanopati*, ya’ni *“uy otasi”* bo‘lgan [7]. Ota oilani boqish, parvarishlash, himoya qilishdan tashqari shu oilaning diniy yetakchisi hamdir. Bunday tartib oilaning ijtimoiy mohiyatini jamiyatning ma’naviy talablari bilan bog‘lashga xizmat qilgan. Shu bilan birga oilani, ota-onani farzandlar ma’naviy kamoloti uchun mas’ul qilib tayin etgan. B.G‘oyibovning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu ulug‘vor maqomni tashkil etuvchi nom *pati, patni* qismlari bu atamalarda *pat* o‘zagidan yasalgan bo‘lib, *“qo‘riqlamoq, himoya qilmoq”* degan ma’noni anglatadi. Shundan tilimizda saqlangan *poylamoq,* ya’ni *“qo‘riqlamoq”* so‘zi tarixiy etimologik izohini topadi. Demak, *“nmanopatni”* so‘zi, “uy, xonadon qo‘riqchisi”, “xonadon, uy poyloqchisi” ma’nolarini anglatadi.

Avestoda oila bog‘liq qarindoshlikning to‘qqiz bosqichi qayd etiladi: 1. Ota-onalar; 2. Farzandlar; 3. Aka-uka va opa-singillar; 4. Bobo va buvi; 5. Nevaralar; 6. Tog‘alar va xolalar; 7. Amakivachchalar va amakvachchalar; 8. Jiyanlar; 9. Aka-uka va opa-singil nevaralari. Zardusht ta’limotida qarindoshlik munosabatlari otaliq, merosxo‘rlik, o‘zaro huquq va majburiyatlar, qonunlarni buzganlikdagi javobgarlik masalalarini tartibga solishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan [8].

Avestoga ko‘ra, jamiyatning asos unsuri *oila* ekan, zardushtiylikning ilk bosqichlarida bu ijtimoiy birlik patriarxal oila ko‘rinishida bo‘lgan. Arxeologiyada “katta oila” majmualarining yorqin misoli Sopolli madaniyatining Sopollitepa yodgorligida kuzatilgan. U yerda sakkizta katta oilani patriarxal urug‘chilik asosda birlashtirgan qo‘rg‘on qazib o‘rganilgan [9].

Patriarxal oila erkak boshchilik qiladigan oila bo‘lib, asosan, ilk xo‘jalik jamoasi bo‘lgan, uning iqtisodiy asosini yerga va ishlab chiqarish qurollariga umumiy egalik tashkil etgan. Ilk o‘rta asrlar davriga kelib katta patriarxal oila qadimgi davriga shaklidan anchayin o‘zgargan bo‘lib, ishlab chiqarishda individual munosabatlari ustivor bo‘la boshlaganligi ko‘zga tashlanadi.

N.A.Kislyakov keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, dastlab katta patriarxal oila vujudga kelgan. Faqat mil. avv. I mingyillikning o‘rtalaridan boshlab katta

patriarxal oilalardan asta-sekin individual oilalarga bo‘linishi yuz bera boshlagan [10]. Bu jarayon o‘troq xalqlarda ko‘chmanchi etnoslarga nisbatan oldinroq yuz bergan bo‘lishi ham mumkinligini inkor etib bo‘lmaydi. Shuningdek, shahar va qishloqlarda ham patriarxal oila shaklidan individual oila shakllariga o‘tish jarayonida ham davriy farqli xususiyatlari mavjudligini keltirib o‘tish lozim. Bu holatning geografik xususiyatlari ham bo‘lgani shubhasiz. Masalan, ushbu jarayon Xorazmda Sug‘dda oldinroq boshlangan bo‘lishi ehtimolini ta’kidlash lozim bo‘ladi. Ma’lumotlar tahlili va mavjud materiallar oilaning muayyan shaklidan boshqasiga o‘tilganining asosiy sabablaridan biri natural va tovar-pul munosabatlari bilan bog‘liq mulkiy munosabatlar hisoblanadi. Mulkiy munosabatlarning natural xo‘jaligiga asoslangan jamiyatda katta patriarxal oila o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Har holda ushbu nazariy qarash ko‘proq tarafdor topgan. Lekin istisno holatlar ham tarix tadqiqotlarida ko‘zga tashlanadi.

Panjikent arxeologik tadqiqotlari davomida V.I.Raspopova shaharda ilk o‘rta asrlarda oilaning barcha a’zolari va ularning yaqinlari birga yashagan katta oilalar mavjud bo‘lganini keltirib o‘tadi. O‘z fikrlariga asos sifatida olima Mug‘ tog‘i sug‘diy V-8 hujjatida keltirilgan naus uchun butun boshli oilaga sotib olingan yer bo‘lagi to‘g‘risidagi keltirib o‘tgan [11]. Lekin ilk o‘rta asrlar Sug‘ddagi huquqiy munosabatlar to‘g‘risida bevosita yozma manbalarning yo‘qligini va bu holatda ham bir oilada butun boshli qarindoshlar yashagan bo‘lishi yoki aksincha ekanligi masalasida barqaror fikrga kelmagan.

O.G.Bolshakov ma’lumotlariga ko‘ra esa Sug‘dning sharqiy viloyati Panchning ma’muriy markazi hisoblangan Panjikent shahridagi katta oilada 6 kishidan kam bo‘lmagan qarindoshlar yashagan bo‘lishi mumkin [12]. Sug‘dshunos B.G‘oyibov ham panjikentlik o‘rta tabaqa vakili turar joyida o‘rta hisobda 6 kishigacha bo‘lgan oila (undan ortiq yoki kam ham bo‘lishi mumkin) istiqomat qilgan deb keltiradi. Unga ko‘ra, o‘rtacha 40 m^2 maydonni egallagan uyda oshxona (o‘choq va tandirdan iborat), omborxona, ayvon va ikkita xona bo‘lgan. Mehmonxona turar joyga qo‘shimcha sifatida qurilgan. Biroq mehmonxonalar hammaning ham uyida bo‘lavermagan [13]. Lekin O.G.Bolshakov va B.G‘oyibovning ushbu fikrga kelishlariga asoslar yetarli emas. Chunki yozma manbalarda Sug‘d oilalarida aynan necha kishigacha yashaganligi to‘g‘risida bevosita fikr mavjud emas. Arxeologik materiallarning sotsiologik tahlili emas, devografik ko‘rsatkichlarni aniq ko‘rsatib bera olmaydi. Shunday ekan arxeologik ob’ektlar hajmi asosida xulosalar chiqarish biryoqlama bo‘lishi mumkin.

Ta’kidlash lozimki, A.M.Beleniskiy, I.B.Bentovich, O.G.Bolshakovlarning Markaziy Osiyo shaharlarida yashagan oilalarning soni ularning xususiyatlari borasidagi tadqiqotlari bu boradagi muhim izlanishlardan hisoblanib, ko‘plab tadqiqotlar uchun yo‘l ochgan. Olimlar Panjikent shahristonidagi 0,7 ga maydondagi oila yashovchi maydonda 180-250 kishi oralig‘ida yashagan bo‘lishi mumkinligi va ushbu oilalarni to‘rt guruhga bo‘lish mumkinligini ilgari surishadi: birinchi guruh – 25-30 kishi (qal’a ko‘rinishdagi uylarda yashovchi oila. Ularda qullar va chokarlar ham bo‘lgan); ikkinchi guruh – 12 kishigacha bo‘lgan kishilar

guruhi. Ularda qullar soni birinchisidan bir barovar kam; uchinchi guruh – 9 kishigacha bo‘lib, qullar va chokarlar soni ikkinchi guruhdan bir barovar kam; to‘rtinchi guruh – 6 kishigacha yashagan va ulardan chokar yoki qul bo‘lmagan bo‘lishi mumkin. Ayni shu uslub asosida ilk o‘rta asr shaharlarining umumiy soni chiqarilgan edi. Masalan, VIII asr boshlarida Samarqandda 25-30 ming aholi yashagan [14]. Aytib o‘tish joizki, katta patriarxal oilaning ko‘rinishi Yag‘nobda saqlanib qolgan. Yag‘nobda hozirda ham ota-ona, bobo-buvi, nevara, aka-uka va ularning farzandalari, kelin va ovsinlardan iborat 20-50 kishigacha oilalar yashaganligi etnografik kuzatishlar natijasida aniqlangan [15].

Yuqoridagi fikrlarni davom ettirgan holda Sug‘dda oila va jamiyat masalalariga qaytsak. Bugungi kunga qadar mavjud manbalarda Sug‘ddagi oilaviy munosabatlar masalasida bevosita ma’lumotlar yetib kelmagan. Mug‘ tog‘i arxida uchraydigan ma’lumotlar sug‘diy jamiyat, nikoh munosabatlari, ijtimoiy qatlamlar to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan bo‘lsa-da, ushbu masala chuqur o‘rganilmagan. Bundan tashqari, Sug‘d va unga qo‘shni mintaqalardan arxeologik tadqiqotlar natijasida topib o‘rganilgan artefaktlar ham muammoning ba’zi jihatlarini yechishda yordam beradi.

Ilk o‘rta asrlar Sug‘dda oila va uning xususiyatlari masalasi sug‘dshunoslikdagi eng kam o‘rganilgan muammolardan sanaladi. Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalari, xususan, Xorazm vohasining ayni davriga oid oilaviy munosabatlar masalasi biroz o‘rganilgan. Ushbu masalaga birinchilardan bo‘lib e’tibor qaratgan tadqiqotchi V.V.Bartold bo‘lib, u Markaziy Osiyo voha davlatlaridagi ilk o‘rta asrlar oila tamasini “kad” yoki “kent” atamasi bilan bog‘lashga harakat qiladi va ushbu atama “uy” ma’nosini anglatishini ilgari suradi. “Kad” atamasi faqatgina uy ma’nosini anglatmay, uy sohibi, uning farzandlari, xo‘jalik kompleksi kabi uyning tarkibiy qismlarini anglatgan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, olim “kad” so‘zi “xona” so‘zidan kengroq ma’no anglatishiga urg‘u bergan [16]. Shuning uchun ham “kadivar” iborasi “kad”da yashovchi, yoki “biror uyda yashovchi”, “kadxudod” esa bir necha “kad”lar, ya’ni, oilalar boshlig‘i sifatida ma’lum. “Kadxudod” oilalar yig‘indisi yoki muayyan hukmdorlik boshlig‘i sifatida ham ma’lum bo‘ladi. Keyinchalik bu ibora “kadxudot” shaklida dastlab *katta oila -kat* (...kent) boshlig‘i, keyinchalik qishloq oqsoqoli; el-yurt ichida so‘zi o‘tadigan, gapiga hamma quloq soladigan oqsoqol, sardor ma’nosida ishlatilgan [17].

B.G‘oyibovning A.Yu.Yakubovskiyga suyanib keltirishicha boy oilalar qo‘l ostida turli xil hunarmandchilik bilan shug‘ullangan qullar bo‘lgan. Ilk o‘rta asrlarda Sug‘dda erkin hunarmandlar kam bo‘lgan. Mug‘ hujjatlarida ham “qul” so‘zi ko‘p marotaba uchraydi. Yer egaligi munosabatlari tobora rivojlana borgan sayin qullar kamayib borgan. O‘z fikrlariga asos sifatida olim “Samarqand shartnomasi” matnida ham G‘urakning Qutaybaga bir necha ming qulni tovon sifatida to‘lashi keltirilgan [18].

Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlari noshiri V.A. Livshis ayni manbalarga asoslangan holda *kat* so‘zi bilan *kad*, *kand* so‘zining genezisi bir, tafovut shevaviy talaffuz oqibatida bo‘lib, sug‘diy hujjatlarda *Kan* shahar ma’nosini ifodalab

keladi degan fikrni bildirish orqali buni izohlashga harakat qiladi [19] hamda o‘z fikrlariga izoh sifatida dastlabki davrda sug‘diy *kad*da katta patriarxal oilaning barcha a’zolari – ota-ona, farzandlar, yaqin qarindoshlar va hatto qullar ham yashaganligini keltiradi. Bu holat *kad* zamirida dastlab katta patriarxal oila tushunilib, keyinchalik esa o‘ziga xos “oilalar boshlig‘i”, ya’ni, “kadxudot” kelib chiqqan bo‘lishi mumkinligiga ishora beradi.

Ushbu iborani toponimist A.R.Ayubov “shahar” atamasi bilan bog‘lab, uning fikricha, “kad” iborasidan “kent” iborasi kelib chiqqan. Ustrushonaning qadimiy shahri bo‘lgan Bunjikat toponimidagi *kat* komponentining kelib chiqishini A.R. Ayubov Sibir va Oltoyda yashagan oriy qabilalari bilan bog‘laydi. Unga ko‘ra, bu ibora din bilan bog‘liq bo‘lib, sovuq havoda vafot etgan qabiladoshlarini ular to issiq kunlar kelguniga qadar *kada* (kede)da saqlashgan. *Kada* yoki *kata* ushbu qabila tilida “uy”, “xona” ma’nosini anglatgan [20]. Markaziy Osiyoda keng tarqalgan va keyinchalik “qishloq”, “shahar”, “ovul”, “qal’a” kabi ma’nolarni ifodalash uchun ishlatilgan *kat* (kad) atamasi, ibtidoiy *kad, kat* yoki *kata* so‘zidan kelib chiqqanligi ehtimoli yo‘q emas. Lekin bu iborani oriy qabilalari bilan bog‘lash qo‘shim izohlar talab etadi.

Yuqorida keltirilgan “oilalar boshlig‘i”, ya’ni, “kadxudot” atamasi ostida butun oila va unga taalluqli kishilar yashagan bo‘lishi mumkinligi masalasi tarixiy haqiqatga ham yaqin bo‘lishi mumkin. Muhammad Narshaxiy “Buxoro tarixi” asarida “Kashkashon (deb atalgan) guruhning bayoni” tafsilotlarida Qutayba ibn Muslim (705-715)ga o‘z yerlarini bergan Kashkashon qavmi a’zolari boshqa joyga borib joylashib, barcha qavm a’zolari va ularning xizmatkorlari ham birga yashaganligini ta’kidlaydi [21]. Ayni shu asosda olimlar arablar istilosiga qadar Sug‘dda patriarxal oilalar mavjud bo‘lganligiga ishoralar berishadi.

“Kad” atmasi masasiga qaytsak. Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlariga ko‘ra “kad” atamasi “kat”, “kent” shakllarida “qishloq”, “shahar” va “qishloq oqsoqoli” ma’nolarini ham anglatgani ma’lum [22]. Sug‘dshunos B.G‘oyibov ham *kty’βš’yws – katiyabshauz* (“qishloq oqsoqoli”) ma’nosini anglatishini ilgari suradi. Ushbu unvon sohibi qishloq va shahar o‘rtasidagi aloqalarni ta’minlagan [23]. Ushbu unvonning birinchi konponenti *kt* zamirida ham “oila” ma’nosi anglashiladi. Shunday ekan “kad”, “kadxudod” atamalari ostida “imorat”, “bino” yoki “xona” ma’nolari emas, balki “oila” ma’nolari tushunilishi tarixiy haqiqatga yaqin hisoblanadi. Afrosiyob, Panjikent kabi Sug‘d arxeologiyasi namunalari materiallari ham bunga ishora beradi.

Sug‘dda oila masalasini tadqiq etishda nauslar ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. B.Ya.Staviskiy Penjikent nauslar dahmalarini o‘rganar ekan, nauslar kichik oilalarning qabrlari degan xulosaga kelgan. Penjikent rabotida olib borilgan qazishmalar ham uylar kichik oilalar uchun mo‘ljallanganligini ko‘rsatdi [24]. Gardani Hisor, Qum kabi qishloqlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ham ma’lum bo‘ladiki, shaharlardan farqli ravishda kichik qishloq makonlarida odamlar kichik oilalarda yashashgan. Mug‘, Falgar kabi qal’alardan katta patriarxal oila yashagani tarixiy haqiqatga yaqin [25]. Chunki bu kabi

mustahkam qal’alarni kichik oilalar qurolmagan. Bundan tashqari, ushbu inshootlar katta oilaning himoyasi ham hisoblanadi. S.K.Kabanovning keltirishicha, Qashqadaryo ilk o‘rta asrlar manzilgohi Toshtepada tadqiqotlar natijasida u yerdagi inshootda 50 kishi atrofida yashaganligini va bu manzil katta patriaxal oilaga mansubligini ilgari suradi [26].

Shu o‘rinda Devashtichning Mug‘ qal’asidagi Arab xalifaligi kuchlariga bilan olib borgan harbiy harakatlariga e’tibor qaratsak. O‘rta asr tarixchilari at-Tabariy va al-Balazuriylarning ma’lumotlarini tahlil qilgan O.I.Smirnovaga ko‘ra, Devashtich ushbu qal’ani boshqalariga nisbatan mustahkam hisoblab (dastlab Panjikent shahrida yashiringan), ushbu istehkomda himoyalangan. Mug‘ tog‘i istehkom Said al Xaroshiy (721-723) kuchlari tomonidan egallangandan so‘ng, Devashtich va uning oilasi asir olingan. Oilada yuzlab a’zolar bo‘lgani keltiriladi [27]. Bu holat ham o‘sha davrda yirik patriarxal oilalar mavjud bo‘lgani va Sug‘dning yirik dehqonlari bu kabi oilalarni idora etganlari va boshqara olganliklarini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda yana bir misol. Mug‘ arxivining A-5 raqamli hujjatida keltirilishicha, hukmdor Devashtich yoz oylarida shaharda yashagan. Shaharda turgan vaqt davomida shahardan tashqaridagi ishlarni kerakli farmonlar orqali yuritgan [28]. Davlat ishlari bilan birga u o‘z oilasiga mansub xo‘jalikning yurtilishini ham nazorat qilgan. A-5 maktubidagi kerakli shaxslarga ularning xizmatlari uchun to‘langan maosh miqdori ham bundan darak beradi. Hujjatda keltirilishicha, *Artikka* ot uchun 200 (draxm), *Kajmonakka* 32, *Maxrga* – 12, *Vanga* mollarni boqqani uchun – 6, *Puxarga* – 5, *kushoniylikka* (?) – 10, *Parvonachiga* (parvonak kirak – ishchi) – 8, *qassobga* 5, *Vishyonga* 2 draxmga kavsh, yana hokimga (Devashtichga?) 2 draxmga qalpoq uchun, 1 draxmga kavsh, yana *Puxarga* hamda *kushoniylikka* (?), *Darkanakka* har biriga 2 draxmdan kavsh, *Futchakka*, *G‘unga, Maxrga, Darkanakka* 12 draxmdan, *vag‘vyanakka* (?) va sovut ko‘ylak, *Jeg‘uvakka* 1 draxm, kavsh uchun, 8 draxmdan qog‘oz uchun, ipak mato uchun, yog‘ uchun berildi. *Farmitonlik* ayolga (kimligi noma’lum), 15 draxmga ko‘ylak uchun, *kohinga* 50 draxm, *g‘upat* (moliya ishlari mutasaddisi)*ga* 50 (draxm), *Avdmaxch* – bog‘bonga 10, *zutpatga* (sharob tayyorlovchi) 15, *Revaxshyonga* 30 va *Makdoshga* 30 draxm (yangi yil bayramiga yeyilishi uchun 11 draxmga sigir) tabibga – 15 draxm pul berilgan [29]. Ushbu ro‘yxat Devashtichning oilasi uchun xizmat qilganlar uchun berilgan ro‘yxat ham bo‘lishi mumkinligini e’tiborga olish lozim. Oila a’zolar uchun qo‘shimcha xizmat qilgan – cho‘pon, tabib, moliyachi, ishchi kabilarga to‘langan pullar va oilaning yangi yil bayramini nishonlashi uchun sigir sotib olinishi hujjatning oilaviy xarajat uchun tuzilganidan darak beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, “Avesto”ning qadimgi qismlarining tahlili Sug‘d jamiyatidagi ijtimoiy tashkilot tizimi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Uy – oila quyi bo‘g‘in bo‘lgan, qolgan bo‘g‘inlarni urug‘, ovul, qishloq jamoasi, qabila, viloyat, mamlakat tashkil etadi. Bu esa ilk o‘rta asrlardanoq jamiyatning asosida oila turgani va uning mavjudligi boshqa bo‘g‘inlarning shakllanishi hamda rivoji uchun omil bo‘lgani ma’lum bo‘ladi. Shunday ekan oila

– ilk o‘rta asrlar Sug‘d jamiyatini tashkil etgani va ushbu holat keyingi davrlar uchun tamal toshi bo‘lganini ta’kidlab xulosa qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Аскаров А.А. Древнеземледельческая культура юга Узбекистана. Ташкент: Фан, 1977. С. 4, 6
2. Массон В.М. Первые цивилизации и всемирная история. (второе дополненное издание). Кишинев, Высшая антропологическая школа, 2005. С. 26-36.
3. Аскаров А.А. Древнеземледельческая культура юга Узбекистана. Ташкент: Фан, 1977. С. 6.
4. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Ленинград: Наука ЛО, 1973. С. 5-13.
5. Аскаров А.А. Сапаллитепа. Ташкент: Фан, 1973. С. 42-71.
6. “Авесто” ва унинг инсоният тараққиётидаги ўрни. “Avesta” and its plase in the development of humanity / Халқаро конференция материаллари. Ташкент-Урганч: Фан, 2001. – 186 с.
7. Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёт. Тошкент: Академия, 2000. Б. 37
8. Периханян А.Г. Сасанидский судебник. “Книга тысячи судебных решений”. (MĀTAKDĀNI HAZĀR DĀTASTĀN). Ереван: Издательство АН Армянской ССР, 1973. С. 10, 105, 158, 177,
9. Аскаров А.А. Сапаллитепа. Ташкент: Фан, 1973. С. 9-42.
10. Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. Ленинград: Наука ЛО, 1969. С. 14.
11. Распопова В.И. Жилища Пенджикента (опыт историко-социальной интерпретации). Ленинград: Наука ЛО, 1990. С. 175-176.
12. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Ленинград: Наука ЛО, 1973. С. 259-260.
13. Ғойибов Б. Суғд конфедерациясида Панч мулкининг тутган ўрни (илк ўрта асрлар мисолида): тарих фанлари номзоди диссертацияси. Тошкент: ЎзФА Тарих институти, 2011. Б. 94-95.
14. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. … С. 260.
15. Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана .... С. 17-18.
16. Бартольд В.В. Общие работы по истории Средней Азии. Работы по истории Кавказа и Восточной Европы. Соч. Москва: Издательсто восточной литературы, 1963. Том II (1). С. 209.
17. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент: ЎМЭ, 2002. Том 4. Б. 380.
18. Ғойибов Б. Суғд конфедерациясида Панч мулкининг тутган ўрни (илк ўрта асрлар мисолида): тарих фанлари номзоди диссертацияси. Тошкент: ЎзФА Тарих институти, 2011. Б. 103

19. Согдийские документы с горы Муг. Вып. II / Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарии В.А. Лившица. Москва: ИВЛ, 1962. (СДГМ II). С. 89-90.
20. Аюбов А.Р. Топонимы Уструшаны: истоки их происхождения и значения. Санкт-Петербург, 2009. С. 32.
21. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулов таржимаси. Тошкент: Фан, 1966. Б. 18-19.
22. СДГМ II. С. 177.
23. Ғойибов Б. Суғд тарихидан лавҳалар. Самарқанд: СамДУ, 2020. Б. 61.
24. Ставиский Б.Я., Большаков О.Г., Мончадская Е.А. Пянджикентский некрополь // МИА. Москва, 1953. № 37. С. 64-98.
25. Васильев А.И. Согдийский замок на горе Муг // СС. Ленинград, 1934. С. 34-35.
26. Кабанов С.К. Нахшаб на рубеже древности и средневековья (III-VII вв.). Ташкент: Фан, 1977. С. 97-110.
27. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. Москва: Наука, 1970. С. 251-253.
28. Исҳоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар. Тошкент: Фан, 1992. Б. 54.

SUG’DDA BOZORLAR FAOLIYATI: NARX-NAVO VA SARFIYOT MASALALARI.

Xoliqulov Azizbek Yorqulovich
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi
assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqola ilk o’rta asrlarda Sug’d hududidagi bozorlarning tashkil topishi, bozor qoldiqlarining o’rganilishi, bozorlardagi narx-navo va sarfiyot masalalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.bozor haqidagi ma’lumotlar manbalar va adabiyotlarda yoritilishi haqida tahlillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Moliya tizimi, Dirxam, savdo, soliq, ijara, majburiyatlar.

Sug‘dda ichki savdoning rivojlanganligi to‘g‘risida mintaqa va unga qo‘shni hududlardan topilgan ko‘plab numizmatik materiallar guvohlik beradi. Panjikent shahri xarobalari dovomida 2000 ga yaqin tangalarning topilganligi va ularni kataloglashtirilganligi ushbu fikrni tasdiqlaydi [1:389]. Mazkur tangalarning katta qismi ayni Panjikent bozori qoldiqlari qazishmalarida topilganligi bilan ahamiyatlidir.

Masalaning yana bir qiziq jihati shundaki, sug‘diy tilda *w’črn /vācərən/* atamasi “bozor”ni anglatgan. “Bozor”, “savdo majmua” ma’nosini beradigan bu atama ayni davrga oid parfiyoniy manbalarda *vāžār*, forscha *vāzār* shaklida ham uchraydi [2:397]. “Bozor” atamasining qo’llanilishi uning mavjudligining isboti hisoblandi.

Asli forscha bo‘lgan “bozor” atamasi, sug‘diy manbalardagi ushbu atamadan farqli o‘laroq arabiy manbalarda *suk* “bozor”, *asvak* “bozorlar” ma’nosini ifodalab kelgan. Arabiy manbalardan faqatgina Istaxriy va Ibn Xavqal keltirgan manbalarda Sug‘ddagi bozorlar *majmua* va *majmuai azim* shaklida qayd etiladiki, ushbu so‘zlar “odamlar to‘planadigan joy” ma’nosini beradi [6:I]. Mazkur holat ham odamlar to‘planadigan yirik maydonlar – bozorlar ma’nosini anglatgan.

Ilk o‘rta asrlarning keyingi davrlarida Samarqand raboti atrofida ko‘plab ko‘chalarda savdogarlar yashashgan va shu yerda savdo bilan shug‘ullanishgan. Istaxriyning keltirishicha, Samarqand shahristonida bozor bo‘lmagan. Balki shuning uchun ham arabiy manbalarda keltirilgan *suk* – “ko‘cha” ma’nosidagi so‘z zamirida “bozor” tushunilgandir. Istaxriyning keltirishicha, bozorlar Samarqand shahrining shimolidagi Kesh darvozasi atrofida to‘plagan. Shaharning ushbu qismida asosan hunarmandchilik ustaxonlari zich joylashgan bo‘lib, bu bozorlarning shakllanishiga sabab bo‘lgani ehtimoli yuqori [7:317].

629-yilda Xitoydan Sug‘dga, jumladan, Samarqandga kelgan Syuan-Szyan o‘z xotiralarida shahar aholisining yarmi savdo, ziroatchilik bilan shug‘ullanganligi haqida ma’lumotlarni keltiradi [8:125]. Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam’oniy (1113-1166)ning “Kitob al-ansob” asarida keltirishicha, Samarqand shahrining Kesh darvozasidan janubda Registon maydoni hududida bir necha turdagi mahsulotlar sotiladigan rastalarni o‘zida birlashtirgan bozorlar majmui bo‘lgan. Shunday ma’lumotlardan biri Abu Bakr Narshaxiy (899-959)ning “Buxoro tarixi” asarida keltiriladi. Jumladan, asarning “Buxoro va unga qo‘shiladigan hududlar” nomli IV bobida Buxoro yaqinidagi Tavois qishlog‘i haqida ma’lumot keltirilgan. “Hudud ul-olam” asari muallifi ham Tavois bozorlarini ta’rifini keltirib, u yerda yiliga ikki marta bozor bo‘lganligi keltiradi.

Ilk o‘rta asrlar Sug‘d markazi Samarqanddan farqli ravishda Buxoro shahristonida bozor mavjudligi to‘g‘risida Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida ma’lumot keltiriladi. Manbada ushbu bozorning nomi “Dari attoron” (atir-upa bozori) deb keltirilgan. Asardagi Arab xalifaligidan keyingi davrdagi bozorlar to‘g‘risida keltirgan ma’lumotda Buxoroda ikkita darvoza bo‘lganligi va ulardan biri “Dari alaffuro‘shon”, ya’ni “Beda sotuvchilar eshigi” shaklida taqlin etilgan [9:52-53]. Demak, ma’lum bo‘ladiki, ilk o‘rta asr bozorlari asosan shahar darvozalarining atrofida tashkil etilgan bo‘lib, shahar darvozasi ayni bozor nomidan kelib chiqqan holda nomlangan. Bu holat shahar nomlarining kelib chiqishiga ham sabab bo‘lgan. Samarqand atrofidagi Jumabozor, Juma, Payshanba kabi bir qator joy nomlari keyingi davrda paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, bu joy nomi bozor nomidan kelib chiqqan.

Sug‘dda shaharlar bilan birga qator hokimlik markazlarida ham doimiy bozorlar bo‘lgan. Masalan, Sug‘dning Panch hokimligi bozorlarida birining o‘rni o‘rganilganda u yerda ham bozor aniq me’moriy loyiha asosida qurilib, har bir mahsulot uchun alohida rasta bo‘lganligi aniqlangan [10:67-69].

Beruniyning “Al Osor ul-Boqiya” asarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, sug‘diylar o‘z taqvimlaridagi oyning 12-13 sanalarini oy ma’budiga bag‘ishlab bayram qilishgan [11:12-17]. “Bozori Mox”da tashkil etilgan yarmarka ham ayni davrga to‘g‘ri kelib, uning o‘tkazilishi ham Oy ilohiga bag‘ishlangan. “Moh” forsiy tilda “oy” ma’nosini ifodalab, bu ko‘plab bayram va odatlar bilan bog‘liq.

Sug‘diylar o‘z bozorlarini qo‘shni hududlarda, hatto Turfon vohasida ham tashkil qilganliklari manbalar orqali ma’lum. “Tan-shu” yilnomasida keltirilishicha, Turfonda ikkita yirik bozor bo‘lib, ular “g‘arbiy” va “sharqiy” deb nomlangan. Shahardagi “G‘arbiy bozor” G‘arbdan kelgan sug‘diylar nazorati ostida bo‘lgan [8:125-126].

Sug‘ddagi bozorlar orasida Samarqanddan keyin Poykent bozorlari mashhur bo‘lib, bu shaharda savdogarlar boshqa hududlarga nisbatan anchayin keng qamrovli savdo ishlarini olib borishgan.

Yu.A.Boboyevning Beruniyga suyanib keltirishicha, oyning uchinchi kunida *kashumin* bayrami o‘tkazilgan bo‘lib, ushbu bayram munosabati bilan tashkil etilgan Kumijkat (Buxoro) atrofidagi bozor yarmarkasi o‘n ikki (12) kun davom etgan. So‘ngra esa Tavois qishlog‘idagi yarmarka oyning 15- sanasidan boshlanib, bir hafta, ya’ni 22- sanaga qadar davom etgan hamda bu yarmarkalar davrida faoliyat ko‘rsatgan o‘ziga xos ko‘chma bozor doimiy xaridorlar bilan to‘lib turgan. Sug‘diy *masafug‘* oyining 15-sanasigacha davom etadigan bayram tadbirlari Sug‘dning Sharg‘ qishlog‘ida tashkil etilgan. Sharg‘dagi bayram va u yerdagi bozor yarmarkasi bir hafta davom etgan [12:143]. Tavois va Sharg‘ Sug‘dning yirik bozor yarmarkalariga ega qishloqlari bo‘lib, ularda o‘tkaziladigan bozorlarda nafaqat mahalliy savdogarlar, balki Choch va Farg‘ona kabi hududlardan ham savdogarlar kelishgan.

Ibn Xurdodbeh ma’lumotlarida ipak kimxob nafaqat Sug‘d ichki bozorida, balki tashqi savdoda ham muhim savdo mahsuloti hisoblangan[13:70]. Mug‘ tog‘i mato parchalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ipak va paxtadan mato tayyorlash Sug‘dda keng yoyilgan va ichki bozordagi eng xaridorgir mahsulotlardan hisoblangan. Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlari *cγn* (“oq”) “ipak”), *pr’ynk* (“rangli”), *kp’wtk* (“to‘q”) “ko‘k”), *sm’hγwn* (“moviy”) *spyty* (“oq”), *zrγwnk* (“yashil”) ma’nolarini beruvchi mato turlari to‘g‘risida keltirilgan. Aftidan *cγn* (“oq”) “ipak”) mato turi farmonlar yozish uchun ishlatilgan va eng ko‘p ishlab chiqarib, sotilgan. Ipak matolar bilan birga ranglanmagan karboslar ham Mug‘ tog‘i qal’asi xarobalaridan topilganki, bu matoning ham ishlab chiqarilganligi va sotuvda bo‘lganligidan dalolat beradi [8:152].

O.I. Smirnovaning Tabariy ma’lumotlariga suyanib keltirishicha, ichki bozorda ipakning bir kiyimlik qismi 25 dirhamga teng bo‘lgan holda kovush - 2 draxm, qassobning xizmat haqi 5 draxm, cho‘ponning oyligi 6 draxm, parvonachining haqqi 8 draxm, ot 200 draxm, sigir 11 draxm bo‘lganligi [4:182] ipakning bozordagi narxidan dalolat beradi.

Xullas, shaharlar va qishloq o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivoji, turkiylar va sug‘diylar o‘rtasidagi savdoning taraqqiyoti bu davrda endilikda mahsulot ko‘rinishdagi savdodan tanga-pul bilan qizg‘in savdo o‘tilganligi hamda

ushbu savdoning huquqiy va iqtisodiy qonuniyatlar asosida nazorat qilinganligi, bozorlardagi o‘lchov birliklari, narx-navoning barqarorligiga alohida e’tibor berilganligi bilan bog‘liq. Bu esa o‘z navbatida jamiyat taraqqiyoti, urbanizasiya jarayonlarining tezlashganligini va shu asosda davlat ravnaqi hamda madaniy uyg‘onishni vujudga keltirgan omil bo‘lganligini hisobga olish lozim.

Ilk o‘rta asrlar (asosan V-VIII asrlar) tarixini o‘rganish asnosida ma’lum bo‘ladiki, oylik, yillik sarf xarajatlari, kirim (tushim), narx-navo, ichki savdo va bozorlar faoliyati davlat iqtisodiyotining muayyan sohasiga aylanib bo‘lgan edi. Jumladan, Mug‘ tog‘i xo‘jalik kompleksiga oid Devashtich saroyidagi iqtisodiy hisobot matnlari (kirim, chiqim), ijara shartnomalari, oylik maosh qaydlari, murojaatnomalar va maktublarda (B-2, B-8, B-9, B-10, B-5, V-11 R, Nov. 1, V-2, B-6, V-11, A-1, B-1, B-12, Nov. 6, A-5, A-11, V-9, B-27) keltirilgan iqtisodiy hayotga oid ma’lumotlar hujjatning katta qismini tashkil etadi.

Ularda Panjikent saroyining kundalik, oylik, yillik sarf harajatlari, kirim (tushim) haqidagi ma’lumotlar zikr etilgan. Masalan, Nov. 6, A-5, A-11, V-9 raqamli hujjatlardagi pul sarf-xarajatlari yoki pul tushumi bilan bog‘liq matnlar alohida e’tiborga ega. Nov. 6 hujjatida Panch hokimi Devashtich hukmdorligining 10, 12, 13-yillarida xazinaga mansabdor shaxslardan olingan pul tushumi hisoboti berilgan. Birinchi tushum pullari bug‘doy o‘rniga olinganligi (3-5 qatorlar), bu holatda soliq natural (mahsulot) o‘rniga pul bilan to‘langanligini ko‘rsatadi. Hujjatda qolgan tushum xususiyatlari aks etmaganligi tadqiqotlarda qayd etiladi [14:23]. Ilk o‘rta asrlarda Sug‘dda ko‘pgina mahsulotlar qatori o‘ziga xos jarima va iqtisodiy majburiyatlarning o‘ziga xos qiymati bo‘lganligi manbalardan ma’lum. Masalan, Mug‘ tog‘i sug‘diy Nov. 3, Nov. 4 hujjatlarida keltirilgan kuyovning kelin oldidagi majburiyatlarida bu haqda so‘z boradi.

Boshqa tovarlar qatori Sug‘dda qimmatbaho ma’danlar ham narxlangan. Mug‘ tog‘i sug‘diy V-9 (Verso) hujjatida qimmatbaho tosh – yoqut (*γwt*)ning narxi keltirilgan. Ilk nashrida V-9 hujjatidagi ushbu jumlani “Jami bir (dona) yoqut 80 draxmadan 480 draxma bo‘ldi” deya talqin etilgan bo‘lib, M.Is’hoqov 480 draxmaga jami 6 ta yoqut sotib olinganligini yanada aniqlashtirgan. [4:182].

Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlari jamlanmasida nafaqat Devashtich balki boshqa uning oxirgi kunlarida u bilan birga bo‘lgan zodagonlarning ham hujjatlari saqlanganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mahalliy zodagonlarga tegishli xabarlardan birida (Nov. 6) Devashtich hukmronligining 10, 12, 13-yillari (718, 720, 721- yillar) davomida umumiy hisobda 41 draxm pul daromad (shuningdek, makkajo‘xoridan 5 draxm daromad) qilinganligi keltiriladi. Pullar *Shirik* (?), *Kafivarnch* (5 darxm), *Topich* (4 draxm), *Fravat* (8 draxm), *Vgashyarch* (8 draxm), *Vgashtyarch* (8 draxm) kabi shaxslardan va qolgan 8 draxm esa ismi keltirilmagan shaxsdan olingan [4:222].

A-5 hujjati esa VIII asr boshlarida Sug‘dda amal qilgan pul muomalasi haqida qiziqarli ma’lumotlar beradi. Masalan, 2 draxm – kavsh (kovush), qassobning xizmat haqi 5 draxm, cho‘ponga 6 draxm, parvonachiga 8 draxm, podsho uchun 2 draxmga qalpoq, 8 draxmdan qog‘oz va shohi matoga, 15 draxm Farmiton qishlog‘ilik ayolning kiyimlari uchun, 15 draxm soqiyga, tabibga 15

draxm, ot xarid qilish uchun 200 draxm, sigir uchun 11 draxm to‘lovlar amalga oshirilgani haqida batafsil ro‘yxat tuzilganki [5:19]. bu iqtisodiy hayotning aniq lavhasi sifatida qimmatlidir. Ayniqsa, u yo bu lavozimdagi xizmat haqi me’yorlari Sug‘dning ilk o‘rta asrlardagi ijtimoiy hayoti haqida aniq tasavvur beradi.

Xullas, ilk o‘rta asrlar davriga kelib Sug‘d jamiyatidagi narx-navo va sarfiyot boshqa davrlarga nisbatan aniqlashdi. Shahar va qishloq o‘rtasidagi tovar ayriboshlashdan pul munosabatlariga o‘tildi. Pul munosabatlariga bag‘ishlangan sug‘diy sarfiyot hujjatlarida qayd etilgan ot, sigir, boshmoq, sovut, qog‘oz, kiyim-kechak, ipak kabi mahsulotlarning bevosita narxlarga ega bo‘liganligi, saroy kotibi, bog‘bon, qassob, kohin, vino tayyorlovchi, tabib, moliyachi kabi kasb egalariga to‘langan maosh, yer sug‘organ ziroatkor, tom yopgan usta, mol boqqan cho‘pon kabi xizmatlar uchun haq to‘langanligi va bu to‘lovlar naqd pulda (draxm) amalga oshirilganligi Sug‘dda har bir ko‘rsatilgan xizmat va mahsulot uchun muayyan narx belgilanganligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. Москва: Наука, 1981. 389 с.
2.Gharib B. Sogdian Distionary. Sogdian-Persian-English. Teheran: Farhangan Publications, 1995, XXLII. P. 397.
3.Исҳоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар. – Тошкент: Фан, 1992. –Б. 52.
4.Согдийские документы с горы Муг. Вып. II / Юридическиедокументы и письма / Чтение, перевод и комментарии В.А.Лившица. – М.: ИВЛ, 1962. – 222 с.
5.Ғойибов Б., Холиқулов А. Суғдда молия тизими хусусида (суғдий ёзма ёдгорликларнинг нашрлари асосида) / Ўтмишга назар. Тошкент, 2021. 1-сон, 4-жилд. Б. 19.
6.Biblioteka geograforum arabikorum edidit M.J.De.Goeje. I-III. Lugduni Batavorum, I, Viae regnorum….. auctore Abu Ishak al-Istakhri, 1870; III, Descriptio imperii moslemiki auctore…. Al-Mokaddasi, 1967. P. 313.
7.Abu Iskhak Ibrahim ibn Muhammad al-Istaxri. *Opus geographicum. Ed. M.J. De Goeje / BGA, Pars 2. – Lugduni Batavorum, 1967.* – P. 314.
8.Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – Москва: Наука, 1970. – С. 288.
9.Смирнова О.И. «История Бухары» Наршахи (к истории сложения текста и о задачах его издания) // Краткие сообщения института народов Азии. № 69. – Москва: Издательство АН СССР, 1965. – С. 52-53.
10.Распопова В.И. Один из базаров Пенджикента // СНВ. – М., 1971. Вып. X. – С. 67-69.

11.Бобоев Ю.А. Абурайхон Беруни – основоположник согдологии / Номаи донишгоҳ. Ученые записки. Худжанд, 2015. – №1. – С. 12-17.

12.Шмидт А.Э. Материалы по истории Средней Азии и Ирана / Уз ИВАН, Том 16, 1958. – С. 490-493

13.*Abu-l-Kasim ibn Haukal an-Nasibi. Opus geographicum. Ed. M.J. De Goeje / BGA, Pars 2. – Lugduni Batavorum, 1967.* – P. 383.

14.Шоёқубов Ш. Илк ўрта асрларда Суғд. – Тошкент: ИҚТИСОД-МОЛИЯ, 2008. – Б. 23.

2-SHO‘BA. RIVOJLANGAN O’RTA ASRLAR VA XONLIKLAR DAVRIDA DAVLATCHILIK.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Tashmurodov Umidbek Mirza o’g’li
Samarqand Davlat universiteti
O’zbekiston tarixi kafedrasi magistiranti

Annotatsiya: Ushbu maqola Amir Temur va Temuriylar diplomatiyasining o'ziga xos xususiyatlari va bugungi kundagi ahamiyati haqida yozilgan bo‘lib, unda Amir Temur va Temuriylar davlatining chet davlatlar bilan olib borilgan aloqalari va ularning davlat siyosiy taraqqiyotidagi ahamiyati haqida yozib borilgan.

Kalit so‘zlar: diplomatiya, Eron, Ozarbayjon, savdo, 8 marta elchilik, Boyazid Yildirim, Karl VI, Buyuk Ipak Yo’li, Genrix III, Iogann Shiltberger.

Shunday Sohibqiron shuhrati bilsang,
Nasabi haqida gar surishtirsang.
Otadan otaga to, Odam-ato
Bori shohlik taxti, uzra qo‘ymish poy.
SHARAFIDDIN ALI YAZDIY

Barcha davrlarda davlatlararo siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalar bo‘yicha o‘zaro tashqi aloqalarning shakllanishi va rivojlanishida elchilik munosabatlari muhim ahamiyat kasb etgan. Hozirgi globallashuv, davlatlararo siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning keskinlashuvi sharoitida ham mamlakatlarning o‘zaro hamkorlik va do‘stona munosabatlarini ta’minlashning eng umume’tirof etilgan ustunlaridan biri o‘zaro diplomatik aloqalarni rivojlantirish hisoblanadi. Elchilik aloqalarini rivojlantirishda mamlakatlararo munosabatlarning tarixan shakllanishi muhim o’rin tutadi. Bundan tashqari, o‘tgan zamonlarda mavjud bo‘lgan davlatlar, qirollik va amirliklarning muvaffaqqiyatli diplomatik aloqalari, elchilarning tayinlanish, yuborilish va kutib olish tartiblari, ularning diplomatik faoliyati va ulkan tajribasini o‘rganish ham ahamiyatlidir. Misol uchun, ulkan saltanatga hukmronlik qilgan va o‘z zamonining buyuk siyosat arbobi, mohir diplomat va sarkarda – Amir Temurning xalqaro munosabatlarda boshqa mamlakat vakillari bilan olib borgan diplomatik faoliyati hozirgi zamonda mavjud diplomatik tamoyillar, uslublar va odatlar bilan juda yaqin o‘xshashlikka ega. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev sohibqiron Amir Temur tavalludiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyada ma’ruza qilib: “Amir Temurdek tarixiy shaxslarni, sarkarda va sohibqironlarni tarix taqozosi, shu zamon talablari, kerak bo‘lsa, zamon ehtiyoji hayotga olib keladi va ul zotlarning fazilat-xususiyatlarini namoyon qilishga zamin yaratadi... Kimki Amir

Temur qadimiy Turkiston zaminida tasodifan paydo bo‘lgan desa, xato qiladi. Nega deganda hech narsa to‘satdan paydo bo‘lmaydi”, – deb ta'kidlagan edi. Ushbu maqolada Amir Temur diplomatiyasining o‘ziga xos xususiyatlari va uning bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilinadi.

O‘rta asrlarda savdo bilan diplomatiya uyg‘unlashib ketgan edi. Amir Temur "Buyuk ipak yo‘li"ni nazorat qilib, xorijiy mamlakatlardan kelayotgan savdo karvonlari qatnovining xavfsizligini ta’minlashda rabotlar, qal’alar, ko‘priklar qurish yo‘lida muhim tadbirlar ko‘rdi va Sharq bilan G‘arb o‘rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g‘oyat katta e’tibor qaratdi. U poytaxt Samarqandga ketayotgan savdogar va elchilarning to‘xtovsiz va tinch yurishi uchun sharoit yaratilishini talab qilgan. Amir Temur eng muhimi, Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi mayda hukmdorlar o‘rtasidagi tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo‘shdi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o‘rnatdi. Tarixshunos S.R.Moralez “The Diplomat in Spain” gazetasining internet saytida chiqargan maqolasida quyidagilarni bayon qilgan: “O‘zbek diplomatiyasi haqiqatdan chuqur tarixiy ildizga ega. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur davriga kelib, Yevropa davlatlari bilan hamkorlik aloqalari yanada rivojlana bordi. Amir Temur kabi sohibqironning tug‘ilishi nafaqat o‘sha zaminda, balki butun Yevropa va Osiyo davlatlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida tub burilish sodir etdi” [3].

Nizolarni kuch ishlatmasdan hal qilish hozirgi zamon diplomatik munosabatlarining asosiy tamoyili hamdir. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ham “elchilarning yutug‘i urushni boshlamasidan turib uni yutishda” deb aytgan so‘zlari Amir Temurning diplomatik hislatini namoyon qiladi. [1] Shu bilan bir qatorda, Amir Temur o‘zining “Tuzuklari”da “qaysi ishni chora-yu tadbir bilan bitirishning iloji bo‘lsa, unda qilich ishlatmadim” degan so‘zlari fikrimiz dalilidir. [4] Shuningdek, qaysi mamlakatni zabt etgan bo‘lsa, ularning odamlariga katta ehtirom ko‘rsatdi va ular uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi. Sohibqiron o‘z “Tuzuklari”da shunday deb yozadi: “Qaysi mamlakatni zabt etgan bo‘lsam, o‘sha yerning obro‘- e’tiborlik kishilarini aziz tutdim, sayidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyihlariga ta’zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg‘ol vazifalar in’om etib, maoshlarini belgiladim, o‘sha viloyatning ulug‘larini bo‘lsa, o‘z farzandlarimdek ko‘rdim. Mazkur mamlakatlarning sipohlari uchun dargohim eshigi ochiq edi. Hammani qo‘rquv va umid orasida saqladim”. [4] Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ham Amir Temurning bunday diplomatik hislatlari va mahoratini yuqori baholab, o‘zining “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asarida u haqidagi bir rivoyatni misol keltirib, uning diplomatik qobiliyatini e’tirof etdi: “Amir Temur yarim jahonni zabt etib, olis o'rmon qabilalariga borib yetibdi, xullas, ularni ham o'ziga bo'ysundiribdi. Qaysar va jangari, ozod va samimiy bu qabila boshlig‘i chorasizlik tufayli Temurga qurollarini topshirar ekan, quyidagi gaplarni aytibdi: «Ey, Temur! Sen bizni qurol

kuchi bilan yenga olding. Biroq senga aytadigan shartlarimiz bor. Agar sen qassob bo‘lsang, bizni so'yib tashla, agar sen savdogar bo‘lsang, sotib yubor, agar podsho bo‘lib kelgan bo‘lsang – bizga baxt ato et!” [2] Diplomatik yo‘l bilan o‘z ta'sir doirasini kengaytirish usulini Amir Temur o‘z faoliyatining keying davri, ya'ni jahongirlik davrida ham keng qo‘llagan. U ayniqsa, kichik hukmdorlarga jangu jadalga kirishmaslikni, yuqori hokimiyat sifatida uni tan olgan holda o‘z yurtida avvalgidek hukmronlik qilaverishni tavsiya etgan. Manbalardan ma'lumki, ko‘p hollarda bu siyosat muvaffaqiyat qozongan. Amir Temur diplomatiyasiga xos xususiyatlardan yana biri shuki, u raqiblariga yozgan xatlarida odatda sharqona odob-axloq va asrlar mobaynida qaror topgan udumlardan chekinmagan. Amir Temur boshqa hukmdorlarga elchilar yuborar ekan, ularga yuklatilgan vazifaning ahamiyatiga qarab o‘z nomidan ish ko‘ruvchi bunday odamlarning e'tiborli, el-yurt ichida tanilgan, aql va zakovatli bo‘lishiga katta e'tibor bergan. Sohibqiron elchilarni tanlashda g‘oyat ehtiyotkorlik ko‘rsatgan, o‘z a'yonlari ichidan eng sadoqatli, bilimdon va hushyor kimsalarnigina bu ishga loyiq ko‘rgan. Mamlakat bo‘ylab shunday tartib o‘rnatilgan ediki, elchilarni yo‘lidagi shahar va qishloqlarning hokimlari kutib olar, aholi uylaridan gilamlar chiqarib joy solar, dasturxon yozib mehmonnavozlik ko‘rsatar, tunash uchun munosib joy berar va yo‘lida davom ettirish uchun ot-ulov bilan ta'minlashar edi. Agarda Amir Temur kimni biror yerga yuborsa yoki uning qoshiga kimdir kelayotgan bo‘lsa, shu tarzda kutib olishardi va har kuni yangi ot bilan ta'minlashardi. Bu otlar aholi bor yerlarda ham, yo‘q yerlarda ham amirning buyrug‘iga ko‘ra tayyor turardi, ularga qaraydigan odamlar tayinlanardi.

Amir Temur o‘zaro savdo aloqalarni yo‘lga qo‘yish uchun turli mamlakatlarga o‘z elchilarini yuborar edi. U o‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy, va madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga qat’iyat bilan yondashdi. Masalan, u savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yish uchun Xitoy imperiyasiga 8 marta o‘z elchilarini yubordi. Uning saroyi turli davlatlardan kelgan elchilar bilan to‘la edi. [5] Amir Temur diplomatiyasida davlatlarning o‘zaro xat almashinuvi muhim ahamiyat kasb etar edi. Masalan, Amir Temur va Boyazid Yildirim o‘rtasidagi xat almashinuvlari o‘ta keskinligi bilan ajralib turadi. Chunki ikki buyuk davlat arboblarining xatlarida o‘zaro diplomatik muzokaralarni o‘tkazish haqida emas, balki ikki qudratli raqibning yakkama-yakka kuch sinashishga da’vatidan iborat bo‘lgan. Xususan, Boyazid o‘z xatida Amir Temurni zudlik bilan huzuriga yetib kelishini talab qilib, Sohibqiron sha’niga nomunosib so‘zlarni aytgan. Amir Temur esa bunday haqoratomuz munosabatga qaramay, Boyazidning elchilarini yaxshi nasihatlar bilan tinch-omon qo‘yib yuborgan. Amir Temurning Boyazidning haqoratlariga haqiqiy diplomat singari javob qaytarishi uning yozgan xatlaridan ham ma’lum edi: “Agar samimiy salomingiz va go‘zal ifodalar aks etgan maktub yuborsangiz har ikki tomonda ham biroz iliqlik va hurmat paydo bo‘ladi. Aks holda, qalamlar o‘z ishini qilichga topshiradi” [6] Amir Temur Karl VI saroyiga Sultonya arxiyepiskopi Dominikan ruhoniysi Janni elchi qilib yubordi . [8] Jan 1403-yil 15- iyunda Parijga yetib keldi. Temurning maktubi Karl VI ga yetkazilib, unda quyidagilar tavsiflangan: "Eng osoyishta, eng

muzaffar Qirol va Sulton, Frasniya va boshqa ko'plab millatlar qiroli, eng qadrli do'stim, dunyoning eng marhamatli monarxi, ko'plab buyuk urushlar g'olibi." - Amir Temurdan Karl VI ga maktub. [7] Temur Karl VIga harbiy ittifoq hamda tijoriy aloqalarni yanada rivojlantirishni taklif qildi. Karl VI faqat Temur o‘limidan sal oldin (1405) javob elchiligini yubora olishi mumkin edi. [7] Ispaniya bilan aloqalar ham rivojlangan. [7] Ispaniyalik tarixchi Migel Anxel Ochoa Brunning fikriga ko‘ra, Kastiliya qiroli Genrix III va Amir Temur o‘rtasidagi munosabatlar o‘rta asr Kastiliya diplomatiyasining eng muhim tasvirlari bo‘lgan. [9] Amir Temur Kastiliya saroyiga Xoji Muhammad al-Qozi ismli Chig‘atoy elchisini xat va sovg‘a-salomlar bilan yubordi. [10]

Kastiliya qiroli Genrix III esa 1403-yil 21-mayda Rui Gonzales de Klavixo boshchiligidagi elchilarni yana ikki elchi — Alfonso Paez va Gomes de Salazar bilan birgalikda Amir Temurning Samarqanddagi saroyiga yuboradi. [7][11][8] Elchi Klavixo 1406-yil Ispaniyaga qaytib kelganda Amir Temur Ispaniya qirolini „o‘zining o‘g‘li deb bilishini“ aytadi. Klavixoning so‘zlariga ko‘ra, Temurning Ispaniya delegatsiyasiga nisbatan yaxshi munosabat bildirgan. Bavariyalik sayyoh Iogann Shiltberger 1402-yildan 1405-yilgacha Amir Temur xizmatida qolganligi ma’lum. [8] Shuningdek, ko‘plab venetsiyalik va Amir Temurdan keyingi munosabatlar Genuyalik savdogarlar ham o‘sha vaqtlar tashqi aloqalarida faol edilar. [10] Yevropa va Temuriylar o‘rtasidagi keyingi aloqalar venetsiyalik sayyoh Nikkolo da Kontining 1420-1425-yillar oralig‘idagi aloqalari bo‘ladi. [10] Ispaniyaning sharq bilan yaqinlashishga bo‘lgan istagi 1492- yilda Xristofor Kolumb davriga qadar davom etgan bo‘lsa-da, aloqalar bundan keyin avvalgidek rivojlana olmadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temurning diplomatiyasining asosiy xususiyati shundan iboratki, diplomatiyaning Sharq madaniyati bilan uyg‘unlashganidir. Undagi har bir harakat millatning an’ana, manfaat va qadriyatlariga binoan amalga oshirilgan. Hozirgi Sharq mamlakatlarida amalga oshirilayotgan diplomatik munosabatlarning Amir Temur diplomatiyasi bilan o‘xshashligini payqash qiyin emas. Elchiga ko‘rsatilayotgan hurmatdan tortib, to xorijiy mamlakatlarning oddiy vakillariga ko‘rsatiladigan ehtirom Sharq diplomatiyasi, ayniqsa, Amir Temur diplomatiyasining asosini tashkil etadi. Bu kabi xususiyatlar O‘zbekistonning hozirda olib borayotgan, tinchlik va o‘zaro hamkorlikni ilgari suruvchi, xavfsizlik va totuvlik kabi qadriyatlar bilan sug‘orilgan hamda boshqa davlatlarning qarorlarini hurmat qilish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish kabi g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirgan diplomatik aloqalarining asosiy mezonlaridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va kelajagi yo‘lida xizmat – eng oliy saodatdir. – T: O‘zbekiston, 2015. 300-301-betlar.

2. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T: O‘zbekiston, 2011. 13-bet.

3. Moralez S.R. Ruy González de Clavijo, un madrileño en el reino del Gran Tamerlán. “The Diplomats in Spain” gazetasining internet sayti, 2015. Veb:

http://thediplomatinspain.com/ruy-gonzalez-de-clavijo-un-madrileno-en-el-reino-delgran-tamerlan/
4. A. Sog‘uniy, H. Karomatov. Temur Tuzuklari. Forschadan tarjima. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
5. Xo‘jayev A. Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. – Toshkent: O‘zME, 2010. 199-bet.
6. Rahimboyev A. Amir Temur va Yildirim Boyazid orasidagi maktublashuv.
7. Atiya, Aziz Suryal (1938), The Crusade in the Later Middle Ages (https:// books.google.com/books?id=w0IOAAAA QAAJ&pg=PA256) , 256-bet.
8. "Ibn Khaldun in Egypt" Walter F.Fischel (https://books.google.com/books?id=UP69Cm3kdCUC&pg=PA106)Books.google.com — 106 bet.
9. González de Clavijo, Ruy; Estrada, Francisco López (1999), Embajada a Tamorlán (https://books.google.com/boo ks?id=rAuDt2JHh6gC&pg=PA19).
10. Fisher, W. William Bayne. The Cambridge History of Iran (https://books.google.co m/books?id=fY01Tc2SZVEC&pg=PA37 5) . Cambridge University Press, 1986-02- 06 — 375– bet.
11. "Inner Asia" by Denis Sinor (https://books. google.com/books?id=foS-y-ShWJ0C&pg =PA190) . Books.google.com — 190 bet.

ALISHER NAVOIY TEMURIYLAR DAVLATChILIGI MA’NAVIY ASOSLARINING AYRIM JIHATLARI HAQIDA

G‘aniev Kamoliddin
Samarqand davlat universiteti
O‘zbekiston tarix tarixi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning temuriylar saltanati siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy ravnaqi hamda inqirozining mushtarakligi g‘oyasini sharqona poetik tarzda ifoda etilganligi tahlil qilingan. Maqolada Alisher Navoyning buyuk davlat arbobi va nazariyotchi sifatida jamiyat taraqqiyotining barcha tomonlarini, davlat siyosatining adolatli asoslari va me’zonlarini rivojlantirishga qo‘shgan hissasini ochib berishga harakat qilingan

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, saltanat, ma’naviy asoslar, madaniy va ma’naviy hayot, adolatparvarlik, odil shox, markazlashgan davlat**.**

Ko‘hna Sharq olamining klassik namoyondalaridan biri buyuk o‘zbek shoiri va davlat arbobi Alisher Navoiy asarlarida temuriylar saltanatining ijtimoiy-ma’naviy va iqtisodiy taraqqiyoti hamda inqirozining mushtarakligi g‘oyasini sharqona poetik tarzda ifoda etgan. U temuriylar avlodlari o‘rtasida ziddiyatlar, hokimiyat uchun kurash keskinlashgan bir vaqtda Hirotda yashab ijod qildi. Alisher Navoiy buyuk davlat arbobi, nazariyotchi va amaliyotchi sifatida jamiyat taraqqiyotining hamma tomonlarini, ayniqsa davlat siyosatining adolatli asoslari va uning ma’naviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. U

adolat to‘risidagi qarashlarida inson ruhiyati bilan bog‘liq ijtimoiy illatlarning mohiyatini tahlil qildi, amaliyotchi sifatida ularning oldini olish uchun butun imkoniyatlarini ishga soladi.

Alisher Navoiyning nafaqat ijodiy kamolati, balki buyuk davlat arbobi darajasiga ko‘tarilgan davri temuriylarning yirik vakili, ma’naviyat sohibi hamda yetuk shoir Sulton Husayn Boyqaro davriga to‘g‘ri keldi. Sulton Husayn Boyqaro hukmronlik davrida mamlakatda nisbatan tinchlik, adolat o‘rnatildi, xalqning axvoli bir muncha yaxshilandi, iqtisodiy hayot jonlandi. Alisher Navoiy ijodiy faoliyatini temuriylar davlatida, xususan, Xirotda hukm surgan, ilm-fan va madaniyatga bo‘lgan munosabat,uyg‘onish davri hamda tarixiy muhit va jarayonlardan ajratib qarash mumkin emas. Buyuk shoirning yaratgan dostonlari va asarlarida kuylangan insonparvarlik, xalqchilik, odillik, insonparvarlik, elparvarlik, chin insoniy his-tuyg‘ular va ular asosida olib borilgan davlat-xuquqiy faoliyat – Renesans – uyg‘onish davrining gultojlaridan biri edi. Shuningdek, Xurosonda temuriylar davlatini boshqargan Husayn Boyqarodek hukmdorni ham uning muhim davlat lavozimlarida Alisher Navoiy faoliyatidan ajratib alohida tadqiq qilish qiyin. Ma’lumki, Amir Temur va uning o‘g‘li Shohruh davidagi bunyodkorlik, obodonchilik ishlariga e’tibor, ilm-fan va madaniyat borasida yuksaklik o‘ziga xos jonlanish uyg‘onish – Renesans yuz berdi. Bu jaryon XV asrning II yarmida Alisher Navoiy va Xusayn Boyqaro davrida yanada Xurosonda ilm-fan va madaniyatning yuksak rivojlanishi uchun asos yaratdi. [1, 130-131]

Buyuk manaviyat sohibi Alisher Navoiy butun hayoti bilan hakikiy inson qanday bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi. U o‘z davridagi noxaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o‘z vazifalarini suiste’mol qilishlarini va ta’magirliklarini fosh etdi. Alisher Navoiy 1465-1469 yillarada Samarqanda yashab, Abu Laysiy madrasasida ta’lim oladi. Shu yerda shahar xokimi Ahmad Hojibek uni davlat ishlariga jalb etib turganligi tufayli bu ishlarda katta tajriba orttirgan. Uning Samarqandagi bu faoliyati tegishlicha baholanib unga “Chig‘atoy amiri” unvoni berilgan. [2] 1469 yil 14aprelda Xusayn Boyqaro Hirot taxtini egallagach, Alisher Navoiyni chaqirtirib olib, unga muhirdorlik mansabi berilgan. Sulton Husayn Boyqaro 1472 yilning fevral oyida uni o‘z saroyining bosh vaziri qilib tayinlab, unga “Amiri kabir” (Ulug‘ amir) unvonini berdi. [3, 49]

Bu lavozimdan Alisher Navoiy el-ulus manfaati, shahar va mamlakat obodonchiligi, madaniyat ravnaki, adolat tantanasi uchun foydalandiki, bularning barchasi pirovard natijada Sulton Husayn davlatining barqarorligi va nufuzini ta’minladi. Bu davrda u avvalo butun kuchini mamalakatda tinchlik va osoyishtalik o‘rnatishga qaratdi, bosqinchilik urushlarini oldini oldi.1487 yilda saroydagi ig‘vo va ko‘rolmasliklar tufayli Alisher Navoiy bu mansabdan bo‘shatilib, Astrabod viloyatiga hokim qilib yuboriladi. Bu davrda Astrobod “Dorul fatx” (Sulton Husayn ilk g‘alaba qilgan shahar), deb ulug‘lanar va ko‘pincha valiahd shahzoda hukmida bo‘lar edi. Boshqa bek va amirlar uchun sharafli hisoblanishi joyiz bo‘lgan martaba Alisher Navoiyning nozik tabiati

uchun muayyan darajada ozorli bo‘ldi. Astrobodda ikki yil chamasi hokimligi bu shahar ahli uchun saodatli, Boyqaro saltanati uchun hayrli bo‘ldi. [4, 103]

Ko‘p o‘tmay u Astroboddan chaqirib olingan, ammo bundan keyin biror mansabni egallashga rozilik bermagach “Muqarrabi Hazrati Sultoniy – Sulton hazratlarining eng yaqin kishisi” unvoni beriladi. [5, 217-225]

Bosh vazir lavozimida ishlagan Alisher Navoiy madaniyat va san’atning chinakam homiysi sifatida tanildi. Uning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalarni to‘g‘ri xal qilishga intilish, jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarga, barcha qavmlarga bir munosabatda bo‘lish, hammaning manfaatlariga barobar xizmat qiladigan jamoat binolari qurilishga e’tibor berildi. Hirotda Sulton Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan davrda qator oliy imorat va inshootlar qad ko‘tardi. Ushbu bunyodkorlik ishlari bevosita Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq. Manbalarda ta’kidlanishicha Alisher Navoiy va uning safdoshlari tashabbusi bilan Hirot, Astrobod va boshqa shaharlarda 375dan ortiq jamoat binolari: masjid, madrasa, xonaqoh, hamom, shifoxona, saroy, istirohat bog‘lari hamda turli xil sug‘orish inshootlari, xovuz, ko‘rik, suv omborlari barpo qilingan. [1,132]

XV asr muarrixi Xondamirning yozishicha, Alisher Navoiy o‘z mablag‘iga 40 ta rabot,19 ta hovuz, 19 ta ko‘prik, 9 ta hammom, 17 ta masjid, 10 ta xonaqoh, madrasa va shifoxonalar kabi imorat v inshootlar qurdirgan. Ular orasida Hirotdagi “Ixlosiya”, “Nizomiya” madrasalari, Astrobod shahrida qurilgan “Mir saroyi”, “Jome’ masjidi” ,shuningdek Marv shahri yaqinida barpo qilingan “Xusraviya” nomli madrasa, uning qarshisida ko‘rkam “Xalosiya” xonaqohi qad ko‘taradi. “Quddusiya” jome’ masjidining g‘arbida “Shifoiya” davolash uyi, uning qarshisida esa “Safoiya” hammomi quriladi. [6,286] Bu davrda jamoat binolarini ismi va jismiga monand, ma’nodor hamda jarangdor nomlari bilan atash orqali imoratlarning mantiqiy ifodasiga ham katta e’tibor berilgan. Ixlosiya, Xalosiya, Shifoiya, Unsiya, Nizomiya, Xusraviya va Fanoiya shular jumlasidandir. Masalan, Ixlosiya madrasasining nomi Alisher Navoiyning do‘sti Sulton Boyqaroga bo‘lgan ixlosini, minnatdorchiligini bildirsa; Xalosiya ozodlik; Shifoiya sog‘lik, shifo; Safoiya poklik, yorug‘lik ma’nosini anglatgan. Xusraviya madrasasining nomi esa binoning birinchi g‘ishtini qo‘ygan shahzoda Muhammad Sulton nomini hamda uning qurilgan yilini anglatgan. [6,287-288]

Sulton Husayn Bayqaro hukmronligi davrida Sharq mamlakatlaridan Hirotga yuzlab olimlar, adiblar, rassomlar, hattotlar va boshqa hunar ahllari oqib kelishadi. Zero, bu yerda ilm-fanga, ma’naviyat va madaniyatga homiylik qilinar, Abdurahmon Jomiy, Navoiy kabi ustozlar yashashardi.

Natijada Hirotda tabobat, tarix, adabiyot, handasa, tasviriy san’at, kitob san’ati gullab yashnadi. Zahiriddin Muhammad Bobur mashhur “Boburnoma” asarida Sulton Husayin Bayqaro zamoniga, undagi bunyodkorlik ishlariga, madaniyat ravnaqiga yuksak baho bergan.[7, 42-48] Ko‘hna Sharqning mashhur allomalari – “Sharq Rafaeli” Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Sultonali Mashhadiy, Binoiy, Vosifiy, Koshifiy, Hiloliy kabi ko‘plab allomalar ana shu muhitda tarbiyalanib kamolga yetganlar. Sulton Husayin Bayqaroning bu

sohadagi jonbozligini, homiyligini Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi daholar qo‘llab-turganlar.

Temuriylar davrida Nizomiy va Amir Xusravlar fors tilida ijod qilgan bo‘lsalar, endi turkiy she’riyat mintaqa hududida rivojlandi. Markaziy Osiyoda turkiy tilda ijod qiluvchilar soni ortib bordi. Temuriyzodalarning ko‘pchiligi turkiy tilda ijod qilganlar. Jumladan, Sulton Husayn Boyqaro turkiy tilning rivoji uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirgan, yozuvda uni iste’molga kiritish uchun mahsus farmon bergan. Alisher Navoiy ijodi gullab-yashnab, Hirotda madaniyat, ilm-fan yuksalib borgan sharoitda Sulton Husayn Bayqaro saltanatida kuchayib borayotgan tanazzul, Sulton va o‘g‘li Badiuzzamonlar o‘rtasida kuchayib borayotgan ziddiyat, davlat boshqaruv usullarining o‘z umrini o‘tab borayotgani, ayniqsa, 1497 yilda Husayn Boyqaroning nevarasi, Alisher Navoiyning tarbiyasini olgan o‘smir, 14 yoshli Mo‘min Mirzoning xoinona qatl etilishi yomon zarba bo‘ldi. Bu mudhish hodisa Alisher Navoiyni qattiq iztirobga soldi. Bu holat temuriylar davrida mamlakatda erishilgan yuksak ma’naviy kamolat bilan siyosiy hayot sohasidagi xurofiy an’analar borgan sari chuqurlashib, halokatli tus olayotganiga ishora bo‘ldi. Shu asosda chiqarilgan achchiq xulosalar uning so‘nggi uch asari: “Lison ut-tayr” (1498), “Muhokamat ul-lug‘otayn”(1499), “Mahbub ul-qulub” (1500) mazmuniga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. [4, 105]

Alisher Navoiy “Lison ut-tayr”da “majoz tariqi” vositasida insoniyatning yaxlitligi va buni anglab yetish har bir insonning ma’naviy kamolot sari cheksiz intilishi orqali yuz berishi mumkin ekanligi yana bir karra ta’kidlandi. Shu bilan birga bashariyat miqyosidagi mukammal ijtimoiy tizim shakllanishi undagi har bir shaxsning ma’naviy barkamolligi bilan bog‘lik ekanligi, bu barkamollik bashariyatning har bir a’zosiga nisbatan beg‘araz va samimiy mehr mas’uliyati bilan o‘lchanishi yorqin timsollarda ochildi. Insoniyatning yaxlit mohiyat sifatida birlashuvi zo‘rlik va bosqin asosida emas, balki o‘zaro mehr va bir-birini tushinishga intilish, xar bir shaxsning ma’naviy kamoloti orqali erishiladigan voqelik ekani bashorat etildi. “Muhokamat ul-lug‘otayn”da Alisher Navoiy davr taqazosi bilan mintaqa bo‘ylab sochilib ketgan turkiy qavmlarni yaxlit ma’naviy qiyofasini tugal saqlab qolish yo‘lidagi faoliyatiga yakun yasadi. Amir Temur yaratgan saltanat oxirgi urinish ekanligini dildan sezgan shoir yangi davrda ma’naviy umumiylikka intilish xayrli ekanini anglab yetdi va shuni aniq nazariy asosladi. [4,116-117]

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”da XV asrda mavjud bo‘lgan siyosiy, ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy hodisalarning o‘zaro bog‘likligi, yaxlitligi ishonarli ta’kidlangan. Unda jamiyatdagi turli toifalar o‘z salbiy va ijobiy xislatlari bilan to‘liq ta’rif etilib, ularning har biri jamiyat taraqqiyoti va davlat tizimida qanday o‘ziga xos vazifa ekanligi tushuntirildi. Bu jihatdan, Alisher Navoiy Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk va boshqalarning siyosiy-ijtimoiy qarashlarini ijobiy rivojlantirdi, jamiyatdagi ijtimoiy toifalar haqida fikr yuritar ekan, asosiy moddiy boylik yaratuvchi – dehqonlar va ma’naviyat ahli – ziyolilar timsolini alohida mehr bilan tasvirlagan. [4, 117]

“Xamsa”ning yakunlovchi dostoni “Saddi Iskandariy” (1485) asarida Alisher Navoiy Iskandarning (Aleksandr) sarguzashtlari fonida adolatparvarlik, odil shox, markazlashgan davlat tuzish, insoniylik borasidagi o‘zining ilg‘or qarashlarini bayon qiladi. U dostonda hukmdorning vazifalariga, saltanat muammolarini mas’uliyat bilan xal qilish masalalariga to‘htalar ekan, uning davlatni qonun asosida boshqarish, har bir tabaqaning obro‘-e’tiborini, qadr-qimmatini munosib baholash, ulardan biri ikkinchisi ustidan hukmronlik qilishga yo‘l qo‘ymasligi uchun hukumat raiyatga zulmu sitamni oldini olishi zarurligini ta’kidlaydi. Shu bilan bir qatorda Alisher Navoiy davlat yo‘llar havsizligini ta’minlab, qaroqchilar guruhiga barham berishi, o‘g‘rilar va ulus mulkiga ko‘z olaytiradiganlarning damini qonun-qoida orqali to‘sishi, har doim millat tomonida bo‘lib, ularni himoya qilishi, zolimlar iligini xalq yoqasidan uzib, ularning osoyishtaligini ta’minlashi muhim ekanligiga alohida e’tibor beradi. [3,51]

Alisher Navoiy o‘z asarlarida davlat faoliyatidagi qonun ustuvorligi g‘oyasi, hukmdorning qonunga bo‘lgan munosabati masalasini eng va zaruriy narsa sifatida olg‘a suradi. “Qonun diniy aqida va duolardan ustun va muhimdir”, “Sulton ham agar gunoh qilar ekan jazoga tortilishi muqarrardir” degan tamoyillar amalda qonun oldida shohu gado tengligini eslatganligi bilan izohlanadi. Professor M.Imomnazarov o‘rinli ta’kidlaganidek “Alisher Navoiy badiiy-falsafiy ijodida millat ma’naviyati eng oliy bosqichga ko‘tarildi. Buyuk shoir pok insoniy mehrni ma’naviyatning tug‘rosiga aylantirdi. Navoiy ma’naviyati timsolida e’tiqod va ilm, iroda qudratli va mehr, fidoiylik va donishmandlik yagona kasb etib, millat ma’naviyati kamolotining oliy bosqichiga olib chiqdi”. [4,139]

Xullas, buyuk mutaffakkir, yuksak ma’naviyat sohibi va davlat arbobi Alisher Navoiyning davlat boshqaruvi asoslari va ma’naviy mezonlari haqidagi g‘oyalari va ularni amalga oshirishdagi say-harakatlari yangicha ijtimoiy tizim – fuqarolik jamiyatining ma’naviy talablariga ishora etuvchi ilk kurtaklaridan bo‘ldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Муқумов З. Амир Темур ҳамда темурийлар давлати ва ҳуқуқи:(тарихий-ҳуқуқий тадқиқот) –Тошкент, Наврўз, 2020.
2. Амир – амр берувчи, фуқаровий мансабларда ҳам, ҳарбий мансаб сифатида ҳам берилган. Шайбонийлар, аштархонийлар давлатида ҳам “Чиғатой амири”, “Чиғатой беги” мансаблари сақланиб қолинган.
3. Ғаниев К. Алишер Навоий темурийлар салтанатининг маънавий мезонлари хақида айрим мулоҳазалар / Соҳибқирон юлдузи, 2018й., №3
4. Имомназаров М.С. Миллий маънавиятимизнинг такомил босқичлари. (Рисола). -Т.: “Шарқ”,1996
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1- жилд. –Тошкент:. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2000
6. Муҳаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи (IV асрдан-XVI аср бошларигача) –Тошкент:. 2004

7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур.“Бобурнома” / Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев: Муҳаррир А.Ўктам. -Т.: Юлдузча, 1989

ИЗ ИСТОРИИ СРЕДНЕВЕКОВЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ САМАРКАНДА (МЕДРЕСЕ И ШКОЛЫ). ВОПРОСЫ 3Д ОЦИФРОВКИ ЭТИХ ОБЪЕКТОВ.

Шохиста Хасанова – преподаватель кафедры истории Узбекистана СамГУ.
Урунходжаев Улугбек – научный сотрудник ансамбля Регистан, Узбекистан.

Аннотация: В статье описывается роль средневековых медресе в развитие науки и культуры в Самарканде. Как известно, после завоевания региона Центральной Азии арабами, здесь полностью меняется идеология и культура, устанавливается религия ислам. Первые медресе и школы в Самарканде появляется в 1Х веке и это продолжается до начало ХХ века. Поэтому изучение истории медресе, его деятельности в подготовке образованных кадров велика. Широко показано появление медресе в Самарканде, сопоставление их деятельности с образовательными учреждениями других регионов исламского мира и других. Также показано роль и значение медресе в подготовке кадров, развитие науки, культуры, искусство и литературы. Есть предложение по сохранение и 3Д оцифровки медресе Самарканда.

Ключевые слова: Медресе, школы, Самарканд, Центральная Азия, СамГУ, ЛТУ, сохранение, 3Д оцифровка.

1. Введение.

Самарканд один из древнейших городов мира, имеет богатую историю, которая еще полностью не изучена. То, что мы имеем, сохранилось благодаря самаркандским ученым и энтузиастам. Тема история средневековых учебных заведений или история образования Самарканда, хорошо освящена в экспозиции музея История образования Самарканда, в медресе Мирзо Улугбека ансамбля Регистан. Музей торжественно был открыт в конце августа 2020 года, к 600 летию юбилея этого медресе. В ходе подготовки и сбора материалов для будущей экспозиции этого музея, нам пришлось, изучить много литературы. До начала ХХ века в Самарканде учеба велась в основном в школах и медресе. Это средневековая система образования существовала в Самарканде боле тысячи лет, некоторые здания этих учебных заведений сохранились до наших дней.

2.Из истории средневековых учебных заведение.

После завоевания арабами Центральной Азии, народ этого региона принимает Ислам и его идеологию. После чего в социально-культурном направлении происходит много изменений. Одно из этих направлений, учеба и учебные заведение. По историческим сведениям, первые школы и

медресе появляются в Бухаре в конце YIII и начае IX века. Мактаб – начальная школа, где дети получали первоначальное знание. Их обычно разделяли на 3 группы, начальный, средний и взрослый. После завершения школ многие продолжали учебу в медресе. Школы организовывались при мечетях, на дому, в специальных помещениях и других местах. В начальных классах дети ходили с 5 летнего, или 7 летнего возраста. Они изучали буквы, слова и чтение небольших текстов из книги. После начальной школы, продолжали учебу в средних и взрослых группах. Не все дети продолжали учебы до конца. Многие завершали учебы после начального и среднего обучения. Полностью обучение в школах делилось 10 лет. Богатые люди своих детей обучали на дому, пригласив учителей к себе домой. К сожалению, здание таких школ или средневековые школы до наших дней не сохранились.

В Самарканде первые школы и медресе тоже появились в IX веке. Учеными доказано, что в Самарканде за период IX-XX веков существовало более 70 медресе. Они были разные и по форме и по содержанию, государственными, общественными, частными и другими. Их строили правители, визиры, чиновники, богатые, общество и другие. Например, медресе Ибрагима Тамгачхана 1066 году был построен по приказу правителя Караханидов Ибрагима Тамгачхана или медресе Мирзо Улугбека было построено 1420 году по приказу правителя Маверинахра Мирзо Улугбека. Медресе Шер-дор и Медресе Тилла-кори также было построено в 17 веке по приказу Самаркандского правителя Ялангтуш Баходира.

На сегодняшний день в Самарканде сохранилось здание следующих медресе: Медресе Мирзо Улугбек, медресе Шер-дор, медресе Тилло-кори на ансамбле Регистан, медресе Нодир Девон-беги в комплексе Хаджа Ахрар, медресе Кушбеги в комплексе Шахи-зинда, медресе Панджаб, медресе Усмат-бой и другие.

Что такое медресе и как они появились в Центральной Азии, в частности в Самарканде?

В 60-е годы XX веке при археологических исследованиях в ансамбле Шахи-зинда в Самарканде было открыто точно датированное, одно из самых ранних в Средней Азии медресе, известное по письменным источникам. Это было ханифитское правительственное медресе Кусамийа XI век, построенное у главной святыни города – «Машада Кусама» первым тюркским правителем Западного Каганата из династии Караханидов Ибрахимом Тамгач - Бугра - ханом к 1066 год Тамгач Бугра хан (правил 1040–1068) с самого начала образования Западного Каганата сделал своей столицей Самарканд. В конце своего правления он построил в столичном городе дом для больных (дар ли-л марда) и «приказал основать около святыни (ал-машхад) медресе, которая станет местом собрания людей науки и религии». Почти одновременно в Египте Александрии был обнаружен вакф на это медресе от 1066 года, переведенный сначала на французский, а затем на русский язык.

В те же годы несколько списков того же вакфа 1066 года, хранящихся в Ташкенте (фонды Института востоковедения АН РУз), были переведены и сопоставлены с материалами археологических работ в Шахи-зинде (О.Д. Чехович, Н.Б Немцева).

Этот комплекс письменных и археологических данных позволил впервые, на документальной основе рассмотреть одно из самых ранних медресе Центральной Азии, изучить вопросы генезиса, ранние архитектурные формы медресе, внутреннюю структуру, программу обучения в медресе и т.д.

Медресе Кусамийа было выстроено с западной стороны дороги-улицы (коридор Шахи-Зинды), напротив «машада Кусама» в ансамбле «кош». Главный фасад медресе был обращен на восток, к «машаду», северный - в сторону канала (фаркин по вакфу), протекавшего от главного распределителя Джуи-Арзис у южных Кешских ворот в сторону Шахи-Зинды. Здание имело дворовую четырех айванную планировочную композицию, занимало площадь около 55х45 м. Главный восточный фасад имел характерную для таких сооружений фронтальную композицию (дл. 45 м). На центральной оси фасада находился входной портал, по его сторонам – крылья стен, завершенные угловыми башнями-гульдаста. Эта типичная фронтальная композиция к XI в. окончательно сформировалась, как показывает целый ряд памятников зодчества Центральной Азии (Рабат-и Малик, Дая-хатын и др.), в медресе Кусамийа XI веке она представлена в законченной, сложившейся форме. Фасад, сохранившийся на высоту 0,7-2,80 м (часть фасада вмурована в мавзолей Безымянный-2 конца XIV в.), был облицован парным шлифованным кирпичом с поперечными фигурными вставками-«бантиками» - типичным декоративно-облицовочным приемом для XI-XII вв. Верхние части фасада и входного портала, судя по находкам, украшала резная неполивная терракота с богато насыщенным растительным, геометрическим и эпиграфическим орнаментом. Внутренний план здания заключал просторный (около 20х30 м), вымощенный квадратными плитами двор, с айванами на осях, застроенный по сторонам худжрами для проживания студентов и учебными классами. По углам, судя по вскрытому, видимо, располагались крупные квадратные залы - дарс-хана, мечеть, библиотека, названные в вакфе. Интерьер вскрытого юго-восточного зала был покрыт полихромной росписью по ганчу и вымощен квадратными шлифованными плитами.

В медресе Кусамийа, как следует из вакфа 1066 года, обучались студенты, исповедующие толк Абу-Ханифы, изучалось богословие (Коран, Сунна, Шариат) и светские дисциплины (назван адаб – литература, этика), имелась библиотека. Внешние стены медресе были построены на основательных фундаментах из сборного материала (жженый кирпич, пахса, галька). Внутренние стены были установлены на «заливки» толщиной в 50-70 см, что обеспечило идеально ровную поверхность. Этот древнейший в

Средней Азии строительный прием (многократная заливка котлована под строительство), сохраняется до сего дня в народном жилье.

Медресе Кусамийа показывает, что уже в середине XI в. на территории Мавераннахра сложился архитектурный тип здания медресе, основная планировочная композиция которого развивалась в последующем в классических медресе XV–XVII вв. всей Центральной Азии и Хорасана (медресе Самарканда, Бухары и Гиждувана, Герата и Харгирда).





33. Медресе Кусамийа, XI в., реконструкция: a – план, b – главный фасад.



План медресе Кусамия

Занятий в медресе

После монгольского нашествия в XIII в. и перемещения Самарканда с городища Афрасиаб на территорию рабада медресе Кусамийа как городское учебное заведение уже не функционировало, но использовалось как пристанище для паломников (завийа) при почитаемой загородной святыне. Именно в такой роли застал здание медресе Ибн Баттута в 30-е годы XIV веке. По планировочным данным (кельи для жилья) медресе оптимально отвечало функции завийи. Медресе использовалось как завийа вплоть до конца XIV веке.

Только при Темуре во время массовой застройки ансамбля Шахи-зинда, медресе было частично разобрано на кирпич, а на главный фасад (юго-

восточное крыло) был установлен мавзолей Безымянный-2 конца XIV века. Основание главного портала с выходом в коридор ансамбля Шахизинда сохранялось вплоть до 2004 года.

Данное сообщение касается истории сложения медресе, как высшего учебного заведения на мусульманском Востоке, с кратким обзором того огромного наследия и опыта в развитии образовательных школ на территории Евразии с глубокой древности, которые предшествовали появлению средневековых медресе и явились основой организационной формы и программы обучения, уклада жизни и норм морали в медресе.

Такой обзор необходим хотя бы потому, что в отдельных работах появились неверные заявления, будто мусульманские медресе не имели ни параллелей, ни предшествующего опыта. Медресе на Среднем и Ближнем Востоке, в том числе в Центральной Азии, появились в конце IX–начале X в. (письменные источники не содержат более ранних известий), широкое распространение получили в XI–XII вв. и в последующие столетия.

В средние века это был единственный высший общеобразовательный институт в исламском мире, где готовили служителей культа, учителей начальных школ, а также служащих государственного аппарата. Медресе заканчивали ведущие ученые Арабского мира. Программа обучения в ранних медресе включала обязательное богословие и светские дисциплины. Богословие традиционно включало изучение Корана, хадисы, фиқҳ, мусульманское право – шариат. Светские науки - арабскую грамматику, юриспруденцию, филологию, логику, математику, астрономию, географию, историю и ряд других дисциплин, отражавших состояние науки на том или ином этапе. Симбиоз теологических дисциплин в соответствии с конфессией и светских наук в учебных заведениях Евразии – древнейшая традиция, сложившаяся еще в жреческих храмах Египта и Шумера, монастырских школах Индии и Китая, которая в средние века была унаследована ранними мусульманскими медресе X-XI вв. и первыми Европейскими Университетами XI века.

Ко времени появления высшей мусульманской школы в X в. в странах Арабского Халифата уже существовал многовековой опыт важнейшей области культуры и индикатор цивилизованности общества - система образования, методика, приобретенный опыт обучения, основанный на местной традиции и контактах с внешним миром. Развитие процессов образования складывалось на широкой территории континента при постоянном взаимодействии и взаимовлияниях, торгово-экономических и культурных связях, особенно активных с эпохи открытия Великого шелкового пути.

Особенно отчетливо общие моменты в системе обучения проступают со времен сложения мировых религий – иудаизма, буддизма, христианства, ислама и связанных с этими конфессиями разных течений, главное из которых - монашество и распространение монастырей разного типа. Именно при монастырях появились первые школы-общежития, в которых, кроме

богословия, давалась и общеобразовательная грамота. Уже при первом знакомстве с проблемой бросается в глаза несомненная схожесть в организационных формах, методах и программах обучения в монастырских школах и медресе. Это сходство настолько выразительно, что не оставляет сомнений об общих путях развития образовательной системы в Евразии. Параллели прослеживаются и в совместном проживании студентов и преподавателей в медресе и монастырях, в «закрытости» этих учреждений, в аскетическом образе жизни в медресе, близком монастырскому, в существовании специальных уставов, регламентирующих жизнь студентов в медресе и монастырских школах, в программе обучения, где обязательными являлись религиозные и светские дисциплины, начиная от элементарной грамоты (обучение письму, счету и чтению) до высших достижений в астрономии, математике, географии и других науках.

Монастырские школы, как и медресе, были разных уровней, масштаба и значимости (крупные и мелкие, городские или сельские, правительственные, частные и т.д.) и степень просвещения в них соответственно была разной. В данном случае рассматривается лишь общая тенденция.

Первые учебные заведения еще до монастырских школ возникли в странах Древнего Востока (Шумер и Аккад, Вавилон и Ассирия, Египет, Индия, Китай) за несколько тысяч лет до н.э. Это были школы разных уровней. Существовали жреческие школы при храмах, дворцовые школы для обучения знати, школы писцов для нужд административно-хозяйственного управления. В этих государствах храмовое жречество владело огромными богатствами, располагало большой политической властью, было хранителем всех научных знаний, имело многочисленные архивы документов и библиотеки. Средоточием науки в древнем Двуречье середины 2-го тыс. до н.э., кроме храмовых школ, были так называемые «Э-дубба» - тип светской школы – Академии, где готовили, главным образом, писцов. «Писец» было почетным званием образованного человека. Вавилона. Ассирийская наука имела относительно высокий уровень.

В древней Греции и Риме жречество не играло самостоятельной роли – должность жреца была выборной. Высшие для своего времени школы возникли в VI-V вв. до н.э. в Афинах и Риме. Примерно в середине 1-го тысячелетия до н.э. в Греции возникли гимназии – государственные учебно-воспитательные школы, которые потом были учреждены и на эллинском Востоке. В древней Греко-Бактрии в 60-е годы XX в. Французской археологической миссией раскопан гимназий в Ай-ханум Ш-П вв. до н.э.(северный Афганистан), устроенный по типу греческих учебно-воспитательных заведений. Зачатками высшего образования можно считать кружки около крупных ученых Греции, по имени которых именовались школы. Эти будущие кафедры в университетах, центры высшего образования - сосредотачивались в крупных городах с большими библиотеками (Александрия, Родос, Пергам, Антиохия, Оронт). Знакомили

с правом, философией, историей, поэзией. Школы открывали путь к политической карьере. Система греческого образования легла в основу римского, затем европейского и арабского образования.

В странах азиатского Востока (Китай, Индия, Япония) школы развивались под влиянием господствующих там идеологий – конфуцианства, даосизма, буддизма, синтоизма, индуизма, ислама. Как и всюду в древности и средневековье, монополия на образование принадлежала церкви. В этих странах, как и в Египте, школы существовали при крупных храмах. В Индии храмовые школы предназначались, главным образом, для детей высших каст - брахманов и кшатриев. Существовали специальные кастовые школы брахманов, выпускавшие профессиональных жрецов. Кроме чтения и письма, в этих школах изучались тексты священных книг, эпические поэмы, мифология, грамматика, литература, история, философия, математика, астрономия, медицина.

При буддийских монастырях, кроме начальных и средних школ, действовали высшие богословские школы, в которых изучались также математика, астрономия и др. науки. В монастырях переписывались книги и рукописи. Монастырские школы имели свои особенности, но было и много общих черт с первыми мусульманскими медресе и университетами средневековой Европы.

С принятием буддизма в VI веке. н.э., монастырские школы появились в Японии. В начале VIII веке в Японии была сделана попытка создания государственных школ. В школах изучали китайскую классику, философию, законы, историю, математику. При феодальных богатых домах сложились клановые школы – изучали рыцарское военное дело, классическую литературу, математику, этикет. Общеобразовательные школы при монастырях и церквях были характерны для христианской Европы и России.

В арабском Халифате на первом этапе обучения главным было исламское богословие и законоведение. Становление новой государственности в Халифате требовало, в первую очередь, укрепления религии и основанных на ней порядков, законов и нравственных устоев. Эти «новые» нормы в мусульманском государстве полностью или частично опирались на старые, устоявшиеся законы античного и древнего мира - Вавилонии, Ассирии, Египта, Греции и, главным образом, Рима. Вся структура исламского общества при всей его специфике, в том числе система образования, явились продолжением той культуры, которая исторически складывалась и развивалась на территории Евразии с давних времен.

В первые столетия хиджры преподавание исламского богословия и правоведения проходило в мечетях, при которых складывались большие библиотеки. Известно, что до второй половины IX веке в школах при мечетях учились дети не только мусульман, но также дети евреев и христиан. Это показатель того, что мусульманское богословие не было

подавляющей программой. При Аббасидах были школы «дабиристан». Судя по названию - (дабир – чиновник) это были светские школы, где готовили чиновников. Каждая более или менее значительная мечеть имела библиотеку. Существовал обычай завещать свои книги мечетям. Есть предание, что начало библиотеке в мечети Мерва положил еще иранский правитель Йездигерд Ш в середине VII в., который привез туда свои книги.

Библиотеки Мерва славились и позже. В городе было 12 библиотек общественного пользования (вакфные), одна из них имела 12 тыс. томов. Ученые, внося залог, держали у себя дома до 200 книг.

В IX–X в. в Арабском Халифате сами правители, везири и богатые вельможи были книголюбами, тратили на книги огромные деньги, выстраивали книгохранилища (хазинат ал-хикма) – «сокровищницы мудрости», где могли заниматься люди. Часто те, кто работал в библиотеках, содержались за счет хозяина. Ученость была в почете, книги ценились выше, чем другое имущество. Существовали отдельные крупные библиотеки, при которых создавались особые «Дома знаний», одни для богословских диспутов, другие для обучения студентов.

Халиф Маъмун (813-833) получил широкую известность, как крупный деятель культуры, содействовавший развитию науки и просвещения. Под его покровительством развернулась переводческая деятельность, начавшаяся еще в VШ веке при Мансуре (754-775), благодаря чему выдающиеся произведения древнегреческой и эллинской науки и философии стали доступны арабоязычным ученым. В это же время продолжалось усвоение иранской и индийской культуры, что расширяло представления арабов об окружающем мире. В начале IX веке при халифе Маъмуне в Багдаде был учрежден «Дом мудрости» с богатым собранием рукописей и воздвигнута обсерватория в окрестностях этого города. При непосредственном участии этого просвещенного халифа мусульманская догматика подверглась влиянию античной философии, было разработано мутазилитское вероучение (рационалистическое направление), объявленное официальной идеологией.

Кади Ибн Хиббан (ум. 965) завещал Нишапуру дом с библиотекой и жилыми помещениями для приезжих ученых и стипендии на их содержание. Возникла, наряду с библиотеками, новая форма научных учреждений, в которых хранение книг сочеталось с обучением или оплатой выполненной в их стенах работы. В X веке в Халифате появились, в связи с этим и новые названия – не «Сокровищница мудрости», как раньше, а «Дом науки» (дар ал-илм). «Дом науки» с библиотекой, где имелись книги по любой отрасли знаний, учредил поэт и ученый Ибн-Хамдан (ум. 935) в Мосуле. Доступ к ним был открыт всякому, кто стремился к знаниям, а неимущим выдавалась бумага. В Басре была в X в. библиотека, где читатели и переписчики получали пособие. Другой везир в начале XI в. в западной части Багдада основал «Дом науки» с великолепной библиотекой, где

хранилось до 100 экземпляров одного только Корана, а всего было 10 400 других книг.

Поэт и глава алидской знати ар-Ради (ум. 1015) основал «Дом знаний» для студентов (талабат ал-илм) и назначил им содержание. Везир ибн-Киллис держал свою частную Академию и расходовал на ученых, переписчиков и переплетчиков до 1000 динаров. При сложении медресе в X в. преподавание богословия и правоведения по-прежнему параллельно проходило и в мечетях. В мечети Нишапура - ученом центре всего Востока, собиралось до 500 слушателей, в Багдаде— до 300–700. Все упомянутые выше учебные заведения в Арабском Халифате, в том числе мечети, в которых проводилось обучение, с их порядками, уставами и программами были той непосредственной образовательной средой, на основе которой в арабских странах складывались первые медресе.

С конца IX - начала X в. в странах ислама возникают специальные высшие учебные заведения – медресе (ар. медресе, от глагола дараса - изучать). В еврейском этому слову соответствует мидраш - учение, толкование закона. Предполагается, что слово «мидрас» было известно арабам еще до ислама. В преданиях о времени Мухаммада говорится о еврейском «бейт медресе» в Медине. Появление медресе было вызвано не столько возраставшей потребностью знаний, как считает А. Мец (в мечетях собиралась многочисленная аудитория в 500 и более слушателей), сколько изменившейся методикой преподавания. Обычная манера чтения лекций вытеснялась толкованием (тадрис) и диспутами, для которых мечеть была не подходящим местом. При этом огромная роль библиотек и мечетей, как учебных и научных центров, сохранялась на всем протяжении второго тысячелетия н.э.

В программе медресе X-XII вв., кроме духовных наук и правоведения, большое место отводилось также преподаванию адаба - курса, вобравшего в себя ряд отраслей рациональных, эстетических и литературных знаний и в определенной мере отражавшего научное мировоззрение и нравственные нормы интеллигенции IX-XII вв. Самое раннее письменное известие о медресе в Средней Азии принадлежит Наршахи, который в «Истории Бухары» сообщает о медресе Фарджек, сгоревшем в 937 г. при большом пожаре в Бухаре.

В Самарканде при Саманидах в IX веке было 17 медресе, организованных сектами мутазилитов и керрамийцев. В.В. Бартольд в связи с этим, высказал предположение, что родиной первых медресе является Средняя Азия или шире – Центральная Азия, что медресе появились на крайнем востоке Халифата под влиянием буддийских монастырей – вихара. А. Мец на основании письменных источников считал местом появления первых медресе Нишапур – крупнейший научный центр Хорасана, средоточие учености Востока.

Существуют многочисленные сообщения о медресе X-XI вв. в Нишапуре. Самое раннее из них датировано началом X в. (912 г.). По

сообщению Йакута, обучение в этом медресе начиналось с чтения и разночтений Корана. Утби говорит о медресе «Сабуни» в Нишапуре, где хранился огромный коллективный труд по толкованию Корана, составленный по распоряжению сеистанского Халафа (943 –1003), истратившего на это 20 000 динаров.

Мукаддаси сообщает о медресе Мавераннахра, о медресе Мерва, в которых каждому преподавателю было назначено содержание. Газневидский историк Бейхаки сообщает о 20 медресе с вакфами в Хутталяне. Махмуд Газневи (ум. 1030 г.), после совершения 12 –го индийского похода (1018-19 гг.), воздвигнул обширное медресе при соборной мечети в Газне. Помещения медресе от земли до потолка были заполнены сочинениями выдающихся ученых «по наукам древним и новым». Эти сочинения были вывезены из библиотек царей, как добыча из разных областей света, в том числе из Ирака. В Исфагане сельджукским везиром Низам ал Мульком (XI век) было построено медресе с удивительным минаретом. На территории северо-западного Ирана (Харгирд, Рей) еще в XX веке. сохранились руины двух медресе XI века. Определенную роль в формировании медресе сыграли исламские толки, сложившиеся к X веке.

Самым распространенным толком в Средней Азии был «ханифитский», но были и шафииты. В шафиитской соборной мечети Гурганджа (Куня Ургенча) в начале XШ в. министр Шихабад-дин Хиваки, имевший обширные познания во всех науках, преподавал в пяти медресе. При шафиитской соборной мечети он устроил библиотеку, подобной которой «не было ни раньше, ни позже», как сообщают источники.

Центральная Азия X-XП веков славилась именами крупных средневековых ученых – энциклопедистов - Фараби, Ибн Сина, Беруни, Хорезми, Бузджани, ал-Балхи, ар-Рази, Наршахи, которые передвигались по городам всего мусульманского Востока для изучения наук и получения знаний в медресе, частных школах, в библиотеках.

В XI в. при хорезмшахе Маъмуне-2 ибн Маъмуне (1009-1017) в Гургандже была создана знаменитая «Академия Маъмуна», где группировался большой круг ученых. Украшением этой Академии был Беруни и Абу Али ибн Сино. Отрывочность и случайность дошедших до нас редких письменных известий о первых медресе тысячелетней давности не дает еще оснований помещать «родину медресе» в том или ином городе Арабского Халифата. Наверное, правильнее было бы исходить из общего уровня культуры, в том числе образовательной, в регионах, где зарождались школы обучения всех ступеней.

Во всяком случае, Бухара и Самарканд в Мавераннахре, Нишапур и Мерв в северном Хорасане, Багдад и Дамаск Ближнего Востока с их древнейшей культурой в одинаковой степени могут быть главными преемниками и продолжателями древней образовательной культуры на мусульманском Востоке.

Следует отметить некоторое сходство в программе обучения и организационных формах в ранних медресе и первых университетах Европы, которые появились в XI-XII вв. (Италия, Франция, Испания, Португалия, Англия). Студенты и преподаватели жили в специальных зданиях - колледжах, там же проходило обучение (как в медресе и в монастырях). В университетах как в монастырях и медресе существовали строгие уставы,регламентирующие жизнь студентов, в программе обучения, кроме факультетов по разным наукам, в обязательном порядке был богословский факультет. В средние века сходство имелось и в методике обучения в медресе и университетах – лекции + диспуты. Позже пути развития медресе и университетов все более отличались. Роль первых медр в средние века была чрезвычайно велика. При неизменном и обязательном изучении богословских наук, медресе, наряду с библиотеками при научных центрах, являлись проводниками, ретрансляторами некоторых достижений науки.

Соотношение богословия и светских наук в медресе на протяжении средних веков менялось. В позднее средневековье духовное образование в рамках ортодоксального ислама занимало все большее место, пока не стало единственным направлением.

Появление медресе было естественным продолжением развития сторон общей цивилизации средневекового общества - системы образования, которая складывалась на длительном протяжении времени и уходит в глубину веков.

Илл. 3. Регистан XVI в.

План ансамбля Регистан ХУ1 век

Ансамбль Регистан

Вопрос изучения, сохранение и использование, средневековые медресе является очень актуальным и востребованным. Особенно когда Самарканд становится центром туристической индустрии Центрально-азиатского региона. Для изучения, сохранение и использование здание медресе, как архитектурный памятник и источник знание, необходимо их сохранит, используя современные технологические программы и

оборудование. Один из таких направление 3Д сканирование или оцифровка этих здание с использованием лазерных сканери.

Эти работы начато благодаря проекта “3Д” с участием сотрудников Люблинского Технологического университета, совместон с сотрудниками СамГУ.

Медресе Шер-дор ХУ11 век

Медресе Тилло-кори ХУ11 век

Строительство медресе Шер-дора ХУ11 век

Медресе Нодир Девон-беги

4. Резюме.

Как известно медресе сыграли огромный роль в подготовке кадров с высшим образованием и развитие науки, культуры, искусство, литературы и другие. Кроме того, в этих медресе образование получали государственные чиновники и служащие, имамы мечетей, учителя школ, военнослужащие, работники торговли, ремесленники и другие. Поэтому сохранение и изучение этих медресе имеет большое исторические и социальное значение. В Самарканде на сегодняшний день сохранилось не много этих объектов. От сохранившееся медресе многие отреставрированы, и их используется в различных социально-общественных целях. Один из формы сохранение медресе Самарканда является, 3Д оцифровка этих объектов. Благодаря совместной работы специалистов СамГУ и ЛТУ есть опыт работы в этом направление. Поэтому в будущем необходимо надо планировать или

разработать проект по 3Д оцифровки Самаркандских медресе, который дошли до наших дней. Это вполне выполнимая работа в условиях города Самарканда.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Кочнев Б.Д. Нумизматическая история Караханидского Каганата (991-1209). София, 2006.
2. Буниятов Дж., Гасанов Т.Б. Два самаркандских вакфа середины XI в. // Восточное историческое источниковедение и специальные исторические дисциплины. М., 1994.
3. Немцева Н.Б. Медресе Тамгач Богра-хана в Самарканде // Афрасиаб, в. III. Ташкент, 1974. Токарев С.А. Религия в истории народов мира. М., 1965.
4. Дьяконов И.М. Вавилоно-ассирийская культура // БСЭ. Т. 4. Пичикян И.Р. Культура Бактрии. Ахеменидский и эллинистический периоды. М., 1991.
5. Бартольд В.В. Ислам. Соч. т. VI. М., 1966.
6. Адам Мец. Мусульманский ренессанс. Йакут. Словарь, IV. Беляев Е.А. Арабы, ислам и арабский Халифат в раннее средневековье. М., 1965.
7. Марек Милош, Юрий Монтусевич, Яцек Кешик, Информационные технологии 3D в охране и популяризации культурного наследия Шелкового пути. Люблин. 2022

ALISHER NAVOIY ULUG‘BEK MADRASASINING MUNOSIB VORISI

Mamarasulov Dilmurod Toshtemirovich,
Samarqand davlat universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada buyuk adib Alisher Navoiyning Samarqandda yashagan vaqti, uning ijodi va ijodiy muhiti, Samarqandda Mavlono A‘loi Shoshiy, Mavlono Xoja Xurd va boshqa ustozlaridan ta‘lim olganligi, Fazlullah Abullaysiy madrasasi, Ulug‘bek madrasalaridagi faoliyati haqida mulohaza yuritilib Alisher Navoiyni Ulug‘bek madrasasi munosib vorisi sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: vorisiylik, Ulug‘bek madrasasi, Fazlulloh Abullaysiy, mudarris, Mavlono A‘loi Shoshiy

Hazrat Alisher Navoiy o’zining o‘lmas asarlari bilan mumtoz adabiyotimizni dunyo miqyosiga ko‘targan hamda jahon tamadduni xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk shaxs sifatida tan olingan. Uning hayot yo‘li bevosita Samarqand ilmiy, adabiy muhiti, xususan Ulug‘bek madrasasi bilan ham bog‘langan.

Alisher Navoiyning Samarqanddagi hayoti va ijodiy faoliyati haqida navoiyshunos olimlar V.Abdullaev[1], B.Valixo‘jayevlarning[2] xizmatlari tufayli keng yoritildi, shu mavzudagi risola va maqolalar bir necha marta qayta nashr etildi.

Alisher Navoiyning Samarqandga kelishi masalasi “Boburnoma”da ham qayd etilgan: “Balmam ne jarima bilan durkim, Abu Said Mirzo Alisherbekni Hiridin Samarqandga ixrom qildi”[7]. Abdurahmon Jomiy Samarqand muhitida barkamollikka erishishga naqadar intilgan bo‘lsa, ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiy ijodiyotining yuqori zinalarga qadam qo‘yishida Mirzo Ulug‘bek yaratgan ilmiy-adabiy muhit ta‘siri-yu, ustozi Abullaysiylar xonadonining sabog‘i ham shunchalik sezilarli va samarali bo‘lgan.

Alisher Navoiy 1465-yil boshida - Xurosonda shoir sifatida tanilgan vaqtda (Alisher Navoiyning nomi ham Samarqand adabiy muhitiga notanish emasdi D.M.) Samarqandga kelgan. Alisher Navoiyning Hirotdan Samarqandga safari juda oson bo‘lmaganligi haqida o‘zining “Mahbubul-qulub” asarida ham yozib qoldirgan[4]. Bu vaqtda Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek poytaxti sifatida, ham ilm fan markazi sifatida ham Samarqand shuhrati beqiyos edi. Musofir tarzda Samarqandga kelgan Alisher dastlabki kunlarda ancha qiynalib qolgan bo‘lsa-da, u Samarqand muhitida o‘z talanti, ilmga chanqoqligi bilan dastlab mashhur olim Fazlulloh Abullaysiy diqqatini tortgan bo‘lsa, keyinchalik Samarqand olim va adiblari nazariga tushib, hatto shahar hokimi, shoir tabiat Ahmad Hojibek Vafoiy e‘tibori va hurmatiga ham sazovor bo‘lgandi. Alisher Navoiy Fazlulloh Abullaysiy xonadonining sevimli farzandi sifatida bu mashhur olim madrasasida fiqh ilmi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik qoida-qonunlarini chuqur o‘rgandi[5].

Alisher Navoiy Fazlulloh Abullaysiy madrasasida tahsil olish bilan birga, Ulug‘bek madrasasining mudarrislari Mavlono A‘loi Shoshiy, mavlono Olim Samarqandiylardan ta‘lim oldi. Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarida Mirzo Ulug‘bek madrasasida Mavlono Xoja Xurd mudarrislik qilganligini yozib qoldirilgan. Alisher Navoiy Samarqandda ta‘lim olgan yillarda Mirzo Ulug‘bek madrasasi mudarrislaridan biri bo‘lgan Mavlono Xoja Xurddan ham saboq olgan. Mavlono Xoja Xurd keyinchalik ham shu madrasa mudarrisi sifatida faoliyat olib borgan. Bu haqida Alisher Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” asarida shunday yozadi: “Xoja Xurd – Samarqand taxtining yaqqalama qozisi va Ulug‘bek Mirzo madrasasining mudarrisidur. Bovijudi fazli kamol aql va donish. Xullasi bila orastadur va bovujudi zahdu taqvo husni ahloq zevari bila piyrostadur…Faqirning “Vaqfiya”sining tashehin qilurda “Min vaqf-i Alisher” tarix, topubdur”[3].

Alisher Navoiy shu bilan birga Samarqandda Jaloliddin Lutfullo Buxoriy, Qutbiddin Samarqandiy, Mavlono Fozili Samarqandiy, Mavlono Soili Nasafiy, Abdurazoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy, Darvesh Ahmad Samarqandiy, Abulqosim Abulaysiy, Xoja Xohand Abulaysiy Abdulmo‘min Samarqandiylar ijodiy muhitidan bahramand bo‘ldi. Chunki ular she’riyat, tibbiyot, falsafa , tarix, musiqa, fiqh kabi sohalarda shuhrat qozongan olim sifatida tanilgan edi. Undan tashqari, Samarqandning o‘sha davrlardagi boshqa madrasalari - Firuzshoh madrasasi, Ahmad Hojibek madrasasi, Bibixonim madrasasi, madrasai Safidi olim va ilm toliblari bilan yaqin aloqada bo‘ldi. Alisher Navoiy Samarqandda madrasa tolibi sifatida Ulug‘bek madrasasi mudarrisi Toshkentlik olim Uloiy Shoshiy, Nazm va muammo fanidan Xoja

Xisrav, mashhur xattot Qarshilik Mavlono Saloiy Nasafiy, tabobat ilmida mashhur Qutbiddin Samarqandiy, muammo fanidan Mavlono Muhammad Qunduziy, aruz ilmidan mumtoz bo‘lgan Mavlono Javhariy Samarqandiy, fiqh ilmidan Fazlulloh Abulaysiylardan ta‘lim olish bilan birga ular bilan hamsuhbat bo‘lishga musharraf bo‘ldi. Tarixchi Xondamir o‘zining “Makorimul-ahloq” asarida Alisher Navoiyning Samarqandda madrasada ta‘lim olishida uning ustozi Fazlulloh Abulaysiy haqida alohida to‘xalib o‘tadi[6]. Bu haqida Navoiy o‘zining “Majolis-un-nafois” asarida ustozi Fazlulloh Abulaysiy haqida quyidagi jumlalar uchraydi: “Samarqand akobiridindur. Faqi Abulays avlodidun… Saidsharifning shogirdi va Said o‘z xatlari birla darsa turg‘a… ijozatnoma alarning uchun bitib erdi. Fiqhda ani Abuhanifai Soni derlar erdi va arabiyatda Ibn Hojib qo‘fasida tutar erdilar. Bovujudikim, Samarqandning a‘lomululomosi erdi, she‘r va muammog‘a dag‘i moil erdi. Faqir ikki yil alarming qoshida saboq o‘qidim, oncha iltifoti bor erdikim, farzand der erdi”[3].

Alisher Navoiy Samarqanddaligi vaqtida Samarqandda 30 yilga yaqin hokimlik qilgan Ahmad Xojabek Vafoiy marhamatlaridan foydalangan, uning bevosita homiyligida bo‘lgan. Alisher Navoiy Mirzo Ulug‘bek madrasasida bo‘lganidek Xo‘ja Ahmadbek madrasasida ham bo‘lib u yerda qobiliyatli shoir Mirzabek bilan tanishganligini o‘z asarlarida qayd qilgan.

Albatta Alisher Navoiyning Samarqanddagi hayoti va ijodi haqida so‘z ketganda xususan Abullaysiylar xonadonining e‘tibori va ahamiyati alohida ta‘kidlanadi. Chunki Navoiyning o‘zi ham asarlarida bu xonadonning zabardast vakili Fazlulloh Abullaysiyni, uning farzandlari Xoja Xovand Abullaysiy, Xoja Abulqosim Abullaysiylarni nihoyatda hurmat bilan eslaydi, keyinchalik Hirotga borgan o‘g‘illarini qo‘llab-quvvatlaydi. Natijada Xoja Abulqosim Abullaysiy ancha taniqli adabiyotshunoslardan biriga aylanadi[1].

Alisher Navoiy Samarqandda ilm o‘rganish, shahar obidalarini ko‘rish, odamlari bilan tanishish jarayonida o‘zining badiiy ijodini ham davom ettirib, o‘zbek va fors-tojik tillarida g‘azal-u muammo, qasida-yu masnaviylar yaratdi, mushoiralarda qatnashdi, o‘qish-o‘rganish barobarida she‘r ijodi bilan ham mashg‘ul bo‘ldi. Bu davrda yaratilgan asarlari ko‘zdan kechirilar ekan, ularning usluban tiniqlashganini, mazmunan teranlashganini, mantiqan asoslanganini sezish qiyin emas.

Alisher Navoiy Samarqandda shuningdek astranomiya va ilmi nujumdan o‘z davrida shuhratga erishgan Xoja Uhd Mastuniy bilan hamsuhbat bo‘ldi va o‘z bilimlarini orttirdi. Undan tashqari, Samarqand ijodiy muhitida Yusuf Andijoniy, Yusuf Safiy, Muhammad Badahshiy, Harimi Qalandar, Sayid Qutb Samarqandiy, Mirzoxo‘ja Sug‘diy, Riyoziy Samarqandiy, Mirzabek, Mir Qarashi Xitobiy, Mavlono Xovariy she‘rlari ustida bahslar va munozaralar Alisher Navoiyning Samarqanddagi kundalik hayotiga aylagan edi. Alisher Navoiy Samarqandda qisqa vaqt bo‘lsa-da shahardagi Ulug‘bek, Fazlulloh Abulaysiy, Ahmad Hojibek madrasalarida tahsil olish bilan birga ijod bilan ham mashg‘ul bo‘ldi. Alisher Navoiyning Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan “Hiloliya” nomli qasidasi Samarqanddaligidayoq yozilgan bo‘lib unda hukmdorning asosiy fazilatlari,

adolatli va sahovatpeshaligi haqida yozilganligi uchun 1469-yil aprelda Hirotga qaytgach do‘sti Husayn Bayqaroga taqdim etdi. Ayniqsa, keyingi asarlarida Alisher Navoiyning Samarqanddagi ilmiy-adabiy muhitdan bahramand bo‘lgani, xususan Ulug‘bek ilmiy maktabining ta‘siri ko‘rinib turadi. Alisher Navoiyning Samarqanddagi davri faoliyati shoirning keyingi davrdagi asarlarida, jumladan «Xamsa» dostonlarida, «Majolisun nafois»ida o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatdi. Natijada Samarqand va uning atrofidagi joylar tasviri, Mirzo Ulug‘bek, Riyoziy Samarqandiy, Mirzobek Samarqandiy, Fazlulloh Abullaysiy, Xoja Xovand Abullaysiy, Muhammad Olim Samarqandiy va boshqalar samimiyat bilan ta‘kidlanadi.

Alisher Navoiy Ulug‘bek madrasasida Ulug‘bek “Ziji” va astronomik bilimlarni puxta egallashi natijasida kelgusida yaratilgan asarlarida bu bilimlardan mohirona foydalana oldi. Bugun biz Navoiyning:

Yangi oy, balki to‘lun oy demayin, balki quyosh,
To‘lun oyu quyoshning uzra hilolinga fido,
Yulduz o’tkandek quyosh yog‘dusida, itti quyosh,
Orazing xurshidi chun qildi tulu‘ ul yog‘duda.
Bukun oqshomg‘a tegru menki ko‘rmaymen quyoshimni
Ne tong, to‘ksam falaktek kecha tong otquncha yoshimni.
kabi misralaridan hayratga tushamiz.

Alisher Navoiy har-xil vositalar bilan, ayniqsa yuksak so‘z san‘ati va ilg’or tafakkur natijalarini ifodalashda uning Samarqandda kechgan vaqti, olgan bilimi, orttirgan tajribalarining o‘rni asarlarida sezilib turadi.

Alisher Navoiy Samarqand, Astrabod va boshqa shaharlarda yashab turgan, turli munosabatlar bilan zamondoshlariga yozgan nasriy maktublarini to‘plab “Munshaot”(Xatlar) deb nomlangan kitob yaratganligi ham ma‘lum. Uning “Munshaot” asari haqida Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan. Bu masala xususida navoiyshunos olim, professor R.Vohidov shunday yozadi: “Yana Alisher Navoiyning o‘z maktublarini yig‘ishtirib, to‘plam (“Munshaot”) tuzganligi Bobur Mirzoga Abdurahmon Jomiyga taqlidday tuyiladi. Adabiy jarayonda, daho san‘atkorlar faoliyatida ko‘zga tashlanadigan yaxshi, ijobiy an’analarni o‘rganish, davom ettirish sharafli ish. Bobur Mirzo ham taqlidni salbiy ma‘noda qo‘llamagan bo‘lishi mumkin” [8].

Yuqoridagi mulohazalar Alisher Navoiyni Ulug‘bek madrasasining munosib vorisi sifatida ta‘rif berishga asos bo‘la oladi deb o‘ylayman. Buyuk o‘zbek mutafakkiri tavalludi munosabati bilan Samarqand davlat universitetiga Alisher Navoiy nomi berilib, 1960-yildan 2016-yilgacha bu universitet Alisher Navoiyning qutlug‘ nomi bilan atalib kelinishi ham bu ulug siymoni universitet bilan ma’nan bog‘laydi.

Qolaversa, Samarqand davlat universitetining mushtarak shonli tarixi Ulug‘bek madrasasi vorisi sifatida Buyuk shoir va mutafakkir, barcha turkiy xalqlarning bir adabiy til bayrog‘i ostida birlashtirgan alloma Alisher Navoiy hayot va ijod rishtalari bilan bog‘langanligi sababli Alisher Navoiyni universitetning munosib vorisi sifatida talqin qilish kishini faxr va g‘ururlantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayev V., Alisher Navoiy Samarqandda, Toshkent, 1967.
2. Valixo‘jaev Boturxon. Samarqandda oliy ta‘lim – madrasai oliya – universitet tarixidan lavhalar. Samarqand, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
3. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 13-tom. Majolis un-nafois. –T.: Fan, 1997.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 14-jild: Mahbub ul-qulub. Munshaot. Vaqfiya. T.: «Fan», 1998.
5. G‘aniyeva S.Alisher Navoiy(Hayoti va ijodi). Toshkent. “Fan” nashriyoti. 1968.11b.
6. Xondamir “Makorimul-ahloq”.P. Shamsiyev tarjimasi. Toshkent. O‘zFA nashriyoti.1948y.
7. Бобур. Бобурнома.–Т.: Юлдузча, 1990.
8. Воҳидов Р.Биз билган ва билмаган Бобур.Т. “Маьнавият”.1999.47-б.

“BUXORO XONLIGI SIYOSIY HAYOTIDA KENAGAS URUG’INING O’RNI’’.

Beknazarov Javohir Azimjon o’gli.
Samarqand davlat universiteti 1-kurs magistransi

Annotatsiya: Kenagaslar o’zbekning 92 bovlik urug’laridan biridir. Ularning siyosiy jarayonlardagi o’rnini quydagi maqola orqali ko’rib o’tamiz.Kenagaslarning mavqei xonliklar davrida juda ham kuchayadi.Ayniqsa Ashtarxoniy hukmdor Abulfayzxon davrida biz bunga guvoh bo’lamiz. Bu qabila sardorlari Shahrisabz va Kitob bekliklarini merosiy boshqarishgan. Kenagaslarni Amir Rahimbiy va Amir Nasrullo o’zlariga tobe etganlar. Ulardan oldingi keyingi hukmdorlar davrida mustaqil faoliyat olib borishgan.

Kalit so’zlar: Tutak darvoza, Qo’qon xonligi bilan qarindoshlik, Oychuchuk va Kenagas xonim, Rajab sulton, To’ydagi qirg’in, Guli surx bayrami, Olimbek va Qibilbiy kenagas, merosxo’rlik masalasi, Kenagaslarning bo’ysundirilishi.

Buxoro xonligida shayboniylar va ashtarxoniylar sulolalari davrida o’zbek qabilalarining nufuzi ortib ularga yirik mansab va lavozimlar taqdim etilgan. Ayniqsa mang'itlar va kenagaslar eng baland mavqeiga ega edi. Kenagaslar o'zbek urug'larining yirik bir tarmog'I hisoblanadi. Said Mansur Olimiyning "Buxoro Turkiston Beshigi" asarida aytilishicha kenagas so'zi *ortiga quvmoq* degan ma'noni bildiradi. [1, 31] Shuningdek Karim Shoniyozoving ‘’O'zbek Xalqining Shakllanish Jarayoni’’ asarida Kenagas qabilalari alohida ko'chmanchi qabilalardan tashkil topgan bo'lib, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanadi deb ma’lumot beradi. Kenagaslar Hozirgi Xorazm, Qashqadaryo,

Buxoro, Farg'ona, Qoraqalpog'iston, shimoliy Afg'oniston hududlarida ko’p tarqalgan.

Kenagas urug'larining eng yirik tarmoqlari: kirey, abak, ovoqli, taroqli, chuyut urug'lardan iborat. Tarix zarvaraqlarida o’chmas iz qoldirgan Kenagaslarning eng mashhur qabila tarmoqlaridan ikkitasi, ochamayli va qayrusoli urug'laridir. [2, 1250] Sababi bu ikki tarmoqning beklari Kesh mustaqil hokimiyat yaratish uchun markaziy hokimiyat bilan ayovsiz janglar olib borgan. "Tarixi Abulxayrxoniy" asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbek ulusidagi Kenagaslar qo'shinning chap qanoti - juvangarayada jang qilgan va Shayboniy Abdullaxon II-davrida ham Kenagaslar yuqori mansablarni egallashgan. Masalan, Kenagas yetakchilari xonning o'ng tomonidagi a'yonlar qatorida, raisdan keyingi o'rinda bo'lgan. Ashtarxoniylardan Abdulazizxon davrida esa Soqiy Xo'ja Kenagas Ishkashim(Badaxshon) viloyatida hokim etib tayinlangan. Kenagaslar va mang'itlar bir biri ila ixtilofda bo'lgannligi haqida manbalarda qayd etiladi. Jumlaning dalolati sifatida, Ashtarxoniy Ubaydullaxon davrida Qarshi shahrida Nasab (Tutak) darvoza bo'lgan, XVIII-asrda mang'itlar va kenagaslar nizolari avj oladi va bu darvozaga o't qo'yib yoqib yuborishgan. Keyinchalik Kuyuk Darvoza nomi bilan tarixda nom olgan. [3, 584]. Yuqoridagi ma’lumotlardan shu narsa aniqki kenagas va mang'it qabilalari hokimiyat mansab talashish sababli bir biri bilan murosasiz holatga kelib qolgan. Akademik Radlovning "Zarafshonning shimoli sharqida yashovchi turkiy qabilalarning afsonalari" asarida kenagas va mang'it aka-uka bo'lganligi haqidagi rivoyatni keltirib o'tadi va Ana shu rivoyatda ham o’zaro nizolari tasvirlangan. Kenagas qabilalari XVII-XIX-asrlarda Buxoro xonligidagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok eta boshlgan. Shayboniylar davrida katta lavozimlarga va yer mulklarga ega bo’lgan kenagas qabilalari ayrim Ashtarxoniy hukmdorlariga bosh egmagan holatlarini ham kuzatishimiz mumkin. Ashtarxoniy hukmdor Abulfayzxon va mang'itlar amiri Haydar davrida qo'zg'olonlar ko'targanligini bizga mahalliy manbalar yetkazadi. [4, 33] Yana shu o'rinda bir narsani eslatib o'tish joizki, Poyon Ravshanovning ma'lumotlariga ko'ra Abulfayzxon davrida siyosiy kuchga ega bo'lgan Ibrohim Kenagasning ota bobolari Shayboniyxon zamonidan buyon Shahrisabzda hokim bo'lib katta obro'ga ega bo'lgan. Abdurahmon Tolening " Tarixi Abulfayzxon" asarida esa Abulfayzxon davlat ishlarini tashlab qo'yganida kenagaslar aholini talo-taroj qilishgan ekan. Buning misolida 1719-yil bahorida Miroxur Ismoil boshchiligidagi ikki ming kishilik Kenagaslar qo'shini Buxoro viloyatidagi Bahouddin qishlog'iga bostirib kirib, u yerdagi Naqshbandiya tariqatidagi "guli surx" bayramiga to'plangan ko'p minglik tinch aholini talab, o'ta beayov jabr-zulm qilishgan. Abulfayizxon davrida Ibrohim Kenagasning amallari ham buni tasdiqlaydi. (Muntab ut Tavorix asarida Ibrohimbiy kenagaslarning qayrusoldi urug'idan bo'lganligi aytiladi.) Ibrohim Kenagas mang'itlarga qarshi kurashda Abulfayzxonning hokimiyati ag’darish uchun 1722-yilda Samarqandga boradi va chingiz avlodiga mansub Xorazmlik shahzoda o'zining kuyovi Rajabni Samarqandda Xon deb e'lon qiladi va Abulfayzxondan norozi boshqa qavmlar ham bu isyonda qatnashadi. Bu paytda Buxoroda bo'lgan F.Benevininig

ma'lumotiga ko'ra g'alayon ko'targanlar gohida poytaxtni besh oylab qamalda tutganlar deydi. Ular yordamga qozoqlar va jung'orlani yordamga chaqiradilar. Afsuski oxirini o'ylab qilinmagan ish natijasida bu talonchi jung'or va qozoqlar Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida yetti yil moybaynida talonchilik ishlarini amalga oshiradilar. [5, 516] Samarqandning Rajab Sulton boshqaruviga o'tishi Buxoro xonligidagi g'alayon sifatida balki mamlakatning zaiflashuvining asosiy sablari sifatida, ko’rsatsak bo’ladi. [6, 6] Qo'qon xoni Abdurahimbiy 1725 yil Buxoro xonligining zaiflashganidan foydalanib, 20 ming kishilik qo'shin bilan Xo'jandni O'ratepani,Samarqandni egallagan va Shahrisabzga ham hujum qilgan. Bu yerda Shahrisabz hokimi Hakimbek o'z ukasi Ibrohim otaliqning qizi Oychuchuk oyimni Abdurahimbiy nikohiga bergan va Qo'qon xonligi bilan qarindosh-urug'chilik munosabatlarini yo'lga qo'ygan. Minglarning kenagaslar bilan tuzgan ittifoqi XIX-asning 60-yillariga qadar davom etadi.

Eron podshosi Nodirshoh Buxoro xonligini bo'ysundirgach Ashtarxoniy Abulfayzxonning zaiflashib qolgan hokimiyati davrida Qobilbiy kenagas Shahrisabzda Ibodulla xitoy Miyonqolda isyon ko’tarib talonchilik yurishlari uyushtiradi. Abulfayzxon Amiri Komgor (Muhamad Rahimbiy)ni Nodirshoh huzuriga yordam kuchlari so’rab elchi qilib yuboradi va Nodirshoh ‘’Lazgi, Usmonli, Afg’on’’ jamoalaridan qo’shin tuzdirib Husenxon boshchiligidagi qo’shinni Buxoroga jo’natadi, qo’shimcha qilib Marvdan Boburiy Podshoh Shoxjahondan ham 3 adad vayronakor to’plarni ham qo’shib yuboradi. Muhammad Rahimbiy isyonni bostirib Qobilbiyni qatl ettirgani haqida ma’lumotlar mavjud. [7, 282-284] Nodirshoh Buxoroni egallagach Xiva xonligi tomon hujum boshlaydi va u Buxoro xonligidagi siyosiy ta'sir doiraga ega qabila vakillarni o'zi bilan Xiva olib ketadi va bu davrda Rahimbiy mang’it bilan raqobatdosh bo’lgan Olimbek kenagasni ham tanlab olgan edi. Nodirshoh vafot etgach, Olimbek Shahisabzga kelib beklikni boshqara boshlaydi. [8, 115]. Muhammad Yoqub Buxoriyning "Gulshan ul muluk" asarida va Hakimxon To'raning "Muntaxab ut tavorix" asarida ham Muhammad Rahimbiy dastlab Shahrisabzdagi 32 nafar kenagas amirlarini aldab chaqirib, qatl ettirgani haqida yozadi. Amir Rahimbiy kenagas Muhammad Yunusbiyga o'zining ukasi Yovqochtibiyning qizini nikohlab, aloqalarni mustahkamlash niyatini aytib, to'y qilishga vada beradi va barcha yirik kenagas amirlarini to'y bazmiga taklif etadi va to'yga kelgan 32 tadan ziyod beklarni tuttirib qatl ettiradi. Amir Rahimbiy o'z inisi Qutluqbiy devobegini Shahrisabzga hokim qiladi. Ammo Keyingi mang’itiy amirlar hukmronligi davrida kenagaslar o'z siyosatini mustaqil olib borishgan. Rahimbiy vafot etgach uning amakisi Doniyolbiy otaliq hukronigi boshlanadi. Kenagaslarning Qayrusoldi urug'idan bo'lgan Beknazarbiy Bahodir Buxorodan kelib, Qutluqbiy devonbegini o'ldirib, hokimiyatni o'z qo'liga oladi. [9, 360]. Muhammad Hakimxonning ma'lumotiga ko'ra Beknazarbiy Kesh vohalarini bir butunligini ta'minlab, biror soat ham beklik ishlaridan uzoqlashmagan, hokimlik ishlarida sadoqatli edi, deb yozadi. Uning vafotidan so'ng katta o'g'li Niyozalibiy hokimlikni egallaydi.

Amir Shohmurod Marvni egallagach, Marv hukmdori Bayramxonning o'g'li Xojixon Shahrisabzga kelib Niyozalibiy qo'lida panoh topadi. Bu vaziyatda Shohmurod Xojixonning topshirilishi uchun 4 ming ashrafiy tillo vada qiladi. Lekin Niyozalibiy aziz mehmonni himoya qilib har qanday taklifni rad etadi. Garchi mazhabi shia oqimida ham bo'lsa unga ko'rsatilgan izzat ikromni cheki yo'q deb aytiladi. [10, 32] Qiziq tomoni shundagi bu shaharlardagi hokim lavozimidagi nomzodni amir tasdiqlamagan balki merosiy hokimiyat tusiga kirib qolgan. Niyozalibiy vafot etgach uning to'ngich o'gli Muhammad Sodiq devonbegi Shahrisabzni, ikkinchi o'gli Donyolbiy esa Kitobni hokimi bo'ladi.

Amir Haydar hukmronligi davrida kenagaslarga qarshi yurish davom etdi va ikki o’rtadagi jang Imom Yaqub mavzeida bo’lib o’tgani haqida Abdulazim Somiy Bo’stoniy ma’lumot beradi. Ikki o’rtadagi jangda Amir Haydar mag'lubiyatga uchraydi. Kitob bekligi hokimi Donyolbiy vafot etgach o'gli Xo'jaqulibiy hokim bo'ldi. Amir Nasrullo bu vaqtlar oralig'ida bu ikkita shaharga 1856-yilgacha 28 yil davomida 32 marta yurishlar qiladi. 1856-yilda so'ngi yurishda amir Nasrulloning qo'li baland keldi va bu ikki beklik amirlikka bo'ysundirildi. [11, 132]

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Kenagas qabilalari Buxoro xonligidagi siyosiy jarayonlarda doimo faol ishtirok etgan. Yuqoridagi ma’lumotlar orqali biz Kenagas qabilalaring mustaqil hokimiyat uchun urushlar olib borishganiga ham guvoh bo’ldik. Hatto Ibrohimbiy Xorazm shahzodasiga Abulfayzxondan taxtini olib bermoqchi bo’ladi ammo muvaffaqiyatsizllikka uchraydi. Bunday isyonlar asosan Ashtarxoniylar sulolasining ichki nizolari sabali hokimiyati zaiflashib qolgan bir davrida sodir bo’lgan bo’lsa ikkinchi tomondan Eronning Buxoro xonligiga qarshi hujumi tufayli asosiy qo’shin janga ketgan edi va bekliklarning mustaqil bo’lib olishi uchun zamin yaratiladi. Biroq Mang’itlar hokimiyati davrida bu qabilalar markaziy hokimiyatga bo’yso’ndirildi. Rossiya imperiyasi qo’shinlariga qarshi Abdumalik to’ra bilan birgalikda jang olib brogan ham mana shu qabilalar edi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

[1] Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro turkiston beshigi.Buxoro-2004.
[2] Vohidov Sh. Qo'qon xonligi tarixi (xonlik tarixi manbalarida).Toshkent. Yangi asr avlodi-2014
[3] Poyon Ravshanov. Qarshi tarixi. Toshkent.Yangi asr avlodi -2006.
[4] O'Z.FA Tarix Instituti. Alimova D. Ashirov A. O'rta osyo xalqlarining etnik tarixi va mintaqada yuz bergan demografik jarayonlarning manbalarda aks etishi(XVI-XIX-asrlar I-yarmi). Toshkent-2011.
[5] Shodiyev . J. Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi. Toshkent-2010.
[6] Niyoz Muhammad Ho'qandiy. Ibrat ul Xavoqin. Toshkent. Turon-2014.
[7] Muhammad Hakimxon To'ra. Muntaxab at Tavorix. Toshkent.Yangi asr avlodi-2010.

[8] Mirzo Abdulazim Somiy Bo’stoniy. Mang'it sulolalari tarixi yoki Buxoro xonligining inqirozi. Sharq yulduzi. Fors tilidan Ilhom Sultonov tarjimasi.Sharq Yulduzi,N-3-4.
[9] Kashko’li Salimiy.Tavorixi Muttaqadimin va Muttaaxirin Buxoro-2003.
[10] Посланник Петра I на Востоке. Посольство Флорио Беневени в Персию и Бухару в 1718—1725 годах. М., Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1986.

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOShLARIDA G‘UZOR BEKLIGI TARIXINING O‘RGANILIShI

Ergashev Umar
KuzievichQarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti nodavlat ta’lim muassasasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada G‘uzor bekligida ko‘plab tarixiy voqelik sodir bo‘lganligini, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiga doir ma’lumotlar asosan Buxoro amirligi Qushbegi arxivi hujjatlarida hamda rus mualliflarining qaydlarini tarixini yoritishda muhim ahamiyati bo‘yicha ayrim istiqbolli ma’lumotlar muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Qushbegi arxivi, “Dahkara-kent vodiysi”, “ko‘chuv o‘lkasi”, Ko‘ytan, Boshxurd (Poshxurd), “yetti-urug‘”, “jeti-urug‘”, “Ta’rixi Humoyun”, “nahri azim” (Katta daryo), “Tarixi Nofeiy”, farsax, Yakdasta, Dodhohbek, “bosmachi”.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining muhim ma’muriy-hududiy birliklaridan biri bo‘lgan G‘uzor bekligi o‘tmishini yoritish o‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Sababi, tabiiy iqlimi va geografik joylashuviga ko‘ra amirlikka qarashli Qashqa va Surxon vohalari, shuningdek, Kelif, Kerki kabi Amudaryoning o‘rta havzalarida joylashgan hududlar aholisi orasida o‘rin olgan G‘uzor bekligi mintaqada kechgan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlarda faol ishtirok etgan hudud sifatida bilinadi. O‘sha kezlarda bugungi G‘uzor tumani bilan birga Qamashi va Dehqonobod tumanlari hududini qamrab olgan G‘uzor bekligi o‘zining geografik joylashuviga ko‘ra tog‘, tog‘oldi va dashtlik hududlardan iborat hudud sifatida ko‘plab tarixiy voqeliklarga sahna bo‘lgan.

Avvalo shuni aytib o‘tish kerak, G‘uzor bekligi tarixi bo‘yicha shu paytgacha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning ko‘lami unchalik ham keng emas. Ayrim ilmiy ishlarni aytmaganda, ushbu beklik tarixi bo‘yicha amalga oshirilgan izlanishlar ko‘proq Qashqadaryo vohasi tarixini yoritish doirasida olib borilgani ko‘zga tashlanadi. G‘uzor bekligining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiga doir ma’lumotlar asosan Buxoro amirligiga tegishli tarixiy asarlar va amirlikning Qushbegi arxivi hujjatlarida hamda rus mualliflarining qaydlarida uchrab, Qashqadaryo vohasi tarixi va etnografiyasi bilan shug‘ullangan tarixchi, o‘lkashunos va lingvist olimlar ushbu tarixiy materiallarga murojaat qilishgan.

Xususan, 1840- yillarda Buxoro amirligida bo‘lib, amirlik aholisiga doir qimmatli ma’lumotlar to‘plagan rossiyalik elchi N.V. Xanikov Buxoro amirligi aholisi haqida yozar ekan Qashqadaryo vohasiga tegishli ma’lumotlarni ham keltirib o‘tgan bo‘lib, ushbu asar amirlik tarixi bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar uchun birlamchi materiallar bera oladi. Ushbu muallif Buxoro amirligida asosiy shaharlar soni 19 ta ekanini yozib, G‘uzor shahrini ushbu shaharlar keltirilgan ro‘yxatning oxirida ko‘rsatib o‘tadi [1;78-79-B]. Muhimi shundaki, ushbu rus elchisi amirlikning markaziy hududlari – Buxoro, Zarafshon va Qashqadaryo vohasida yashaydigan o‘zbek urug‘laridan deyarli barchasining nomlarini keltirar ekan, Buxoro tumanlari va Qarshi bekligi va uning atroflarida yashaydigan batosh urug‘i vakillarini butunlay o‘troq hayot kechiradiganaholi sifatida qayd etib o‘tadi[2;64-B]. O‘sha kezlarda batoshlar G‘uzor bekligi hududida ham yashab, nufuzli o‘zbek urug‘laridan biri sifatida bilingan.

XIX asrning 60- yillarida Buxoro amirligi Rossiya imperiyasiga qaram bo‘lib qolgach, rus sharqshunos olimlari Qashqadaryo vohasining tarixi, etnografiyasi va geografik o‘ziga xosliklariga qiziqar ekan G‘uzor bekligiga doir materiallarni to‘plab ilm olamiga tanita boshlaganlar. Ana shunday rus tadqiqotchilaridan biri A.Kun Shahrisabz bekligida bo‘lgan kezlarda ushbu beklik atrofidagi hududlar haqida ham qimmatli ma’lumotlar yozib qoldiradi [3].

Chor Rossiyasi davrida Turkiston o‘lkasida ko‘plab tarixiy, geografik va etnografik ma’lumot to‘plagan rus mualliflaridan biri N.A.Maev bo‘lib, u keltirgan ma’lumotlar G‘uzor bekligi tarixining qorong‘u tomonlarining yoritishda asqotadi. Unin qaydlarida “Dahkara-kent vodiysi” degan joy tilga olingan bo‘lib, u Darband amlokligiga bo‘ysingan va “ko‘chuv o‘lkasi” degan ma’noni bildirishi qayd etilgan [4]. Biroq muallif ushbu vodiyning aynan joylashgan o‘rni, hududiy chegaralari haqida hech qanday ma’lumotlar bermaydi. Aslida mahalliy shahli Dahparakent bo‘lib, ba’zan Dahparaken va shunga yaqin shakllarda ham talaffuz qilingan bu vodiyga doir to‘liqroq ma’lumotlar rus harbiyi, polkovnik Belyavskiy tomonidan quyidagi shaklda keltirib o‘tiladi: «Gurgandaryo yerlari Ko‘ytan va Boshxurd (Poshxurd) amlokdorligi, ya’ni aholi orasida Darapakin nomli yig‘ma nomga ega bo‘lgan yerlar amiring tuhfasi sifatida goh Boysun bekligiga goh G‘uzor bekligiga o‘tib turgan». [5; 93-94-B]. Bundan ko‘rinadiki, Sheroboddaryo havzasidagi bir qator aholi maskanlari umumiy nom bilan “Dahparakent”, ya’ni fors-tojikcha nom bilan “dah-pora-kent” (o‘nta qishloq) deb atalgan va bu yer vaqti-vaqti bilani G‘uzor bekligi tarkibiga o‘tib turgan. Ya’ni Dahparakentning hududiy yaqinligi G‘uzor beklarining bu yerga hududiy da’vo qilib turishiga sabab bo‘lgan.

Bu davrda rus mustamlakachi amaldorlari O‘rta Osiyoning barcha hududlarida o‘z hokimiyatini keng yoyish, tabiiy qazilma boyliklarini aniqlab, ulardan unumli foydalanish maqsadida mintaqadagi chekka tog‘ hududlariga ham katta e’tibor qarata boshlaydilar. Zarafshon tog‘laridan keyin navbatdagi tog‘lik hudud – Hisor vodiysini o‘rgana boshlagan mustamlakachilar Buxoro amirligining kunbotardagi hududlaridan biri bo‘lmish va Sharqiy Buxoro deb yuritiladigan joylarga turli eskpeditsiyalar uyushtiradi. Ma’lumki, Hisor tog‘

tizmalari Qashqadaryo vohasidagi Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘ va G‘uzor bekliklarining sharqiy tomonlaridan tashqari Boysun, Denov, Sherobod, Qabodiyon, Qo‘rg‘on-tepa, Kulob, Baljuvon, Hisor, Sarijuy kabi beklik va boshqa yirik ma’muriy birliklarni o‘z ichiga olib, bu hududlarda asosan o‘zbek va tojik aholi ko‘pchilikni tashkil etgan.

Rus mualliflari Hisor tog‘ tizmalari atrofiga, ayniqsa, Hisor vodiysiga o‘tadigan yo‘l Chiroqchi – G‘uzor bekliklari yo‘nalishi bo‘ylab o‘tishi, vodiyda tojik aholi ancha ko‘pchilikni tashkil etishi bilan birga turli urug‘larga bo‘linuvchi o‘zbeklarning ham salmog‘i yuqori ekaniga e’tibor qaratganlar. Qizig‘i shundaki, bu hududlarda o‘zbeklarning deyarli barcha urug‘larini uchrtaish mumkin bo‘lib, ular bu yerdagi bekliklar boshqaruvini o‘z qo‘llarida tutib turganlar. Har bir o‘zbek urug‘i o‘z oqsoqol va beklariga ega bo‘lib, ular amirlikning boshqa hududlaridagi o‘zbek urug‘laridan deyarli farqlanmagan[6;9-10-B]. Ushbu ma’lumotlarning to‘g‘riligini XX asr o‘rtalarida Hisor tog‘ tizmalaridagi aholi orasida etnografik tadqiqotlar olib borgan B.X. Karmisheva to‘plagan ma’lumotlar ham to‘g‘rilaydi [7;66-122-B]. Sharqiy Buxoro aholisi orasida qo‘ng‘irot, mang‘it, batosh, do‘rman, saroy va hokazo shaklida qayd etilgan urug‘lar Buxoro, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxon vohalarida ham yashab, ularning o‘troqlashuv jarayoni ayniqsa so‘nggi o‘rta asrlarda ancha jadallashgan.

G‘uzor bekligi tarixiga doir ma’lumotlar amirlikning mahalliy aholisi vakillari tomonidan yozib qoldirilgan tarixiy asarlarda ham u yoki bu darajada o‘z aksini topgan. Jumladan Mirzo Salimbek (1850-1930) “Kashko‘li Salimiy. Tavorixi muttaqadimin va muttaxarin” nomli asarida G‘uzor bekligi haqida qisqacha ma’lumotlar keltirib o‘tgan. Qizig‘i shundaki, Mirzo Salimbek Buxoro amirligining bir necha bekliklarida turli mansablarda ishlagan ziyoli kishi bo‘lib, Yakkabog‘ bekligida besh yil, Boysun bekligida ikki yil turli lavozimlarda ishlab, Shahrisabzda esa bir necha yil hokim mansabida bo‘lib, G‘uzor va atrofdagi bekliklar hayotidan yaxshi xabardor edi [8;8-B]. Muallif G‘uzor tarixiga doir ma’lumotlar ancha kam ma’lumot keltirgan bo‘lsa-da, biroq uning Qarshi, Shahrisabz, Boysun va atroflariga doir bergan qisqacha ma’lumotlari o‘sha davrdagi siyosiy va etnik jarayonlarni yoritishda muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, Buxoro amiri Muhammad Rahimxonning vafotidan keyin 1758 yilda taxtga chiqqan amir Doniyolning olib borgan siyosati natijasida Nurota hokimligida Tog‘aymurodbiy burqut va G‘uzorda Jahongir saroylarning hokimlikdan olinib, qatl qilinishlari haqida so‘z boradi[9;288-B]. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, muallif shu voqealarda keyin amir Doniyol “yetti-urug‘” qabilasini Miyonqol (Samarqandning shimoli)dan ko‘chirib, Shahrisabz va Boysun-Sherobod oralig‘idagi hududlarga tarqatib yuborganini qayd etadi [10;288-B].

Qizig‘i shundaki, bugungi kunda ham G‘uzor tumanida Yettiurug‘ degan qishloq mavjud bo‘lib, ushbu qishloqning paydo bo‘lishi ushbu tarixiy voqeliklar bilan bog‘liqdir. “Yetti-urug‘”, “jeti-urug‘” kabi nomlar bilan atalgan urug‘lar birlashmasi bir qator turkiy xalqlar, shu jumladan, qozoq, qoraqalpoq, no‘g‘oy, qirg‘iz, boshqird xalqlari tarkibida uchrab, o‘zbeklarning qipchoq urug‘ining

“yetti-urug‘” tarmog‘i quyidagicha urug‘larni o‘z ichiga olgan: oytamg‘ali, qo‘shtamg‘ali, sirg‘ali, qamchili, juvonli, samanotli, cho‘michli [11;99-B].

Shuningdek, Buxoro tarixnavisligi maktabining so‘nggi vakillaridan biri Muhammad Sodihxo‘ja Gulshaniy 1909 yilda fors-tojik tilida yozgan “Ta’rixi Humoyun” asarida Buxoro amirligidagi ko‘plab viloyatlar haqida anchagina keng to‘xtalgan bo‘lib, muallif Xuzor (G‘uzor) haqida ham birlamchi ma’lumotlarni keltirib o‘tgan [12]. “Ta’rixi Humoyun”da Xuzor bekligi (viloyati)ning geografik joylashuvi, chegaralari, aholisi, shahar va qishloqlari haqida birlamchi ma’lumotlar o‘rin olgan. Unga ko‘ra Buxoro amirligining sharqiy tomonlariga to‘g‘ri keluvchi Xuzor viloyati Hisor tog‘lariga kiraverishi boshlanishida joylashgan bo‘lib, bu yerdan Buxoroi sharifgacha bo‘lgan masofa 23 farsaxdir. Xuzorning sharqiy chegaralari Machchi tog‘igacha cho‘zilgan bo‘lib, Boysun viloyatiga uning shimolidagi Ketmonchopti-tepa tog‘ig orqali chegaradosh bo‘lib, janubi Kirishik amlokligi va Kuhitang tog‘igacha, shimoli Yakkabog‘ bekligigacha, g‘arbi esa Qarshi viloyatiga qarashli Yangi-kent amlokligiga tutash edi [13;95-B].

Ushbu muallif beklik markazi Xuzor (G‘uzor) shahrining ichki tuzilishi haqida ham birmuncha keng to‘xtalib, shahar qo‘rg‘oni - qal’asining qadimiy binolardan biri bo‘lib, Afrosiyob qurdirgan binolardan biri ekani, bu yer “nahri azim” (Katta daryo) bo‘yida joylashgan edi. G‘uzor qal’asini bu daryo uni uch tomondan sharq, janub va g‘arbdan o‘rab turgan bo‘lib, uchta darvozali edi. G‘uzor shahridagi bozor rastalari anchagina ma’mur va bir qator karvonsaroylarga ega bo‘lgani va bu yerda savdo-sotiq juda rivojlanganiga e’tibor qaratgan Gulshaniy qo‘rg‘on ichida ikkita jome’ va hayit masjidi hamda oltita besh vaqt namoz qilinadigan kunlik masjid joylashgani, shahar atrofida 35 ta masjid va uchta madrasa borligiga urg‘u beradi [14;99-B].

Mang‘it hukmdorlarining tarixini o‘z ichiga qamrab olgan Muhammad Mir Olim Buxoriyning “Fath-noma yi salatin (Tarix-i Sultan Sayyid Amir Nasrulloh)” asari bo‘lib, Muhammad Olimbekning buyurtmasi bilan yoziladi. Bu vaqtda u kotib vazifasida bo‘lgan, uni Amir Nasrulla o‘z davrida G‘uzor bekligiga hokim lavozimiga tayinlagan [15;34-B].

XX asrning ilk choragida Buxoro amirligi, umuman olganda, O‘rta Osiyo mintaqasida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlarga guvoh bo‘lgan va o‘sha kezlardagi muhim voqeliklarni qog‘ozga tushirgan, kelib chiqishi amirlikka qarashli Baljuvon bekligiga mansub bo‘lgan Muhammad Ali ibni Muhammad Said Baljuvoniy o‘z asari “Tarixi Nofeiy” (Foydali tarix)ni 1927 yilda yozib tugallagan bo‘lib, asarda G‘uzor bekligiga doir qiziqarli ma’lumotlar uchraydi[16]. Qizig‘i shundaki, muallif buxorolik bir qator tarixnavislardan farqli holda ushbu joy nomini “Xuzor” emas, “G‘uzor” shaklida keltirib o‘tadi [17;32-B].

Asardagi qaydlardan ma’lum bo‘lishicha, XX asrning ilk o‘nyilliklarida Buxoroda jadidchilik harakatlari kuchaygan kezlarda Buxoro muftilaridan biri Domullo Muhammad Ikromning o‘g‘illari ushbu harakatlarda faol qatnashadilar. Buxoro amiri uning farzandlarini jazolab dastlab Karmanaga, keyin esa G‘uzorga

surgun qiladi. Bu yerda uni G‘uzor to‘rasi bo‘lmish Olimxoning amakisi qatl ettiradi [18;78-79-B]. G‘uzor bekligining Sho‘ro hukumatiga qarshi kurashidagi o‘rniga oid ma’lumotlar ham “Tarixi Nofeiy”da keltirib o‘tilgan bo‘lib, asarda g‘uzorlik Mulla Abdujabbor Yakdasta, Qarshi bekligidan Turdibek, Shahrisabzda Dodhohbek “bosmachi”lar orasida mashhur bo‘lganliklari qayd etiladi [19;81-B].

Xullas, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida G‘uzor bekligi tarixiga doir yozma ma’lumotlar bilan qisqacha tanishib chiqish shuni ko‘rsatadiki, bu davrda G‘uzor Qashqadaryo vohasining o‘rta va quyi oqimida, daryoning chap havzasida joylashgan hududlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu hududda yuz bergan siyosiy va etnomadaniy jarayonlar mintaqa tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. –СПб, 1843. – С. 78-79.
2. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – Б. 64.
3. Кун А. А. Очерки Шагрисебского бекства . Записки императорского русского географического общества по отделению этнографии. – СПб : ИРГО, 1880.
4. Маев Н.А. Очерки Гиссарского края. МСТК. Вып. 5. 1889
5. Қаюмов А. XIX аср этнографик тадқиқотларида Бухоро амирлигининг жанубий-шарқий бекликлари аҳолиси этник таркиби масалалари. XIX – XX аср бошларида Марказий Осиёда интеллектуал мерос: анъаналар ва инновациялар илмий тўплами. – Тошкент, 2018. – Б. 93-94.
6. Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата (Восточная Бухара и Западный Памир в конце XIX века). М.: Вост.лит., 1958. – С. 9-10.
7. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 66-122.
8. Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий. Таворихи муттақадимин ва муттахарин. Форс-тожик тилидан ўзбекчага ўгирган Н. Йўлдошев. – Бухоро: “Бухоро”, 2003. – Б. 8.
9. Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий. Таворихи муттақадимин ва муттахарин. – Б. 288.
10. Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий. Таворихи муттақадимин ва муттахарин. – Б. 288.
11. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 99.
12. Муҳаммад Содиққоҷаи Гулшанӣ. Таърихи Ҳумоюн. Бачоп-тайёркунанда, мураттиб ва сарсухан Ҷӯрабек Нарзиев.- Душанбе, 2006.
13. Муҳаммад Содиққоҷаи Гулшанӣ. Таърихи Ҳумоюн. – Б. 95.
14. Муҳаммад Содиққоҷаи Гулшанӣ. Таърихи Ҳумоюн. – Б. 99.
15. Холназарова Л. С. XIX аср маҳаллий муаллифларнинг асарларида манғит ҳумдорлари тарихи. XIX – XX аср бошларида Марказий Осиёда интеллектуал мерос: анъаналар ва инновациялар илмий тўплами. – Тошкент, 2018. – Б. 34.

16. Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеий (Фойдали тарих). Тожик тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов ва З. Чориевлар. – Тошкент: Академия” нашриёти, 2001.
17. Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеий (Фойдали тарих). Б. 32.
18. Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеий (Фойдали тарих).- Б. 78-79.
19. Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеий (Фойдали тарих). Б. 81.

XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI – XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA SAMARQAND BEKLIGI AHOLISINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI.

Mamanov Mehriddin Dusmurot o‘g‘li
Sharof Rashodov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti.

Annotatsiya:XIX asr birinchi yarmidagi Samarqand shahri iqtisodiyotini ta’riflar ekanmiz avvalo, bu erda iqtisodiy munosabatlarda eski o‘rta asrlarga oid iqtisodiy munosabatlar saqlanib qolganligini va ishlab chiqarish sohasida an’anaviy hunarmandchilik ishlab chiqarishi ustun bo‘lganligini ta’kidlashimiz zarur. Shahar iqtisodiy hayotida bir nechta sohalar o‘rin olgan edi, Mana shu sohalar tahlili asosida shahar iqtisodiy hayotini tavsiflash mumkin bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Samarqand bekligi, Zarafshon vohasi, tumanlar, guzarlar, ma’muriy boshqaruv, bek, amlokdor, oqsoqollik.

Zarafshon vohasi, xususan Samarqandning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi munosibdir Bu viloyat o‘zining ajoyib tabiati, xosildor erlari va go‘zal bog‘lari bilan amirlikning boshqa hududlariga nisbatan alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Samarqandning o‘ziga xos siyosiy mavqei, boy iqtisodiy markaz sifatida ko‘zga tashlanib turishi, turli davrlarda taxt tepasiga kelgan sulola vakillarining nazaridan chetda qolmagan. XIX asr boshiga kelib esa Samarqand yirik shahar qiyofasiga ega bo‘lgan. Ingliz ayg‘oqchisi Mir Izzatullaning guvohlik berishicha Samarqand kundan-kun rivojlanib borayotgan edi. Shaharning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishiga uning qulay geografik joylashuvi sabab bo‘lgan. Shahar Zarafshon daryosining janubida joylashgan bo‘lib, shimol, sharq va janubdan baland tog‘lar bilan o‘ralgan hamda g‘arbdan unga keng ekin maydonlari tutashgan edi. Manbalarda shahar ta’rifiga ko‘p ma’lumotlar keltirilgan. Misol uchun, Bobur o‘z asarida Samarqand va uning atrofidagi tabiatga ta’rif berar ekan “Misr va Suriyani ko‘rgan sayyohlar bundan boshqa sog‘lom joyni ko‘rsata olmaydilar”, degan. N.V.Ханыkov esa Samarqand va uning atroflari “uch ariq suvi bilan sug‘orilganligini”, ta’kidlaydi. Shahardan atrofiga daraxtlar ekilgan asosiy ariq o‘tgan. Bu ariq kichik ariqlarga ajralib xonadonlarga suv etkazib berib, bog‘ va tomorqalarni sug‘organ. Namlikning ko‘pligi Samarqand havosini toza va bahavo qilgan. Shuning uchun

samarqandliklar ancha sog‘lom bo‘lganlar. Ularning yuzlari toza va buylari uzun bo‘lgan[1].

Abu Toxirxoja “Samariya” asarida shahar iqlimining ajoyib va mu’tadil ekani, shuning uchun uni “firdavsi monand” – jannat misoli deb atashini yozgan. Yozda Samarqand nisbatan issiq va sovuqlari mu’tadil ekani, har tomondan esuvchi mayin shamollar va havo, kayfiyatni ko‘tarishi, ruxiy sokinlikni ta’minlashi haqida yozadi[2].

XIX asr boshida Samarqand tomonidan egallagan hudud kengayib borgan. N.V.Xanыkovning ma’lumot berishicha “shahar aylanasi 13 vyorstga, uning kvadrat yuzasi 2280000 sajenga yoki 2533,31 tanobga teng bo‘lib, Buxoro tomonidan egallangan hududdan 500 tanobga katta”[3], deb ma’lumot beradi. Ya’ni, mazkur davr shaharning kengayishi va urbanizatsiya jarayonini jadallashib borayotgan edi.

O‘rta asrlar shaharlari kabi Samarqand ham mudofaa devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, shinaklari, minoralari bo‘lgan. Shahar devorlari ruslar bosqini davrida buzib tashlanib, Suzangaron mahallasi qismida uning ayrim qoldiqlari ko‘zatiladi[4]. Bir so‘z bilan aytganda, qadimdan O‘rta Osiyoning yirik shaharlardan biri bo‘lgan Samarqand XIX asr birinchi yarmida nafaqat Buxoro amirligi, balki O‘rta Osiyoning yirik savdo va madaniy markazi sifatidagi mavqega ega bo‘lgan shahar edi.

Bu shaharda kechgan qizg‘in iqtisodiy va siyosiy jarayonlar o‘z o‘rnida ijtimoiy jarayonlarni murakkabligiga sabab bo‘lish bilan birgalikda madaniy jarayonlarni xilma-xilligi va rang-barang bo‘lishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Samarqand shahrining XIX asrdagi mavqeiga ta’rif berar ekanmiz T.S.Saidqulovning “shahar xonlik (amirlik) ning bosh shahri hisoblangan” [5] degan ta’kidini va rus muallifi F.Nazarovning “birinchidan, tarixiy va diniy sabablar oqibatida, ikkinchidan, mamlakatdagi aholisi eng zich, boy viloyat markaziy shahri sifatida” degan fikrini keltirib o‘tishimiz o‘rinlidir.

Samarqand shahrida ham shu kabi holat hukm surgan. XIX asr birinchi yarmidagi shahar aholisining soni, uning usishi dinamikasi haqida batafsil ma’lumotlar manbalarda uchramaydi. Shaharlardagi aholi soni, shu jumladan, Samarqand aholisi haqidagi ma’lumotlar xilma-xil va turlichadir. Masalan, Meyendorf ma’lumotlariga ko‘ra 1820-yilda Samarqandda 50 ming aholi istiqomat qilgan bo‘lsa[6], N.Xanыkov 1841-yilda 25 ming, 1863-yilda A.Vamberi 20 minggacha, 1868 -yilda V.V.Radlov 10 mingdan oshiq kishini keltirib o‘tishgan [7]. Prof. P.P.Ivanov va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida esa 30 mingga yaqin istiqomat qilgan, deb aytiladi[8]. Boshqa manbalarda esa, Samarqand atroflarida 80000 o‘zbek oilalari istiqomat qilgan deb ko‘rsatiladi. Mazkur holatda shahar aholisi soni haqida yagona fikrning mavjud emasligi aholining milliy – etnik tarkibi, ijtimoiy guruhlar va umuman xalq turmushining ko‘pgina sohalari bo‘yicha xulosalar chiqarish imkoniyatini qiyinlashtiradi. Biroq, ishonch bilan ta’kidlash mumkinki, Samarqand shahri va uning atroflari vohadagi eng aholi zich istiqomat qilgan hudud bo‘lgan.

1723-1729 yillarda Samarqand viloyati o‘zaro urushlar davomida ayovsiz

talangan.Shahar aholisining ko‘pchiligi Hisor, Farg‘ona, Buxoro, Zarafshonning yuqori oqimi hududlariga kuchib o‘tgan. “Ularning katta qismi o‘z manzillariga etmasdan ochlikdan qirilib ketgan”. “Oddiy aholi o‘z farzandlarini sotib kun ko‘rishgan, ba’zilari esa ochlikdan nobud bo‘lgan.Hususan, XVIII asr oxirida qog‘ozsoz ustalarning boshqa hududga, Farg‘ona vodiysiga kuchib o‘tishlari ham bunga misol bo‘la oladi.

Shahar aholisining etnik tarkibi nihoyatda hilma-hil bo‘lgan. Bu erda tojiklar, o‘zbeklar, arablar, afg‘onlar, hindlar, lo‘lilar, yahudiylar va boshqa turli millat vakillari istiqomat qilishgan. Ularning XIX asr birinchi yarmida son jihatdan aholi tarkibidagi ulushini aniqlash uchun aniq tarixiy ma’lumotlar mavjud emas. Biroq, ayrim etnik birliklarning nima sababdan bu shaharda istiqomat qilishlari, ular mashg‘ulotlari haqida ma’lumotlar uchraydi. Aholining katta qismini tojiklar va o‘zbeklar tashkil etgan. Yahudiylar haqida V.V.Radlov “ular 100-150 yil oldin Erondan avval Buxoroga, keyin Samarqandga ko‘chib kelishgan”, deb ma’lumot beradi. A.F.Fayziev arxivda saqlanayotgan vasiqa ma’lumotlariga tayanib ma’lumot berishicha yahudiylar alohida mavzeda istiqomat qilishgan. Unda keltirilishicha 1843-yili amir Nasrullo Samarqand shahrining ichida, sharqiy darvoza yaqinida, Chokardiza qabristoni yonida o‘n ming kumush tangaga alohida go‘zar tashkil qilishlari uchun ularga 11 tanob erni sotganligi haqida fikrlarni keltiradi [9].

D.L.Ivanovning ma’lumot berishicha Samarqandda yashovchi yahudiylar musulmon amirlik davrida huquqsiz holatda bo‘lib, ular shaharda o‘zlari uchun sinagoga qo‘rish, otda yurish, musulmonlar kiyimlarini kiyish, etik kiyish va yashash joyini erkin tanlash huquqiga ega emas edilar. Ular uchun bozor orqasida alohida mavze ajratilib, barcha yahudiylar o‘sha mavzeda istiqomat qilishgan. Shu tariqa “jugut go‘zar” shakllangan. Samarqand rus qushinlari tomonidan egallanishi va rus hokimiyatini o‘rnatilishi bilan mahalliy aholi va yahudiylar ham imperiya uchun bir xil – qaram aholi maqomiga ega bo‘ldilar va ularga nisbatan bir xil munosabat o‘rnatildi. Yahudiylarga nisbatan amirlik davrida joriy etilgan ta’qiqlar bekor qilingan. Natijada yahudiylar ruslar va imperiyaning o‘lkadagi hokimiyatiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘la boshladilar. Yahudiylar ruslar bilan yaqinlashib, tezda rus tilini o‘zlashtira boshladilar [10].

Shahar mikrotoponimikasi go‘zarlar tarixini, aholi mehnati hususiyatlarini va nomlar kelib chiqishini o‘zida aks ettiradi. Guzarlarda ishlab chiqarish-hunarmandchilik hususiyatiga qarab aholi istiqomat qilgan. Zargaron mahallasida tillo buyumlar yasovchi ustalar, Suzangaronda igna yasovchi ustalar, Charmgaronda terichilik va teri mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi shug‘ullanuvchi ustalar, Xarrotonda yog‘och ustalari, Kulolonda kulol ustalar, Zingaronda egar-jabdug‘ va ot abzali yasovchi ustalar, Sharbatdorda turli shirin ichimliklar tayyorlovchi hunarmandlar istiqomat qilishgan. Undan tashqari Toshkandi, Xujandi, Urguti, Zomini, Shahrisabzi, Urmitani, Qashqari kabi go‘zarlar bo‘lganki, ulardagi aholi kelib chiqishi joy nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Ya’ni, bu go‘zarlarga aholi mazkur nomdagi joylardan ko‘chib kelgan. Ba’zi go‘zarlarning nomlari shahar me’moriy yodgorliklari nomlari bilan bog‘liq

bo‘lgan. Bunga Ruhobod, Guramir, Oq-saroy, Namozgoh, Ko‘kmachit, Xonaqo, Madrasai Safid go‘zarlarini kiritish mumkin. Alohida Samarqand shahri topografiyasi bilan bog‘liq go‘zar nomlari uchraydi: Labi-g‘or, Chaqar, Toli-Regak, Baland-Ko‘prik, Bog‘i-Baland, Kabolai Yakum, Kabolai Duvvum, Puli Mirzo, Gilburch va hokazo. Shahar tabiati bilan bog‘lik go‘zarlar nomlariga Kavarzor, Lolazorlarni keltirish mumkin. Navadon, Obimashad, Doniyorbek, Kulobod kabi nomlar shahardagi suv inshootlari, sun’iy ariqlar, suv manbalari nomlaridan kelib chiqqan. Olimlarning nomlari berilgan go‘zarlar bo‘lgan: Faqix Abullays, Maxtumi Xorazmiy va boshqalar.

Samarqand shahri aholisi haqida tavsif berganda shaharning tarkibiy qismlari bo‘lgan mahallalar tavsifini berish o‘rinlidir. Zero, shahar aholisi o‘z mashg‘ulotlari va turmush-tarziga qarab alohida-alohida guzarlarda istiqomat qilishgan. Samarqand shahri qiyofasi doimo yangi tashkil etilgan mahallalar yoki mavjudlarini kengayishi hisobiga o‘zgarib borgan. Shahar guzarlari ijtimoiy ahamiyatdan tashqari ma’muriy ahamiyatga ham ega bo‘lgan.

XIX asr o‘rtalarida Samarqand baland paxsa devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, XX asr 20-yillarida ularning katta qismi shaharni qayta qurilishi davrida bo‘zib tashlangan.

Shahar topografiyasi o‘z o‘rnida mahallalar hususiyatidan kelib chiqib, aholi xo‘jalik hayoti, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va shahar bo‘ylab joylashuvini gavdalantiradi.

Guzarlarni aholining umumiy yig‘ilishlarida saylanadigan oqsoqollar boshqargan. Har bir mahallaning o‘ziga markazi bo‘lib, u erda masjid va choyxona bo‘lgan. ushbu markazlarda savdo-ishlab chiqarish ustaxonalari, do‘konlar va uncha katta bo‘lmagan bozorlar ham mavjud bo‘lgan [11]. mahallalar esa o‘z o‘rnida qit’a-qismlarga birlashib, ularni hokimlar boshqargan. O‘rganilayotgan davrda shahar 4 ta qismga bo‘lingan: Qalandarxona, Suzangaron, Xayrobod, Xuja Axror.

Shahar aholisining ijtimoiy guruhlari va ularning mashg‘ulotiga turiga qarab ham tasniflangan. Maxsulotlarni turiga qarab savdo qiluvchi mayda savdogarlar - bazzozlar, attorlar, baqqollar kabi nomlar bilan atalgan. Bazzozlar - turli gazlama matolarni sotish bilan shug‘ullangan Samarqand atrofida o‘zbek urug‘larining qang‘li, nayman, qo‘ng‘irot, qipchoq xitoy, sayot, qiyot, chig‘atoy, durmon, ushun, olchin, ming, kirq, yuz, qaraqalpoq saroy, kirgiz, turk mang‘it, baxrin kabilar istiqomat qilgan.

Samarqandda etnik birlik sifatida alohida hindlar ham istiqomat qilishgan. Ular Samarqandga savdo maqsadida kelishgan va shu erda o‘rnashib qolganlar. Ular asosan so‘dhurlik, hind mahsulotlarini sotish va shu kabilar bilan shug‘ullanganlar.

Aholi turmushida islom qoidalari, shariat tartib-qoidalari qat’iy o‘rnatilgan. Oilada, islomning hukumron ta’siridagi jamoat tartib va qoidalari hukmrolik qilgan. Jumladan, 7-8 yoshdan boshlab, har qanday oila a’zosining harakati, uy-fikri, hissiyotlari mavjud o‘rnatilgan qoidalardan chetga chiqmasligi lozim edi. Erkak oila boshligi hisoblangan va barcha masalalar fakat u orqali xal

etilgan. Ayollar ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatidan maxrum etilgan. Ya’ni ayollar ijtimoiy huquqsiz hisoblangan. Ayollar fakat uyda o‘tirib, ro‘zg‘or yumushlarini bajarishi, farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishi lozim edi. Ayol kishining jamoat orasida, ko‘cha-ko‘yda ochiq yuzda yurishi, begonalar bilan munosabatda bo‘lishi ma’n etilgan. Shu o‘rinda, jamiyatda «tartib o‘rnatuvchi»larning tavsifini ma’rifatparvar Ahmad Donish quyidagicha izohlaydi: «Ularga yaxshilab e’tibor qaratsak «-deydi u»,- amir - axloqsiz va qonxur, qozi - uchiga chiqqan poraxo‘r va ta’magir, rais - poraxo‘r, mirshabboshi aroqxur, qimorboz va qaroqchi» [12] deb tariflangan.

Samarqand bekligining XVIII-asr ikkinchi yarmi va XIX-asr boshlaridagi aholining ijtimoiy-siyosiy tarixi, jumladan boshqaruv tizimi masalalari tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida yoritib berilgan. Beklikni hududi va boshqaruv masalalari bo‘yicha tarixshunoslik muammosi o‘zaro solishtirilgan va xulosalar chiqarilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Файзиев А.Ф. История Самарканд а первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С. 5.
2. Абу Тохир Хожа. Самария. Описание древностей и мусульманских святынь Самарканда. Пер. В.Л.Вяткина. – Справочная книжка Самаркандской области за 1889 г. Вып. IV. – Самарканд, 1889. – С. 161.
3. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С. 100.
4. Сухарева О.А. Оборонительные стены Самарканда. В кН.: Культура и искусство народов Средней Азии в древности и средневековье. – М., 1979. – С. 85-89.
5. Саидқулов Т.С. Самарканд во второй половин XIX – начале XIX веков. – Самарканд, 1970. – С. 8.
6. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва, 1975. – С. 90.
7. Саидқулов Т.С. Самарканд во второй половин XIX – начале XIX веков. – Самарканд, 1970. – С. 9.
8. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX в.). – М., 1958. – С. 120; Абрамов М.М. Социально-экономическая и культурная жизнь Самарканда в XVI – первой половине XIX в. Автореф. дисс. докт. ист. наук. – Т., 1989. – С. 27.
9. Файзиев А.Ф. История Самарканд а первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С. 8.
10. Иванов Д.Л. Самарканд. – М., 1872. – С. 53.
11. Абрамов А.А. Гузары Самарканда. – Ташкент; Узбекистан, 1989. - С. 4
13. Трактат Ахмада Дониша. История Мангитской династии. – Душанбе, 1967. – С. 83

ASHTARXONIY SHAHZODALAR VA VALI MUHAMMADXON O‘RTASIDAGI ZIDDIYATLAR

Rahmonova Parvina Bahodir qizi
Sh.Rashidov nomidagi
SamDU tarix fakulteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ashtarxoniy hukmdor Vali Muhammadxonning hokimiyati qo‘lidan darz ketishiga turtki bo‘lgan sabablar va Samarqand yaqinidagi Mog‘iyon jangi haqida so‘z yuritilgan. Ushbu jangda Xoja Hoshim Dahbediyning Imomqulixonni qo‘llab-quvvatlagani haqida ma’lumotlar tegishli manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Mog‘iyon ko‘li, Xoja Hoshim Dahbediy, Do‘stum arg‘un, shoh Ko‘chakbiy, Hojibiy no‘yon, Camarqand qal’asi, .

Kirish. O‘tmishda qanchadan qancha podshohlar, amirlar, xonlar o‘zlarining olib borgan faoliyatining davlat miqyosidagi ahamiyati sababli yo obro‘ qozongan, yo ularning hokimiyati inqiroziga zamin yaratgan. Ushbu maqolada Ashtarxoniy hukmdorlar - Vali Muhammadxon va Imomquli o‘rtasidagi ziddiyatlar va Vali Muhammadning hayotiga xotima yasagan Mog‘iyon jangi haqida so‘z yuritiladi.

Maqolani yozishda tarixiy taqqoslash, xronologik izchillik, sabab, jarayon va natija bog‘liqligi, tarixiy bilishning xolislilik, tarixiylik hamda tizimlilik tamoyillaridan foydalanildi.

Ashtarxoniy Vali Muhammadxon va Imomqulixon o‘rtasidagi siyosiy ziddiyatlar haqida akademik A.Ziyo [5:256], , B.Ahmedov [1:193], B.Eshov [2:60], K.Kattaev [7:94] xorijiy tadqiqotchilar: Welsford Thomas [3:97-98], Şeyda Duman [4:185] va boshqalar o‘z tadqiqotlarida keltirib o‘tishgan. Ammo ularning hech qaysisida barcha janglar tafsilotlari keltirilmagan.

Vali Muhammadxon davrida siyosiy jarayonlar. Boqi Muhammadxon vafotidan so‘ng, 1605 yilning Rabbi ul avval oyi [25] da Vali Muhammadxon(1605-1611) taxtga o‘tirdi. Vali Muhammadxon ham Boqi Muhammadxon kabi mamlakat sarhadlarini himoya qiladi. Chunki Yor Muhammad Mirzo, Sherafkan Mirzo kabi isyonchilar 1606 yili safaviylardan madad olib, Balxga qo‘shin tortadilar. Bu jangda Buxoro askarlari zafar quchadi, safaviylarning qizilboshlardan iborat qo‘shini hamda mazkur mirzolar Eronga qochishga majbur bo‘ladilar. Ularni ta’qib qilgan turkistonlik lashkar Hirotni yana Buxoro tasarrufiga olish imkoniga yaqin bo‘lsa-da, biroq ob-havoning aynib, qor yog‘ib, qattiq sovuq tushishi sabab maqsad amalga oshmay qoldi. Ashtarxoniylardan ketma-ket bir necha marta mag‘lub bo‘lgan safaviylar hukmdori shoh Abbos ishni diplomatiya yo‘li bilan bitirmoqqa kirishadi. Chunonchi, u Vali Muhammadxon qarorgohiga elchi yuborib, o‘zaro qo‘shnichilik va do‘stlikni taklif qiladi. Qandaydir sabablarga ko‘ra, qo‘li baland kelib turgan Vali Muhammadxon rozi bo‘lib, o‘zi ham Eronga elchi yuboradi.

B.Eshovning yozishicha, Vali Muhammadxon 1607 yilda Eron shohi Abbos I bilan sulh shartnomasini imzolaydi [2:60]. ″Natijada Xuroson uchun ko‘p mashaqqat chekkan va qon to‘kkan bir qator yirik bux orolik amaldorlar Vali Muhammadxonning mazkur siyosatiga norozi bo‘la boshladilar, - deyiladi “Silsilat as salotin” asarida. - Azamat Ziyoning e’tirof etishicha, bu hol keyinchalik buxorolik amirlarni Vali Muhammadxonga nisbatan beixlos qilib qo‘ygan. Shu sababli, ular Imomqulixon tomonga o‘tishadi[5:259]”.

Imom quli faoliyatining boshlanishi. 998\1590 yil turkiy sigir yilida dunyoga kelgan Imomqulixon Nadr devonbegi orlotga tarbiyalash uchun topshiriladi [8:183^{b}]. Otasi - Din Muhammad vafotidan so‘ng [8:183^{b},16: 31^{b}], uning tarbiyasi bilan amakisi Boqi Muhammad shug‘ullangani quyidagicha keltirilgan: **و آن در بنم شەوار در کنار عاطفت و تربیت عم بزرگوار خود باقی محمد خان پرورش یافت.** Tarbiya muddati matnning hoshiyasida yetti yil **(هفت سال)** deb ko‘rsatilgan [8:183^{b}]. Demak, bundan ayon bo‘ladiki, u avval orlot urig‘idan bo‘lgan Nodir devonbegi, keyinchalik 1598-1605 yillar mobaynida amakisi - Boqi Muhammad qo‘llarida tarbiyalandi. Bu esa kelajakda undagi podshohlarga xos bo‘lgan xislatlarning shakllanishiga zamin yaratgan.

“Bahr ul-asror” asarida yozilishicha, Vali Muhammadxon Imomqulini Samarqandga, uning ukasi – Nadr Muhammadni Shahrisabzga hokim etib etib tayinlaydi [21: 76^{b} 80^{a}, 169^{b}]. Mir Muhammad Salim esa Imomqulini katta amakisi Boqi Muhammadxonning vafotidan keyin, Vali Muhammadxon (1605-1611) hukmronligi boshlanmasidan oldin Samarqandni 5 yil mobaynida boshqaradi[8:183^{b}], – deb yozgan. Bu manbaga ishonadigan bo‘lsak, u -1600-1605 yillarda Samarqand hokimi bo‘lgan. Lekin “Tazkirat ush-shuaro” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan Ismoil Bekjonov uni Samarqand hokimlari ro‘yxatida keltirmagan [16:6]. O‘zining hokimligi davrida ko‘pgina obodonchilik ishlarini amalga oshirgan [15:223]. Shuning uchun ham Imomqulining Samarqanddagi hokimlik faoliyati maxsus o‘rganilishi kerak.

Ko‘rinib tiribdiki, dastlabki paytlarda Vali Muhammadxon va Imomquli o‘rtasidagi munosabat yomon emas edi. Hatto Imomquli va Nadr Muhammad Vali Muhammadxonga mamlakat sarhadlarini mustahkamlashda yordam berishgan. Masalan, Hisor hukmdori Mahmud Sultonning o‘g‘li Abdulloh qo‘zg‘olonini bostirishda ishtirok etishgan.

1607 yil shahzodalar Badaxshonda bo‘lib o‘tgan notinchlikni yengishda ham ko‘maklashishdi. O‘zini Temuriy shahzoda deb da’vo qilgan Mirza Hasan ismli mahalliy badaxshonlik Qunduzga da’vo qilgan chog‘ida Imomquli va Nadr Muhammad uni mag‘lub etishdi [22:78^{b}-79^{a}]. Shahzodalarning bu kabi janglardagi muvaffaqiyatlari Vali Muhammadxonni tashvishga solib qo‘ydi. Undan hokimiyatni tortib olishidan qo‘rqqan podshoh shahzodalarning xatti-harakatlarini cheklash uchun ularning yoniga otaliqlar yubordi. Masalan, Nazarbiy ko‘kaltoshni Samarqandga Imomqulini nazorat qilishga, Nadr Muhammadni akasidan yiroq qilish uchun Balx viloyatiga hokim etib tayinlab, unga otaliq sifatida Nazarbiyning ukasi Shahbek ko‘kaltoshni yuboradi [17:33].

Keyinchalik ba’zi bir amaldorlarning ig‘vosi bilan Vali Muhammadxon va Imomquli orasiga sovuqchilik tushadi[8:183b]. Natijada ular orasida bir necha marta janglar sodir bo‘ldi.

Birinchi jang. Ana shunday janglardan birining boshlanishiga bahona - Imomquli Bahodirxon va Nadr Muhammad Bahodirxon o‘zlari hokim etilgan hududlarda o‘z xohlaganlarini qilib yurishlari bo‘ldi. Bu holat hukmdor Vali Muhammadxonning qulog‘iga yetib bordi. Natijada, ikki shahzoda ham jang bo‘lishiga tayyorlandilar. Shahzodalar Termiz viloyatidan o‘tishdi va jang 1016/1607 [19:250; 20:100] Amudaryo labida sodir bo‘ldi. Va nihoyat ikkala tomon ham sulh tuzish qaroriga keldilar. Tinchlik sulhidan keyin Vali Muhammadxon Buxoroga o‘z poytaxtiga ketdi, shahzodalar esa Balx tomonga ravona bo‘ldilar.

Ammo Vali Muhammadxon qaytgach, faqat aysh-u ishrat bilan band bo‘lib, ko‘pgina nopok ishlar qildi. Masalan, haramda chiroyli ayollar bilan ko‘ngilxushlik qilib, xalqning qizlarini olib kelib nomusini toptab, vaqt o‘tkazib gunoh qilar edi. Bu hol keyinchalik xalqni undan uzoqlashtirgan bo‘lishi mumkin. Vaholanki, “Tarixi sayyid roqim” [9:209b] asarida yozilganidek, Samarqand va Buxoro aholisi Abdullaxon II va Boqi Muhammadxon davrida tinch, osuda hayot kechirgan edilar.

Ikkinchi jang. Ular o‘rtasidagi navbatdagi jang boshlanmasdan avval shahzodalar amakilariga elchi jo‘natib, Vali Muhammadxondan o‘zlari qilgan qilmishlaridan pushaymon bo‘lib kechirim so‘rashdi. Imomquli bu ishlarga Samarqanddagi bir qancha amaldorlarning undovini sabab qilib ko‘rsatdi. Amakisining unga bo‘lgan munosabatlarida o‘zgarishni sezgan Imomquli Samarqandni tark etgandi. Amakisiga yozgan xatida undan Balx viloyatining daromadi o‘zi va ukasi uchun ham yetarliligini, Balx viloyati boshqaruvini o‘ziga, Hisori Shodmon, Bag‘lon, Qunduz hududlarini Nadr Muhammadga berishini so‘radi.

Vali Muhammadxon esa jiyanlarining xatti-harakatlarida isyonni sezdi va Imomqulining ko‘p hudud va boylikka erishishi kelajakda unga ko‘plab muammolar keltirishini o‘ylab unga rad javobini berdi. Balx viloyati boshqaruvini obro‘li amirlaridan Gavhar Tohir [24] ga topshirdi. Bu holat xon va uning jiyanlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni yanada oshirdi. Dastlabki paytlarda Vali Muhammadxon jiyanlarining bu qilmishlariga jiddiy e’tibor bermay, ularga pand-nasihat qilish bilan kifoyalandi.

Bora-bora xon ba’zi bir amaldorlariga ishonmay qo‘ydi va o‘ziga sodiq bo‘lgan va bo‘lmaganlarni ajrata olmay qoldi. Natijada, o‘zini bulut ostida his qilgan amirlar Imomquliga xat yozib, amakisiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarish va Movorounnahr taxtini egallashga undadilar. Ammo fitnachilarning yuborayotgan xati Vali Muhammadxonning qo‘liga tushdi. Bu xat ba’zi bir amaldorlar tomonidan yozilib, hattoki muhri ham bosilgan edi. Bundan g‘azablangan Vali

Muhammadxon Buxoroda kengash chaqirib, xatni xat egalariga ko‘rsatdi. Albatta, ular bu da’voni rad etdilar. Vali Muhammadxon uzrlarini qabul qilmay, ularni qatl qildirdi. Bu qatl qilinganlar Abdullaxon II zamonida eng ishonchli va sodiq amaldorlar – Do‘stum arg‘un, shoh Ko‘chakbiy, Hojibiy no‘yon bo‘lib, ular Boqi Muhammadxon boshqaruvi vaqtida ham eng obro‘li, martabasi baland amaldorlar edilar. Podshohdan Xojagon bu amaldorlarning gunohlaridan o‘tishini so‘raydi. Biroq 1019 yil zul hijja oyida (1611) bu uch amaldor Vali Muhammadxonning ularga ishonmasligi sababli qatl etildi [17:92[b]; 9:209[b]; 18:518; 19:250]. Bu haqida mavlono Arshi torix yozgan.

Unga xiyonat qilgan camarqandlik fitnachilarni jazolash uchun bir guruh odamlarini yubordi. Ammo ular bu holatni oldindan sezishib, ba’zilari o‘z qarindoshlari bilan Balxga qochishdi. Mahmud ibn Valining yozishicha, o‘zaro kurashlar jarayonida 1611-yilda amirlardan Nodirbek, Shakurbiy saroy, Muhammad Boqibiy qalmoq, Yalangtushbiy va boshqalar Vali Muhammadxon tomondan Imomqulixon tomonga o‘tib ketdi [17:108[b] 13:11]. Ayrimlari Imomquli oldiga borib, uni Samarqandga olib kelib, xon qilib ko‘tarishdi [17:109]. Endi Imomqulixon o‘zini qudratli hukmdor deb his qila boshladi va Buhoroga – amakisiga qarshi yurish qildi. U Qarshiga yetib borganida amakisi Vali Muhammad unga qarshi yurishga otlandi. O‘sha vaqtda Vali Muhammadning yonida uch mingga yaqin o‘zbek askarlari bor edi [18:512].

Jang taraddudi. Buxorodan Qarshiga yurish vaqtida Vali Muhammadxon yo‘lda askarlari bilan bir yerda chodir qurishdi va kechasi ularning qarorgohi yaqinida bir necha yovvoyi cho‘chqalar chiqishdi. Bu holatdan askarlar sarosimaga tushdi va ba’zi bir vahimachilar xonga Imomqulixon ularga hujum qilayotganini aytishdi. Vali Muhammadxon Buxorodagi amaldorlarning unga qarshi fitnasidan keyin hech kimga ishonchi qolmagan edi. Shu sababli u bu holat ham o‘zining yonidagi amaldorlarining fitnasi bo‘lishi mumkin deb o‘ylab, ehtiyot chorasini ko‘rib, chodirini tark etdi. Bu vaqtda Vali Muhammadxonning odamlari chodirga kelib, xonni topa olishmadi. Ba’zilar uni qochib ketgan deb o‘ylashsa, ba’zilari uni Imomqulining odamlari o‘g‘irlab ketishgan deb o‘ylashardi. Bunday vaziyatda askarlarning yana bir guruhi mana shu shubhalari sababli Imoqulixonning oldiga borib, uni xon bo‘lgani bilan qutlashdi.

Vali Muhammadxon esa lashkarlarining Imomqulixonga qo‘shilganini bir tepalikdan tomosha qilib turar edi. Uning bir guruh amaldorlari Imomqulini xon qilib ko‘targan, bir guruhi esa qo‘shin yig‘ib, Imomqulini Buxoroga yurishga undagan edi. Bu holdan keyin Vali Muhammadxon Buxoroga qaytib ketdi. U yetib kelganda, Vali Muhammadxonning poytaxtda qoldirib ketgan vaqtinchalik hokimi unga Imomqulining askarlari Buxoroga qo‘shin tortib kelayotganini, ularning askari dushmanga qarshilik qilishga yetmasligini aytdi. Natijada, Vali Muhammadxon o‘z o‘g‘li Rustam Sulton va qarindoshlari, to‘rt-besh mingga yaqin hamrohlarini olib, Samarqandga jo‘nadi. Vali Muhammadxon o‘zining lashkari Sulaymonning lashkaridek ko‘p va sayyoralar, yulduzlar oftobning

kattaligi oldida hech narsa bo‘lmay qolganidek, o‘zining kuchi raqibining lashkariga qaraganda ancha ustun deb o‘ylagan edi. Ammo Vali Muhammadxon jangda yengilib, Samarqand tomonga qochdi, lekin u yerda qolmadi, chunki u xonligida xalqdan mol-mulkini tortib olgan edi. Dustumbiy arg‘un, Hojibiy va Shoh kuchaklarni qatl ettirishdek nomaqbul ishlar ham qilgan edi. Ustiga ustak, Buxoroda odamlarni qatl etish bilan qo‘rqitib, muxolifatchilarni jazolar edi. Natijada barcha e’tiborli amaldorlar, vazirlar Imomqulixon tomonga o‘tishgandi. Shu sababli Movorounahrdan chiqib, Iroqqa – Eron shohi Abbos oldiga qochdi [9:210[b]; 12:319; 18:1083-1084].

U Amudaryodan o‘tib, Chorjo‘ydagi qal’aga yetib borib, o‘z o‘g‘li- Rustam Sultonni Hirot hokimi – Mehrobxon Kojarga bo‘lib o‘tgan voqealar haqida xabar berish uchun jo‘natdi. Hirot hokimi ularga Marv orqali Hirotga kelishlari haqida maslahat berdi va Vali Muhammadxon xuddi shunday qildi.

Vali Muhammadxon Eron shohi huzurida. Isfaxon shahri va uning yaqin atroflaridan kelgan yigirma ming askarlar shahardan uch farsax narida joylashgan – Davlatobodda Vali Muhammadxonni kutib olish uchun turardi. Naqshi Jahon maydonidagi do‘konlar va karvonsaroylar chiroyli qilib bezatilgan edi. Vali Muhammadxon poytaxtga kirgan vaqtida shoh Abbos va uning ishonchli amaldorlari – Olloberdixon, Olloqulibeg qurchiboshi, shohning muhr bosuvchisi – Nadrxon va boshqalar bor edi. Bu voqea 1019/1611 yilda sodir bo‘ldi. Shoh Abbos unga hozirda Ozarbayjonga yurish bilan band yekanlini aytib, o‘z o‘g‘li va Hirotdagi askarlarini yordam tariqasida yuborishga va’da berdi [18:516].

Vali Muhammadxon o‘z oqsoqollari bilan majlis o‘tkazdi va ular xonga ko‘p ham Eron shohiga tayanmaslikni va tezroq Imomquliga qarshi yurish qilish lozimligini uqtirishdi. Natijada Vali Muhammadxon Eron shohi bergan askarlar va hamrohlari bilan Movorounahrga yurish qildi.

Imomqulixon taxtga o‘tirgach, ukasi Nadr Muhammadni Balx hududiga hokim etib tayinladi. O‘zi yesa Buxoroga borib, davlatni boshqardi. Vali Muhammadxonni Chorjo‘y qal’asida qarindoshlari va go‘dak o‘g‘lini qoldirganini eshitib, u yerga askarlar yuborib, ularni Buxoroga olib keltirdi. Amakisining ayollari bilan uchrashgan Imomqulixon o‘z amakisining xotini Oyxonimga turmush qurish taklifini berdi. Ammo bu pokiza ayol bunga rad javob berdi. Shunda Imomqulixon bu ishda yordam so‘rab, mufti va qoziga murojaat qildi. Biroq ular bu ishlarga aralashishni xohlamagan. Ammo buxorolik dunyoviy qozi o‘z dinini chetlab, Vali Muhammadxonni kofir deb e’lon qilib, xotinlari bundan buyon u bilan ajrashgani to‘g‘risida fatvo chiqargan. Shundan so‘ng, Imomqulixon Oyxonimga uylandi [22:96[b]].

Taxtga o‘tirgach, Imomqulixonning dastlabki harakati Toshkentni egallagan qozoq va qoraqalpoq qo‘shinlariga zarba berish bo‘ldi. Vali Muhammadxonning yo‘qligidan foydalangan Turkistonni boshqarayotgan qozoq

shahzodalari Toshkentni egallab, Samarqandga yurish qildilar. Bundan xabar topgan Imomqulixon ukasini Balxdan chaqirib olib, o‘zi Samarqandga borib ikki qozoq shahzodasi bilan shartnoma tuzdi. Unga ko‘ra, qozoq shahzodalariga vaqtinchalik Toshkent hududi berildi. Ularning Toshkentdagi hukmronligiga chek qo‘yib, o‘g‘li Iskandar Sultonni Toshkentga hokim etib tayinlab, o‘zi Samarqandga qaytib ketdi. Samarqandga qaytayotgan vaqtida onasining bemorligi haqida noxush xabar yetib keldi. Xon ba’zi odamlarini Samarqandda qoldirib, o‘zi hamrohlari bilan Buxoroga yo‘l oldi. Amakisining Buxoroga kelayotganining xabarini eshitgan Imomqulixon xotini va onasini olib, Vali Muhammadxonning shaharga kirishidan uch kun oldin shahardan chiqib, Qarshiga yo‘l oldi.

Vali Muhammadxon Mashhadga yetib borgach, Hirotdan olib kelingan qo‘shin va o‘g‘li Rustam Sulton bilan Chorjo‘y orqali Buxoroga yurish qildi. U Imomqulixonning asosiy qo‘shini Samarqandda ekanligini yaxshi bilardi, shu sababdan ham Buxoroni bosib olish Samarqandga qaraganda oson bo‘ladi deb o‘ylagan edi. U 1020/1611 yil 26-avgust chorshanba kuni Buxoroga kirib keldi va 1611 yil 27 avgustda qayta taxtni egallab, o‘z nomidan tangalar zarb qila boshladi. Buxoroning sayyidlari, ulamolari uning poyiga qayta tiz cho‘kdilar. Vali Muhammadxon xotinining ayanchli taqdiridan xabardor bo‘lgach, o‘sha fatvoni chiqargan qozini huzuriga keltirdi. Biroq bu qozi uni Imomqulixon majbur qilgani, agar rad javobini bersa, qatl etilish bilan qo‘rqitganini aytadi. Bir qancha amaldorlar bu vaziyatda o‘rtaga tushib, uni o‘lim jazosidan qutqarib qoladilar. Xon unga xiyonat qilgan amaldorlarning ko‘pchiligini hibsga oldi va ba’zilarini jarima to‘latdi [18:518].

Bu paytda Imomqulixon Qarshida edi. Vali Muhammadxon o‘n yetti ming kishilik qo‘shini bilan unga qarshi yurishga otlandi. Imomqulixonning asosiy qo‘shinlari Samarqandda edi. Agar jiyanining Qarshidan Samarqandga yetib kelishi, uning qudrati oshishini bilardi. Shuning uchun Vali Muhammadxon shoh Abbosning o‘g‘li Budoqbiy Qojar bilan maslahatlashib, Qarshiga yurishga otlanayotgan bir paytda, ba’zi bir oqsoqollar xonga ta’sir o‘tkazib, Qarshi yo‘lidan Samarqandga yurish qilishga ko‘ndirishdi [18:516].

Samarqanddagi vaziyat. Samarqanddagi amirlar Vali Muhammadxonning taxtni qayta egallaganini eshitishgach, ikki guruhga bo‘linishdi. Bir guruh Vali Muhammadxondan kechirim so‘rab u tomonga o‘tishni afzal bildi. Ikkinchi guruh esa Qarshida turgan Imomqulixonni qisqa yo‘l orqali Samarqandga olib kelishdi.

Bu voqealardan xabarsiz Vali Muhammadxon Samarqandga qarab kelar edi. Bo‘lgan voqealarni eshitgach, u Qarshiga yurishdan qaytargan amirlaridan g‘azablandi. Endi Vali Muhammadxon Samarqanddagi Imomqulixonning askarlari sonini aniqlash maqsadida bir necha marta ayg‘oqchi yuborib, qo‘shini o‘ng ming kishidan ortiqligi va Samarqand qal’asining oldida xandaq qaziganini aniqladi. Bu jangda Imomqulixonga qozoq shahzodalari kelib qo‘shiladi.

Naqshbandiya shayxiga ixlosi baland bo‘lgan bu shahzodalar uning rahnamoligida Imomqulixon tomonda jangga kirishishadi [18:522].

Jang tafsilotlari.

“Imomqulinoma” da Vali Muhammad Samarqand qal’asini egallash chog‘ida jang qilish taktikasi ham keltiriladi. Ashtarxoniylar sulolasi davrida ham jang boshlanishidan oldin tabl(nog‘ora) va nay chalingan va bayrog‘i balandga ko‘tarilgan. Jang qurollaridan manjaniq [26], arroda [27], dig[28], tavar [29], zamburak [30], narvon va har xil qurollar: tir, to‘fang [31] va 200 ta aravada qurollar bo‘lgani va bu urushda ishlatilgani haqida aytiladi. Askarlarning boshlig‘i solor deb aytilib, ularning boshida dubulg‘a bo‘lgan. Qal’ani egallashda Vali Muhammadxon askarlarini guruhlarga bo‘lgan. Bir guruh darvozani gurzi [32] bilan uradi, ikkinchi guruh kamondan o‘q uzadi, boshqasi esa Zirh kiygan jangchilar tig‘ni g‘ilofdan chiqarib otda jang qilgani keltiriladi. Ammo asosiy qal’aning markaziy qismini egallashni Vali Muhammadning o‘zi olib boradi va Samarqand qal’asini egallaydi.

Vali Muhammad qal’ani egallaganidan so‘ng, Buxoro amirlari, lashkar boshliqlari Imomqulining huzuriga kelib, undan podshoh bo‘lishni so‘rashadi va ular Vali Muhammaddan Samarqand qal’asini tortib olish uchun mashvarat o‘tkazishadi. Sarkardalardan qatag‘on qabilasidan Nazarbiy, Qulbondey, Shahmurod, Boyim Muhammad, Xojamberdi, amirlardan Tangriberdi 200 ta askari bilan kelib, uni Vali Muhammadga qarshi kurashda qo‘llab-quvvatlab, Imomqulixonga o‘z itoatkorligini bildiradi [17:109].

1020/ 1612 [9:209^{b};18:1514-1515] 14-sentyabr kuni rajab ul murajjab oyida Samarqand yaqinidagi Mog‘iyon ko‘li (Samarqand viloyati tarkibidagi hududdir) yonida jang bo‘lib o‘tdi. Iskandarbek Munshiyning aytishicha, har ikkala tomondan ikki uch yuzdan ortiq odam halok bo‘lmagan. Imomqulixon xudoga tavakkal qilib, madad so‘rab, bir qancha lashkari bilan Samarqandga keldi va o‘sha yili 1020/ 1612 avliyolar qutbi hazrat Xoja Hoshimdan ko‘mak so‘raydi. Hazrat Imomquliga fotiha beradi va aytadiki: G‘alaba sening lashkaringga hamroh bo‘ladi. Bu gaplardan Imomqulining ko‘ngli tasalli topdi va raqibi bilan ko‘l Mog‘iyon [32:329-358] da uchrashadilar[6:41^{a} ;10:304]. O‘sha vaqtda Vali Muhammadxonning askarlari mag‘lub bo‘lib, Imomqulixonga g‘alaba hamroh bo‘ldi. Natijada yordamga kelgan qizilboshlar har tarafga parokanda bo‘ldi. Bu holat xuddi dashtda qo‘ylar bo‘ridan qo‘rqib yo talofat ko‘rib qochganga o‘xshardi. Qanchadan qancha shamshir va tirlar yer yuzida lolaga o‘xshab qoldi”, -deb “Tarixi sayyid roqim” asarida keltiriladi [9:212^{b}]. Bu jang Mog‘iyon ko‘li yonida sodir bo‘ldi va u yerda Vali Muhammadxon yaralanib, o‘sha yerda o‘ldirildi. Uning qabri ajdodlari – Joni Muhammad, Boqi Muhammad kabi Buxorodagi Bahouddin Naqshband majmuasidagi Dahmayi shohon (Podshohlar dahmasi)da joylashgan [21:96].

Mag‘lubiyatdan so‘ng, Vali Muhammadning o‘g‘li va Budog‘biy Qojar Hirotga yetib kelgach, shoh Abbos Rustam Sultonga taziya bildirish uchun sovg‘a-salomlar yuboradi. Xurosonning beklar begisi Husaynxon Shamluga Rustam Sulton va uning askarlariga barcha kerakli zarur ehtiyojlarini berishi va o‘z navbatida shoh ham ularni qo‘llab-quvvatlashini aytadi va Vali Muhammadning avlodlari Hirotda joylashdilar [11].Zafaryor Imomqulixon esa Samarqandga qaytib ketdi.

Xulosa qilib aytganda, Vali Muhammadxonning hokimiyati uning qilgan nomaqbul amallari va xalq orasida obro‘li bo‘lgan Do‘stum arg‘un, shoh Ko‘chakbiy, Hojibiy no‘yyonlarni qatl etishi bo‘ldi.

Bunday holatlar shohlarga xos tarbiya olgan Imomqulixonning podshohlik taxtini egallab, uning atrofida unga xayrixohlar ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Ular o‘rtasida uch marotaba jang bo‘lib, hal qiluvchi jang Mog‘iyon ko‘li atrofida sodir bo‘lgan.

Samarqand tarixiga oid hujjatlarida keltirilganidek, Mog‘iyon Shovdor tumani tarkibiga kirgan. Mog‘iyon ko‘lining hozirda qaerda joylashganini aniqlash alohida tadqiqotni talab etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. – T.: O‘qituvchi, 2001. – B.193.

2. Eshov B. O‘zbekiston davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2019.B.60.

3.Welsford Thomas. Four types of of loyalty in early modern Central Asia. Leiden-Boston: Brill, 2013. – P. 97-98.

4.Şeyda Duman Buhara hanliğinda Īmamkulu han dönemi. Afyonkarahisar. 2023. P.185.

5.Ziyoev Azamat. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 256

6. Muhammad Yusuf Munshiy. Tazkirai Muqimxoniy // SamDU qo‘lyozmasi № 1188170. –41a.

7. K.Kattaev. Mahdumi Azam tarixi va mukammal dahbediylar tariqati. – Samarqand: Maxdumi A’zam Dahbediy ilmiy-tadqiqot fondi, 2011. B.94.

8.Silsilat as-salotin, Bodleyan kutubxonasi, Inv.№169, 183b.

9. Tarixi Sayyid roqim. // SamDU qo‘lyozmasi №, 210 a,

10 Muxammadyusuf Munshi. Mukimxanskaya istoriya. / Perevod s tadjikskogo, predislovie, primechaniya i ukazateli professora A.A.Semenova. – Tashkent: Izd-vo AN UzSSR, 1956. – 304 s.

11. Muhammadiyor ibn Arab Qatag‘an. Musaxxir al-bilod. Fors tilidan tarjima, izohlar va ko‘rsatgichlar mualliflari I.Bekjonov, D.Sangirova. Mas’ul muharrir Sh.Vohidov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. B.

12. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomayi shohiy). Ikkinchi

kitob. Fors tilidan S.Mirzaev va Yu.Hakimjonov tarjimasi. Izohlar muallifi B. Ahmedov. – Toshkent.: Sharq, 2000. B.349.
13. Tanieva G.” Yalangto‘sh Bahodirning Buxoro xonligi siyosiy barqarorligini taminlashdagi o‘rni” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. Samarqand.: 2019.
14.İsgəndər Bəy Münşi Türkman. Dünyani bəzəyən Abbasin tarixi, Fars dilindən çevirən: Şahin Fərzəliyev (Şahin Fazil). – Baki: Şərq-qərb, 2010. – S.1083-1084
15. Mutribi Samarqandiy. Nusxayi zeboyi Jahongir, I.Bekjonov va S.A.Mujoni tarjimasi (Qum: Kitobxonayi Marashi Najafiy, 1376/1997-1998. B.223
16. Mutribiy Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro. Fors tilidan tarjima, kirish so‘zi va izohlar muallifi Ismoil Bekjonov. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013. – B. 165.
17. Suxayl. Imomqulinoma. // ShQF qo‘lyozmasi №89.
18. Eskandar beg Monshi. History of shah Abbas the great. Volume II. Translatedby Roger M. Savory. – Boulder, Colotado: Westview Press,1930. –P.512.
19. Qojamquli Balxi. Tarixi Qыpchaqi. Almatыyu.2017. –B.250.
20. Muḥammad Amīn b.Mīrzā Muḥammad Zamān Bukhārī (Ṣūfīanī).Muḥiṭ al- tavārīkh. *Translated and Annotated by* Mehrdad Fallahzadeh, Forogh Hashabeiky.Leiden.2020.P.145.
21. McChesney R. D. Central Asia: Foundation of change. The Darwin press,Inc.Princeton. – New Jersey:1996.P.96.
22. Mahmud ibn Vali. Bahr ul asror. O‘ZFAShI. Qo‘lyozma soni 7418. S.76[b] 80[a],169[b]
23. McChesney, R.D., 1944 - Central Asia-foundations of change. The Darwinpress, inc.Princeton, New Jersey.P.100.
24 Balx viloyati amirlaridan bo‘lgan.
25. https://vajehyab.com
26. Jangda tosh va olov otish uchun ishlatiladigan qurol
27. Tosh otish uchun ishlatiladigan katapultaga o‘xshash qurol
28. Qozon.
29. Ya’ni bolta
30. zambarak
31. miltiq
32. 1546 yil 15-martda tuzilgan Xoja Ahrorning mozoridagi Mavzoleyning vaqf hujjatida Shovdor tumani tarkibidagi Mog‘iyon joy nomi tilga olingan (Samarkandskie dokumentы XV-XVI vv. S. 329, 358). Jang bo‘lib o‘tgan joy, ya’ni “Ko‘li mog‘iyon” bilan hujjatda tilga olingan mavze’ bir-biriga yaqinmi? Degan savol ham alohida tadqiqotni talab etadi.

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIK TARIXI: AN’ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR”

QARShI YO‘LIDA JOYLAShGAN SARDOBALAR TARIXI

Nurbek Begaliev Xasan o‘g‘li
Shaxrisabz davlat pedagogika instituti
tarix kafedrasi o‘qituvchisi.
nurbek050295@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Buxoro – Qarshi yo‘lida joylashgan sardobalarning bugungi kunda madaniy yodgorlik sifatidagi axamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Sardoba, Qaqir, Uchmullab, Karchak bel, Abdullaxon II, rabot.

O‘zbekiston hududining o‘ziga xosliklaridan biri, shundaki, bu erda vohalar bepoyon cho‘llar bilan yonma-yon joylashgan. Cho‘llarni kesib o‘tish orqaligina bir vohadan ikkinchi vohaga borish mumkin bo‘lgan. Biroq cho‘llarni kesib o‘tish bir muncha og‘ir kechgan. Zero, cho‘l hududlarida suv bo‘lmagan. Suvsiz esa karvonlarning qatnovini ta’minlash mumkin bo‘lmagan. Shu sababli ham ajdodlarimiz cho‘llarda, karvon yo‘llarida ularning faoliyatini ta’minlash maqsadida suv saqlanadigan inshootlar – sardobalar barpo etishgan.

Rivojlangan o‘rta asrlarda keng foydalanilgan karvon Shimoliy Ustrushonaga, so‘ngra esa Sirdaryo vohasiga, Shoshga yoki O‘trorga olib borgan. Bu yo‘llar bo‘ylab bir necha karvonsaroy, rabot va qal’alar, ularning ayrimlari yonida quduqlar yoki sardobalar bo‘lgani aniqlangan.[1:42-44] Bu ma’lumotlar X-XII asrlarda bu yo‘nalishdagi karvon yo‘lidan ancha faol foydalanilganidan dalolat beradi.

Amir Temur va temuriylar davrida mamlakat poytaxti Samarqandni Movarounnahr va Xurosonning yirik shaharlari bilan bog‘lovchi yo‘llar mintaqadagi ichki savdo yo‘llari tizimining bosh bo‘g‘inini tashkil etardi. Karvon yo‘llarida xavfsizlikni ta’minlash sohasida olib borilgan tadbirlar, ko‘plab yo‘lbo‘yi inshootlari (karvonsaroylar, sardobalar, ko‘priklar va boshqalar) barpo etilishi, ichki va tashqi savdoni rivojlantirishning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani Amir Temur davlati ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan edi.

Buxorodan Balxga o‘tuvchi karvon yo‘lining birinchi qismini Buxoro - Qarshi yo‘nalishi tashkil etib, Qorovulbozor, Qo‘sh sardoba, Bo‘zachi, Qaqir, Xo‘ja

Muborak, Koson orqali o‘tgan. Bu yo‘nalishdagi birinchi yirik bekat Qorovulbozor bo‘lib, bu erda XVI asrning oxirlarida Abdullaxon II tomonidan qurilgan katta karvonsaroy va mahalliy aholi Gumbaz deb atovchi sardoba mavjud edi.[2:26] Keyingi bekatlar, XIX asrning 80-yillarida vayron bo‘lib ketgan Qo‘sh sardoba[3:26] hamda Qorovulbozordan 16 verst uzoqlikda joylashgan Bo‘zachidagi rabot va sardobadan iborat bo‘lgan.[4:30] Manbalarda “Qaqir” deb atalgan keyingi bekatda ham rabot va sardoba mavjud bo‘lgan. Rabot XVII asrda Buxoro xoni saroyida dasturxonchi mansabini egallab turgan Zokir biy ismli kishi mablag‘iga [5:32], sardoba esa XIX asrning birinchi yarmida Amir Nasrullo tomonidan qurilgan [6:78].

Buxoro – Qarshi yo‘li o‘rtasida joylashgan Xo‘ja Muborakda[7:43] karvonsaroy va kichik bozor mavjud bo‘lib, Buxorodan keluvchi karvon yo‘li shu erda ikkiga ajralgan. Yo‘lning asosiy tarmog‘i Koson orqali Qarshiga olib kelgan. Ikkinchi yo‘nalishda Begichak sardoba va Yakka sardoba orqali Kaspi qo‘rg‘oniga borilib, bu erdan Qarshiga yoki to‘g‘ri Amudaryo kechuvlariga tomon ketish mumkin bo‘lgan. Kaspi yaqinidagi sardoba ziyoratchilar, mahalliy aholi va savdo karvonlarini suv bilan ta’minlashda katta o‘rin tutgan.

Qarshi shahridan G‘uzor – Oqrobot – Termiz orqali yoki Amudaryoning o‘rta oqimidagi joylashgan Kelif yoki Kerke kechuvlari orqali Balxga ketishi mumkin bo‘lgan. So‘nggi o‘rta asrlarda Qarshidan Amudaryo kechuvlari – Kerki va Kelifga ketuvchi yo‘llardan samarali foydalanilgan. Bu yo‘llarning ahamiyatini yaxshi anglagan Abdullaxon II Qarshi va Amudaryo oralig‘idagi cho‘lda ko‘plab sardobalar barpo ettirdi. Bir-biridan bir kunlik masofada (25-30 km.) joylashgan bu sardobalar XX asrning 30-yillarida qisman o‘rganib chiqilgan bo‘lib[8:23], ular Qarshi – Kerki va Qarshi – Kelif savdo yo‘lining yo‘nalishini aniqlashtirishda katta o‘rin tutadi. Qarshidan Kerki kechuvlariga olib borgan karvon yo‘li Eski Nishon va Sangir suvloq sardobasi orqali o‘tgan. XIX asr rus harbiylari hisobotlariga ko‘ra Qarshi va Nishon oralig‘idagi masofa 27 verst bo‘lgan.[9:56] Eski Nishonda Abdullaxon II tomonidan qurilgan sardoba va rabot XIX asrning 60-yillarida vayrona holda edi[10]. Sardoba esa XX asrning 60-yillarida butunlay buzib tashlangan bo‘lib, uning xarobalari, biz

to‘plagan ma’lumotlarga ko‘ra, Eski Nishon qishlog‘idan 3-4 km. cha janubi-sharqda joylashgan.

Bu yo‘nalishdagi keyingi bekat Usti ochiq sardoba, mahalliy cho‘ponlardan olgan ma’lumotimizga ko‘ra, hozirgi paytda Tallimarjon suv ombori tagida qolib ketgan. Qarshi – Kerki yo‘lidagi eng yirik inshoot bo‘lgan Sangir suvloq sardobasi Turkmanistondagi eski Tallimarjon qishlog‘ining janubi-sharqida joylashgan. Bu sardoba haqida A. Vamberi ham ma’lumot qoldirgan. XIX asr oxirida bu sardoba yonida Kerki begi buyrug‘i bilan karvonsaroy barpo etilgan bo‘lib [11:7], u bizning davrimizgacha etib kelmagan. Sangir suvloq sardobasida Qarshidan keluvchi yo‘l ikkiga ajralib, birinchi yo‘nalish Qirqquduq orqali Kerkiga, ikkinchisi Butosh sardobasi va Yulg‘unog‘iz orqali Kelif kechuviga olib borgan.

Mir Izzatullo Qarshidan Qoratepa, Karkinchak, Qizquduq, Sho‘rquduq va Sardoba (bu Sardoba Abdullaxon ikkinchi davrida barpo etilgan sardobalardan biri bo‘lsa kerak) orqali Kelif kechuviga keluvchi yo‘lni qayd etadi. Qarshi – Kelif savdo yo‘lida Yusuf sardoba, Urasi sardoba, Isfanto‘da, Abdullaxon sardobasi va Kelif yaqinidagi O‘g‘uz sardobalari bo‘lgan. Qarshidan Kelifga Kerki qo‘rg‘oni orqali ham borish mumkin bo‘lib, bu yo‘l Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab o‘tgan. Kelif kechuvidan savdo yo‘li Shibirg‘on va Balxga hamda Kobul shahri orqali Hindistonning savdo shaharlariga qarab ketgan.

Qarshi shahridan savdo karvonlari Yangikent qishlog‘i – G‘uzor – Oqrabot – Temir Darvoza orqali Surxon vohasiga, bu erdan Sherobod va Termiz orqali Balxga, Afg‘oniston va Hindistonning boshqa savdo shaharlariga ketishgan. G‘uzordan Oqrabotga ketgan yo‘l Katta va Kichik Uradaryolar qo‘shiladigan joyda tarmoqlanib, bir yo‘nalishi Anorbuloq degan joyda Kaltaminor yo‘liga qo‘shilgan bo‘lsa, ikkinchisi Gulabuloq tepaligi orqali Tangaharomga, bu erdan uncha katta bo‘lmagan Yakarcha dovoni orqali Chashmai Xafizjon (Gabzon)ga olib chiqqan. Oqrabotda Shahrisabzdan keluvchi Kaltaminor yo‘li bilan qo‘shilib, Temir darvoza, Shurob va Sherobod orqali Surxon vohasiga chiqilgan. Bu yo‘nalish Sherobod yaqinidagi sardoba orqali o‘tgan. XIX asr oxirlarida bu yo‘llarni o‘rganib chiqqan rus harbiy razvedkachilari G‘uzordan

Temir darvozagacha bo‘lgan tog‘ yo‘lini, Chashmai xafizjondan 10 verstcha g‘arbda joylashgan dara yo‘li biroz tekislansa, aravalar yurishi uchun qulayligini qayd etishgan .

Kelifdan G‘uzor va Qarshiga o‘tuvchi yo‘llardan so‘nggi o‘rta asrlarda izchil foydalanilgan. Kelifdan Xo‘ja qishlog‘i (28 verst), Qo‘ytan qishlog‘i (38 verst), Beklar quduq va Maliktog‘dagi Uchmulla (Karchak bel) dovoni orqali Abdullaxon rabotiga (16 verst) kelingan. Bu erda yo‘l tarmoqlanib, biri G‘uzorga, ikkkinchisi Qarshiga qarab ketgan. Manbalarda Quytan qishlog‘i Kelif – G‘uzor yo‘lidagi yagona bozor bo‘ladigan joy sifatida eslatilib, bu qishloqdan Sherobodga ham yo‘l o‘tishi qayd etiladi. Karchak qishlog‘i yaqinida esa Abdullaxon tomonidan qurilgan bir necha rabotlar va sardoba bo‘lgani bu yo‘nalishning so‘nggi o‘rta asrlardan boshlab izchil faoliyat ko‘rsatganligini bildiradi.

Bu davrda Samarqanddan Qarshi orqali Xuroson va Eronning savdo shaharlariga boruvchi karvon yo‘llaridan foydalanish davom etdi. Samarqandan Qarshiga ikki yo‘nalishda yo‘l kelgan. Birinchisi Ajirim, Sho‘rbozor, Ayritom orqali o‘tgan. Sho‘rbozor XVII asr boshlariga tegishli manbalarda Samarqand va Qarshi oralig‘idagi muhim manzil sifatida qayd etiladi. Biz to‘plagan ma’lumotlarga ko‘ra, Sho‘rquduqda sardoba mavjud bo‘lib, u o‘tgan asrning 60-yillariga kelib butunlay buzilib ketgan. Mahalliy yozma manbalarda ham, bu hududlardagi yo‘llarni o‘rganib chiqqan rus harbiylari asarlarida ham bu sardoba haqida ma’lumot uchramaydi. Bu ehtimol, XVI-XVIII asrlarda ancha keng foydalanilgan mazkur yo‘nalish XIX-XX asr boshlarida o‘z ahamiyatini yo‘qotib, Jom orqali o‘tuvchi yo‘lning ahamiyati oshib borishi bilan izohlanishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Немцева Н.П. Караванными дрогами голодной степи // Вехи времен. Рассказы о памятниках истории и культуры Узбекистана. – Ташкент, 1989, – С. 42-44
2. Массон М.Е. Проблема изучения цистерн-сардоба. – Ташкент, 1935. – С. 26-27

3. Мавлонов У.М. Позднесредневековые транзитные дороги Кашкадарьинского оазиса // Культурное наследие Средней Азии. – Ташкент, 2002. – С. 156.
4. Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879 годах. Т. 2. – СПб.,
5. Авский. Сардоба Абдуллахана // Журн. Разведчик, 1893. – № 120. – С. 82-83.
6. Еврейнов. Рекогносцировка пути через Джамский перевал на гузар и на Карши 1887 г. Генерального Штаба полковника Еврейнова // СМА. – СПб.: Военная типография, 1888. Вып. XXXVI. – С. 115, 118.
7. Маев Н. Очерки Гиссарского края // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник.– СПб., 1879. Вып. V. – С. 144-145.
8. Мавлонов Ў., Аминов Б. Мир Иззатулло ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2006. – № 4. – Б. 20-22.
9. Арандеренко Г.А. Цистерны в Каршинской степи // Досуги в Туркестане. – СПб., 1883. – С. 248.
10. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии / Перевод с немецкого с примечаниями В.А. Ромодина. – СПб., 2005. – С. 190.
11. Мавлонов У.М. Позднесредневековые транзитные дороги Кашкадарьинского оазиса // Культурное наследие Средней Азии. – Ташкент, 2002. – С. 156.

ILK O‘RTA ASRLAR KOREYA VA O‘ZBEKISTON TARIXIDAGI O‘ZARO ALOQADORLIGI MASALASINING O‘RGANILISHI

Yoo Inyoung
SamDU Arxeologiya kafedrasi
mustaqil tadqiqotchisi,
+998 91 558 20 17
juanjoy@gmail.com

Yangi O‘zbekiston xalqaro munosabatlarga ochiqlikni namoyon qilayotgan bir sharoitda O‘zbekiston va Janubiy Koreya respublikalari o‘rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “… O‘zbekistonning ishonchli do‘sti va alohida strategik sherigi — Koreya Respublikasi bilan barqaror, ishonchga asoslangan va jadal rivojlanib borayotgan hamkorlikni qadrlaymiz”. O‘zaro do‘stona munosabatlarning tarixiy ildizlarini ilmiy asoslashda antik va o‘rta asrlarda O‘zbekiston hududidagi davlatlarning Koreya yarim oroli davlatlari bilan madaniy, savdo va diplomatik

munosabatlarini yozma va arxeologik manbalar asosida tadqiq etish, o‘rganish muhimdir. Antik va o‘rta asrlarda O‘zbekiston hamda Koreya tarixining o‘zaro aloqadorligi masalasi O‘zbekiston tarixining to‘liq o‘rganilmagan va aksariyat hollarda umumiy qarashlardan iborat tarixiy ma’lumotlar bilan cheklanib qolgan. Ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borish, masalasining tub mohiyatini ochib berish dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbekiston hududidagi davlatlarning ilk o‘rta asrlarda Koreya yarim oroli mamlakatlari bilan madaniy aloqalari, savdo va diplomatik munosabatlari XX asrning ikkinchi yarmiga qadar tariximizning sirli jumbog‘i bo‘lib keldi. XX asr ikkinchi yarmidan e’tiboran fan doirasidagi manbalar asosida bir qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Ushbu jarayon bilan bog‘liq holda mintaqalar madaniyati va savdo–iqtisodiy aloqalariga doir tarixnavislik boshlandi.

Ikki mintaqa o‘rtasida antik va o‘rta asrlarda siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning sekinroq kechganligi sababli ushbu tadqiqot yo‘nalishiga doir ma’lumotlar yozma manbalarda ham nisbatan kam uchraydi. Koreyslar va Markaziy Osiyo xalqlarining o‘zaro aloqalari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ushbu mintaqada joylashgan ba’zi viloyatlari zamonaviy ilmiy izlanishlarga ko‘ra, koreys etnosining genezisida ham muhim rol o‘ynagan (Пан Мин Кю, 2008. 154-159)

Oltoy va O‘rta Osiyo hududida joylashgan xalqlarning koreyslar etnogenezida qatnash ganiga qaramay, Koreya va O‘rta Osiyo mintaqasi o‘rtasidagi aloqalar VII asrgacha bo‘lgan yozma manbalarda qayd etilmagan.

O‘zbekiston hududida tadqiqot mavzusiga doir ilk ma’lumotlar Samarqanddagi Afrosiyob devoriy suratlarida uchraydi. Afrosiyob devoriy suratlari O‘zbekiston tarixini o‘rganishdagi muhim madaniy me’ros obyektigina bo‘lib qolmasdan, balki Buyuk ipak yo‘lidagi xalqaro diplomatik munosabatlar tarixini o‘rganishda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan madaniy tarixiy hujjat hisoblanadi.

1965 yil Samarqand shahridagi qurilishi rejalashtirilgan yangi ko‘cha aynan ana shu qadimiy shahar xarobalari ustidan o‘tishi belgilandi. Yo‘l o‘tadigan hudud tekislanayotgan vaqtda nodir topilma, dunyo tarixiga oid qiziqarli ma’lumotlar beruvchi

devoriy suratlar aniqlandi. Eng yomoni, buldozer devoriy suratni qoq o‘rtasidan ikki bo‘lib o‘tgan edi.

1966 yilda UzSSR Ministrlar Sovetining qaroriga binoan UzSSR Fanlar akademiyasi Prezidiumi huzurida Afrosiyob shahar xarobasida arxeologik ishlarni rejalashtirish, arxeologik qazishma ishlarini muvofiqlashtirish uchun Ilmiy Kengash tuzildi. Kengash tarkibiga Ya.G‘.G‘ulomov – ekspedisiya rahbari, V.A. Shishkin – Afrosyobda qazishmalar olib boruvchi guruh boshlig‘i, G. A. Pugachenkova, M. Ye. Masson kabi O‘zbekistonning yetakchi tarixchi va arxeologlari kiritildi. Mutaxassislar Afrosiyobning 23-qazishmasidagi devoriy suratlarni tadqiq etishni boshlashdi. Devoriy suratlarni tadqiq etishga boshchilik qilish L.I.Albaumga yuklatildi. L.I.Albaum galereyaning g‘arbiy qismidagi devorga chizilgan 24-25 figuralarini tarixiy manba va etnografik ma’lumotlar asosida tahlil qilib, ularni Koreya elchilari degan xulosaga keladi (Альбаум, с. 74-75).

Shunday qilib, Afrosiyob devoriy suratlaridagi elchilar tasviri O‘zbekiston va Koreya tarixidagi o‘zaro aloqalarni o‘rganishda noyob tarixiy manba bo‘lib qoldi (金元龍, 1976. 129, 130).

Antik va ilk o‘rta asrlarda Koreya va Turkiston mintaqalari aholisining iqtisodiy va madaniy aloqalari tarixini o‘rganish mustaqillik yillarida yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu borada alohida monografik tadqiqotlar yaratilmagan bo‘lsada, mavzuni yoritishda muhim ilmiy asoslarga ega bo‘lgan qator ilmiy maqolalar e’lon qilindi. Jumladan, o‘zbekistonlik olim V.S.Xanning ilmiy izlanishlari natijasida yuzaga chiqqan ba’zi ma’lumotlar fan uchun shubhasiz o‘z tarixiy haqiqati bilan qimmatli. U “Koreya tarixi” nomli monografiyasida Koreya va Markaziy Osiyo xalqlarining diplomatik va madaniy aloqalari Koguryo davriga borib taqalishini, VII asrda Turk hoqonligi va Koguryo o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilganligi, koreyalik nufuzli rohib Xechxonning VIII asrda O‘rta Osiyoga sayohat qilganligi haqida ma’lumot beradi. Lekin bu sayohatning tafsilotlari haqida so‘z yuritmaydi. V.S.Xan koreys olimlari Silla podshohi Xengdok (IX asr) maqbarasidagi granitdan yasalgan haykalni Markaziy Osiyo

mintaqasidan chiqqan kishining tasviri deb hisoblashlarini keltirib o‘tadi (Хан.,2013. 123 б)

O‘zbekiston va Koreya o‘rtasida antik va o‘rta asrlarda amalga oshirilgan hamkorlik aloqalari haqida tadqiqotchi N.E.Karimova tomonidan e’lon qilingan maqolalarda ham qiziqarli ma’lumotlar uchraydi. Muallifning “Uzbekistan i Koreya: istoricheskiye svyazi.”, “O‘zbekiston va Koreya Respublikasi munosabatlarida tarix va zamonaviylik”, “Hyech’oning Markaziy va Janubiy Osiyo tarixi haqidagi esdaliklari” nomli maqolalarida Buyuk ipak yo‘lidagi madaniy almashinuvlarning Koreya madaniyatiga ta’siri, Markaziy Osiyo mintaqasi va Koreyadagi ilk o‘rta asrlar davlatlarining diplomatik aloqalari yoritiladi (Хан.,2013. 123 б). “Hyech’oning Markaziy va Janubiy Osiyo tarixi haqidagi esdaliklari” nomli maqolasida Xitoy yozma manbalarida keltirilgan koreys ruhoniysining Hindiston va Markaziy Osiyoga sayohati yoritiladi. Xitoylik sayyohlarning Tan imperiyasi davrida G‘arbga sayohati davomida yozib qoldirgan esdaliklari anchagina. Ular orasida Xuan Zang, Xui Li va Yan Zonglarning esdaliklari muhim bo‘lgan. Ushbu maqolada muallif xitoylik sayyohlar keltirib o‘tgan ma’lumotlar bilan birga koreyalik budda rohibi Hyech’o tomonidan yozib qoldirilgan ma’lumotlarni ham keltirib o‘tadi. Sayohat esdaliklarida nafaqat Hindistondagi, shuningdek, VII asr boshlarida Markaziy Osiyodagi ijtimoiy madaniy hayotning rivoji, budda jamolarining turmush tarzi haqida tarixiy ma’lumotlar keltiriladi (Каримова, 2015, с. 45-46).

Koreya va O‘zbekiston o‘rtasidagi tarixiy va madaniy aloqalar to‘g‘risida o‘zbekistonlik arxeologlar A.A.Anarboyev va A.Berdimurodovlar ham tadqiqot ishlarini olib borishgan. Xususan, A. Berdimurodov kitobida keltirilishicha, Silla davlati har tomonlama kuchayib, markazlashgan davrda Sillaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalari jonlanadi.

Sillaning poytaxti Kyonchju har tomonlama kengayib, shu shaharda saroylar, zodagonlar uchun turar joylar barpo qilinadi. Shaharning o‘rtasida "Oy qasri" (Lunnыy zamok) nomli hashamatli qasr quriladi. Bu qasrning ichida VII asrda "Yulduzlarni kuzatish uchun minora" ham barpo qilinadi.

Xitoy orqali Sillaga xorijiy savdogarlar kirib kelganlar va sillalik savdogarlar, elchilar va sayyohlar xorijiy davlatlarga yo‘l olganlar. Tadqiqotchilar Samarqand hukmdori Varxumanning saroyi devorlariga chizilgan suratlarda aks ettirilgan ikki personajlar liboslari va tashqi qiyofalariga qarab, aynan Silladan kelgan mehmonlar ekanliklarini ta’kidlaganlar. VII-VIII asrlarda Silla ko‘pgina davlatlar bilan diplomatik va savdo-sotiq munosabatlarini o‘rnatganligini hisobga oladigan bo‘lsak, yuqoridagi fikrga qo‘shilish mumkin (Бердимуродов,. 2015. Б.393).

Movaraunnahrda arab istilosining boshlanishi va Silla davlatining kuchayishi bilan ikki mintaqa davlatlarining o‘zaro aloqalari Xitoy orqali davom ettirilishi masalasi taniqli arxeolog A.A.Anarboyevning “Arablar bosqini va sug‘d-turk zodogonlarining taqdiri” nomli maqolasida atroflicha bayon qilinadi.

Sug‘d bilan Silla o‘rtasidagi aloqalaridan darak beruvchi madaniy me’ros obekti Silla hukmdori Von Seon (785-798) qabri yaqinidagi toshdan yasalgan ikki haykallar hisoblanadi. Qirolning qabri Kyonchju shaxridan 12 km masofada joylashgan. Bu qabristonda qirol xonadoniga mansub bir nechta aslzodalarning haykallari bilan birga Sug‘d va Farg‘ona mintaqasi odamlariga o‘xshash qiyofalar aks ettirilgan ikkita haykal joylashgan.

A. Anarbayevning yozishicha, bu yerdagi ikki haykal o‘z tashqi qiyofasi, liboslari va boshqa xarakterli belgilariga ko‘ra sug‘diylarga tegishlidir. Shuningdek, A. Anarbayev II-III asrlarda Sug‘d savdogarlari Xitoy, Vyetnam va Koreya davlatlari hududlarida bir necha savdo koloniyalari barpo qilganliklarini, shunday savdo koloniyalaridan biri Kyonchju shahrida ham bo‘lganligini takidlagan (Анарбаев, 2016.б. 23-31).

Sug‘d bilan Koreya yarim orolidagi davlatlarning o‘zaro madaniy ayriboshlash borasida olib borgan hamkorligi masalasi yuzasidan Samarqand davlat universiteti professori B.S.G‘oyibovning izlanishlari diqqatga sazovor. Muallif “On the History of Early Medieval Sughd-Korean Relations” (2022 y) nomli maqolasida ikki mintaqa o‘rtasidagi tarixiy aloqadorlik masalalarini kengroq yoritibgina qolmay, zamonaviy koreys yozuvining shakllanishida sug‘d yozuvining ta’siriga alohida to‘xtalib o‘tadi.

O‘rta asrlarda Koreya madaniy hayotiga Buyuk ipak yo‘li nafaqat iqtisodiy va diniy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilgan, balki bu madaniy aloqalar almashinuviga ham olib kelgan. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab madaniy aloqalar rivojlanishi asosan Koreya harf-fonetik alifbosining shakllanishiga hissa qo‘shgan. M.Isxaqovga ko‘ra, Koreya alifbosining shakllanishida Koreya mintaqasi va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi uzoq muddatli madaniy aloqalar kuchli ta’sir o‘tkazgan. Olimning aytishicha, miloddan avvalgi to‘rtinchi va uchinchi asrlarda uyg‘ur yozuvi va mo‘g‘ul yozuvi oromiy yozuvida asoslangan sug‘d yozuvi asosida shakllangan. Koreya yozuvi (hangil) ushbu yozuv namunalariga asoslangan holda shakllangan. M. Isxaqovga ko‘ra, yigirma ikki harfli sug‘d yozuvida harflarning imlosi uyg‘ur, mo‘g‘ul va Koreya yozuvlariga qaraganda Sug‘d yozuviga yaqinroq (Bobur Goyibov, 2022. P.50-63..)

B.G‘oyibov Markaziy Osiyo va Koreya yarim orolidagi o‘zaro munosabatlar er.av. V asrdan boshlanib, keyingi davrlarda ham Buyuk ipak yo‘lida olib borilgan xalqaro munosabatlar doirasida davom etganligini tarixiy adabiyot va manbalar orqali asoslab bergan. Buyuk ipak yo‘li nafaqat iqtisodiy va diniy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilgan. balki, bu madaniy aloqalar almashinuviga ham olib kelgan. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab madaniy aloqalarning rivojlanishi Koreya harf-fonetik alifbosining shakllanishiga hissa qo‘shgan.

Taniqli sug‘dshunos M.Is’xakovga ko‘ra, Koreya alifbosining shakllanishi Koreya mintaqasi va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi uzoq muddatli madaniy aloqalar natijasida sodir bo‘lgan. Olimning ta’kidlashicha, miloddan avvalgi to‘rtinchi va uchinchi asrlarda uyg‘ur yozuvi va mo‘g‘ul yozuvi oromiy yozuviga asoslangan Sug‘d yozuvi asosida shakllangan. Koreys yozuvi (hangil) ham ushbu yozuv namunalariga asoslangan holda shakllangan (М.Исхаков, 2007. б.221-224).

Yuqoridagi keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, antik va o‘rta asrlarda O‘zbekiston hududidagi davlatlarining Koreya yarim oroli davlatlari bilan madaniy, savdo va diplomatik munosabatlariga doir masalalar zamonaviy o‘zbek tarixchiligida yoritilgan bo‘lsada, bu talab darajasida emas. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlar endigina keng yo‘lga qo‘yila boshladi. Ushbu yo‘nalish istiqbolli

hisoblanib, muammoni o‘rganish yuzasidan tadqiqotlarni hamkorlikda amalga oshirish natijasida O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi qadimgi aloqalar haqida ko‘plab yangi ma’lumotlarni qo‘lga kiritishimiz shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Пан Мин Кю. Проблема происхождения населения Корейского полуострова (по данным антропологии). Археология, этнография и антропология Евразии. 2008. №2. – С. 154-159

2. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. Ташкент. 1975. – С. 74-75.

3. 金元龍, 『사마르칸드 아프라시압 宮殿壁畵 使節圖』,『考古美術』129.130, 1976

4. Хан.В.С. Корея тарихи. «Baktria press». Т.:2013. – 123 б

5. Каримова Наталья. Сведения Хуэй Чао по истории Центральной и Южной Азии. ORIENTAL STUDIES 2015, № 1. – С. 59.

6. Бердимуродов А.Э. Самарқанд тарихидан томчилар. Тошкент. 2015. Б.393

7. Анарбаев А.А. Араблар босқини ва суғд-турк зодагонларининг тақдири. O‘zbekiston arxeologiyasi. 2016. № 2 (13). Б.23-31.

8. Bobur Goyibov. On the History of Early Medieval Sughd-Korean Relations. UNESCO ICDH NEWSLETTER. 2022. Vol 4. P.50-63.

9. М.Исхаков. К истокам корейского алфавита. Самарқанд шаҳрининг умумбашарий маданий тариққиёт тарихида тутган ўрни” мавзуида Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. Тошкент-Самарқанд, 2007, Б.221-224

3-SHO‘BA. O‘ZBEKISTON MUSTAMLAKACHILIK VA MUSTABID SOVET TUZUMI DAVRIDA

THE PLACE OF RESETTLEMENT POLICY IN THE TRANSFORMATION OF TURKESTAN INTO A RUSSIAN COLONY

Shokir Safarovich Gofforov
Doctor of historical science,
Professor of Samarkand State University named after Sh.Rashidov

Annotation: The paper analyzes the prerequisites for Russia's military and political expansion and its strategic goals in Turkestan, as well as the role of resettlement policy in the period of colonization of the region.
Keywords: Colonialism, Turkestan, Russian Empire, expansion, resettlement policy.

In the middle of the XIX century, when the ruling circles of the Russian Empire intensified military and political actions to expand their positions in Central Asia, Russia had a vast territory - from the Caspian and Black Seas to the Pacific and Arctic oceans. Poland and Finland were also under its control, but imperial ambitions have beenpreserved. Emperors and the emerging Russian bourgeoisie showed a growing tendency to master new large markets of mineral and agricultural raw materials, to potential regions of sale of Russian products. At the same time, special importance was given to the establishment of royal domination in Central Asian khanates.

The unsuccessful military expedition of Bekovich-Cherkassy (1717-1718) and the following two expeditions of N.N. Muravyov (1818-1820) were undertaken under Peter the Great.) in Khiva, attempts to use the conflicts on the borders of the Kazakh khanates, as well as the Kokand khanate with China, the confrontation between the Bukhara emirate and the Kokand khanate, the acute political and diplomatic rivalry between Russia and Great Britain for influence in the region testified to the far-reaching strategic plans of the emperor autocracy in Central Asia. Moreover, Turkestan, rich in natural resources and geographically conveniently located, was seen by the Russian authorities not only as an extensive market for raw materials and sales, but also as an extremely important springboard for further expansionist plans of the Russian Empire.

Numerous archival materials testify to the fact that the Emperor regime, taking into account the inevitable negative reaction of England and a number of Western European countries to the advancement of Russia into the depths of Central Asia, especially towards Bukhara, Khiva and the borders of Afghanistan, carefully concealed its military and political aspirations. Thus, declaring his

intention to limit himself to establishing his power only in the area from Semipalatinsk to Tashkent, the Emperor regime in 1865 formed the Turkestan region and included it in the Orenburg Governor-General's Office. At the same time, however, preparations were under way to conquer the rest of the Central Asian khanates. By 1867, the Turkestan region had been "attached" to a significant territory that had previously been part of the Bukhara Emirate, and in this regard, the Turkestan Governorate-General was established, directly subordinate to the central government. The regional administration headed by K.P. Kaufman continued its conquest policy in accordance with the strategic plans of the emperor. In 1876, it was announced that the Kokand khanate would be annexed to Russia and the Ferghana region would be formed in its place. Bukhara emirate and Khiva khanate turned out to be vassal of Russian empire of the state. At the same time, the territories of the Kazakhs of the Middle and Small Zhuzes were annexed, on the basis of which the Steppe Governorate-General was formed in 1882.

Russia's ruling tops, who were well aware of the military and strategic importance and resource wealth of Central Asia, sought to establish substantial colonial domination in the region. And for this purpose, in addition to a strong army and an extensive military and administrative system of government, it was important to create a reliable support in the face of the Russian population. According to the inspirers and leaders of the colonization, this was especially necessary in Turkestan, where the indigenous population of about 5 million people was clearly hostile to the new government.

It was the imperial interests of the edges systemic colonization that stimulated the migration policy and practice of emperors. They were supplemented by the intentions of the emperor administration to solve acute social and economic problems in the metropolis through the new colony. For example, the Emperor government attached great importance to the resettlement of some peasants from Russian villages in order to mitigate social conflicts in Russia caused by the lack of land due to the development of capitalist relations in Russian agriculture. It is no coincidence that as early as 1869 the rules on peasant settlements in Semirechye were developed, which created favorable conditions for the influx of Russian settlers to Turkestan.

Count K.K. Palen, who audited Turkestan in 1908, spoke quite frankly about the strategic goals of the policy of relocating part of the Russian population to the region. In particular, he wrote: "Except for the political motives that were important for the conquest of Turkestan, from the very first days of its accession to Russia, this region was of twofold interest to the Russian government: 1) from the point of view of financial policy as a source of state revenues and as a new market for domestic products and 2) from the point of view of colonial policy as a new area for the movement of excess population from provinces [1, P. 496].

Although, must say, the thesis of "excess agricultural population", justifying the colonization of the Central Asian region, was far-fetched. After all,

for almost three centuries, the royalempire had sparsely populated vast expanses of Siberia and the Far East, in need of economic development. Another question is that it required huge financial resources. Turkestan with its favorable climate and developed economic infrastructure looked much preferable in this respect.

The subordination of resettlement processes to the goals of accelerated colonization of Turkestan can be judged by the specifics of the region's management, which is fully given to representatives of the Russian military command. It is indicative in this respect that, unlike the Steppe region, which was under the jurisdiction of the Ministry of Internal Affairs, the Turkestan Governor-General's Office, which was shocked by the anti-colonial struggle of the people, was administratively under the control of the Military Ministry. Such a system of management was a convincing evidence of the priority of military and political tasks in the strategic plans of colonization of Turkestan and the subordination of the resettlement policy to these tasks.

The introduction of the military-administrative model of governance in the region was strictly in line with the royal plans to create a "Russian Turkestan". This global project was accompanied by a solid political, economic and ideological basis, which included, along with the introduction of the Russian education system, Russian-Turkish schools, the deployment of a network of institutions of the Orthodox Church, government stimulation of the resettlement movement aimed at the organized settlement of the region by Russians and the gradual assimilation of the indigenous population. All this has determined the specifics of resettlement practices in the colonized Turkestan.

The approaches of colonial powers, in particular the Russian Empire, to resettlement policies differed. In particular, although all of them had similar basic aims - the predominant presence in strategically important territories, the exploitation of their natural and human resources, and the large-scale export of national and cultural values - differences were nevertheless observed. This was particularly evident in the practice of resettlement. For example, while the United Kingdom, Spain, Italy, Germany, and France did not undertake mass resettlement of part of their population in the colony (the only exception was the settlement of Australia and New Zealand by migrants from the metropolis), the Emperor Russia used such methods.

In close connection with the analysis of strategic objectives of the resettlement policy, close attention is paid to the thesis on the scientific periodization of resettlement processes. The urgency of solving this problem is due to the fact that there is no unity of views on this issue in the available historical literature. And the main thing is that in the previous historiography in the assessment of the stages of migratory processes more dominated the official ideological attitudes than the strictly scientific approach.

On the basis of modern conceptual-theoretical notions, the dissertation offers the following periodization. In his opinion, the first stage of the Russian migration movement to Central Asia, including Turkestan, was the period of 1840-1867. Its characteristic features were the hectic nature of the resettlement

process, the brutal arbitrariness of the authorities and the immigrants, who were conscious of being victorious in relation to the local population, and the settlement of a significant mass of migrants, excluding the Cossacks, in cities and near Russian garrisons and fortresses.

It was at this stage that the imperial administration developed a mechanism for intensively stimulating the growing flow of migrants from the metropolis, aimed, firstly, at strengthening Russia's colonial domination in the region, and secondly, at ensuring the security of the rear of the Russian troops and preventing unrest among the indigenous population. During more than two years of the Turkestan region's existence, the colonial authorities created a frankly powerful military and administrative system of government, as well as a fairly extensive network of Russian settlements and achieved a dynamic influx of Russian settlers, who settled mainly in the cities of the region.

The transformation of the Turkestan region into the governor-generalship of the same name, its subordination to the Military Ministry and the granting of the rights of the royal viceroy in the region to von Kaufman marked the beginning of the second stage of the migration movement from the metropolis to the Syrdarya and Semirechensk regions [2].

This stage, which covered the years 1867-1881, was characterized by a significant expansion of the territorial space for the immigrants, as at the expense of the newly conquered areas were created Zarafshan district (1868), the Amudarya department (1873), Fergana region (1876). Later, with the aim of Cossack colonization and large-scale settlement by the Russian population of the Turkmen territories, the emperorist regime transferred the Trans-Caspian region formed in 1881 to the jurisdiction of the Caucasian viceroyalty, in which it remained until 1898. But even before that, in 1873, the government of the empire agreed with the proposal of the Turkestan governor-general on the priority settlement by the Russian settlers of the territories along the lines: 1) from Orenburg to Tashkent and 2) from Tashkent through Chimkent, Aulie-Ata and Verny to Semipalatinsk [3, P. 30].

By the suggestion of the colonial administration on July 10, 1881, "Temporary rules on the resettlement of peasants to the free public lands" were approved. In 1881-1896 new "Rules for the resettlement of Russian subjects of Christian denominations" were adopted (June 12, 1886).), the Law "On Voluntary Resettlement of Villagers and Bourgeoisie to Public Lands and on the Procedure for the Assignment of Persons of the abovementioned Estates who Resettled in the Previous Time" (July 13, 1889), "Regulations on the Management of the Turkestan Territory" (1886), "Steppe Territory" (1891), a number of orders of the central government on the issues of benefits for the resettlers and the termination of unauthorized resettlement. But in the years of drought, bad harvests in Russia and mass demonstrations of the indigenous population of Turkestan, the established order of resettlement was often violated. For example, in 1889-1891, passports were issued to 1,7289 families in the internal provinces, and 28,911 families [4, P. 20] actually moved. Due to the famine that befell many of the

central provinces of the empire, in 1892 the flow of migrants increased dramatically and subsequently increased [5, P. 127].

The last stage in the resettlement policy and practice of the emperor autocracy in Turkestan was, according to the dissertation, the years 1897-1917. This stage, as the research materials show, became the most difficult for the indigenous population not only of the Turkestan region, but also of the Bukhara Emirate, Khiva Khanate, a significant part of the territory of which was rejected by the colonial administration for settlement of migrants from the metropolis, and from 1914 - for the accommodation of foreign prisoners of war [6].

This stage was characterized by a rapid increase in the number of settlers of the Christian faith, increased oppression of the local population, which was initiated by both the settlers themselves and the colonial authorities, as well as was legitimized by imperial decrees and resolutions of the Russian government. Among these documents are those adopted by the Senate on July 10, 1903. "Rules on the voluntary resettlement of villagers and bourgeoisie to public lands in the Syrdarya, Fergana and Samarkand regions", Law of 1910. "On the withdrawal from use of the nomads of Turkestan the lands excessive for them for the purpose of their conversion to the resettlement sites and other state needs [7, P. 117].

The absence at the first stage of colonization of Turkestan of the relevant laws and official decrees regulating the resettlement processes did not mean that the resettlement movement to the new colony was chaotic. Although spontaneity and chaos were observed. Even before the formation of Turkestan region in March 1865, about 10 thousand Cossacks assigned to the Siberian Cossacks were resettled to the areas adjacent to China (Eastern Turkestan). To accommodate them, the indigenous population - Uzbeks, Kyrgyz, Kazakhs, Uighurs - were displaced from inhabited areas in Issyk-Kul and Semirechye, and the areas of land plots, hayfields and pastures allocated to the settlers, were determined by their needs. Seeing such a privileged placement of Cossacks, peasants, perpetual holiday soldiers and part of the Kalmyks tried to join their ranks.

By the time the Turkestan governorate was formed, 324 perpetual holiday soldiers and 205 Kalmyks [8, P. 178] were among the almost 15,000 Cossacks. The latter were not Christians. In addition, several hundred Astrakhan and Ural Cossacks, together with Russian army units stationed in Krasnovodsk, formed a number of fishermen's settlements on the Turkmen coast of the Caspian Sea.

However, as early as the late 1960s and early 1970s, Governor-General K.P. Kaufman, who had virtually unlimited powers, spoke out against further settlement of Cossacks in the region in favor of expanding peasant colonization. Kaufman believed that Cossacks were bad farmers and were extremely cruel to the indigenous population, and now, after the conquest of the region, they were of little military value [8, P. 151-157].

K.P. Kaufman expressed interest in the resettlement of economically strong Orthodox peasants, as well as wealthy industrialists, merchants and

bankers to the region. The same viewpoint was held by the majority of officials of the colonial administration of Turkestan.

The thesis, based on extensive source material, describes in detail the practice of selection and organized resettlement of peasants of Slavic nationalities and predominantly Orthodox faith. It is noted that the latter corresponded to the missionary russian plans of the royal government, the ideological inspirers and preachers of which were the imperial Minister of Education D.A. Tolstoy, N.I. Ilminsky, as well as N.P. Ostroumov, who became one of the leaders of the system of public education in the region.

The transition to organizational regulation of the resettlement process contributed to the fact that some of those who had moved forcibly or voluntarily returned to Russia. However, in general, it was not possible to exclude or at least reduce the scale of unauthorized resettlement of peasants and urban poor to Turkestan.

When developing and implementing the resettlement policy, the Emperor administration was guided by the following ideological priorities. Firstly, as a factor in achieving the military and strategic goals of the empire in the East. The presence of a large Russian diaspora in Turkestan, as well as the construction of the Trans-Caspian and later Orenburg - Tashkent railways had primarily a military purpose. From this diaspora, if necessary, it was planned to recruit soldiers for the regular army until the end of the XIX century.

Secondly, the presence of an extensive enclave of settlers was seen as the most important condition for the establishment of Russian military and political domination in Turkestan, the creation of a reliable colonizing layer among the potentially and actually hostile indigenous population, a real support for the colonial authorities.

Thirdly, the resettlement movement was designed to serve the large-scale exploitation of natural resources and subjugated peoples in the interests of the metropolis.

Fourthly, as noted above, it was an important prerequisite for ensuring strategic plans for the establishment of "Russian Turkestan". Emperors understood that without large-scale resettlement of a part of the Slavic-Christian population it would be impossible to achieve the Russian goals in the region with the majority

Muslim population and a rather high level of culture, with more ancient traditions of national statehood than in Russia.

The Emperor administration sought to systematically accommodate settlers in all regions of the conquered territory from the first steps of resettlement colonization. In this connection, especially at the initial stage, preferential conditions were created for Russian migrants. Thus, in the 60s - 70s of the XIX century, before the adoption of the first official rules governing the resettlement and accommodation of peasants and other categories of migrants, they were provided with from 7 to 10 dozen of irrigated land. And in some areas of the Syrdarya and Semirechensk regions - and even more: 7-8 dozen per

male soul. And this is despite the fact that only 0.4 to 0.7 tithing (1 tithing = 1.09 hectares) per family of the local rural population of irrigated land was accounted for. In addition, Russian rural migrants were exempted from taxes and money contributions for 15 years, while men were exempted from military service. However, since in some regions, for example, in the Ferghana and Samarkand oblasts, there was an acute shortage of land and the confiscation of land from the indigenous population caused particularly strong resistance, Russian peasants were provided with smaller plots of land. On the other hand, they received loans to buy more land.

The empire's authorities were interested in seeing Russians in Turkestan above the indigenous population in political, civil and economic terms. Indeed, as stated in the K.P. Kaufmann's report, "... Among the Russian settlements here in the foreground there are not only small towns inhabited by half Tatars (meaning indigenous population - Sh.G.), and not only rare Cossack villages with their Siberian semi-marty population, but prosperously growing peasant villages and communities on the steppe lands of the fertile land".

In the work on the basis of the generalization of various documentary material it is also shown that the conditions typical for the period of resettlement of only the Orthodox population (before 1881), gradually changed - in connection with the lack of free land, careless attitude of many immigrants to the irrigated lands and in general to their purpose in the region. As a result, on July 10, 1881, the Emperor approved the first "Temporary rules on the resettlement of peasants to the free public lands" in the emperor resettlement policy [9, P. 1,7]. These rules, despite the almost complete absence of land in the so-called state fund, caused a marked increase in the flow of migrants to Turkestan, the Steppe region and the territory alienated from the Bukhara Emirate, Khiva Khanate, and even to Northern Iran. But due to the fact that among the migrants from the metropolis were Azerbaijanis, Tatars and other representatives of the "foreign", non-Christian population, the emperorist government introduced in 1883 additional resettlement rules. They allowed only people of Slavic origin (Russians, Belarusians, Uedgenians) and Orthodox faith to enter Turkestan. All others had to obtain special permission from imperial agencies and the Ministry of Internal Affairs [3, P. 30-31].

The materials of the research clearly show that already at the first stage of colonization of Turkestan the resettlement policy of the emperor regime was openly of a great power and was subordinated not only to the military and political but also to the economic interests of the metropolis. In this connection, a large- scale confiscation of indigenous lands and declaration of their ownership by the Russian state began. These actions contributed to the creation of a powerful land fund for immigrants from the central districts of the metropolis and officials of the colonial authorities, who, along with military units, were to become a solid foundation for the colonial regime in the region.

The colonial nature of the resettlement policy was also manifested in the fact that the resettlement of Russian migrants was usually carried out at the

expense of the social and economic oppression of indigenous peoples. Imperial practices of social discrimination against the local population were ideologically and legally supported by numerous decrees, laws and decrees of the emperor government on the resettlement issue.

Thus, we can say that the conquest and colonization of Turkestan represented only a part of the strategic military-political and economic plans of the ruling upper classes of the Russian Empire. Geostrategically, especially in the light of the Anglo-Russian rivalry, the emperor autocracy envisaged further colonial expansion and strengthening of imperial positions in Central Asia and the Caucasus. The resettlement policy played an important role in ensuring this task. This is evidenced by the active resettlement of paramilitary Cossacks, as well as the predominant settlement of Russian migrants in the areas bordering Afghanistan, Turkey, China (Eastern Turkestan) and Northern Iran. It is also indicative of another. In the presence of a large regular army, almost the entire Russian population was armed, which served as the military and political dominance of the Russian Empire. However, there were not enough opportunities to implement expansionist plans. Therefore, the emphasis in the resettlement policy was increasingly shifting towards the use of the resettlement movement to colonize the occupied territories, including Turkestan.

REFERENCES

1. Palen K.K. Addendum to the audit report... P. 496.
2. Draft regulations on management in Semirechensk and Syrdarya provinces. - St. Petersburg, 1867.
3. Ginzburg A.I. Russian population in Turkestan. - – M., 1991. - – P. 30.
4. Kaufman K.P. Resettlement and colonization. T. II. - St. Petersburg, 1905. - – C. 20
5. Voshinin V.P. Resettlement. // On land. Issue. I. - – M., 1921. - – C. 127.
6. Law of the Governing Senate of the Russian Empire of July 10, 1903. - St. Petersburg, 1903
7. Iskhakov F. National policy of emperorism in Turkestan. - – T., 1997. - – P. 117.
8. Kaufman K.P. The project of the all-subject report of Adjutant General K.P. von Kaufmann 1st on civil administration and organization in the regions of Turkestan governorate generalship. November 7, 1867 - March 25, 1881. - St. Petersburg, 1885. - – C. 178.
9. Central State Administration of the Republic of Uzbekistan, I-1, op. 10, d. 603, l. 7.

TURKISTONDA ILK JADID MAKTABI XUSUSIDA

Go‘zal Bekmurodovna Normurodova
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi professori, t.f.d.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Turkistonda dastlabki ochilgan yangi usul, ya’ni jadid maktablari xususida so‘z yuritiladi. Dastlab jadid maktablariga oid ma’lumotlar adabiyotlarda turlicha ko‘rsatilgan. Bu masala ushbu maqolada tahlil etilgan va xulosalangan.
Kalit so‘zlar: Turkiston, milliy taraqqiyparvarlar, jadid maktabi, “usuli savtiya”, Samarqand.

Ma’lumki, Turkistonda jadidchilik harakati o‘z tarixida ikki, ma’rifatparvarlik va siyosiy bosqichlarni bosib o‘tgan. Birinchi tanlangan maqsadga ehtiyoj - bu Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylangan Turkiston o‘lkasining og‘ir ijtimoiy-siyosiy ahvoli, iqtisodiy turg‘unlik va madaniy qoloqligi sharoitida milliy taraqqiyparvar - jadidlarning jahon taraqqiyoti tajribasidan foydalanib, bu holatdan chiqish yo‘llarini izlab topishdan iborat edi. Bu bosqichda, dastlab, milliy ta’limni isloh etish vazifasi qo‘yildi. Xo‘sh, shu o‘rinda dastlabki jadid, ya’ni yangi usul maktablari dastlab qachon va qaerda tashkil topgan?

Shu o‘rinda, bu masala turli ilmiy adabiyotlarda turlicha yoritiladi. Misol uchun, Turkistonda dastlabki jadid, ya’ni yangi usul maktabi birinchi bo‘lib 1893-yili Samarqandda A. Husayinov mablag‘i hisobiga ochilgan, deb yoziladi [1, B.269]. Boshqa ishlarda, dastlabki jadid maktablari 1898-yilda Qo‘qonda Salohiddin domla, 1899-yilda Toshkentda Mannon Qori va shu yili Andijonda Shamsiddin domlalar tomonidan ochilgan, deyiladi [2, S. 78].

Agar Samarqandda 1893-yilda A. Husayinov mablag‘i bilan ochilgan yangi usul maktabi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu maktab aslida Ismoil Gaspirinskiy sayi-harakati bilan bog‘lanadi. Umuman, Turkistonda o‘lkasida birinchi usuli jadid maktabi ochilishi bevosita Ismoil Gaspirinskiy sayi-harakati bilan bog‘lanadi. Turkiston jadidlarining ma’naviy “otasi” hisoblangan Behbudiy “usuli jadid” maktablari to‘g‘risida gapirganda, “*Usuli savtiya maktablarini Rusiyada boniyi muassisi Ismoilbek hazratlaridur. Birinchi yangi usul alifboni murattib va noshiri yana Ismoilbek hazratlaridur*”, degan edi. SHundan so‘ng, bunday maktablar boshqa joylarda ochila borildi [3, B.14].

1890-yillarga kelib Gaspirali o‘z g‘oyalarini yoyish uchun nazarini Turkistonga qaratadi. Bu tabiiy edi, chunki Rusiya musulmonlarini deyarli yarmi Turkiston o‘lkasida edi. Shu maqsadda, Gaspirali Turkistonga yo‘l oladi. Uning safari 1893-yilga to‘g‘ri keladi. Ma’lumki, Samarqandda bu vaqtda taraqqiyparvarlarnnig yirik guruhi jamlangan edi. Bular Samarqand madrasai oliyalarida ta’lim-tarbiya olgan, o‘z bilimini SHarq va G‘arb madaniyati yutuqlari

bilan boyitgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulqodir SHakuriy, Hoji Muin SHukrullaev, Saidahmad Siddiqiy - Ajziy, Saidrizo Alizoda, Saidahmad Vasliy va boshqalardan iborat edi.

1893-yilda Gaspirali Samarqandga kelgan vaqtida bu erdagi ziyolilar bilan uchrashadi. Uchrashuvda Gaspiralidan “...sayohatingizning bir nishonasi sifatida bu shaharda usuli savtiyani ko‘rsatishingiz kerak” deb iltimos qilinadi. U bu ishni shogirdi G‘anizodaga topshiradi. G‘anizoda Samarqandda qolib, “bir maktabda usuli savtiyaning tartibi va mahsulini ko‘rsatdi” [3, B.27]”.

Shunday qilib, Ismoilbek Gaspralining safari tufayli 1893-yilda Samarqandda “usuli savtiya” maktabi faoliyat ko‘rsata boshladi. Ushbu maktab Turkistonda ochilgan ilk “usuli jadid” maktabi edi. Tashkil etilgan bu maktab keyingi yangi usul maktablari uchun namuna vazifasini o‘taydi. Shunday jadid maktablaridan biriga A.Shakuriy tomonidan asos solingan. Jadidshunos olima D.Alimova o‘z ishida, Samarqanddagi ilk jadid maktabi mahalliy taraqqiyparvar Abdulqodir Shakuriy tomonidan 1901-yilda tashkil etilganligini ta’kidlaydi [5, B. 164].

Shu o‘rinda, Turkistonning boshqa viloyatlarida faoliyat yuritgan bunday maktablar to‘g‘risida gapiradigan bo‘lsak. Farg‘ona viloyatida dastlabki yangi usul maktablari 1890-yillar ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Bunday maktablarni Rossiyaning ichki guberniyalaridan kelgan tatarlar ochgan bo‘lib, ularning aksariyati ana shu maktablar muallimlari bo‘lgan” [6, B.136]. SHu erda e’tirof qilish kerak, demak Turkistondangi dastlabki yangi usul maktablari tatar ziyolilari tomonidan ochilgan va aynan, ular tomonidan yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalardan foydalanilgan. Zero, bu davrda “turkiy birlik” g‘oyasi tatarlar bilan mahalliy ziyolilar o‘rtasida hamjihatlik va xamkorlik vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

1895-1901 yillarda Toshkentda to‘rtta usuli jadid maktablari tashkil qilingan. Bularning ma’lum kismi tatar maktablari edi. Biroq hukumat tubjoy xalqning ko‘zi ochilishiga qattiq qarshilik ko‘rsatib bordi. Jumladan, 1901-yilda Munavvarqorining, 1904 yilda Avloniyning “usuli jadid” maktabi ochish haqidagi arizalari bir necha bor rad etilgani xaqidagi xujjatlar arxivlarda saqlanib qolgan. Ayni paytda rus hukumati mahalliy xalqni ruslashtirishda asosiy vosita deb qaragan rus-tuzem maktablariga zo‘r bergan. Shu bois, Turkistonda yangi usul maktablarini ochish oson kechmagan. Bir tomondan musulmon mutaassiblari, ikkinchi tomondan mahalliy rus ma’murlari to‘sqinlik qilgan.

1911-yilga kelib, Turkistondagi yangi usuldagi maktablar soni 63 ta bo‘lib, unda o‘qiydiganlar soni 4106 tani tashkil etgan [8, B.168]. M. Behbudiy, Munavvarqori, S. Saidazizov, A. Avloniy, N. Xo‘jaev, Saidrasul Aziziy, Usmon domla Abduholiq o‘g‘li va boshqalar boshlang‘ich sinflar uchun darsliklar yozib, nashr ettirdi. Zamonaviy milliy ta’limga asos sifatida Samarqandda tashkil etilgan yangi usul maktablarida to‘plangan tajriba, keyinchalik Turkistonning boshqa viloyatlari, Buxoro maktablari amaliyotida qo‘llanildi. Bunday ta’lim dargohlarining muvaffaqiyati xususida o‘sha davr matbuot nashrlarida yoritib

borilgan. Xususan, “Samarqand” gazetasida bu haqda: “bir yil mobaynida o‘qib, bilim olgan o‘quvchilardan ota-onalari juda xursand bo‘lishgan” deyilgan edi.

Jadid maktablarida ta’lim, dastlab rus, xususan, tatar darsliklari asosida olib borilgan. Ammo tez orada ona tilida o‘qitishning muhimligini anglagan samarqandlik ma’rifatparvarlar o‘zlari darslik, qo‘llanmalar yaratib bordilar. Xususan, “Muntaxabi jug‘rofiyayi umumiy”, “Kitob ul-atfol”, “Muxtasari tarixi islom”, “Jomi’ ul-hikoyat”, “Zubdat ul-ash’or” “Rahnomai savod”, “Ilmi hisob” va boshqalar shular jumlasidan hisoblanadi.

Samarqandlik taraqqiyparvarlar xalqni ma’rifatli qilish va ta’limni isloh qilish yo‘lida jadid maktablari tashkil etishni davom ettirdilar. 1901-yili samarqandlik shoir Saidahmad Siddiqiy Ajziy Halvoyi qishlog‘ida yangi usulda maktab ochdi [8, B.47]. 1903-yilda Hoji Muinning Xo‘ja Nisbatdor mahallasida yangi usul maktabi ochilgan. Chunonchi, 1905-yilda Xoji Mahmud tomonidan Kaftarxonada yangi usul maktabi ochilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy ham 1903-yili o‘z mablag‘i hisobidan Jomboyda maktab ochdi. Hoji Muin va Abdulqodir Shakuriylar bu maktabda saboq berdilar. M. Behbudiy bir necha bunday yangi maktablarni tashkil qilishda bosh-qosh bo‘ldi. Saidahmad Vasliy ham Qo‘shhovuz mahallasida maktab tashkil etgan. Yana bir ishda, 1909-yilda Samarqand shahrida Naim SHukurillaev ham yangi usuldagi maktab ochgan [9, B.214]ligi aytiladi.

Qisqacha qilib aytganda, Turkiston o‘lkasida ilk yangi usul maktabi Samarqandda yo‘lga qo‘yilgan, shundan keyin bunday maktablar Turkistonning barcha joylarida birin-ketin ochilgan. Samarqandda ochilgan dastlabki jadid maktabi o‘zidan keyingi maktablar uchun dasturul-amal vazifasini o‘tagan. Usuli savtiya metodiga asoslangan bu maktabda o‘quvchilar tez fursatda savod chiqargan va shu bois ham xalq ishonchini qozongan. Biroq Turkistonda yangi usul maktablarini ochish oson kechmagan. Bunda bir tomondan musulmon mutaassiblari, ikkinchi tomondan rus ma’murlari qarshiligiga uchragan. Ma’lumotlarga ko‘ra, dastlabki jadid maktablari tatar muallimlari tomonidan ochilgan bo‘lsa, keyinchalik mahalliy ziyolilar ham usuli savtiya maktablari ocha boshlagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekistonning yangi tarixi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 1-qism. –Toshkent: Sharq, 2000.
2. Xudoykulov A.M. Prosvetitelskaya deyatelnost djadidov Turkestana (konets (XIX -nachalo (XX vv.). Diss. kand. ist. nauk. - Tashkent, 1995.
3. Abdurashidov Z. Ismoil Gaspirinskiy va Turkistonda jadidchilik // “IFEAKning ish yuritish hujjatlari” seriyasi. 29-son, Toshkent-2008.
4. Alimova D. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. Fenomen djadidizma. II tom. - Tashkent: Uzbekistan, 2008.
5. Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. Leningrad: Izd. AN SSSR, 1927.
6. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. -Toshkent: Ma’naviyat, 2002.

7. Istoriya obщestvenno-kulturnogo reformatorstva v Sentralnoy Azii i na Kavkaze (XIX – nachalo XX veka). MITSAI. Samarkand-Tashkent- 2012.
8. Qosimov B. Maslakdoshlar. - T: SHarq, 1994.
9. Normurodova G. Samarqand viloyati aholisining ijtimoiy stratifikatsiyasi (XIX asr oxiri va XX asr boshlari). - Toshkent: Yangi nashr, 2013.

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDAGI XORIJIY FUQAROLAR FAOLIYATIDAN

Raximov Bektosh Elmurodovich
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi
katta o‘qituvchisi PhD

Annotatsiya: Maqola Turkiston o‘lkasidagi xorijiy fuqoralarning faoliyatiga bag‘ishlangan. Xususan, Kaspiyorti viloyati iqtisodiy infratuzilmasini rivojlantirishda xorijiy investorlarning ishtiroki aniqlangan. Faktik materiallar asosida viloyatning paxta tozalash, konchilik va xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlariga xorijliklarning ta’siri tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: Turkiston, xorijiy fuqarolar, firmalar, paxta idoralari, aksiyadorlik jamiyatlari, xorijiy kapital, tog‘-kon sanoati, Kaspiyorti o‘lkasi.

Jahon tarixida XIX asr oxiri va XX asr boshlari yirik imperiyalarning mustamlakachiligi davri sifatida tarixga muhrlandi. Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlar bu davrda o‘z davlatlari sarhadlarini kengaytira bordilar. Bu davrda ayniqsa, Rossiya va Angliya davlatlari o‘rtasida hududlar uchun to‘xtovsiz qarama-qarshiliklar kechdi. Ikkala davlat o‘rtasidagi talash hududlardan biri bu Turkiston hududi hisoblangan. Lekin Turkistonda Angliya qarshiligi sindirilib, mintaqa Rossiya imperiyasiga bo‘ysundirildi. Podsho Rossiyasi tomonidan Turkiston bosib olingach, bu yerda general-gubernatorlik boshqaruvi joriy yetilib, hudud viloyatlarga bo‘lingan. General-gubernatorlik beshta viloyatga (Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona, Yettisuv, Kaspiyorti) bo‘lingan. Turkistonning Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davridagi tarixi haqida so‘z ketganda, o‘lkada sanoat korxonalarining yuzaga kelishi, ularning faoliyat sohalari va mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda tutgan o‘rni borasida to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. Ayniqsa, ushbu davrdagi sanoat korxonalarining faoliyatida xorijiy fuqarolarni o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Viloyatda qurilish ishlari, xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish uchun, o‘lkani birinchi darajali zarur tovarlar bilan ta’minlash maqsadida Rossiya imperiyasi hukumati Sharq mamlakatlari fuqarolarini Kaspiyortiga kelishini osonlashtirgan[1, 18]. 1903 yilda qabul qilingan pasportlar nizomining 129, 134, 217 va 234 – moddalari asosida o‘lkada xorijiy fuqarolarga yashashga ruxsat

berilgan. General Tevyashovning (1904-1905) 1904 yil 28 oktyabrda №12 farmoyishida nizomdagi moddalarni qo‘llashda paydo bo‘ladigan tushunmovchiliklar yuzasidan viloyat boshliqlari tomonidan general-gubernatorga murojaat qilinishi belgilab qo‘yilgan [2, 74-75]. Viloyatga chegaradosh davlatlardan temiryo‘l qurilishi, irrigatsiya va qishloq xo‘jaligi ishlari uchun mavsumiy ishchilar kelishiga Rossiya imperiyasi xukumati to‘sqinlik qilmagan, chunki malakali ishchi kuchiga nisbatan Turkistonda ehtiyoj katta bo‘lgan [1, 37].. Xitoy, Eron, Afg‘onistondan Turkistonga ish izlab kelganlarning ko‘pchiligi chegaradan hujjatsiz o‘tgan va bu yerda pasportsiz yashaganlar. Birinchi jahon urushi arafasi va urush davrida ayrimlarigina ruxsatnoma («vid na jitelstvo») olganlar. Dini va millatidan qat’iy nazar Turkistonda xorijiy fuqarolar o‘z diniga ibodat qilishib, hunarmandchilik, savdo-sotiq, tadbirkorlik va boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniga ega bo‘lganlar [1, 18].

XX asr boshlarida Turkistonda Sharq mamlakatlaridan, Yevropa mamlakatlaridan va boshqa davlatlardan kelgan xorijiy fuqarolar vakillari istiqomat qilishgan. Sharq mamlakatlaridan kelgan fuqarolar viloyatga istilodan ancha oldin, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida daromad izlab kelgan, asosan shahar kambag‘allari, xonavayron bo‘lgan dehqonlar, chorvador, hunarmand, savdogarlardan iborat fuqarolar bo‘lgan. Rus fuqarosi bo‘lgan ko‘pchilik yevropaliklar harbiy xizmatni o‘tash uchun Turkistonga yuborilgan (polyak, nemis, litva, arman, yahudiylar), bir necha o‘n polyak bu yerga surgun qilingan. Qolgan yevropalik fuqarolar ish topish ilinjida kelib qolgan. Birinchi jahon urushiga qadar Markaziy Osiyoda 700-800 nafar yevropalik xorijiy fuqarolar yashagan. Kaspiyorti viloyatida 24 ming turkman (yovmutlar) Rossiya va Eron hududlarida ko‘chib yurgan va ikkala davlatga ham soliq to‘lagan (ruschasiga ularni «dvudanniki» deb ataganlar) [1, 15-17]. Sharq mamlakatlari fuqarolari viloyatga hech qanday ruxsatsiz kirish huquqiga ega bo‘lib (hind va turklar bundan mustasno), yevropalik fuqarolar milliy pasport, Rossiya harbiy vazirligi ruxsatnomasi hamda Turkiston general-gubernatori roziligiga ega bo‘lishlari shart bo‘lgan.

Imperiya hukumati viloyatga ish izlab kelgan bolgar, chex, slovak, yugoslav, grek, shveysariyalik, fransuz va italyanlarga hayrixohlik bilan qaragan. Ularga ruxsatnoma nisbatan osonroq berilgan. Turkiston amaldorlari Germaniya, Avstro-Vengriya, Buyuk Britaniya fuqarolariga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishib, savdo-sanoat va moliyaviy guruh vakillari bo‘lgan yevropalik va amerikalik tadbirkorlar Kaspiyortiga kelishga ruxsat olishda ma’lum qiyinchiliklarga duch kelishgan. Chunki «Turkistonni boshqarish haqidagi nizomning» 262-moddasiga binoan rus fuqarosi bo‘lmaganlarga Turkistonda yer va boshqa ko‘chmas mulk sotib olish ta’qiqlangan [2, 196].

Keyinchalik bu ta’qiq yevropalik xorijiy fuqarolar kapitali bo‘lgan aksioner jamiyatlarga ham tegishli bo‘lgan. Shu bois, taqiqlarni chetlab o‘tish maqsadida ayrim yevropalik va osiyolik tadbirkorlar rus fuqaroligiga o‘tib olishga harakat qilishgan, bu bilan ular o‘zlariga tadbirkorlik va savdo faoliyatining barcha turlari

bilan cheklovlarsiz shug‘ullanish imkoniyatiga yo‘l ochganlar. Eron va Afg‘onistondan kelgan fuqarolarning soni boshqa viloyatlarga qaraganda Kaspiyorti viloyatida ko‘proq bo‘lib, Birinchi jahon urushi arafasida ular qishloq xo‘jaligi batraklari, yuk tashuvchi, qurilish va temiryo‘lda, paxta xom-ashyosini qayta ishlovchi va foydali qazilmalar bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda mardikor bo‘lib ishlagan. Ko‘pchilik eronliklar hunarmandchilik, mayda, o‘rta, yirik savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanishgan, ularning choyxona, karvonsaroy, mehmonxona, oshxonalari bo‘lgan[3, 20].

Nemis fuqarolari yuqori malakali ishchilar hisoblanib, ularga boshqalarga qaraganda yaxshi xaq to‘langan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida viloyatda savdo va sanoat vakillari orasida ruslardan tashqari arman, ozarbayjon hamda boshqa xorijiy fuqarolar katta rol o‘ynagan. Zamonaviy tadqiqotlarga ko‘ra, viloyat aholisi 1897 yilda olingan ro‘yxatga binoan 372 193 kishidan iborat bo‘lib, [7, 227-228] statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 305 000 mahalliy aholi yashagan. Viloyatda 18 000 harbiy askarlar joylashtirilgan. Keyinchalik viloyatga ko‘chirib kelingan aholining 55,8 % - rus , 21 % -fors, 13,3 %- arman va 14,9 % boshqa millat vakillari tashkil etishgan [7, 187]. Rossiya, Avstriya, Germaniya fuqarolaridan tashqari viloyatda polyak, chex, serb, rumin, mad’yar, afg‘on, yahudiy, fors fuqarolari faoliyat yurgizgan [3, 33]

Kaspiyorti viloyatiga xorijiy fuqarolarning har safar kelib yashab qolishi alohida ruxsatnomalar asosida amalga oshirilgan. Viloyatga kelib yashayotgan barcha xorijliklar haqida yiliga bir marta tegishli idoralar tomonidan ma’lumotlar to‘plangan. Asosan ma’lumotli hamda amaldor eronliklar ustidan nazorat olib borilgan [4, 26].

Turkiston general-gubernatorining 1900 yil 20 sentyabrda Kaspiyorti viloyat boshlig‘i nomiga yo‘llagan (№8562 raqamli) loyihasida Turkiston o‘lkasi, Buxoro va Xiva xonliklariga xorijliklarni o‘tkazish va yashashi to‘g‘risidagi qoidalar chop etilgan [5, 27]. Unda bayon etilishicha, Turkiston o‘lkasiga keluvchi va yashovchi barcha xorijliklar mahalliy politsiyaga ma’lum bo‘lishlari kerak bo‘lgan. Ularning kelishlaridan ko‘zlagan maqsadlari va mashg‘ulotlaridan politsiya xabardor bo‘lishi, har bir xorijiy fuqaro yonida shaxsini tasdiqlovchi hujjat va o‘lkada yashashi uchun ruxsatnomasi bo‘lishi shartligi ta’kidlangan. Kaspiyorti viloyatiga kelib yashashga ijozat beruvchi guvohnoma harbiy vazir va Turkiston general-gubernatorining alohida ruxsatnomasiga ega bo‘lgan shaxslardan tashqari barcha xorijiy fuqarolarga Yettisuv, Sirdaryo, Farg‘ona hamda Samarqand viloyatlarida mahalliy harbiy gubernatorlar, Kaspiyorti viloyatida - viloyat boshlig‘i, Buxoro amirligida - Buxorodagi siyosiy agent, Xiva xonligida - Amudaryo bo‘limi boshlig‘i tomonidan berilgan. Ushbu mansabdorlar mahalliy politsiya idoralari orqali ruxsatnoma berilgan xorijiy fuqarolarning millati, yashash tarzi va mashg‘ulotlari ustidan doimiy yashirin nazorat olib borishlari lozim bo‘lgan. Agarda biron bir xorijlik fuqaroning viloyatda qolishi hukumat siyosatiga zid deb topilsa, mahalliy organlar o‘sha shaxsni yurtdan chiqarib yuborilishini so‘rab general-gubernatorga murojaat qilishgan [5, 27].

Viloyatga kiruvchi xorijliklarni ro‘yxatdan o‘tkazish va pasportlar tekshiruvi Lepsinsk va Kazalinsk shaharlarida mahalliy uezd politsiyasiga, Krasnovodskda esa mahalliy temiryo‘l jandarm boshqarmasiga yuklatilgan. Kaspiy dengizining sharqiy sohillari bandargohlari va quruqlikdagi chegara orqali viloyatga keluvchi xorijliklarning pasportlarini tekshirish (Bojxona Nizominig 881 moddasiga asosan) mahalliy bojxona nazorati zimmasida bo‘lgan [5, 27]. Shuningdek, viloyatga kelgan xorijliklar faoliyati haqida agentura ma’lumotlar to‘plagan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Kaspiyorti viloyatidagi xorijliklar (ularning aksariyati eron fuqarolari) soni 8146 kishini va ma’lum bir muddatga shaharlarga kirib o‘tadigan, unda yashab qoladigan odamlar soni yiliga 5000 kishini tashkil qilgan [6, 28]. Bu yerda yashaydigan eron fuqarolarining ko‘pchiligi - ishchilar va savdogarlar bo‘lgan. Bunday toifadagi shaxslar savdo-sotiq va tirikchilik uchun zarur pul topishdan o‘zga maqsadlari bo‘lmay, ularga to‘la ishonch bilan qarashgan.

Rossiyani o‘lka bilan bog‘lagan temir yo‘llar ishga tushirilgach, rus va chet el kapitalining Turkistonga kirishi uchun katta imkoniyatlar ochildi. O‘lkada ko‘plab chet el firmalari faoliyat yuritgan. Ular orasida jahonga mashhur “Zinger” firmasi alohida o‘rin tutadi. “Zinger” kompaniyasi 1851 yilda Nyu-York shtatida Isaak M. Zinger va Edvar Klark tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, ular 1863 yilda uni “Singer Manufacturing Company” aksiyadorlik jamiyatiga aylantirdilar hamda aksiyalarning 40 %ni o‘zida saqlab qoldilar, 1875 yilda Zingerning vafoti firma nomiga ta’sir qilmadi.1901 yilda inglizchadan oddiy nusxa bo‘lgan rus kompaniyasining nomi “Zinger aksiyadorlik jamiyati” deb o‘zgartirildi. 1914 yilga kelib, ya’ni kompaniyaning faoliyatida 50 dan ortiq markaziy filiallar mavjud edi: Yevropa Rossiyasida -38, Sibirda-6, Kavkazorti va O‘rta Osiyoda 3 tadan. Boku va Toshkent bo‘limlari tegishli ravishda Eron va Xitoyda savdo operatsiyalarini olib borgan[9, 204]. Tikuv mashinalari va ular uchun extiyot qismlarni sotish bo‘yicha yirik opreatsiyalarni mamalga oshirgan “Zinger” kompaniyasining Toshkent va Samarqandda bo‘limlari va yig‘uv sexlari, Markaziy Osiyoning deyarli barcha shaxarlarida 24 ta do‘konlari bo‘lgan. Nemis tadbirkorlarini Turkiston foydali qazilmalari hamda shifobaxsh o‘simliklari juda qiziqtirgan. Ushbu tadbirkorlar ularni sotib olib, Germaniyaga jo‘natganlar. Nemis farmasevt tadbirkorlarining ichida eng mashhuri Dragendorf bo‘lgan. Foydali qazilmalar ichida ozokerit (tog‘ tabiiy mumi)ga talab katta bo‘lgan. U nemis firmalari tomonidan sotib olinib, Boku va Botumi orqali Germaniyaga yuborilgan. 1912 yilda ozokerit qazib olish bilan faqat bitta Lyuborad firmasi shug‘ullangan. 1913-1914 yillarda Lyuborad bilan birga Feysflog, Baxshi-Baxshiev firmalari ham ozokerit qazib olishgan[11, 88].

O‘lkada ko‘plab chet el firmalari faoliyat yuritgan. Germaniya va Avstro-Vengriya fuqarolari bo‘lmish savdo va sanoat firmalarining egalari (Gergard va Gey, aka-uka Kraftlar, aka-uka Knoplar, Lui Zalma, aka-uka Shlossberg va h.k.) soxta savdolar, rus familiyali shaxslarni, rus fuqarolarni aksiyadorlar tarkibiga kiritish, o‘z korxonalarini qayta nomlash kabi choralar yordamida o‘z mol-mulklarini qisman yoki to‘liq sekvestr qo‘yilishidan saqlab qoladilar va daromad

olishda davom etganlar. Misol uchun, 1915 yil may oyida «Aka-uka Knoplar» savdo uyi «Volokno» («Tola») jamiyatiga qayta nomlagan, «Gergard va Gey» firmasi - «Russkoe transportnoe общestvo» («Rus transport jamiyati»), 1917 yildan boshlab harbiy kiyimlar tikuvchi «Lui Zalma» fabrikasining egasi, deb Petr Vaxrushev e’lon qilingan [1,36].

Bundan tashqari Rossiya sarmoyadorlari Turkistonda ipakchilik sohasiga katta qiziqish bilan qaraganlar..Shuningdek, Turkistonda jami 583 ta ipakchilik punktlari bo‘lib, ulardan 84 tasi Sirdaryo, 157 tasi Samarqand, 304 tasi Farg‘ona viloyatida joylashgan edi. Ipak tolalari firmalar tomonidan sotib olinar va Rossiyaga jo‘natilardi. Birgina Farg‘ona viloyatida shunday firmalardan 3 tasi faoliyat yuritar, ulardan Tumanyans firmasi eng ko‘p ipak sotib olar edi. Firmalar orqali 1904 yilda Farg‘ona viloyatidan 84246 pud ipak olib ketilgan. Ipak tolasini nafaqat ruslar,balki fransuzlar ham ko‘plab sotib olishgan. [10, 145-149].

Xulosa qilib aytsak, xorij kapitalining kuchayib ketayotganidan xavfsiragan Turkiston general- gubernatori Samsonov 1911 yili: “o‘lkadagi ko‘pgina korxonalar ruslarning emas, chet elliklarning qo‘liga o‘tyapti” deb yozgan. Mazkur ma’lumot negizida sanoatga xorij kapitalining kirib kelayotganidan imperiya ma’murlarining xavotirlanayotganligini va Turkistonni “faqat ruslar uchun“ saqlash yo‘llarini qidirganini sezishimiz mumkin. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida kirib kelgan xorijiy tadbirkorlar va savdogarlarning bir qismi keyinchalik Turkiston general-gubernatorligining viloyatlarida muqim o‘rnashib qoldilar. Turkiston o‘lkasining ko‘p millatli mintaqa sifatida shakllanishida xorijiy fuqarolar vakillarining ham o‘rni bor. Xorijiy tadbirkorlar avlodlarining taqdiri kelgusida mintaqamiz tarixi bilan chambarchas bog‘lanib ketdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Матвеев А. М. Зарубежные выходцы в Туркестане на путях к Великому Октябрю. Ташкент: Фан, 1977. – С.15-17,18, 36,37,
2. Пален К.К. Краевое управление. Отчёт по ревизии Туркестанского края. – С-Петербург, 1910. – С.74-75,196.
3. ЎзМА, Ф.И-461,1-рўйхат, 599 -иш, 2, 8,- варақлар: ЎзМА, Ф.И-461, 1-рўйхат, 1289 -иш, 38- варақ : ЎзМА, Ф.И-461, 1-рўйхат, 812 -иш, 33- варақ
4. Каспийорти вилояти бошлиғи генерал-лейтенант Г.Л.Боголюбов 1900 йил 9 ноябрида Ашхабод шаҳридан Туркистон генерал-губернаторига йўллаган №15273 рақамли ҳужжатида Туркистон ўлкасига хорижий фуқароларни ўтказиш ва уларнинг бу ерда яшаши ҳақидаги қоидалар лойиҳаси асосида (Қаранг: ЎзМА.Ф-И.1, 4- рўйхат, 466-иш, 26-варақ).
5. ЎзМА.Ф-И.1, 4-рўйхат, 466-иш, 27-варақ
6. ЎзМА, Ф.И-1, 4- рўйхат , 466 -иш, 28-варақ
7. Эргашев Б. XIX асрнинг иккинчи ярми –XX аср бошида Туркистон ўлкаси иқтисодий ҳаётига тегишли архив маълумотлари // Марказий Осиё тарихи. – Тошкент, 2009. –Б. 227-228.

8. Эргашев Б. Турсунова Д. Туркистон генерал-губернаторлиги маҳкамаси ҳужжатларида Закаспий вилояти тарихига оид манбалар //Самарқанд ҳудуди тарихи ва маданияти манбашунослиги. – Самарқанд, 2008. –Б.187-190.
9. Холлиев А.Г. Россия XIX асрнинг охирги чораги- XX аср бошида:хорижий мамлакатлар билан иқтисодий алоқаларни ташкил қилиш ва амалга оширишнинг тарихий тажрибаси (Буюк Британия ва АҚШ мисолида) // тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси, Тошкент 2023, 204 бет
10. Мустабид тузумнинг Ўзбекистонда миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1865-1990 йиллар).Т.; “Шарқ”, 2000. 145-149 бетлар.
11. Обзор Закаспийской области за 1912-1913-1914.-Асхабад. 1916 -С.88

XIX ASRNING OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VOHASINING IRRIGATSIYA TEXNIKASI TARIXI

Bobodustov Bobur Mirzaboyevich
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi
tayanch-doktoranti

Annotatsiya: Usbu maqolada o‘rta Zarafshon vohasida mahalliy irrigatsiya inshootlari tahlil qilingan. Shuningdek, Zarafshon suvini tartibga solish, suv omborlarini qurish va ularni qayta tiklash ishlari keltirilgan.
Kalit so ‘zlar: Sepoya, koriz, nishob, to‘g‘on, suv omborlari.

Zarafshon daryosining keng shag‘al bo‘lib doim o‘zgarib, goh u qirg‘oq, goh bu qirg‘oqdan oqishi o‘nlab sun’iy kanallarning bir miyorda suv bilan ta’minlanishiga ta’sir qilgan. Shuning uchun ham aholi daryo oqimini tartibga solishda asosan, daryodan sug‘orish tarmoqlariga o‘z vaqtida kerakli miqdorda suv bog‘lab olish bilan ko‘proq band bo‘lgan. Kanallarga suv chiqarish daryoga bevosita to‘g‘onlar o‘rnatish orqali amalga oshirilib bu usul qadim zamonlardayoq vodiyda keng joriy etilgan bo‘lib, bu to‘g‘rida A.R.Muhammadjanovning tadqiqotlarida batafsil bayon etilgan [5, B. 285].

Zarafshon vodiysida, jumladan Samarqand vohasida daryoni jilovlashda ikki xil uslubdan keng foydalanganlar. Ulardan birinchisi, daryoning qarama-qarshi qirg‘og‘iga oqimning ma’lum hududigacha o‘rnatilgan shporali oddiy inshootlardan iborat ochiq to‘g‘onlar bo‘lib, ularning Samarqand vohasida “nishob”, “nashband” yoki “nashvand” deb yuritilgan [5, B.285].

Ikkinchi xil inshootlar daryoning har ikki qirg‘og‘ga tutashgan yopiq to‘g‘onlar bo‘lib, ular “qo‘rband” ya’ni “yopiq to‘g‘on” deb yuritilgan. To‘g‘onlar asosan ikki usulda qurilgan. Ulardan birinchisi, hech qanday bog‘lamasiz, faqat oddiy materiallar ishlatilgan. Ikkinchisi esa fashinalardan

qurilgan [5, B.286]. Fashinalardan O‘rta Osiyo daryolarini jilovlashda keng foydalanilgan. Shuning uchun ham uni har bir hududda har xil nom bilan yuritilgan. Masalan, xorazmliklar “navard” yoki “vard”, Farg‘ona vodiysida “o‘luk” va Sirdaryo vohasida “qorabura” nomlari bilan atalgan. Samarqand vohasida “navada” yoki “navola” [5, B.287] deb yuritilgan. Navala yoki navardlar, asosan shox-shabba va qamishdan silindr shaklda ishlanib, orasi tosh, chim va shag‘allar bilan to‘ldirilgan va ko‘ndalangiga uch yoki to‘rt yeridan qamish bog‘ bilan mahkam siqib bog‘langan va suv o‘pirib ketgan joylarga blok o‘rnida tashlangan. Ichiga og‘ir-og‘ir toshlar to‘ldirilgan bu fashinalar o‘pirilgan joylarga metindek o‘rnashib qolgan.

Bunday inshootlarni qurish jarayonini XIX asrning ikkinchi yarmida o‘z ko‘zlari bilan kuzatgan rus mualliflari X.V.Gelman, N.Dingelshtetd [2, B.49] va boshqalar mahalliy xalqning irrigatsiya sohasida qo‘llagan usullariga yuqori baho beradilar. Ular fashinalar birorta asbobsiz tayyorlanib arzon va qulay bo‘lishi bilan ularning o‘z o‘rnida mohirlik bilan joylashtirishni o‘zi katta jasorat ekanligi to‘g‘risida gapirib o‘tgan.

Samarqand vohasida Darg‘om va Shovdor kanallarida uzoq yillar mobaynida bandbonlik qilgan Urgut tumanida istiqomat qilgan mahalliy aholining aytishicha “Rabotxo‘ja to‘g‘onida hamda Zarafshon daryosining suv urush havfi tug‘ilgan qirg‘oqlarining oldini olish uchun avvaldan fashinalar tayyorlab qo‘yilgan va kerakli vaqtda tayyor holda ishlatganlar” [6]. Shunday qilib, fashinalardan Zarafshon vodiysining xo‘jaligida juda keng foydalanib, asosan daryoni bevosita bog‘lash uchun yirik to‘g‘onlar qurishda va katta suv o‘pirishlarni to‘sishda ishlatilgan. Fashinalar birinchi marta XVI asrning boshlarida yozma manbalarda tilga olinib, ularning paydo bo‘linshi, mamlakatda keng maydon va massivlarni suv bilan ta’minlay oladigan suv xo‘jaligi tashkil topgandan so‘ng vujudga kelgan bo‘lsa kerak degan xulosaga keladi [5, B. 290]. Oqar suvlarni jilovlashda fashinalar bilan bir qatorda “sepoya”, “chorpoya” va “chilpoya” usullaridan ham keng foydalanilgan. Bu usul uzoq tarixiy jarayonda vujudga kelganligi to‘g‘risida mamlakatimiz hududidan topilgan arxeologik topilmalardan darak beradi. Kampir-rabotdan 14 metr chuqurlikda yer ostidan topilgan sepoya qoldiqlari bunga dalil bo‘la oladi [3, B.65]. Sepoya odatda uchta xodaning bir-biriga mahkam bog‘lanib, oyoqlari g‘o‘ladan qilingan va shox-tosh aralash qilib berkitiladi. Sepoya daryoning to‘lib oqadigan joyiga qo‘yilib, suvni to‘sib kanalga kiritish uchun ham, daryo yoki kanal qirg‘oqlarini suv olib ketishidan saqlash maqsadida suvning oqimini burub yuborish uchun ham, shuningdek toshqinlar vaqtida suv o‘pirib ketgan qirg‘oqlarni mahkamlash uchun ham solinadi. Daryo suvi kamiyib qolganda uni bo‘g‘ish uchun ham sepoyalardan foydalanilgan.sepoyalar yasash jo‘ndan foydalanish qulay va yaxshi natija beragnligidan ko‘p ishlatilgan. Sepoyamimg balandligi 3 metrdan 10 metrgacha bo‘ladi. 10 metrli sepoyaning bosilgan shox va boshqa shag‘al-toshlari bilan birga og‘irligi 30 tonnadan oshiq ekanligi aniqlangan [1, B.25].

Danbaga quyiladigan sepoya daryo ichiga cho‘ktirilgan, boshqa sepoyalar biri ikkinchisiga ulanib, daryo ichkarisiga tizma qilib tashlangan. Qamishdan

o‘ralgan qalin yo‘g‘on arqon bilan bir-biriga bog‘langan, tosh-shag‘al aralash, tosh-qamish, poxol yoki hashak bostirilgan spoyalarni kanal tutib qolgan. Doimiy loy bilan yopishvergandan keyin sepoyalar suv o‘tkazmaydigan mustahkam to‘siqqa aylangan [9, B.27]. Sepoyadan boshqa yana to‘rt yog‘ochdan yasalgan chorpoya deb yuritiladigan suv inshoot uslubi ham mavjud bo‘lgan. Chorpoyaning tuzilishi ham sepoyaga o‘xshahs bo‘lib, og‘irligi 50 tonnadan ham oshiq bo‘lgan [1, B.25]. Sepoya va chorpoyadan tashqari huddi shu konstruksiyaga yaqinroq inshoot ham bo‘lib, Zarafshon vodiysida u “chilpoya” yoki “qirq oyoq” deb yuritilib, ularning diametri 10-15 sm yog‘ochlardan ayri oyoqlar o‘rnatish bilan yasalgan. Shuningdek mahalliy irrigatorlar tomonidan suv inshootlari barpo etishda tosh va pishiq g‘ishtlardan ham keng foydalanilgan. Ular mustahakam to‘g‘onlar, suv ayrig‘ichlar vositasida sel va mavsumiy suvlarni jilovlab, suv omborlarni yaratganlar.

Nurota tog‘ida X asrga mansub bo‘lgan Xonbandi [4, B.15], Qoratepa tog‘ etaklarida Jom qishlog‘i yaqinida Beklarsoyda qurilgan Abdullaxon bandlari [4, B.20], hamda Zarafshonda Cho‘ponota yaqinidagi Shayboniyxon suv ayrig‘chlari shular jumlasidandir [4, B.22].

Vohada qurilgan barcha chora-tadbirlar tabiiy ofatlarning oldini olish hamda sel suvlaridan dehqonchilikda foydalanishga mo‘ljallangan. Samarqand vohasida bunday sellar bahor oylarida tez-tez bo‘lib turgan. Sellar natijasida daryo suvining toshishi chiqarilgan magistral kanallarning buzilib ketishiga olib kelgan. Dehqonlar bu ahvoldan ham qutilish yo‘llarini o‘ylab topganlar. Ular bevosita daryodan boshlangan kanallardan maxsus tashlamalar qazib qo‘yganlar. Suv toshqini davrlarida ortiqcha suvni shunday tashlamalar orqali yana daryoga tushirib yuborilgan. Bunday inshootni Samarqand vohasidagi Zargarariqqa qurilgan Tentak band misolida ham ko‘rish mumkin [10].

Samarqand vohasining tog‘li hududlarida soy suvlarining yetarlicha bo‘lmasligi natijasida aholi koriz usulidan keng foydalangan. Bu usuldan butun sharq mamlakatlari azaldan foydalanib kelingan. Ma’lumotlarga qaraganda eramiz boshlarida nurotaliklar koriz usulidan keng foydalanganliklari ko‘rsatiladi [4, B.42]. Koriz galereyasining qoldiqlarini Zirabuloq, Qoratepa tizmalari etaklarida uchratish mumkin.

1965-yilda SamDU arxeologik otryadining bahorgi kuzatuvi vaqtida Nurobod tumani Sazag‘on qishlog‘i yaqinida koriz qoldiqlari borligi aniqlangan [7]. Koriz yerosti suvlari to‘plangan qatlamda quriladigan yer osti galereyasidir. Yer ostida to‘plangan suvlar o‘sha galereyadan oqib borib, yer ustiga chiqadi va sun’iy kanallar orqali ekin maydonlarni sug‘oradi. Masalan, Nurota (Navoiy viloyatida) dagi “Maston” nomli korizning 280 ta qudug‘i bo‘lib, bosh qudug‘ining chuqurligi 14 metr va lahimning uzunligi 3 km bo‘lgan [11].

Samarqand vohasida mavjud sistemalardan, kanal va ariqlardan foydalanishda charxpalaklardan ham foydalanilgan. Charxpalak hozirgi kunda ham mayda xo‘jaliklarda ishlatiladi. Bu texnika suv yordamida harakatga keladigan dvigatel bo‘lib, chig‘ir, tepma va boshqa usullarga nisbatan afzalroqdir. Bunda qo‘l mehnati yoki hayvonlar kuchidan foydalanilmaydi. Shuning uchun

ham qulay va arzon tushadi. Bu inshootdan pasda oqadigan daryo va kanallardan tepadagi ekin yerlariga suv chiqarish uchun foydalaniladi. Charxpalak yordamida suvni 4-5 metr balandlikka chiqarish mumkin bo‘lgan.

E.E.Skorinyakovning ko‘rsatishicha, charxpalakdan minutiga 600 dan 3000 litrga qadar suv chiqarilib 50 gektargacha yer maydonini sug‘orish mumkin bo‘lgan [9, B.129].

Shunday qilib, Samarqand vohasi dehqonlari O‘rta Osiyoning boshqa vohalari singari qadim zamonlardan beri o‘ziga xos irrigatsiya inshootlari barpo etib, ulardan suv xo‘jaligida keng foydalangan. Demak, yuqorida talqin etilgan irrigatsiya texnikasining paydo bo‘lishi hamda asrlar davomida uning takomillashib avloddan-avlodga o‘tib kelishi tabiiy holdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Barturin S. Irrigatsiya texnikasi. O‘zbekiston sovet irrigatsiyasi. Umumxalq ijodi, Toshkent. 1955, 25-bet.

2. Gelman X.V., Osobennosti rabot i stroitelnix materialov Turkistaniskogo kraya. SPb., 1892, str 49.

3. Kastalskiy B.N. i Timofeev E.M. Gidrostroitelstvo i arxeologiya v Sredney Azii, Boprosi irrigatsii, sb.I. Samarqand 1934, str 65.

4. Muhammadjonov A.R. Qadimgi suv inshootlari tarixidan, T., 1963.

5. Muhammadjonov A.R., Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orish tarixi, O‘zSSR, “Fan” nashriyoti, 1972

6. O‘sha davrda O‘zSSR Arxeologiya instituti tomonidan tashkil etilgan o‘rta Zarafshon arxeologik otryadining dala materiallari, muallifi 1971-yil kundalik daftari.

7. Qidiruv otryadida rahbar D.N.Lev boshchiligida M.Jo‘raqulov, E.M.Amarsov, O.Ibragimov va boshqalar.

8. Skoriyakov E.E. Oroshenie mexanicheskim nodemom vodo. Ukaz. soch. str. 129.

9. Skornyakov E.E. Golovnie soorujeniya orositelnvx sistem. Iskusstvennoe orojenie, Leningrad, 1930, str.27.

10. Zargarlikdan XX asrning 30 yillariga qadar suv o‘tgan, keyinchalik bu ariqning bir qismini Zarafshon daryosi yuvib ketgan. Bir qismi esa tekislab yuborilgan.

11. Sayohat manzillari: Qashqadaryodagi korizlardan foydalanib dehqonchilik qilayotgan qishloqni bilasizmi? (uza.uz)

SAMARQAND VILOYATINING 1868-YILDAN KEYINGI MA’MURIY-HUDUDIY TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR

Tangirov Sherzod Abduraxmonovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Rossiya imperiyasining Buxoro amirligiga qarshi yurishida Zarafshon vodiysining yuqori va o‘rta oqimidagi shaharlarni bosib olishga imperiya miqyosida alohida e’tibor qaratgan. Maqolada Rossiya imperiyasi istilosidan keyingi Zarafshon ma’muriy-hududiy tizimi tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: Zaravshon vodiysi, Rossiya imperiyasi, Zirabuloq jangi, sulh shartnomasi, “Muvaqqat qoidalar”, Zarafshon okrugi, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Jizzax.

Zaravshon vodiysi iqtisodiy, savdo va siyosiy markazi – Samarqand Rossiyaga qo‘shilish arafasida bevosita Buxoro xonligi tarkibiga kirgan. Qadim zamonlardan beri u O‘rta Osiyoning eng unumdor hududi hisoblangan, shuning uchun u qadimdan oltin vodiy deb nomlangan. Vengriyali sharqshunos A.Vamberi 1863-yilgi Turkistonga sayohati bilan bo‘gliq xotiralarida Buxoro amirligi ma’muriy-hududiy birliklarini quyidagi tartibda sanab o‘tadi. 1) Qorako‘l, 2) Buxoro, 3) Qarshi, 4) Samarqand, 5) Kerki, 6) Hisor, 7) Miyonkal yoki Karmana, 8) Kattaqo‘rg‘on, 9) Chordjou, 10) Jizzax, 11) Ura-Tube (O‘ratepa, 12) Shahrisabz kabi shaharlar. Vamberi bu tartib tumanlarning kattaligi va aholisi soniga bog‘liqligini qayd etadi. [1, B. 271]. Darhaqiqat, Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Samarqand, Kattaqo‘rg‘on va Jizzax hududlari amirlikning muhim hududiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan. Bundan tashqari bu davrga oid tadqiqotlarda Buxoro amirligi hukmronligi ostidagi Zarafshon vodiysining o‘rta va yuqori qismlarida Samarqand va Kattaqo‘rg‘on bilan birga Payshanba, Chelak, Urgut, Qoratepa, Panjikent, Mohiyon, Farob, Kishtut, Yag‘nob, Mastchoh, Fan, Falgar va Varzimnor bekliklari ham bo‘lgan. Ularda hokimiyat bevosita amir tomonidan tayinlanadigan beklar qo‘lida jamlangan bo‘lib, beklar o‘z mulklarini ko‘p sonli amlokdorlar, qozilar, aminlar, oqsoqollar, dahaboshilar va boshqa mansabdorlar yordamida boshqarganlar.

Tarixdan ma’lumki, Rossiya imperiyasi Buxoro amirligining Zarafshon vodiysidagi shaharlarni qo‘lga kiritishga Imperiya miqyosida alohida ahamiyat bergan. 1868-yil 1-may kungi Samarqand ostonasi bo‘lgan Cho‘ponota tepaliklaridagi jangdan keyin Buxoro amirligining ikkinchi poytaxti Samarqand rus qo‘shinlari tomonidan ishg‘ol qilindi. 1868-yil 2-iyunda Buxoro va Kattaqo‘rg‘on o‘rtasidagi Zirabuloq tepaliklarida rus va buxoro qo‘shinlari o‘rtasida hal qiluvchi jang bo‘lib o‘tdi. Buxoro qo‘shini mag‘lubiyatga uchradi.

Amir Muzaffarxonning Ruslarning Zirabuloq va Samarqanddagi

g‘alabalaridan keyin tinchlik sulhini tuzishga majbur bo‘ladi. Shu bois 1868-yil 23-mayda Kaufman tomonidan jo‘natilgan sulh shartlariga 23-iyunda imzo chekadi. Bunga ko‘ra Xo‘jand, O‘ratepa, Jizzax, Samarqand va Kattaqo‘rg‘on Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi. [2, B. 282] Bu sulhga muvofiq Buxoro amirligi Zarafshon vohasining yuqori va o‘rta oqimidagi hududlaridan to‘la mahrum bo‘ldi. Buxoro amiri Rossiyaning Markaziy Osiyodagi barcha qo‘lgan kiritgan yerlarini tan oldi va harbiy xarajatlarni qoplash uchun 200 ming rubl tovon to‘lash majburiyatini oldi. 1868 yilgi shartnoma Buxoro amirligining Rossiya protektoratiga aylanishini boshlab berdi.[3, B. 75]. Xullas, 18 moddadan iborat 23-iyundagi ushbu sulh shartnomasi Buxoro amirligining amalda Rossiya imperiyasiga qaramligini huquqiy asosda mustahkamlandi.

Biroq Samarqand va o‘rta Zarafshon vodiysida o‘rnatilgan Rossiya hokimiyatining mustahkam emasligi va amirning sulh shartlariga rioya etishiga bo‘lgan ishonchsizlik fon Kaufmanni Buxoro mulklari chegaralarida alohida harbiy va siyosiy maqomga ega bo‘lgan okrugni tashkil etish bo‘yicha amaliy harakatlarni boshlashiga omil bo‘lgan.

Zarafshon vohasi bosib olinganidan so‘ng, uning ma’muriy boshqaruvini tashkil qilish bilan bog‘liq 5-bo‘lim, 93 moddadan iborat bo‘lgan «Zarafshon okrugini boshqarish to‘g‘risidagi muvaqqat qoidalar» nomli huquqiy hujjat ishlab chiqildi va u 1868-yil 28-iyunda general Fon Kaufman tomonidan imzolandi. [4.]

Ma’lumki, Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo‘yicha bu kabi ilk dasturiy hujjatlarning ishlab chiqilishida harbiy vaziyat omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Ular yangi hududlar bosib olinishi bilan yuzaga kelgan va qoida tarzida «muvaqqat» xususiyatga ega edi. [5, B.52] Bundan tashqari Rossiya imperiyasi hukumatining bu kabi qonunchilik hujjatlari eng avvalo Turkistonda imperiyaning mustamlakachilik mavqeini mustahkamlashga xizmat qilgan.

«Zarafshon okrugini boshqarish to‘g‘risidagi muvaqqat qoidalar»ning 1-moddasiga asosan Turkiston o‘lkasi uzil-kesil tashkil etilguniga qadar Buxoro amirligidan 1868-yilda qo‘lga kiritilgan yerlarda alohida Zarafshon okrugi tashkil etiladi. Zarafshon okrugi chegaralari va hududi ushbu xujjatning 2-moddasiga asosan janubda Shahrisabz tog‘lari, g‘arbda Buxoro amirligi bilan chegara chizig‘i (u Kattaqo‘rg‘onning oldidan alohida xalqaro komissiya tomonidan o‘tkaziladi), shimolda Nurato tog‘lari va sharqda Ilono‘tti darasi va Qoshg‘ar-Davon tizmasi tarmog‘i bilan chegaralanadi. Sangzor vodiysi ham Zarafshon okrugi tarkibiga kiradi. [4, B. 2] Muvaqqat qoidalarning 3-moddasiga asosan okrug boshlig‘i Turkiston general-gubernatori tomonidan tayinlanishi, 4-moddaga asosan Zarafshon okrugi boshlig‘i qo‘lida unga biriktirilgan okrugdagi harbiy-xalq va harbiy boshqaruv jamlanishi belgilangan. Shu bilan bir qatorda Zarafshon okrugi harbiy-xalq boshqaruvi amaldorlari okrug boshlig‘i taqdimi bilan Turkiston general-gubernatori tomonidan vazifalariga tayinlanadilar va bo‘shatiladilar (7-modda).

9-moddaga asosan esa Zarafshon okrugi boshlig‘ining okrugni boshqarish joyi Samarqand shahri etib belgilangan.

Xujjatning 10-moddasiga asosan Zarafshon okrugi ma’muriy munosabatlarda ikki: Samarqand va Kattaqo‘rg‘on bo‘limlariga bo‘linadi. Ular o‘rtasidagi chegara okrug boshlig‘i tomonidan belgilanadi. [4, B. 3]

Har bir bo‘limda harbiy-xalq va harbiy ishlar bo‘yicha boshqaruv bo‘lim boshliqlari qo‘lida jamlanadi (11-modda), bo‘lim boshliqlari uezd boshliqlariga teng hokimiyat va majburiyatlardan foydalanadilar. Bo‘lim hududida joylashgan qo‘shinlarga qo‘mondonlik qiladi (12-modda). Bo‘lim boshliqlarining boshqaruv joyi Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlari etib belgilanadi (14-modda).

Zarafshon okrugi Turkiston general-gubernatori tomonidan tayinlanadigan va vazifasidan chetlatiladigan boshliq tomonidan boshqarilgan. 1868-yil 29-iyunda okrug boshlig‘i etib general-mayor A.K.Abramov tayinlangan. [6, B. 2] U Zarafshon okrugini 1877-yilgacha, Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori etib tayinlangunga qadar boshqargan. 1868-yil iyunida Samarqand bo‘limi boshlig‘i etib qo‘shin starshinasi Serov, Kattaqo‘rg‘on bo‘limi boshlig‘i etib podpolkovnik Karganov tayinlangan[6, B. 2].

1869-yilga kelib Zarafshon okrugi Samarqand bo‘limi 12 ta, Kattaqo‘rg‘on bo‘limi esa 3 ta tumandan iborat bo‘lgan. Ular quyidagilar: Samarqand bo‘limi bo‘yicha: 1. Shovdor, 2. Ofarinkent, 3. Anhor, 4. Yangiqo‘rg‘on, 5. Chashmob, 6. Qoratepa, 7. Sug‘ud, 8. Sheroz, 9. Chelak, 10. To‘rtko‘l, 11. Urgut, 12. Panjikent tumanlari. Kattaqo‘rg‘on bo‘limi bo‘yicha: 1. Kattaqo‘rg‘on, 2. Payshanba, 3. Mitan tumanlari. [7, B. 51]. Zarafshon okrugiga 1871-yilda Tog‘li tumanlar qo‘shildi. U Zarafshon daryosining yuqorisida joylashgan mayda bekliklardan tuzilgan.[8, B, 57]

Turkiston general-gubernatorining 1869-yil 24-oktyabrdagi tasdig‘i bilan Zarafshon okrugi boshqaruvi asosan quyidagi lavozimlardan iborat bo‘ldi: - Zarafshon okrugi boshlig‘i, Zarafshon okrugi devonxonasi boshlig‘i, devonxona ish yurituvchisi; bo‘limlari bo‘yicha: Samarqand bo‘limi va Kattaqo‘rg‘on bo‘limi boshlig‘i, bo‘lim yordamchilari (biri ruslardan, yana biri mahalliy aholi vakilidan) bo‘limda tarjimonlar va boshqa lavozimlar shular jumlasiga kirdi.

«Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari»ga ko‘ra, okrug boshlig‘i izmida harbiy, ma’muriy, polisiya va sudlov hokimiyati bo‘lgan. Shu bilan bir qatorda, Zarafshon okrugi ma’muriyatiga diplomatik vazifalar ham berilgandi. Ya’ni Zarafshon okrugi boshlig‘ining vakolatiga qo‘shni Buxoro amirligining bekliklari bilan «chegara munosabatlarini olib borish» ham kirdi. Okrugni rus armiyasi generallaridan shaxsan podshoning o‘zi tayinlaydigan kishilar boshqargan. [8, B, 58]

Bundan tashqari, 1868 yildagi nizom asosida Samarqand okrugi bo‘limlariboshliqlargiga berilgan boshqaruvdagi muhim vazifa va vakolatlar 1887-yilga kelib Samarqand okrugi boshlig‘i ixtiyoriga o‘tkazilgan.[9, B. 104]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Imperiya ma’muriyati uchun Zarafshon okrugida alohida boshqaruvning tashkil etilishi, imperiya va amirlik mulklari o‘rtasidagi chegaralarni belgilab olinishi mustamlakachilik siyosatida muhim ahamiyatga ega edi. Bu kabi ishlar okrug tashkil etilishi bilanoq amalga oshirilgan. Shu bilan birga Zarafshon daryosining yuqori va o‘rta oqimining

imperiya mulkiga aylantirilishi va bu hududda mustamlaka boshqaruvi tartibini joriy etilishi ham Buxoro amirligiga bevosita ta’sir ko‘rsatish vositasi edi. Bunda Rossiya imperiyasi Samarqanddagi ma’murlari orqali Buxoroni turli jabhalarda qaram qilish maqsadida foydalangan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2003.
2. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовуси ва ҳукмронлигига қарши кураш. Тошкент. Шарқ. 1998-йил. 282 бет
3. Центральная Азия в составе российской империи. Санкт-Петербург, новое литературное обозрение, 2008. С 75.
4. O‘z MA 22-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish.
5. Жумаев У. Россия империясининг Туркистондаги солиқ сиёсатининг шаклланиши ва динамикаси. Toshkent. «TURON-IQBOL». 2020. 52-бет
6. O‘z MA 1-jamg‘arma, 27- ro‘yxat, 2-ish.
7. O‘z MA -5-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 12-ish.
8. Нормуродова Г. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти ижтимоий қатламлари: тарихий таҳлил. Ўзбекистон тарихи ихтисослиги бўйича т.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент. 2011.

9. Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX-начале XX веков. Самарканд. 1970.

TURKISTON O‘LKASIDA DINIY MASALALARNING YORITILISHI (1867-1917-yillar misolida)

Xolxujayeva Yulduz Uralboyevna
Samarqand davlat universitetining
Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ma’lumki, Turkiston o‘lkasida mustamlaka sharoitida tobora ko‘p elatli va ko‘p konfessiyali muhitning kuchayib borishi xalqlar o‘rtasida muloqotning oqilona tomonlarini izlashga ehtiyoj sezila borildi. XIX - asr oxiri va XX - asr boshlarida o‘lka aholisining etnik tarkibi bilan birgalikda, diniy konfessial mazarasi xilma-xil bo‘lib bordi. Umuman, mustamlakachilik siyosati asosida olib borilgan ko‘chirish, ruslashtirish siyosati, bu o‘zgarishlar Rossiya imperiyasidan ko‘chirib keltirilgan xalqlarni joylashtirish hisobidan, mahalliy aholining sonining ko‘payib borishi, Turkiston aholisining diniy tarkibi hamda xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarda sezilarli darajada o‘zgarishlar bo‘ldi.
Kalit so‘zi: Rossiya, Turkiston o‘lkasi, etnik tarkibi, diniy konfessial, diniy tarkibi, o‘lka shahar va qishloqlarida demografik o‘zgarishlar, jadidlar.

O‘zining ko‘p ming yillik tarixi davomida yuzlab etnoslar va etnik birliklarni bag‘riga sig‘dirgan O‘zbekiston tarixini ham aholining etnik tarkibi va

soni kabi asosiy aspektlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Zero, ma’lum bir hudud aholisining milliy tarkibi va soni to‘g‘risida chop etilgan yozma manbalar, arxiv materiallari, ilmiy tadqiqotlar va tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarning tarixiy-manbaviy tahlili tarix fanining bosh masalalaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, turli tarixshunoslik ishlarida Markaziy Osiyo aholisining milliy va etnik tarkibi bo‘yicha qiziqarli va shu bilan birgalikda inkor etiladigan fikr-mulohazalar ham aks etgan. Bu o‘z navbatida, bugunda turli munozaralarni keltirib chiqargan. Xususan, masalaning bir qismi rus tarixshunosligi bilan ham bog‘lanadi. Ushbu maqolada rus arxiv hujjatlari va mualliflari tomonidan Turkiston aholisining diniy tarkibi hamda xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlilini havola etish maqsad qilindi.

XIX - asr oxiri va XX - asr boshlarida o‘lka aholisining etnik tarkibi bilan birgalikda, diniy konfessial mazarasi xilma-xil bo‘lib bordi. Albatta bu davrda Turkiston mahalliy aholisi, ya’ni musulmonlar qariyb 90 foizni tashkil etgan[1.B 4]. Unday so‘ng, yirik sharqiy slavyanlar diasporasi yoyilgan viloyatlar va shaharlarda pravoslav dinining yetakchi o‘rinda turgan. Markaz Toshkentda ko‘p sonli musulmonlar 75 foizni, undan so‘ng pravoslavlar 22 foiz va keyin boshqa diniy jamoalar turgan.

Ma’lumki, rus hukumati tomonidan bu davrda yahudiylar qo‘llab-quvvatlangani bois, ularga fuqarolikka o‘tish, savdo gildiyalarini olish va boshqa ko‘plab huquqlar berilgan edi. Natijada, bu diniy konfessiya vakillari soni yildan-yilga o‘sib bordi. Markaz Toshkentda birgina o‘n yil davomida, ya’ni 1878-yilda jami 592 kishi aniqlangan bo‘lsa, 1888-yilga kelib 1275 kishi hisobga olingan[2. B 280]. Bu avvalo, ularning diniy e’tiqodiga erkinlik bo‘lganligi va avvalgi ma’lum ta’qiqlar olib tashlanganligini anglatadi.

Yettisuv viloyati statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, viloyat aholisining ko‘pchiligini musulmonlar (90,12 %) tashkil etgan bo‘lsa, pravoslavlar 9,79 % ga yetgan, boshqa diniy vakillar 0,09 %ni qamrab olgan. Shu bilan birgalikda, ona tilisi rus tili bo‘lganlarning deyarli barchasi (ruslar, ukrainlar va beloruslar), kichik istisnolar bilan, pravoslav cherkoviga e’tiqod qilganlar. Ularning orasida kichik sondagi eski e’tiqodchilar va undan ham kam sonda rim-katoliklar bo‘lgan.

Yana shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari aholisining diniy vakillari orasida karaimlar[3.B 48] ko‘rsatilgan bo‘lib, bular yahudiylik dinining bir oqimiga mansub bo‘lib, ular kam sonli etnik guruh sifatida karaim tilida (turkiy tillarning qipchoq guruhi) so‘zlashganlar. Ular sharqiy Yevropadagi karaimizm izdoshlaridan kelib chiqib, bu davrda ularning umumiy aholiga nisbatan foizi juda past edi.

1900-yilgi Samarqand viloyati aholisi diniy e’tiqodiga nazar tashlasak, ular orasida - musulmonlar, pravoslavlar, yahudiylar, arman-grigoryanlar, katoliklar, protestantlar, butparastlar bo‘lganini ko‘rish mumkin[4 B 80].

Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, dastlabki davrda Turkistonning harbiy-fuqarolik hokimiyati bilan davlat dini bo‘lgan pravoslav nasroniylik vakillari o‘rtasidagi munosabatlar sovuq bo‘lgan. Mintaqada pravoslav yepiskopi faqat 1872-yilda, mustaqil pravoslav yeparxiyasi 1-yanvardan faoliyat yurita

boshlagan. O‘rta Osiyoda pravoslav diniy institutlar yo‘q edi, bundan tashqari Rossiya imperiyasining 78 ming pravoslav diniy muassasalaridan Turkistonda faqat 180 ga yaqini bor edi[5 B 261] Bu holat O‘rta Osiyoda davlat pravoslav cherkovining mavqyei unchalik kuchli bo‘lmaganligi bilan izohlanadi.

Garchi 1897-yilgi aholi ro‘yxatiga ko‘ra, Turkiston o‘lkasida 11 mingga yaqin katolik bo‘lib, ularning bir qismini polyaklar tashkil etsa-da, XX-asrning boshlariga qadar bu yerda birorta katolik cherkovi bo‘lmagan. Rossiya davlatidagi qonunlarga ko‘ra, katolik cherkovlari ixtiyoriy ehsonlar hisobiga qurilar edi. Ehson to‘planganidan keyin Samarqand va Ashxobodda cherkovlar qurildi.

Endi o‘lkaning etnik va diniy rang-baranglik sharoitida mahalliy va rus xalqlari o‘rtasidagi munosabatlarga to‘xtalib o‘tamiz. XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida Turkiston o‘lkasida bir qator jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bular jumlasiga Yevropa turmush-tarziga xos hayot tarzining kirib kelishi, shaharsozlik, me’morchilik, transport, xizmat ko‘rsatish vositalari, kiyinish uslubi va kundalik boshqa jihatlar kiritish mumkin. Ayniqsa, rus xalqi, uning madaniyati va bu orqali Yevropa madaniyati va taraqqiyotiga xos jihatlar mahalliy aholi vakillarini e’tiborini befarq qoldirmadi.

Bu orqali, mustamlaka sharoitida tobora ko‘p elatli va ko‘p konfessiyali muhitning kuchayib borishi xalqlar o‘rtasida muloqotning oqilona tomonlarini izlashga ehtiyoj sezila borildi. Albatta mahalliy ziyolilar rus mustamlakachiligi oqibatlari xususida qayg‘urib, milliy qaramlik, huquqlarning kamsitilishiga doimo qarshi turdilar. Biroq ziyolilarning eskilik tarafdorlari bo‘lgan ulamolar hamda yangi islohotparvar qismi o‘rtasida rus halqi va G‘arb madaniyati bilan yaqinlashishga munosabat turlicha edi. Bunda ayniqsa, millatlararo tenglik va totuvlikka doir g‘oyalar milliy taraqqiyparvar - jadidlarning doimiy diqqat markazida turdi. Shu bois, o‘zlarining diniy va dunyoviy bilimlari, taraqqiyotga intilishlari bilan ular mahalliy va rus xalqlari o‘rtasida bag‘rikenglik tarafdorlari bo‘lib chiqdilar. Jadidlar, Yevropa xalqlarining madaniyati va texnologiyalar borasidagi yutuqlaridan bahramand bo‘lish O‘rta Osiyoni turg‘unlik xolatidan olib chiqishga ko‘maklashadi, deb hisoblashgan.

Rossiya imperiyasi va boshqa xorijdan kelgan xalqlar bilan mahalliy aholi o‘rtasida munosabatlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ko‘zga tashlanib bordi. Ular o‘rtasida tolerantlik (bag‘rikenglik) munosabatlar albatta aholining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivoji uchun o‘ziga xos ahamiyatli bo‘lgan. Imperiyaning o‘lkada olib borgan mustamlaka siyosatiga qaramasdan, o‘lka tub joy xalqlari o‘z bag‘rikengligi, ochiq ko‘ngilliligi bilan hududga kelgan turli etnoslarni qarshilab, hamjihat munosabatlar olib bordi.

Natijada, bu ular o‘rtasida etnik va diniy tolerantlik, ya’ni bag‘rikenglik munosabatlarini rivojlantirib bordi. Tadqiqotchilar qayd etganidek, do‘stlik uchun birinchi qadamni ko‘p hollarda mahalliy millat kishilari qo‘yganlar. Turkistonda yashochi xalqlar o‘rtasida jiddiy ziddiyatlar deyarli kam bo‘lgan, bu holat faqat ayrim hollarda xususiy shaxslar o‘rtasida ro‘y bergan[6, B 144].

Ushbu bob bo‘yicha qisqacha xulosa qilganda, XIX - asrning oxiri – XX -

asrning boshlarida Rossiyaning Turkistondagi mustamlakachiligi siyosiy, shu bilan birga, rus kapitalining iqtisodiy hukmronligi ham edi. Umuman, mustamlakachilik siyosati asosida olib borilgan ko‘chirish, ruslashtirish siyosati, Markaziy Osiyo umumiy bozorining shakllanishi, xom-ashyo yetkazish, kapitalistik munosabatlarning vujudga kelishi, mehnat taqsimoti jarayonlarining chuqurlashishi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar o‘lka shahar va qishloqlarida demografik o‘zgarishlarni sodir bo‘lishiga olib keldi. Bu o‘zgarishlar Rossiya imperiyasidan ko‘chirib keltirilgan xalqlarni joylashtirish hisobidan, mahalliy aholining sug‘oriladigan yerlarga ehtiyoji, aholi sonining ko‘payib borishi, xo‘jalik turmush tarzining o‘zgarishi, ya’ni o‘troqlashuv jarayonining kuchayishi, tug‘ilish va o‘lim, mehnat taqsimoti, bandlik va boshqa sohalardagi shu kabi demografik muammolarni keltirib chiqardi. Ayniqsa, bu muammolar mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.

Ko‘p sonli aholiga ega Turkiston aholisining bu davrda milliy, etnik tarkibi bilan birgalikda, diniy tarkibi ham rang-barang bo‘ldi. Rossiya imperiyasining Yevropa qismi, Kavkaz, Ural, Volga va markaziy guberniyalaridan turli xalqlarning ko‘chirib kelinishi o‘lkada ma’lum diniy konfessiya jamoalarining vujudga keltirdi. General-gubernatorlikda ko‘p sonli musulmonlardan so‘ng, pravoslavlar, unday keyin yahudiylik, lyuteranlik dini vakilari ulushi nisbatan yuqori turdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘z MA, I-19-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 271-yig‘ma jild, 4-varaq.
2. O‘z MA, I-36-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3085-ish, 280-varaq.
3. IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda karaimlar deb ataladigan yahudiy oqimi paydo bo‘ladi. Bu oqim tarafdorlari faqat Torani (muqaddas kitob) tan olar, Talmudni esa inkor qilgan edilar. Qarang: Markaziy Osiyo xalqlari dinlari tarixi..., -B.48.
4. Нормуродова Г. XIX аср охири – XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. , -Б.80.
5. Кадырбаев А.Ш., Сыздикова Ж.С. Страна в Междуречье. (Очерки истории Узбекистана). - Москва, 2017. – С.261.
6. Брусина О.И. Славяне в Средней Азии. Этнические и социальные процессы. Конец XIX – конец XX века. – М., 2001. - С.144.

TARIX TA’LIMI MAZMUNINING SOVET DAVRI O‘QUV DASTURLARIDAGI TAHLILI

Narmanov Feruz Asfandiyorovich
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi
dotsenti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda XX-asrning 20-yillaridan boshlab sovet ta’lim titimining amalga oshirilishi, ta’lim tizimi tashkiliy jihatlari va

mazmunining sovet davri talablari asosida tashkil etilishi, ushbu o‘zgarishlarining tarix fani mazmuni va uning o‘qitilishiga ko‘rsatgan ta’siri, oqibatlari tarix fani dasturlari va rejalari tahlili asosida tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: tarix fani, ta’lim mazmuni, maktab ta’limi, umumta’lim maktablari, o‘quv dasturi, axloqiy tarbiya, maorif sohasi.

O‘zbekistonning XX asr tarixida fanlar tizimida tarix fanining o‘qitilishi va uning mazmunmohiyatidan kelib chiqqan holda kishilar tafakkuriga ko‘rsatgan ta’sirini tahlil qilish esa muhim hisoblanadi. Har qanday ta’lim jarayoni amalga oshirilishi va uning tizimli tarzda rivojlanishi, albatta, uning davr talabi va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tasdiqlangan o‘quv reja hamda o‘quv dasturlari asosida olib borilishi bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. O‘zbekistonda ta’lim tizimi tarixidan ma’lum bo‘ladiki, sovet davri ta’lim bosqichlarida fanlarni o‘qitish tizimlarning shakllantirilishi va ularning mazmun mohiyatiga hukmron mafkura talabidan kelib chiqqan holda munosabatda bo‘lindi [4.218].

Dastlab XX asrda mazkur jihatlar sovet hokimiyatining dastlabki yillaridagi xalqning ma’rifatga, fanga va milliy ma’naviyatga bo‘lgan intilishi hukmron kuchlar tomonidan olib borilgan siyosati natijasida siyosiy manfaatlar yo‘liga burildi. Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi natijasida ta’lim sohasida yuz bergan o‘zgarishlar tarix fani va uni o‘qitish tartiblarining o‘zgarishiga olib keldi. Shu davrdan boshlab sovet davlati va uning tarkibida bo‘lgan respublikalarda ta’limning umumiy tushunchasi tubdan o‘zgardi. XX-asrning 20-yillari boshlariga kelganda sovet maktablarida tarix fani o‘qitilishi tartibi hamda mazmun-mohiyatini kommunistik mafkura talablari asosida qayta ko‘rib chiqish, yangi o‘quv dasturlarini tuzish va natijada yangi tarix darsliklarini yaratish boshlandi. 1927-yilda esa Xalq Maorif Komissarligi 1927/28 o‘quv yili uchun umumta’lim maktablari uchun majburiy bo‘lgan yangi yagona o‘quv dasturini tasdiqladi. Bu rejada asosan sotsializm qurilishiga e’tibor qaratilgan holda o‘quvchilarni tabiiy fan va ijtimoiy-siyosiy tarbiyalash, ularni mehnat, jismoniy va estetik tarbiyalash nazarda tutilgan. Umumta’lim fanlaridan tashqari o‘quv rejasiga maktabda qabul qilingan kasbiy yo‘nalishga qarab maxsus fanlar kiritilgan. Maorif xalq komissarligi ham barcha maktablar uchun yangi dasturlarni tasdiqladi. Ularda ona tili, matematika va boshqa o‘quv fanlari bo‘yicha talab qilinadigan bilim va ko‘nikmalar ro‘yxati keltirilgan. Ammo, tarix fani akademik fan sifatida baholanib, o‘quv dasturlari tarkibidan chiqarib tashlangan edi.

XX asrning 20-yillari boshlari matbuotida Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim dasturlari va darslarni tashkil etishga katta ahamiyat berilgan. A.P.Arxangelskiy ayniqsa, tarix kurslarini maktab dasturlariga kiritish haqida dolzarb fikr bildiradi. U o‘quvchi va talabalar oddiy tarixiy bilimlardan bexabar bir sharoitda jiddiy tarixiy poydevor yaratish qat’iy zarur deb hisoblaydi [5.166].

XX-asrning 30-yillariga kelganda ta’lim dasturlari va ularning mazmuniga doir jihatlarni qayta ko‘rib boshlandi. Xususan, kommunistik partiyaning 1931-yil 25-avgustdagi “Boshlang‘ich va o‘rta maktablar to‘g‘risida”gi 58-son qarori e’lon qilindi. Mazkur qarorda Xalq ta’limi komissarligi va uning joylardagi

bo‘limlariga 1932-yilning birinchi yanvariga qadar bo‘lgan vaqtda ta’lim dasturlarini mavjud siyosiy talablar asosida tarzda ishlab chiqishni tashkil etish, ularda tizimlashtirilgan bilimlarning (ona tili, matematika, fizika, kimyo, geografiya, tarix) aniq belgilangan doirasini ta’minlash masalasi ilgari surilgan edi [1].

1934-yil 15-mayda qabul qilingan “Sovet davlati hududida tarix fanini o‘qitishga doir” qarorda quyidagi masalalar muhokama etilgan edi.

Urushdan keyingi yillarda ham sovet hukumatining ta’lim sohasida olib borgan siyosatida yoshlarning g‘oyaviy, axloqiy tarbiyasi, sinfiylik, partiyaviylik tamoyillari ustuvorlik qildi. O‘qitilayotgan fanlar, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar, mafkuralashtirilgan bo‘lib, milliy, madaniy-ma’naviy qadriyatlarga e’tibor berilmadi. Maorif sohasidagi ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishda SSSR tarixi ko‘zda tutilib, asosan rus madaniyati va Rossiya tarixi namuna sifatida talqin etildi. Umumta’lim maktablarida o‘zbek xalqi tarixini o‘rganishga bor-yo‘g‘i 52 soat ajratildi. Qolgan tarix darslarida esa, asosan, SSSR tarixi o‘qitildi.

1969/70-o‘quv yili uchun mo‘ljallangan o‘quv programmasidan ma’lum bo‘ladiki, tarix darslari maktabda V-VI-VII-VIII-IX-X-sinflarda o‘qitilgan bo‘lib, ularning umumiy va haftalik o‘quv soati taqsimoti quyidagi ko‘rinishda edi.

Sinf va soatlar	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	Yillar
Umumiy yillik soat	-	70	70	70	105	140	157	1969
Haftalik o‘quv soat	-	2	2	2	3	4	3	
Umumiy yillik soat	68	68	68	68	102	136	102	1984
Haftalik o‘quv soat	2	2	2	2	3	4	3	

Mazkur dasturga ko‘ra, 5-sinfda qadimgi dunyo tarixi, 6-sinfda o‘rta asrlar tarixi, 7-sinfda SSSR tarixi, eng qadimgi zamonlardan to XVIII asrning oxirlarigacha bo‘lgan davr o‘qitilgan. 8-sinfga kelib umumiy 105 soat yangi tarix, birinchi davr uchun-49 soat, SSSR tarixi- XVIII-asrning oxiridan to XIX-asr

oxirigacha 56 soat o‘qitilar edi. 9-sinfda esa jami 140 soat ajratilgan holda bu soatlar yangi tarixning ikkinchi davri uchun 44 soat, SSSR tarixi XX-asrdan boshlab to SSSRda sotsializm g‘alaba qilgan davrga qadar 82 soat, 1917-yildan ikkinchi jahon urushigacha bo‘lgan davr 14-soatda o‘qitilgan. 10-sinflar uchun umumiy 157 soat ajratilgan bo‘lib, bunda SSSR tarixi, sotsialistik jamiyat qurilishining tugallanish davri va kommunizmning qurilishi davri 62 soatda, takroriy darslar 52 soat, chet mamlakatlarning eng yangi tarixi 43 soatda o‘qitilgan edi [2.4].

Ishlab chiqilgan o‘quv programmalarining mazmunidan bo‘ladiki, O‘zbekistonning eng qadimiy davrlaridan boshlab XX-asrgacha bo‘lgan davri tarixiy taraqqiyotning eng muhim masalalari va respublikaning tarixiy o‘tmishi haqida tarixiy ma’lumotlar kiritilishi bayon qilingan bo‘lsada, asosiy e’tibor O‘zbekiston xalqlarining sotsializm qurilishidagi ishtiroki va o‘quvchilarni kommunistik ruhda tarbiyalashning asosiy jihatlarni o‘qitishni nazarda tutgan. Xususan, 7-sinflarda o‘qitilgan SSSR tarixining eng qadimgi zamonlardan to XVIII asrning oxirlarigacha bo‘lgan qismida O‘zbekiston tarixining ibtidoiy hamda qadimgi davr tarixini o‘qitish uchun 2- ta mavzu uchun 7 soat, feodal munosabatlarning qaror topishi uchun jami 46-soatdan 3 soat, IX-XII-asrlar siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi uchun bor yo‘g‘i 4 soat ajratilgan edi. O‘zbekisto tarixining XIV-XVI-asrlarida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti tarixi uchun ham soat ajratilgan. Shuningdek, XVII-XVIII-asrlarda O‘zbekiston mavzusi bor yo‘g‘i 2 soat o‘tilgan xolos.

8-sinfda esa umumiy 105 soatning SSSR tarixiga doir qismi uchun 56 soat ajratilgan bo‘lib, unda O‘zbekistonga daxldor mavzular quyidagicha taqsimlangan edi. XVIII- asrning oxiri-XIX-asrning boshlarida O‘rta Osiyoning siyosiy va iqtisodiy ahvoli tarixi juda qisqa 1 soat vaqt ajratilgan. Shuningdek, XIX-asrning birinchi yarmida Qozog‘iston va O‘rta Osiyo mavzusidan 2 soat dars o‘tilgan. O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shib olinishi ham 2 soat o‘qitilgan. XIX-asrning ikkinchi yarmida O‘zbekiston madaniyati tarixi 1 soat hajmida o‘qitilib kelingan [2.56]. Qiyoslash uchun mazkur o‘quv programmasining 7-sinflar uchun mo‘ljallangan qismida O‘zbekiston tarixiga doir mavzular uchun jami hisobda 16 soat ajratilgan. Ko‘rinadiki, 8-sinfga kelib mazkur soatlarning miqdori yanada kamayib borgan hamda O‘zbekiston tarixi uchun ajratilgan soatlar bor yo‘g‘i 6 soatga teng bo‘lgan. Ya’ni, o‘quv dasturidagi 7 sinflar uchun ajratilgan 70 soatning 23% qismi, 8-sinfda esa 18% qismida O‘zbekiston tarixi o‘qitilgan.

9-sinf darsligida SSSR tarixining XX-asrdan boshlab to SSSRda sotsializm g‘alaba qilgan davrga qadar bo‘lgan qismida O‘zbekiston tarixiga doir masalalar dasturdagi mavzular tarkibida o‘qitilgan, ya’ni biror mavzu alohida o‘qitilgan emas. Xususan, XIX-asrning oxiri-XX-asr boshlarida O‘zbekistonning sotsial-iqtisodiy rivojlanishi, 1905-1907-yillar inqilob arafasida O‘zbekiston, XX-asr boshlarida O‘zbekiston madaniyati, Birinchi jahon urushi davrida O‘zbekiston kabi masalalar o‘qitilib kelingan.

Umumiy tarzda ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, tarix darslarida O‘zbekiston tarixiga bevosita daxldor mavzularning kiritilishi va o‘qitilishi faqatgina 7-sinfga

kelib o‘qitila boshlagan.

XX-asrning 80-yillariga kelib tarix fanini o‘qitish tarkibiy qismida o‘zgarishlar yuz berdi. Endi tarix fanini o‘qitish Kommunistik partiyaning XXIV, XV, XVI-se’zdlarida ko‘rib chiqilgan masalalarni amalga oshirish va belgilangan vazifalarni ijro etishda tarix fanining o‘rni katta ekanligi ta’kidlangan edi. Mazkur davrga kelib maktablarda tarix fani IV-X-sinf o‘quvchilariga o‘qitila boshlagan edi.

1987-yilgi V-XI- sinflar maktab programmasining V-sinfida umumiy hamda haftalik ajratilgan soatlar avvalgi yillardagi kabi 68/2 soat ko‘rinishida edi. Ammo, O‘zbekiston tarixining qadimgi hamda o‘rta asrlar tarixiga doir tarixiy mavzularning keltirib o‘tilishi misolida qarab chiqiladigan bo‘lsa, faqatgina O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi bosqinchilarga qarshi kurashi, O‘rta asr O‘rta Osiyoning yirik olimlari hamda Sarbadorlar harakati, Amir Temur faoliyati va Ulug‘bek buyuk astronom kabi mavzular o‘rin olgan xolos [6. 18-19].

Oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlari tahliliga e’tibor berilsa, 1925-1939-yillar davomida mamlakatda mavjud oliy ta’lim muassasalari o‘quv dastur va rejalarida tarix faniga ajratilgan soatlar va ularning mazmuni anglashiladi. Samarqanddagi oliy pedagogika institutining o‘quv dasturiga ko‘ra, 1 kurs talabalari “Osiyo va qo‘shni mamlakatlar tarixi”dan-2 soat ma’ruza, 3-kursda esa “XIX-XX-asrlarda sinfiy kurash” fanidan 2 soat ma’ruza, “KPSS tarixi va leninizm asoslari”dan 2 soat ma’ruza mashg‘ulotlari o‘tilgan [3. 5-6].

Xulosa qilib aytganda, sovet hokimiyatining ta’lim sohasida olib borgan davlat siyosiyati eng birinchi navbatda tarix fanini chetlab o‘tmadi. Ma’lum bo‘ladiki, tarix fanini fan sifatida o‘qitishning to‘xtatib qo‘yilishi hukmron davlatning ta’lim va ayniqsa tarix fani borasidagi siyosatini yaqqol ko‘rsatib turadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Постановление ЦК ВКП(б) о начальной и средней школе. Приложение № 5 к п. 31 пр. ПБ № 58 от 25.VIII.1931 г.
2. Саккиз йиллик ва ўрта мактаб программалари. Тарих. 1969/70-ўқув йил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 4.
3. Ўз МА. Р-94-фонд, 1-рўйхат, 161-иш, 5, 6-варақлар.
4. Ўзбекистон тарихи (1917-1997 йиллар). К.2. Ўзбекистон 1939-1991 йилларда. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – Б. 218.
5. Ўзбекистонда таълимнинг ривожланиш тарихи ва тарихшунослиги. – Тошкент: Adabiyot uchqunlari. 2017. – B. 166. (396)
6. Ўрта умумий таълим мактабларининг тарих программаси. V-XI синфлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б. 18-19.

XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SAMARQAND ERONIYLARI HUQUQLARINING CHEKLANISHI VA QATOG‘ONLAR

Nurboyev Qurbon Aralboyevich
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi
tayanch-doktoranti

Annotatsiya: Maqolada XX asrning 20-30-yillarida Samarqandning Eron milliy tumanida fuqarolarning siyosiy huquqlarining cheklanishi, quloq xo‘jaliklarining tugatilishi, qatog‘onlar va ularning sabablarining ayrim jihatlari talqin etiladi.
Kalit so‘zlar: Eroniylar, Eron milliy rayoni, saylov huquqlari, quloqlashtirish, surgun qilish, qatog‘onlar.

XX asrning 20-30 yillarida O‘zbekistonda, shu jumladan, Samarqandda turli millat va xalq vakillari istiqomat qilgan bo‘lib, eroniylar ham (manbalarda forslar sifatida ham qayd etiladi) hududning asosiy aholi qatlamlaridan biri sanalgan. 1924 yilgi O‘zSSRdagi oz sonli millatlar markaziy statistika boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, shahar aholisiga nisbatan: birinchi o‘rinda tojiklar 14% (144907 kishi), ikkinchi o‘rinda mahalliy yahudiylar 2,9% (23669 kishi), uchinchi o‘rinda tatarlar 1,5% (11772 kishi), to‘rtinchi o‘rinda forslar 1,1 % (9079 kishi), beshinchi o‘rinda arablar 0,1 % (970 kishi) qayd etiladi [4, B.144]. Samarqand viloyatida tojiklar shaharlarda 53,5% (70885 kishi), qishloq hududlarida 11% (54243 kishi), qirg‘izlar qishloq hududlarida 2,5% (12475 kishi), qozoqlar qishloq hududlarida 1,7% (8461 kishi), mahalliy yahudiylar shaharlarda 6,8% (9055 kishi), forslar shaharlarda 3,3% (4434 kishi)ni tashkil etadi [4, B.145]. 1926 yilgi O‘zSSR Maorif xalq komissari Mo‘minxo‘jaevning ma’ruzasiga ko‘ra O‘zbekiston aholisi o‘z tiliga ko‘ra ikki katta guruhga: turkiy va eroniyga bo‘lingan. Aholining asosiy qismini tashkil etuvchi o‘zbeklar birinchi guruh vakillaridir. Eroniy va boshqa turkiy millatlar respublikaning milliy ozchiliklarini tashkil qiladi. O‘zbekiston aholisi 3 731 146 kishini tashkil etadi, ulardan 2 583 571 nafari o‘zbeklardir (Zelenskiyning “Markaziy Osiyoning davlat chegaralanishi” kitobiga ko‘ra). Shunday qilib, 1 147 395 nafar milliy ozchiliklar bor, ya'ni. taxminan 25%. Eroniy tilda gaplashadigan eng yirik kam sonli xalqlar quyidagilar: 1) Tojiklar. 433118 kishi. Shundan Samarqand viloyatida 131028 kishi, Farg‘ona viloyatida 129449 kishi. 2) Mahalliy yahudiylar. 26501 kishi. Shundan Samarqand viloyatida 9055 kishi, Zarafshon viloyatida 7407 kishi. 3) Forslar. 17021 kishi. Shundan Samarqand viloyatida 10501 kishi, Zarafshon viloyatida 2159 kishi, Toshkent viloyatida 2231 kishi, Xorazm viloyatida 1666 kishi, Farg‘ona viloyatida 464 kishi [5, B.201-203].

1939 yilgi Butunittifoq aholi ro‘yxati bo‘yicha O‘zbekiston aholisining milliy tarkibida eronlilar 18240 nafar kishini tashkil etganiligini ko‘rishimiz mumkin [3, B.132]. Sho‘rolar davrida milliy til belgilariga ko‘ra alohida tumanlar tashkil etildi. “1917 yildan keyin Turkistonda pasport rejimi qattiqlashdi. Ba’zi eronliklar, asosan, malakasiz va savodsiz ishchilar Sovet Rossiyasi fuqaroligini qabul qildilar. Bu davrda hukumatning milliy ozchiliklarga nisbatan umumiy siyosati o‘zgarmoqda edi, bu O‘rta Osiyodagi mayda millatlar ahvolida ham o‘z ifodasini topdi. Ularni 20-yillarning boshlarida sanoat ishlab chiqarishida, ta’limni rivojlantirishda ishtirok etish uchun sun’iy ravishda joriy etish yo‘lga qo‘yilgan. Milliy ozchiliklar ta’limi kengashi qoshida ikkita maktabgacha ta’lim muassasasi, uchta ishxona, ikkita kutubxona va pedagogika kurslariga mas’ul bo‘lgan Eron-Ozarbayjon byurosi tashkil etildi. Samarqandda eroniylar tumani ochildi, eroniylar teatri (Samarqand) faoliyat yuritdi” [2, B.102-103].

O‘zSSR hukumatining qarori bilan 1928 yil oktyabrdan Samarqand shahar Kengashi tarkibiga milliy Eron Rayon Kengashi mustaqil organ sifatida kiritildi. Sho‘rolar olib borgan siyosat natijasi o‘laroq Samarqand shahridagi Eron rayoni fuqarolarning turli huquqlari cheklanganligi va bunda turli sabablar keltirilganligini ko‘rishimiz mumkin. 1929 yil 3-oktyabrdagi Eron Rayon soveti prezidiumining №40 sonli yig‘ilishi bayonnomasidan ko‘chirma (rais: Yakubov, kotib: Guseynov, ish yurituvchi: Solmanov)ga binoan 1-Yung‘ichqariq qishlog‘idan fuqaro Safarov Mustafoning saylov huquqini tiklash masalasi ko‘riladi va savdogar sifatida rad etilishi to‘g‘risida qaror chiqarilgan [6, B.127]. 1929 yil 24 sentyabrdagi Eron rayon Kengashi Prezidiumining №39 yig‘ilishi bayonnomasi (rais: Yakubov, kotib: Guseynov, ish yurituvchi: Solmanov)ga ko‘ra Raxmatobod qishlog‘idan fuqaro Vahobov Sodiqning saylov huquqini tiklash bo‘yicha arizasi ruhoniy bo‘lgani uchun rad etilgan. Xuddi shuningdek, Yung‘ichqaariq qishlog‘idan Qurbon Xolnazarovning saylov huquqini tiklash bo‘yicha arizasi ham sobiq zavod egasi va ekspluatator bo‘lgani uchun rad etiladi [6]. O‘zSSR MIK tashkiliy ishlar bo‘limi mudiri Bekchenteev, kotib Yanbulatov 1929 yil 9 iyuldagi Eron tuman sho‘rosiga №5563 sonli topshirig‘iga ko‘ra, O‘zSSR MIK Kengashi tashkiliy ishlar bo‘limi Eron tumani Lolazor qishlog‘ida yashovchi saylov huquqidan mahrum etilgan Doniyol Ahmedovning amir vaqtida Kattariqning mirobi va amir amaldorining farzandi bo‘lganligi xususidagi materiallarni tezlikdan yuborilishi so‘raladi. Agar materiallar bo‘lmagan taqdirda nimaga asoslanib huquqdan mahrum etilganligini ma’lum qilishligi so‘ralgan. [7, B.1]. 1929 yil 4 avgustda Eron Rayijrokomiga fuqaro Ismoilov Ibragimdan ariza berilganki, mazmuni quyidagicha: joriy yilning bahorida Samarqand shahar kengashiga bo‘lib o‘tgan saylovda saylovchilar ro‘yxatini ko‘rib chiqish komissiyasi tomonidan ovoz berish huquqidan mahrum qilingan. Komissiyaning qarori hech qanday asoslanmagan va xato, chunki men hech qachon ishlamaydigan qatlam bo‘lmaganman, yollanma kuchdan foydalanmaganman, ijtimoiy kelib chiqishim bo‘yicha dehqonman deyiladi [8, B.142]. Eron tumani I-Yung‘ichqaariq hududidan saylovdan mahrum qilinganlar ro‘yxatiga e’tibor qaratilsa, 1928-1930 yillarda mahrum etilganlar millati deyilgan joyga eroniy

yozilganligini va turli sabablar keltirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Safarov Hamza yollanma mehnatdan foydalanish va kvartirasini ijaraga berish sababidan, Rasulov Mullaaxmad yirik mulla sifatida, Safarov Mustafo savdogar sifatida patenti bo‘lmagani uchun, Xuseynov Mamadali va Xuseynov Mustafoqullar hunarmand sifatida 2 kishining mehnatidan foydalangani uchun, Mirxasanov Miryaxyo va Mirxasanov Saidlar mulla va duoxon bo‘lgani uchun, Raximov Riza ulov olib-sotish bilan shug‘ullangani uchun, shuningdek yuqoridagi fuqarolarning turmush o‘rtoqlari ham eriga bog‘langani uchun saylov huquqidan mahrum etilgan [9, B.58].

Qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosati natijasida Samarqandning Eron rayonida ham fuqarolar turli sabablar bilan o‘z xususiy mulkidan mahrum qilinib, quloq qilinganligini ko‘rishmiz mumkin. 1932 yil 3-yanvarda Eron tumani 1 va 2-Lolazor qishloq kambag‘al guruhlarining 31 nafar kishi ishtirok etgan majlisi bo‘lib, asosiy masala yoppasiga jamoalashtirish va sinf bo‘lib yashab kelayotgan quloqlarni tugatish to‘g‘risida edi. Quyidagi ismlari yozilgan quloqlarning tugatilishi to‘g‘ri deb topilishi bo‘yicha qaror qabul qilingan. 1. Aminov Abduali 2. Ali Axmadov 3. Maxmudbekov Hayitbek 4. Mirayupov Miraziz 5. Jo‘rabekova Habiba 6. Jo‘rabekova Habiba bilan birga turuvchi Ramadi Qosim Yunus o‘g‘li va Qosim Ahadbek Bobobek o‘g‘li ham quloq sifatida tugatilsin. 1-Lolazor qishlog‘ida yashovchi Mo‘minboy ham quloq bo‘lgani uchun tugatilishi belgilangan [10, B.1]. Shuningdek, XX asrning 20-30 yillarida sho‘rolar olib borgan qatog‘on siyosati Samarqandning bir qator jonkuyar farzandlarining umriga zomin bo‘ldi. Mashhur publitsist, noshir,tarjimon, pedagog Saidrizo Mirmahsum o‘g‘li Alizoda (1887-1945)dan tashqari yana bir qancha fuqarolar ham qatog‘on domiga tortildi. 1938 yil 21 sentyabrda Samarqand shahridan “chet el josusi” sifatida 101 nafar eroniy millatiga mansub kishilar qatog‘on qilingan [1, B.45]. Jumaev Nabi 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilinib, Sibirga surgun qilingan bo‘lsa, Kozimov Zabibobo 1933 yili oilasi bilan Kavkazga, Mirzoahmedov G‘affor 1933 yili Kavkazortiga, Mirzoahmedov Sattor va Nurmatov Haqberdilar ham 1933 yilda Krasnodarskka, 1938 yilda Hazratqulov Rizoqul Kalina shahriga, Xoliqov Abdujalil Smolenskka, Xoliqov Abduxalil Solikamskka, Xoliqov G‘ulomhusen Qozog‘istonga surgun qilingan. Hatto Nazarov Muxtor va Hakimov Qayumlar Eronga ziyoratga borganligi uchun ham surgun qilingan. [1, B.45-46]. Latipov Tag‘i (Karvon) 1875 yilda Saidmahallada tug‘ilgan, mulkdor kishilardan bo‘lib, Eron, Afg‘onistonga qatnab savdo bilan shug‘ullangani uchun “Karvon” nomini olgan va 1932 yilda quloq qilingan hamda 1943 yilda Toshkent viloyatining Zangiotadagi turmaxonada vafot etgan. Guseynov Husain (Bobohusayn) Rasulovich (1900- 1938) 1929 yildan O‘zbekiston Ichki ishlar xalq komissarligida faoliyat olib borgan, 1935 yilda maxsus topshiriq olib Afg‘onistonga jo‘natilgan va SSSRning ushbu mamlakatdagi elchixonasida harbiy konsul bo‘lib ishlagan, 1938 yil 16 fevralida qamoqqa olingan va o‘limga hukm qilinib shu yilning 9-oktyabrida otilgan, 1959 yil 12-martda oqlangan. Karimzoda Mullo Halim 1890 yilda Saidmahallada tug‘ilgan va 1911 yilda ushbu

mahallada “YAngi hayot” nomli maktabni tashkil etishda ishtirok etgan, 1929 yilda yangi maktablarni ochganligi uchun “xalq dushmani” tamg‘asi bilan qamalgan, 1933 yilda oqlangan va shu yili vafot etgan [1, B.149-175].

Umuman olganda sho‘rolarning butun hayoti fuqarolar huquqlarini kamsitish, mensimaslik, tahqirlash, shuningdek, mulkdor va ziyoli-ruhoniy qatlamni quloq sifatida surgun qilishga asoslangan ediki, ammo bunday tuzum o‘zini oqlamadi va alal-oqibat zavolga yuz tutganligiga tarix guvohdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alieva F., SHaripov S. Vatan yagonadir, Vatan bittadir. Ilmiy-ommabop risola. – T., “Mashhur-press”, 2018.
2. Etnicheskiy atlas Uzbekistana. “Institut "Otkrытoe Oвщestvo" —Uzbekistan, 2002.
3. Xudayarov U. O‘zbekiston aholisining milliy va ijtimoiy tarkibidagi o‘zgarishlar tarixi (1925-1991 yy). Monografiya. Samarqand, 2021.
4. O‘z MA. Fond 86, ro‘yxat-1, ish-3150. 1924-1926-yillar.
5. O‘z MA. Fond 86, ro‘yxat-1, ish-3658. 1926-yil.
6. SVAIHB. Fond 266. ro‘yxat-1, ish-8. 1929 yil.
7. SVAIHB. Fond 266. ro‘yxat-1, ish-5. 1928-1929 yil.
8. SVAIHB. Fond 266. ro‘yxat-1, ish-10. 1929 yil.
9. SVAIHB. Fond 266. ro‘yxat-1, ish-51. 1931 yil.
10. SVAIHB. Fond 266. ro‘yxat-1, ish-60. 17.01. 1932 yil - 3.04. 1932 yil.

SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SANOAT KORXONALARINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI DASTLABKI ISHLAR
(Samarqand viloyati misolida)

Shotemirova Aziza Usarovna
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat
universiteti mustaqil
tadqiqotchisi

Annotatsiya: XX asrning ikkinchi choragida Samarqand viloyatida yengil sanoatni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi. Natijada, viloyatdagi yengil sanoat korxonalarida mahalliy ishchilar soni oshib bordi. Ushbu maqolada Samarqand viloyatida sovet hokimiyati yillarida faoliyat yuritgan sanoat korxonlari haqida arxiv materiallari, dissertatsiyalar va manbalar orqali ochib berilishiga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: “Brokxauz va Efron ensiklopedik lug‘ati”, pivo zavodi, vino zavodi, “Dehqon” zavodi, pillakashlik fabrikasi.

Samarqand shubhasiz mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutuvchi hududlaridan biridir. Bugun Samarqand viloyatida mavjud sanoat korxonalari va bu erda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar

O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Samarqandning yaqin o‘tmishida, ya’ni sovet hokimiyati yillarini tadqiq etish jarayonida kuzatish mumkinki, sanoat korxonalarining vujudga kelishi va faoliyat boshlashiga turli yillarda kechgan tarixiy jarayonlar sabab bo‘lgan.

XX asr boshlarida Samarqandda sanoatning tarixiy ko‘rinishi sifatida quyidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tish o‘rinlidir. 1913 yilda hozirgi Samarqand viloyati hududida paxta tozalash sanoati sanoat mahsulotining 71% gacha qismini tashkil qilgan. XX asr boshlarida nashr etilgan “Brokxauz va Efron ensiklopedik lug‘ati”da Samarqand sanoatining quyidagi tavsifi berilgan:

“Shaharning “Yangi” qismida ikkita pivo zavodi, bir nechta vino zavodlari, ikkita aroq zavodi, mineral suv zavodi, tegirmonlar va hokazolar ishlaydi. Shuningdek, bu erda spirt zavodlari, ko‘nchilik va ichak fabrikalarida ko‘plab kichik hunarmandchilik va sanoat korxonalari mavjud bo‘lib, ularning mahsuldorligi, umuman olganda, sezilarli darajada. Shu bilan birga “Samarqand butun Turkistonning eng yirik vinochilik markazi” dir [4, B. 14].

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida butun O‘zbekistonda bo‘lgani kabi Samarqand viloyatida ham sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va uning mustahkamlanishi jarayoni sodir bo‘ldi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida garchi viloyatda ayrim sanoat korxonalarining barpo etilishi natijasida ishchi xodimlar salmog‘i ko‘paygan bo‘lsa-da, respublika miqyosida amalga oshirilgan “Hujum” harakati esa ko‘plab salbiy oqibatlarga olib kelgan edi. Shu va boshqa omillar tufayli, mazkur davr tarixini o‘rganish, hozirgi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalaning tadqiq etilishi O‘zbekistonning sovet davri tarixini xolisona yoritishda katta ahamiyatga egadir.

Samarqandning O‘zbekiston poytaxti sifatida e’lon qilinishi bilan sanoat sohasida o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Xuddi shu davrdan boshlab Samarqand O‘zbekiston poytaxti bo‘lganidan keyin asta sekin yirik sanoat markaziga aylandi. Xususan, 1926-1927 yillar ichida respublikada 48 ta sanoat korxonasi qurilgan bo‘lsa shulardan salmoqli qismi Samarqand hissasiga to‘g‘ri keldi. Jumladan, Samarqandda dizel elektrostansiya, «Dehqon» zavodi, pillakashlik fabrikasi, tikuvchilik va to‘qimachilik korxonalari, ikkita g‘isht zavodi, makaron fabrikasi, ko‘n zavodi, bosmaxona va yog‘och materiallari zavodi qurildi [3, B. 111]. Yuqorida nomlari keltirilgan zavod va fabrikalar asosan sovet hokimiyati iqtisodiyotiga daromad keltirgani holda mahalliy aholiga kam daromad berar edi.

Samarqanddagi 2-sonli teri-ko‘n zavodi 1926–1927 yillarda bor-yo‘g‘i 7 oy ishladi va 31000 rubl miqdorda mahsulot tayyorladi. Ishlab chiqarishga barcha vositalarni hisoblaganda 75514 rubl 44 tiyin sarflandi. 1927 yilning 1 oktyabr holati bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarishda 44514 rubl yoki jami kamomadning 59 % i qoldirildi. 2-sonli ko‘n zavodi 7 oyda barcha turdagi chiqimlarni xisoblaganda 14736 rubl 90 tiyin (shundan 17725 rubl 51 tiyin zarur chiqimlar) miqdordagi summani sarfladi [5, B. 97].

Teri-ko‘n tarmog‘ini rivojlantirish poyabzal ishlab chiqarish bilan bog‘liq. Shuning uchun 1930–1931 yillarda Samarqandda 133 ming rubllik mahsulot ishlab chiqarish uchun poyabzal zavodi qurilib, u 1931–1932 yillarda 1200 ming

dona va 1932–1933 yillarda 1300 dona poyabzal ishlab chiqarishi kerak edi [6, B. 1].

Samarqand viloyatida mahalliy sanoatda yangi korxonalar qurish, yangi qo‘y terisidan po‘stin ishlab chiqarish 1930–1931 yillarda 600 ming rubl, tikuvchilik fabrikasi 1931–1932 yillarda kapital xarajati 6500 ming rubl bilan qurish mo‘ljallangan [7, B. 83-84].

1929 yilning may oyida O‘zbekiston Sovetlarining III syezdi respublika xalq xo‘jaligini rivojlantirishning birinchi besh yilligini tasdiqladi. Bu rejada birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligini sotsialistik rekonstruksiya qilish va mexanizatsiyalashtirish, kolxoz va sovxoz qurilishini kuchaytirish, qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi rolini oshirish asosida qishloq xo‘jaligini, ayniqsa paxtachilikni rivojlantirish ko‘zda tutildi. S’ezd qarorida sanoatni rivojlantirish borasida belgilab qo‘yilgan yo‘lning umumiy vazifasi O‘zbekistonni agrar mamlakatdan agrar-industrial mamlakatga aylantirishdan iborat ekanligi belgilangan edi.

Sanoatni rivojlantirish borasida bu davrda Samarqandda bir talay ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1928-1929 yillarda mavjud korxonalarni kengaytirish va rekonstruksiya qilish hamda yangilarini qurishga 9,2 million so‘m, shu jumladan, yangi sanoat korxonalarini qurishga 2 milion 333 ming so‘m sarflandi. Birinchi besh yillikning birinchi yili «sotsialistik sanoat»ni rivojlantirishda burilish yili bo‘ldi. Shuningdek, amalga oshirilgan sinfiy kurash va xususiy mulkning davlat foydasiga musodara etilishi xususiy sektorning tugatilishiga olib keldi [3, B. 119]. Xususan, Samarqand viloyati sanoatida davlat sektorining salmog‘i 1927-1928 yillardagi 95,42 foiz o‘rniga 99,5 foizga etdi. Xususiy sektorning salmog‘i bor yo‘g‘i 0,5 foizni tashkil etdi [3, B. 119].

1939 yilga qadar bo‘lgan davrda Samarqand viloyatida 195 sanoat korxonasi va uch mingdan ortiq mayda korxona bo‘lib, ularda jami 17,3 ming ishchi ishlar edi. Barcha korxonalar 1941 yilgi narx bilan hisoblaganda yiliga 926.5 million so‘mlik sanoat maxsuloti ishlab chiqarar edi. Viloyatda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat maxsulotining 53 foizini oziq-ovqat sanoati korxonalari, 31 foizini to‘qimachilik korxonalari (shu jumladan, paxta tozalsh zavodi) berar edi. Yirik metal ishlash sanoatining tarmog‘i unchalik katta emas edi: birinchisiniki 11 foiz, ikkinchisiniki 5 foiz edi [2, B. 60].

Ikkinchi jahon urushi yillarida viloyat hududidagi sanoat korxonalarining barchasi o‘z ishlarini urush davri talabiga muvofik qayta rejalashtirdi. Sanoat korxonalarini harbiy asosda qayta qurish ishlari murakkab sharoitda olib borildi va katta kiyinchiliklarga duch keldi. Korxonalarning yangi ishlab chiqarishiga muvofiq keladigan yangi uskunalar topish yoki yasash, zavod va fabrikalarni malakali mutaxassislar bilan ta’minlab turish zaruriyati paydo bo‘lgan edi.

Urushga ketgan ishchilarning o‘rnini egallash uchun sanoat korxonalarida ishlash uchun uy-ro‘zg‘or ishidagi xotin-qizlardan 154 kishi keldi, ulardan 16 kishi tokar va selesarlik kasbini o‘rganib olib, «Kolxozchi» zavodi sexlarida mehnat qila boshladi. Samarqanddagi fabrika, zavod kurilishlarida 1941 yilning oxiriga kelganda ikki yarim mingdan ziyod ayollar-jangchilarning xotinlari

ishladilar [3, B. 207].

1941 yilning noyabr oyida Samarqandga Novosibrskdan «Krasniy dvigatel», Leningrad va Odessadan kinop aparatura zavodlari, Poltavadan trikotaj fabrikasi - jami 12 ta korxona ko‘chirib keltirildi [2, B. 61]. 1942 yilning yanvar oyiga kelib Samarqand korxonalari ishlab chiqargan dastlabki mahsulotlar - kuchli projektorlar, stvollar, granatalar, snaryadlar, o‘q-dorilar va boshqa harbiy aslahalar frontga jo‘natildi. O‘sha yili sanoat korxonalarida kam ishchi kuchi bilan ko‘p mahsulot ishlab chiqarish, topshiriqni ortig‘i bilan bajarish harakati boshlandi. 1944 yilga kelib, shahar korxonalarida 4,889 ishchi staxanovchasiga ishladi, 1885 kishi zarbdor, 112 kishi ko‘pstanokchi ishchi nomini oldi va 68 ta frontcha brigadalar faoliyat ko‘rsatdi. 296 nafar ilg‘or ishchi respublika hukumatining faxriy yorlig‘i bilan mukofotlandi [1, B. 5].

Sovet hokimiyati yillarida Respublika sanoat ishlab chiqarishida Samarqand viloyati engil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari katta o‘rinni egalladi. Respublikada ishlab chiqarilgan charm mahsulotlarining 87%, ipak xom ashyosining 16%, ipak gazlamalarning 23%, ustki kiyim trikotajining 50% dan ortig‘i XX asrning 70-yillarida Samarqand viloyati hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuni ham ta’kidlash kerakki engil sanoat korxonalaridan ko‘nchilik zavodi - mamlakatdagi eng yirik korxonalardan biri edi.

Xulosa qilganda, Sovet hokimiyati yillarida Samarqand viloyatida bir qancha sanoat korxonalari rekonstruksiya qilindi yoki yangidan ishga tushirildi. Ikkinchi jahon urushi yillarida esa viloyatga mamlakatning g‘arbiy hududlaridan ko‘chirib keltirilgan zavod va fabrikalar mahalliy mehnatkashlarning fidokorona mehnati evaziga tezkorlik bilan ishga tushirildi va front uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqardi. Ushbu korxonalar faoliyati Samarqandda nafaqat ishchi xodimlar salmog‘ining oshishiga balki, viloyat sanoat potensialining ortishiga xizmat qildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аминов Х. Иброхимов Н. Самарқанд – фронтга. Самарқанд, "Сўғднёна". 1994 - Б 5.
2. Бодиров А. Самарқанд Иккинчи жаҳон уруши йилларида., Самарқанд, Зарафшон 2015, -Б.60.
3. Самарқанд тарихи Икки томлик, Масъул муҳаррир И.М.Мўминов, Ўзбекистон ССР, Фан нашриёти, 1970, -Б.119.
4. Зиядуллаев С. К. Расцвет экономики советского Самарканда / Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1970. №9. –Б. 14.
5. Samarqand viloyat davlat arxivi. 292-fond, 1-ro‘yxat, 5-ish, 97-varaq
6. Самарқанд ВДА, 256-фонд, 1-рўйхат, 97-иш, 1-варақ.
7. O‘zbekiston markaziy davlat arxivi, R-9-fond, 1-ro‘yxat, 1318-ish, 83–84-varaqlar.

O‘ZBEKISTONDA SANOAT TIPIDAGI HUNARMANDCHILIK ARTELLARI SONINING ORTIB BORISHI VA SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHNING AHVOLI

Abdiyeva Muhayyo Anarboyevna
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Tarix Fakulteti 1- kurs magistranti.

Annotatsiya: Maqola orqali biz mustabid tuzum davrida bolsheviklarning mahalliy hunarmandchilikni va sanoatni qo‘lga olishi va uning yutuqlari va muammolarini arxiv hujjatlari va ishonchli manbalar orqali muhokama etamiz.
Kalit so‘zlar: Hunarmandchilik artellari, kosibchilik, Turkiston hunarmandchilik ittifoqi, harbiy kommunizm,sanoat korxonalari, O‘zbekiston hunarmandchilik ittifoqi" ("O‘zpromsoyuz").

Markaziy Osiyoda yashovchi barcha xalqlarda turli-tuman va keng tarqalgan badiiy-hunarmandchilik ishlab chiqarishi asrlar davomida rivojlanib takomillashib keldi. Xalqlarning ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi va o‘troq turmush ehtiyojlariga ko‘ra gilamchilik, ipak matolar ishlab chiqarish yuqori darajada bo‘lgan. Mahalliy hunarmandlar badiiy hunarmandchilik sanoatining yuqorida ko‘rsatilgan tarmoqlaridan tashqari, aholi ehtiyoji uchun badiiy-maishiy sopol buyumlar: idish-tovok, boshqa ro‘zg‘or buyumlari, shuningdek me’moriy inshootlar uchun rangli koshinlar xam tayyorlashgan. Eski usulda tayyorlanadigan bu buyumlar shaklan sodda bo‘lgani holda, ish qurollari va sharoiti oddiyligiga qaramay, o‘zining asligi, naqshlari go‘zalligi hamda bo‘yoqlarning serjiloliligi bilan ajralib turgan.

1870 yilgacha Markaziy Osiyoda hunarmandchilik ishlab chiqarishi hukmron adi. Chorizm davrida mahalliy dehkon xo‘jaliklarini jadallik bilan tovarlashtirish natijasida bir qator kosib hunarmandchilik buyumlariga ehtiyoj ortdi. 1915-1916 yillar ma’lumotiga ko‘ra, Turkiston hunarmandlari bir yilda 4 mln. dona gilam, 5 mln. bo‘lak jun gazlama, 40 mln.arshin shoyi gazlama, 1,5 mln dona charm hamda 13 mln. dona idish-tovoq chiqarishgan [1].

Xuddi shu davrda janubiy viloyatlarda xam hunarmandchilik rivojlangan edi. Masalan, Buxoro xonligining uch million aholisi bo‘lib, ulardan 300 mingi shaharlarda yashar edi, bular asosan savdo va hunarmandchilik bilan shugullanardilar.

Xonlikda savdo va hunarmandchilikning eng yirik markazlari aholisi 160 mingga yakin bulgan Eski Buxoro, Qarshi (35 ming) va Shaxrisabz (65 ming) edi. Buxoro xonligida ayniqsa ipak gazmollar ishlab chiqarish va gilam to‘qish rivojlangan edi. 1914 yilda Buxoroda 100 ming pud ipak gazmollar ishlab

chiqilgan bo‘lib, 1,5 mln so‘mni tashkil qildi; bu esa butun Markaziy Osiyoda hunarmandchilik sanoati ishlab chiqaradigan ipak to‘qimachilik mahsulotining yarmisini tashkil etar edi. 1911-yil Buxorodan Rossiyaga 100 ming so‘mlik gilam chikarilgan [2, P. 170].

Sho‘rolar hukumatining iqtisodiy sohadagi noto‘g‘ri siyosati hunarmandchilik sanoatiga ham ta’sir o‘tkazdi. Mahalliy aholi tajriba, ko‘nikmalaridan mahrum bo‘la bordi, natijada ilgari o‘lkaning iqtisodiy byudjetidan qat’iy o‘rin olib kelgan manbalardan ajralib qolish xavfi yuzaga keldi. Biroq mamlakat hukumati o‘tkazayotgan "harbiy kommunizm" siyosati har qanaqa xususiy mulkka qarshi ko‘r-ko‘rona kurashi bilan asrlar davomida vujudga kelgan hunarmandchilik ishlab chiqarishini buza olmadi, faqat yuz minglab kishilarning qashshoklanishiga olib keldi.

Sobiq sho‘ro hukumatining yuritgan notug‘ri iqtisodiy siyosatidan tashqari, fuqarolar urushidagi vayronagarchilik sanoat, transportni xam xarob qildi, savdo-sotiq to‘xtab qoldi. Paxta yog‘i va sovun ishlab chiqarish, toshko‘mir va neft qazib olish nihoyat darajada kamayib ketdi. Mamlakatning boshqa mintakalaridan g‘alla, gazlama, metall buyumlari, taxta-yog‘ochlar va boshqalar kelishi deyarli batamom to‘xtab qolganligi munosabati bilan mushkul vaziyat yuzaga keldi. Pul qadrsizlanib ketdi. Natijada hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar va xizmatlarga talab kuchaydi. Lekin yuqorida ta’kidlaganimizdek xalk xo‘jaligining ishni tashkil etish va mahsulot ishlab chiqarishda qadimgi an’analarga ega bo‘lgan shu sohasini o‘z nazorati ostida tutish yuzasidan davlatning urinishi hunarmandchilik ishlab chikarishiga yomon ta’sir ko‘rsatgan edi. Hukumatning iqtisodiyot sohasida ko‘rgan choralari samarasiz bo‘lib chiqdi va ishlab chiqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. 192I-yil ko‘klamiga kelib mamlakatning iqtisodiy munosabatlarida keskin o‘zgarishlar o‘tkazish zarurligi ravshan bo‘lib qoldi.

RKP(b) X s’ezdi (1921-yil mart)da Yangi Iqtisodiy Siyosat tizimi vujudga keldi. TASSRda Yangi Iqtisodiy Siyosat (KP)ga o‘tish Turkiston Kommunistik partiyasining UI s’ezdida (IS21 yil.11-20 avgust) siyosiy jihatdan asoslab berildi va shundan so‘ng TASSR Sovetlari X s’ezdi (1$21 yil 21-25 avgust) qarori bilan rasmiylashtirildi. Shu qarorlardan keyin xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadlarida o‘rtacha va mayda korxonalar, hammomlar, tomosha muassasalari va boshqalar ijaraga berildi. Xususiy kapital bilan aksionerlik jamiyatlari tuzishga, ishchi kuchini yollashga ruxsat berildi va xokazo.

Tadqiq qilinayotgan yillarda sobiq sho‘rolar davlatining markaziy o‘lkalaridan farqli o‘laroq, O‘zbekiston sanoati asosan ikki yo‘l bilan rivojlandi: eskilarni tiklash hamda yangi korxonalar va tarmoqlar tashkil etish. Bunda birinchi galda aholining kundalik ehtiyojlari uchun mahsulotlar ishlab chiqaradigan va qishlok xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan hamda qishlok xo‘jaligi uchun turli xil asbob-uskunalar ishlab chiqaradigan kichik va o‘rta hunarmandchilik artellarini va ularning yangidan-yangi tarmoqlarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratildi.

Haqiqatan ham sobiq sho‘ro hukumati o‘tmishda ko‘p jihatdan,xususan,

sanoat va texnika jihatdan rivojlanmagan Turkiston o‘lkasida sanoat korxonalari tashkil etish va ularni rivojlantirish borasida ma’lum bir ishlarni amalga oshirdi. Hunarmandchilikda ma’lum darajada xatto jonlanish yuz berdi. 1920 yilda Turkiston ASSR-da sanoat korxonalari ro‘yxatga olinganda xisobga olingan 13 ming 450 hunarmandchilik korxonasidan 12 ming 671 tasi ishlab turgan. Hunarmandchilik korxonalarining ishchilari, xomashyosi xamda bozori bo‘lgan. Shu boisdan tikuvchilik, misgarchilik, temirchilik, ko‘nchilik, qandolatchilik kabi korxonalar, zamonaviy fabrika-zavodlar bilan raqobati yo‘qligi tufayli, ancha taraqqiy etdi. Turkiston o‘lkasi sanoatida 1920-yili 13 ming 300 ishchi ishlagan bulsa, u hunarmaandchilik korxonalarida 150 ming kishi ishlagan [3, P. 15]. Yangi iqtisodiy siyosat asoslarini hayotga joriy etish va ayniqsa, shahar bilan qishloq o‘rtasidagi tovar almashinuvini tiklash xamda jonlantirish ehtiyojini Turkiston sharoitida hunarmandchilik sanoatini tiklash muammosiga kelib taqalardi.

Turkiston KPning XI qurultoyida (1921 yil) mayda hunarmandchilik sanoatining dehqon xo‘jaligiga ko‘maklashadigan tarmoqlarini: qishloq xo‘jaligi anjomlari hamda oddiy qishlok xo‘jalik asboblarini, mashinalarini ishlab chiqaruvchi va tuzatuvchi, shuningdek, turli xil ro‘zg‘or buyumlari va keng iste’mol mollarini ishlab chiqaruvchi soxalarni birinchi navbatda tiklash zarurligi bejiz ta’kidlanmagan edi. Shu bois qurultoyda kosib va hunarmandlar uchun ularning o‘z ishlab chiqarishini rivojlantirishdan hamda o‘z mehnati mahsulotini erkin tasarruf etishdan manfaatdorligiga muvofiq keluvchi sharoitla xo‘jaliklarni yaratishga e’tibor qaratildi. Tijoriy foydani davlat idoralari bilan xunarmandchilik sanoati urtasida uzaro munosabatlarni o‘rnatishning yetakchi qoidasi deb e’tirof etgan sobiq partiya qurultoyi ixtiyoriy negizda hunarmandchilik kooperatsiyasini tuzishni maqsadga muvofiq deb topdi [4, P. 145]. Bu bosqichda mayda Tovar ishlab chiqaruvchi - hunarmandning ijodkorona tadbirkorlik faoliyatiga yo‘l ochib berish zarurligi har tomonlama ta’kidlandi. Shu maqsadda Turkiston komunistik partiyasining UI qurultoyi qarorlarining bajarilishi uchun MIQ va Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti va Xalq xujaligi Markaziy Ittifoqi (SSNX) va uning mablag‘lari, tashabbusi bilan maxsus qaror qabul qilindi va ISI yil fevralida hunarmandchilik kooperativi Umumturkiston qurultoyi chaqiradi va qurultoyda Turkiston hunarmandchilik ittifoqi ("Turkpromsoyuz") tasdiklandi. Xususan sobiq Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining 1921-yil avgust oyida qabul qilgan qarori kosib hunarmandlarni kooperatsiyaga birlashtirish harakatini boshlab bergan edi. 1922-yil oktyabriga kelib jami kosiblarning 33840 tasi kooperatsiyaga birlashdi. Ular ishlab chiqarish belgilariga ko‘ra quyidagicha taqsimlanar edi [5, B. 351]:

1. Metallistlar - 114 artel, xodimlari soni 3130
2. To‘quvchilar- 312 artel, xodimlari soni 9236
3. Ko‘nchilar- 342 artel, xodimlar soni 745I
4. Kimyogarlar- 131 artel, xodimlari soni 2650
5. Oziq-ovqatchilar- 145 artel, xodimlari soni 3725
6. Tikuvchilar- 61 artel, xodimlari soni 1415

7. Yog‘ochsozlar- 113 artel, xodimlari soni 2179

8. Boshka turli ishlab chikaruvchilar- 113 artel, xodimlari soni 1002

Biroq iqtisodiy idoralarning guvohlik berishicha, bu birlashmalar ko‘p xollarda rasmiy jihatgagina ega bo‘lib, bu vaqtda artellarning bir qismi xonavayron bo‘lgan, ma’lum qismi esa, kiyinchilik bilan ittifoqlarga uyushayotgan edi, chunki bunday uyushish a’zolik va bay badallaridan iborat muayyan xarajatlar bilan boglik edi [6, B. 320].

Artelga birlashgan kosiblar o‘z holiga tashlab qo‘yilgan edi.Kreditga xam, aylanma mablag‘ga ham ega bo‘lmagan kosib o‘z molini tayyorlashi bilanoq sotib yuborishga majbur bo‘lardi.

Kosiblarning ko‘pchiligi, ilgarigidek, bir xilda emas edi.Ularning uch toifasi aniq ajralib turardi: bir necha ishchisi, ba’zan 10 nafargacha yollanma ishchisi bo‘lgan tadbirkor kosib tavakkaliga ish olib boradigan yakka kosib (yollanma ishchilari bo‘lmagan artellar ham ijtimoiy jixatdan mazkur toifaga kirar edi): nihoyat uchinchi toifa o‘z ish kuchini sotuvchi har qanday yollanma ishchidan hech nimasi bilan farq qilmaydigan hunarmandlardir [7].

Mayda tovar ishlab chiqaruvchi kosiblar aholining boshqa ijtimoiy guruxlari bilan qiyoslaganda, bozorga eng ko‘p darajada bog‘liq bo‘lib, bozor xodisalaridan ko‘p ozor chekerdilar. Hech qayerga uyushmagan va xech kim tomonidan boshqarilmaydigan ko‘p sonli artellar "butunlay" tavakkaliga ish olib borishar edi.

Bozordan zarur xomashyo va materiallarni tarqoqlik bilan,alohida-alohida sotib olishib, o‘z buyumlarini tavakkal, uyushqoqliksizlik bilan sotishar edi, natijada ikki yoqlama: mayda, chakana sotib olishda hamda sotishda ziyon ko‘rishardi.

Uyushmagan kosiblar ishlab chiqarishning ko‘plab tarmoqlarida qadimdan qolgan usulda ishlardilar, natijada ishlab chiqarish g‘oyat
qimmatga tushar xamda mahsulot sifatida aks etardi. Shunday bo‘lsa-da, ayrim tarmoqlarda kosib mahalliy bozorga mol yetkazib beruvchi bo‘lib qolgan edi. Dehqonlarda ko‘p ishlatiladigan ketmon kosib-hunarmandlar tomonidan yasalishini eslatib o‘tishning o‘zi yetarlidir [8].

Bunday ahvolda kosib bilan iste’molchi o‘rtasida qudratli olib-sotar paydo bo‘lishi muqarrardir. Olib sotarga bog‘lik bo‘lgan tomonlar: birinchidan, kosiblarning asosiy qismida aylanma kapitalning yetishmasligi, ba’zan esa butunlay yo‘qligi; ikkinchidan, zarur ishlab chiqarish qurollarini, xomashyoni, yarim tayyor buyumlarni topish qiyinligi, ularning qimmatligi bo‘lsa; uchinchidan, ishlab chiqarish qurollarining tarqoqligi va oddiyligi: va nihoyat to‘rtinchidan, kosiblarni ijtimoiy va huquqiy himoya qiluvchi biron-bir uyushmaning yo‘qligi. Kosiblarning ish haqini 1925-yilda haftasiga 3 so‘mdan 3 so‘mga qadar kamaytira olgan olib-sotarlar bu vaziyatdan juda yaxshi foydalangandilar [9].

Xususiy tadbirkorlar, birinchi navbatda, kosiblar vaziyatdan omon chiqish uchun ayyorlik qilishga, matlubot kooperativlari orqali yoki do‘kondan iste’molchi sifatida tovar olishga majbur bo‘lardi. Shu tariqa, kosibning ishlab

chiqarishi uchun zarur bo‘lgan minufaktura uning qo‘liga kam miqdorda, oz-ozdan, ancha moliyaviy chiqim bilan kirardi. Xususiy soha tovar, xom ashyoni yashirin yo‘l bilan topar ekan, unga ancha yuqori bahoda xaq to‘lar ekan, tabiiyki, o‘z mahsulotlarining narxini oshira borardi. Bundan iste’molchi azob chekar, butun savdo tizimi zarba yer edi.

Iqtisodiyotning barcha sohalarida, eng avvalo, tovar tayyorlovchi, xomashyo soxasida xususiy vositachilarni surib chiqarish bo‘yicha kurash avj olib ketdi. Bu kurash bir tarmoqli tovar tayyorlovchilarni bir xil holga keltirish, yagona qilib birlashtirish orqali olib borildi [10].

Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining ikkinchi plenimi (1924 yil) qarorida ta’kidlanganidek, "xom ashyo bozorida davlat savdosi oldida turgan umumiy vazifa - bozorni iloji boricha to‘la qamrab olish va xomashyo xo‘jalishini undan 100 foiz ajratib olishdan iborat. Bu ... mahalliy fabrika va hunarmandchilik sanoati ehtiyojlariga sarflanadigan xomashyoga taalluqlidir [11].

Amalda butun tadbirkorlik faoliyatini siquvga olish, uni "davlat tasarrufiga o‘tkazish" bo‘yicha barcha siyosiy vositalar o‘shandayoq yaratilgan edi: partiya viloyat va uyezd qo‘mitalari huzurida "kooperativ kengash" deb atalmish kengashlar tuzildi. Partiya shu kengashlar orqali rivojlanib borayotgan tadbirkorlikka rahbarlik qilish va uni nazorat etishga qaror qilgandi. Uslubiy maqolalardan birida "kengashning ishini partiya kooperatsiyalar oldiga qo‘yiladigan masalalarni ishlab chiqishdan kelib chiqib ko‘rish lozim"... Kengashlar kooperatsiyaning doimiy xodimlari uchun raxbarlik qiluvchi va nazorat etuvchi vosita bo‘lishi darkor. Ularning ma’ruzalarini muntazam tinglab turish, kooperatsiya ayrim turlarining istiqbol ish rejalari va direktivalarining bajarilishini tekshirish zarur",-deb ta’kidlandi [12].

Tadqiq qilinayotgan yillarda butun respublikada bo‘lgani singari, janubiy viloyatlarda xam hunarmandchilik iqtisodiyotda muhim o‘rin tutar edi.

Ammo butun Turkistonda, jumladan janubiy viloyatlarda mayda va o‘rta hunarmandlar aholining kundalik ehtiyoji va qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalarning katta miqdorini yetkazib be-rishiga qaramasdan uni har tomonlama, xususan iqtisodiy yordam berish talab darajasida emas edi. Masalan.. 1922 yilda Buxoro Xalq Sovet Respublikasida 43 foiz oziq-ovqat maxsulotlari mayda va o‘rta hunarmandchilik korxonalarida ishlab chiqarilgan [13, B. 5].

Bu davrning eng katta fojiasi hali katta mablag‘, ishchi kuchi talab etadigan yangidan vujudga kelayotgan davlat sho‘basiga katta mablag‘ sarflangani holda, asrlar davomida shakllangan hunarmandchilikka kam mablag‘ sarflandi. Masalan, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tomonidan hunarmandchilikni qullab-quvvatlash uchun 100-200 ming so‘m atrofida mablag‘ ajratilishi fikrimiz isbotidir.

O‘zbekiston SSR tuzilganidan (1925 yil fevralida) so‘ng kosib va hunarmandlarni kooperatsiyalash sur’ati birmuncha ortdi.

Rahbar tashkilotlar xunarmandchilik sanoatining respublika iq-tisodiy balansidagi ahamiyatini xisobga olib, uni tiklash bo‘yicha jiddiy qadamlar tashlay

boshladilar.

O‘zbekiston Kommunistik partiyasining I kurultoyida (1925 yil 6-12 fevralda Buxoroda) hunarmandchilik sanoatiga arzon qarz berish homashyo bilan ta’minlash va maxsulot sotishda yordam kursatishni tashkil qilish orqali davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash zarurligi e’tirof etildi. O‘zbekiston Kommunistik partiyasining P-qurultoyida (1826 yil, 22-30 noyabr Samarqandda) qurultoy qarorining "Koperativ qurilish tugrisida"gi maxsus bo‘limi respublikada kosib hunarmandchilik kooperatsiyasini rivojlantirish dasturidan iborat edi. Bu dastur kooperatsiyaning vazifasini, uning davlat bilan o‘zaro munosabatlari masalalarini, qarz berish va soliq solish qoidalarini anik belgilab bergandi.

Aslida bu yillarda davlat partiya tashkilotlarining homiylik siyosati kosibchilik ishlab chiqarishini, bozorni va bozor munosabatlarini ko‘zlab ish olib borayotgan, mayda tovar ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi va bu soxaga 2 mln. so‘m ajratish rejalashtirildi. Davlat hunarmandchilik sanoatiga oyoqqa turishda yordam berar ekan, bir qator iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy masalalarni ko‘p jihatdan hal qildi. Birinchidan, aholining ko‘pchiligi ehtiyojini tez va samarali qondira oladigan ishlab chiqarish sohasi qo‘llab-quvvatlangandi. Ikkinchidan, davlat yangi tarmoq yaratmay, balki eskisini rivojlantirishga ko‘maklashgandi, uchinchidan, yangi iqtisodiy siyosat yillarida kosiblarga nisbatan tutgan siyosati yakka mexnat qiluvchilarmi yoki jamoa birlashmalarimi - bundan qat’iy nazar mustaqil xo‘jalik sub’ektlarini tuzishga qaratilgandi. To‘rtinchidan, davlat kosiblarni homashyo va yarim tayyor mahsulotlar bilan davlat hamda kooperativ tashkiloti orqali ta’minlab, mayda tovar ishlab chiqaruvchilar - kosiblar manfaati yo‘lida ish tutib, olib sotarlarga zarba bergandi, ayni mahalda buni zo‘ravonlik yo‘li bilan emas, balki butunlay iqtisodiy boshqarish vositalari yordamida olib borgan edi.

Sobiq sho‘rolar davlati qanday siyosat olib borishidan qat’iy nazar, hunarmandchilik taraqqiyotida yangi davr boshlandi.

O‘zbekistonda 1525-yil 4-oktyabrda Hunarmandchilik kooperatsi-yasi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda "O‘zbekiston hunarmandchilik ittifoqi" ("O‘zpromsoyuz") va mexnat kooperatsiyasini tasdiqlash haqida qaror qabul qilindi. Shu qaror asosida 1925-yil 5-dekabrdan boshlab, Respublikamizda mustaqil hunarmandchilik markazi faoliyat yurita boshladi.

O‘zbekiston hunarmandchilik kooperatsiyasida 1-oktyabrga qadar hunarmandchilik artellari 283-tani tashkil qilgan bulsa, hunarmandchilik ittifoqi tashkil topgach hunarmandchilik artellari soni ham o‘sib bordi. 1926-yilda hunarmandchilik artellari soni 341 tani, 1927 yilda - 336 tani, 1928 yilga kelib esa 415tani tashkil qildi. O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiritilgan Buxoro viloyatida ham 1925-yildan boshlab hunarmandlarni hunarmandchilik artellariga jalb qilish harakati boshlandi. Natijada 1925-yildan boshlab nafaqat hunarmandchilik artellari soni ortib bordi, balki ularning ishlab chiqargan mahsulotlarining turlari ham kupayib bordi. Masalan, 1925 yilning 1-martida Buxoroda "Qizil Nakliyot" nomli ot-arava transporti (99ta a’zo), 6-martda "Po‘lat" nomli metall buyumlar ishlab chiqaradigan (100), 31-martda "Quvvat"

nomli to‘qimachilik (80), 8 aprelda "Xurshid" nomli oziq-ovqat (216), 1-iyulda "Yulduz" nomli ko‘nchilik (171). 2- iyulda "Anovim" nomli vino ishlab chiqaradigan (15), 21-avgustda "Ozod" nomli qurilish (41), 20-oktyabrda "Duruzgar" nomli duradgorlar (47), G‘ijduvonda 1925-yil 2-fevralda "Hayot" nomli duradgorlar (57), 15-mayda "Mukamil" nomli transport (80), 15 dekabrda "Qizil Cho‘kich" nomli metallchilar (117) artellari, 1926-yil I martda Buxoroda "Krasnaya jenshina" nomli tikuvchilik (78), 22 sentyabrda "Progress" nomli tikuvchilar (7), 1926-yil 2-fevralda G‘ijduvonda "Qizil Sharq" nomli ko‘nchilik (174), 20-martda "Najod" nomli to‘qimachilik (107). 2-mayda "Lazzat" nomli oziq-ovqat (140), 1926-yil 22-iyulda Yangi Buxoro shahrida "Mexnatkash" nomli transport (47), 15-martda Vobkentda "Maqsad" nomli transport artellari (jami - 18ta artellar) tashkil qilindi. Bu artellarda 1925-26 yillarda 1303 o‘zbek, 37 rus, 40 tatar, 4 tojik. 42 fors va 33 nafar boshqa millat vakillari mehnat qildilar.

Buxoro hunarmandchilik ittifoqi 1926-27-yillarda jami 289771 ming so‘mlik xomashyo va yarim fabrikatlarni sotib olib, shu yillarda ana shu xomashyolarni qayta ishlab, o‘zlarining tayyorlagan mahsulotlarini O‘zbekiston hunarmandchilik ittifoqiga - 11529 ming so‘mlik, kooperativ tashkilotlarga - 971 ming so‘mlik, davlat tash-kilotlariga - 42474 ming so‘mlik va boshqa tashkilotlarga, jami 54974 ming so‘mlik sotishga erishdi.

Davlat hunarmandchilik sanoatini qullab-quvvatlash uchun moddiy manbalar ajratish, soliqni kamaytirishga va boshqalarga tayyor bo‘lib-gina qolmay, balki ma’lum darajada tadbirkorlik ham qildi. Masalan, 1927-yil Buxoro viloyatida hunarmandlarni kengroq jalb qilish maqsadida 25 ming so‘mlik uzoq muddatli kreditlarning ajratilishi ham fikrimizning dalilidir. 1927-yil oktyabriga kelib Buxoro viloyatida hunarmandlar soni 3898 kishini, 1928 yil 1-oktyabriga kelib esa 19 ta hunarmandchilik (shulardan to‘rttasi ayollar) artellarida 1836 kishiga (1928-yilga kelib hunarmandlar sonining keskin kamayib ketishga sabab, Buxoro viloyati hunarmandchilik arttellarida tozalash ishlari o‘tkazilgan edi) yetdi.

Shunday qilib, O‘zbekiston hunarmandchilik ittifoqida 1927-yil 1-oktyabrigacha hunarmandlar soni 16334 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, I928 yil 1-oktyabriga kelib esa 21660 nafar hunarmandlarni birlashtirdi yoki bu ko‘rsatkich 1927-yilga nisbatan 1928-yilda 33-34 foizga o‘sdi [14]. 1929 yil 31 avgustda Uzbekiston Respublikasi hukumati qabul qilgan qarorda "Hunarmandchilik sanoati ahvolining yaxshilanishi va uning faoliyatini yuqori darajaga ko‘tarish, hunarmandlarga kamyob mahsulotlarii o‘z vaktida yetkazib berish va 1929-1930 yillarda O‘zbekistonda hunarmandchilikni kooperatsiyalashtirishni 36 foizgacha qamrab olish vazifasi" qo‘yildi [14, B. 33]. Shunga asosan 1930-yilda Buxoro viloyatida 2467 hunarmand kosiblar 20ta hunarmandchilik artellariga birlashdilar. Bu artellarda 20dan ortiq turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, aholining sanoat mahsulotlariga bulgan talabini mahalliy xomashyolarni qayta ishlash xisobiga qondirish ishlari amalga oshirildi.

Tadqiq qilinayotgan yillarda Surxondaryo viloyatida ham ma’lum bir ishlar amalga oshirildi. Surxondaryoda hunarmandlarni artellarga jalb qilish harakati

asosan 1926-yildan boshlandi.

1926- yil 27-martida Sherobodda "Qizil oftob", 29-martda "Qizil Yulduz" nomli ko‘nchilik, 18-martda "Qizil Bosqon" nomli metall buyumlari ishlab chiqaradigan, 30-mart kuni "Qizil maktab" nomli to‘qimachilik, 16-iyunda "Alimboyev" nomli transport artellari, Termizda 1926-yil 5 aprelda "Kojevnik", "Xurshid" nomli ko‘nchilik, qurilish, 27 aprelda "Lenin" nomli transport. 2-mayda "Krasniy Stroitel" nomli qurilish, "Krasnie janshinы Vostoka" nomli qurilish artellari tashkil qilindi.

Xuddi shu davrda Qashqadaryo okrugida 43ta a’zosi bo‘lgan "Ti-murun mayda sanoat" nomli mayda qishlok xo‘jalik asboblari va uy ro‘zgor buyumlari ishlab chiqaradigan, metall asboblar tayyorlash hu-narmandchilik arteli, 66ta a’zosi bulgan "Bufandalyar" nomli jiyaksiz mato, rumollar, namat ishlab chiqaradigan, 9ta a’zosi bo‘lgan "Aravakashlarning birinchi mehnat arteli" nomli yuk tashish. 84 a’zosi bo‘lgan mahalliy tipdagi teri va poyafzal ishlab chiqarish hunarmandchilik artellari tashkil qilindi.

1926-yilda "Dilkusho", "Svet" nomli transport, "Iskra" nomli tikuvchilik, "Najot" nomli temirchilik, "Ittifoq" nomli non pishirish, "Saodat" nomli to‘qimachilik artellari mavjud hunarmandchilik artellari safiga qo‘shildi.

1926-1927 yillarda Respublika hunarmandchilik sanoati 136700 ming so‘mlik, tsenz buyicha esa 62800 ming so‘mlik mahsulot ishlab chiqardi. Bu jami yalpi mahsulotning 63,3 foizini tashkil etardi.

1926-1927 yillarda Qashqadaryo okrugida 8 mln so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Surxondaryo okrugida esa 2072 ming so‘mlik maxsulot ishlab chiqarildi, shuning 78,9 ming foizi hunar-mandchilik sanoati hissasiga to‘g‘ri keldi [14, B. 86]. Buxoro viloyatida bu davrda hunarmandchilik sanoati Qashqadaryo va Surxondaryoga nisbatan ancha yuqori darajada ekanligini quyidagi dalillardan ham bilishimiz mumkin. 1926-1927 yillarda hunarmand-chilik sanoatida 9050 ming so‘mlik maxsulot ishlab chiqarilgan [15, B. 42].

Ushbu raqamlar tahlili bu yillarda hunarmandchilik sanoati ustunlik qilganidan dalolat beradi. Biroq shuni ta’kidlash zarurki, davlat uz xomiyligini noizchil amalga oshirdi, hunarmandchilik sanoatining rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan, keyinchalik esa boshqa omillar bilan bir qatorda yangi iqtisodiy siyosatning to‘la yemirilishiga "madad" bo‘lgan xodisalar xam yuz berdi.

Hunarmandchilik sanoati birmuncha oyoqqa turib olgach, davlat korxonalari bilan ham maxsulot sotish bozori uchun, xomashyo eng avvalo, paxta, kun, ipak, metall uchun raqobat kurashi olib bora boshladi. Davlat bunga juda jiddiy munosabatda bo‘ldi, o‘z faoliyati sohasini o‘zgartirishga hozirlik bildirgan hunarmandchilik kor-xonalariga qarz ancha yengil shartlar bilan berildi, xomashyo esa past narxda sotildi. Maxsulotini davlatga ulgurji topshirgan jamoalar xodimlari ijtimoiy makomiga ko‘ra tovar va xizmatlar bilan ta’minlanishda ham, oliy o‘quv yurtlari va texnikumlarga kirishda ham, sanoat ishchilariga tenglashtirildi.

Davlat bilan bunday sherikchilik kilishdan voz kechgan hunar-mandchilik korxonalari esa xomashyo va ajratilgan mablag‘dan mahrum etildi. Davlat ishlab

chiqarilayotgan mahsulot sifati bilan raqobat qilish orqaligina emas, balki eng malakali xodimlarga davlat korxonalarida manfaatli ish berish bilan ham ularga qarshi kurashdi.

Bu ma’lum ma’noda, hunarmandchilik sanoatini ijtimoiy ishlab chiqarishdan surib chiqarish ham edi. Biroq bu hunarmandchilik sanoa-tining rivojlanishiga to‘sik bo‘lgan boshqa omillar oldida hech gap bo‘lmay qoldi: davlatning olib sotarlarga qarshi kurashi barcha mayda xususiy tovar ishlab chiqaruvchilarning axvolini g‘oyat og‘irlashtirib yubordi: partiya va davlat idoralari mayda tovar ishlab chiqa-ruvchilarning barcha kooperativ uyushmalari ustidan qattik nazorat o‘rnatishga harakat qildi, bu esa shahar sharoitida butun tadbirkorlik faoliyatini "davlat tasarrufiga olish"ni bildiradi.

Bu dalillarning bari kosibda ertangi kunga ishonchi so‘ndirib qo‘ydi: hokimiyatning davlat sanoatini "nosog‘lom raqobat"dan himoyalashga intilishi oqibat natijada kosibking faoliyatini cheklab, uni mustaqil ishlab chiqaruvchi sifatida davlatga bog‘lik qilib quydi. Agar yangi iqtisodiy siyosatning ba’zi alamli noizchilligi va xatto ikki yoqlamaligining ko‘rinishi bo‘lgan bo‘lsa, 1920 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab davlatning hunarmandchilik sanoatiga nisbatan tutgan siyosatining moxiyati o‘zgarishi tufayli yuzaki kelgan tamoyil kuchiga ega bo‘la boshladi.

Bu hol uni davlat tasarrufiga olish qo‘liga o‘tila boshlaganida o‘z aksini topdiki, bu yo‘l O‘zbekiston Komunistik partiyasi 3-qurultoyining "O‘zbekiston SSR xalk xo‘jaligini rivojlantirishning besh yillik rejasini tuzish bo‘yicha ko‘rsatmalar to‘g‘risida" qarorida (1927 yil noyabr) rasmiy ravishda mustahkamladi. Iqtisodiy tuzilmaviy siyosatiga davlat sanoatini bozorda raqobatdan muhofaza qilish g‘oyasi asos bo‘ldi va shunga muvofik ravishda, davlatning hunarmandchik sanoatiga nisbatan tutgan mavqeyi, unda davlat sanoati bilan raqobatlashuvchi va raqobatlashmaydigan tarmoqlarini ajratish va ularni rivojlantirish istiqbollari aniqlandi.

Hunarmandchilik sanoatining raqobatlashuvchi tarmoqlari ustidan "bu tarmollarning ahvoli yuqori nuqtasiga yetdi va ular to‘la vayron bo‘lishi mumkin", - degan yagona hukm chiqarildi. Raqobatlash-maydigan tarmoqlarga kelganda esa, ularning rivojlayushini ishlab chiqarish kooperatsiyalashuvi, xomashyo bilan davlat tomonidan ta’minlanish, mahsulotni foyda bilan sotish, ishlab chiqarishni asta-sekin mexanizatsiyalash, imtiyozlar berish kabi va hokazo iqtisodiy rag‘batlantirish vositalaridan foydalanish yo‘li bilan davlat tomonidan boshqarish kuchaya boshlagani ko‘zga tashlandi. Hunarmandchilik sanatining bir qator yetakchi tarmoqlariga nisbatan bunlay boshqaruvni qattiq qo‘llash rejalashtirilgandi: "davlat sanoatining ishlab chiqarish jarayoniga hunarmandchilik sanoatining maxsus (ipakchilik, to‘qimachilik va xokazo) tarmoqlarini rejali ravishda qo‘shib borish. Sanoatning mazkur tarmoqlariga to‘qimachilik va ipakchilik sanoati buyumlarini ishlab chiqarish umumiy tizimi ichida xom ashyoni qayta ishlash bo‘yicha ayrim jarayonlarni yuklash yo‘li bilan ularni davlat sa-noatining ishlab chiqarish jarayoni umumiy tizimiga qo‘shib yuborish ularni qovushtirishning maqsadga eng muvofiq shaklidir.

1927-yil oxiri – 1928-yil boshlariga kelib hunarmandchilik sanoatini davlat tasarrufiga o‘tkazish mexanizmi: davlat rejalashtirish, davlat boshqaruvi, ishlab chiqarish kooperatsiyalashuvi va hokazolar kosiblarni bozor munosabatlariga yo‘nalgan mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi sifatida respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidan asta-sekin chetlashtirishga qaratilgandi.

Oxir-oqibatda gap bozor munosabatlarini toraytirish, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish jarayonlarini to‘xtatish haqidagina emas,balki xalk xo‘jaligining an’anaviy soxasini buzish xaqida ham borgandi. Hunarmandchilik sanoatini davlat tasarrufiga o‘tkazish siyo-satining salbiy oqibatlari tez orada ko‘zga tashlana boshladi.

1929-yilga kelib hunarmandchilik sanoati umumiy sanoat ishlab chiqarishdagi muxim o‘rinni saqlab turgan bulsa-da, uning salmog‘i asta-sekin kamaya borgandi.

Hunarmandchilik sanoatini tarmoq nuqtai nazaridan ko‘rib chiqar ekanmiz, 1928-1929-yillarda kiyim-kechak ishlab chiqarishning salmog‘i eng katta (32,4 foiz), paxtani qayta ishlash (14,7 foiz). ko‘n-mo‘yna (10,1 foiz), ipakka ishlov berish (7,94 foiz) hamda metallga ishlov berish (6,1 foiz) tarmoqlariga to‘g‘ri keladi. Bu tarmoqlarning deyarli barchasida 1928-1929-yillarda 1927-28 yillarga nisbatan yalpi mahsulot kamaydi. Chunonchi kiyim-kechak chiqarish 1,8 foiz, oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqarish 1,8 foiz, paxtani qayta ishlash 0,7 foiz va ko‘n-mo‘ynachilik 11,9 foiz kamaydi.

20-yillar oxirlariga kelib butun Respublikada bo‘lgani singari, janubiy viloyatlarda ham hunarmandchilik sanoati orqaga keta boshladi. Buni Qashqadaryo okrugi misolida ham ko‘rishimiz mumkin: 1930-yil okrugdagi mavjud 4ta hunarmandchilik artellari mu’tadil faoliyat yuritmadi. Buning sabablari: birinchidan, hunarmandchilik artellarida zarur xom ashyolarning yetarli emasligi; ikkinchidan, yuqori tashkilotlarning ko‘rsatma va qarorlari asosida hunarmandlar tomonidan ishlab chiqariladigan ba’zi bir mahsulot turlari asta-sekinlik bilan kamaya boshladi. Yuqoridagi sabablardan tashkari 30-yillarda sanoatlashtirish siyosati natijasida O‘zbekistonda ham yangidan-yangi sanoat korxonalari barpo etila boshlandi. Bu davrda O‘zbekistonda qurilgan sanoat korxonalarining to‘qson foizi yengil va oziq-ovqat korxonalari bo‘lib, bu korxonalar asosan hunarmandlar ishlab chiqaradigan mahsulotlar ishlab chiqara boshladi.

Shunday bo‘lishiga qaramasdan, O‘zbekiston hunarmandchilik kooperatsiyasi birinchi besh yillik davrida yetarlicha o‘sdi va mustahkamlandi. 1932-yilda O‘zbekiston hunarmandchilik kooperatsiyasi mahsulotining solishtirma og‘irligi Respublika sanoati umumiy mahsulotning 47,3 foizini tashkil qildi. Birinchi besh yillik yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston hunarmandchilik kooperatsiyasi quyidagicha yakunlandi: hunarmandchilik artellari soni 1925-yil I oktabriga kelib, 283tani tashkil qilgan bulsa, 1928-yil 1-oktyabriga kelib 415 tani, 1933-yil 1-yanvarigacha kelib esa 495tani tashkil qildi. Yalpi maxsulot ishlab chiqarish esa I928-yildagi 39,6 mln so‘mdan, 1932-yilga kelib esa 175,2 mln sumga, keng iste’mol mollarining qiymati 109,2 mln so‘mni yoki umumiy

maxsulotning 62,3 foizini tashkil qildi.

Birinchi besh yillikning boshida hunarmandchilik kooperatsiyasida sanoat fondi 429,3 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 1932-yilga kelib, 9073,4 ming so‘mga yoki 212 foizga o‘sdi. O‘zbekiston SSRda sanoat korxonalari qurilishiga birinchi besh yillikda 233 mln so‘m ikkinchi besh yillikda esa 1.085 mln so‘m sarflandi. Buning natijasida agrar bo‘lgan respublika agrar-industrial respublikaga aylana boshladi. Agar 1913-yilda O‘zbekiston sanoati mahsuloti 32,6 foizni tashkil qilgan bulsa, 1933 yilga kelib esa sanoat mahsulotlarining solishtirma og‘irligi 67,1 foizni tashkil qildi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hunarmandchilik kooperatsiyasi tarmoqlarida hukumat qarorlarini va besh yillik rejalarini bajarish uchun katta mas’uliyat yuklandi. Shunday qilib, hunarmandchilik kooperatsiyasi tashkiliy tuzilishda asosiy ishchan bo‘g‘in bo‘lgan, umumiy ustaxonalari bo‘lgan, ishlab chiqarish hunarmandchilik artellari bo‘lib qoldi. Kosiblar va hunarmandlarning birgalikdagi mehnati, ishlab chiqarish jarayoni ustidan yagona rahbarlik, tashkiliy va texnik rahbarlik qilishni yaxshilash, ishlab chiqarish vazifalari va umumiy qiziqishlarini yagona jamoa umumiy mexnat faoliyati bilan bog‘langan edi.Yuqoridagi hunarmandchilik kooperatsiyasining tashkiliy tuzilishi 1960 yil-gacha hunarmandchilik kooperatsiyasi tugatilgunga qadar o‘zgarmasdan qolaverdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kustari. Izvestiya (Tashkent) – 1922 y.
2. O‘zbekiston SSR tarixi, P-tom. T.: O‘zFA, 1958
3. Karimov R. "O‘zbekiston sotsial-iqtisodiy taraqqiyoti tarixidan". - T.: Fan, 1931.
4. Komunisticheskaya partiya Turkestana v rezolyutsiyax s’ezdov i konferensiy.
5. . UzR MDA, 25-fond, 1-ro‘yxat.
6. Otchet o deyatelnosti SNK i ES Turkestanskoy Respubliki na I oktyabrya 1922 g. - T.- 1922.
7. Mamayev A. Novie zadachi soyuzov i kustarey. Izvestiya. (Tashkent) - 1922 - 18 iyul.
8. Litsom k kustaryu. Pravda Vostoka - 1925 - 17 avgust.
9. Suprikov. V poryadok dnya. Kustarnaya promishlennost Fergani. Pravda Vostoka - 1520 - 25 sentabr.
10. Nejelskiy A. Unifikatsiya i zadacha kooperatsii. Turkestanskaya Pravda.- 1924 - 28 iyul.
11. Postanovleniye vtorogo rasshirennogo Plenuma Turk.SK Turkestanskaya Pravda.- 1924.
12. Lapin A. Rukovoditel i kontrolirovat. (O rabote kooperativnых soveщaniy). Turkestanskaya pravda-1924 - 22 iyul.
13. Nomozov D.N., Saakov V.G. Industrialnoye razvitiye Buxarskoy oblasti za godi Sovetskoy vlasti. T.: Fan, 1974.
14. Qashqadaryo viloyati davlat arxivi, 83-fond, 1-ro‘yxat..

15. Prezident devoni arxivning Surxondaryo viloyati filiali 18-fond, 1-ro‘yxat.

O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY SHAHARLAR MASALASINI O‘RGANISHNING AYRIM METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Xaydarov Dilshod Ochilovich
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi assistenti, PhD

Annotatsiya: Maqolada turli xil adabiyotlar asosida zamonaviy shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganishning muayyan uslubiy yondashuvlari bilan bog'liq masalalar tahlil qilinadi. Xususan, muallif bu masalada fanlararo yundashuvga alohida e`tiubor beradi
Kalit so'zlar: shahar, metodologiya, fanlararo yondashuv, tasnif, tipologiya, geoshaharshunoslik, shahar posyolkalari, iqtisodiy rayonlashtirish.

O‘zbekistonda tarix fanining zamonaviy rivojlanish bosqichi fanlararo metodidan keng miqyosda foydalanishni talab etmoqda. Ayniqsa bu holat yangi va eng yangi tarixning barcha jabhalariga daxldordir. Fanlararo usul bir tomondan, zamonaviy tarixning ochilmagan qirralari, ko‘pchilikka ma’lum bo‘lmagan jihatlarini har tomonlama o‘rganishda yordam bersa, ikkinchi tomondan, O‘zbekiston tarixini jahon yoki regional jarayonlar bilan uyg’unlikda tadqiq etish imkonini beradi.

XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab XXI asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, shu jumladan, shaharlar tarixini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar, birinchi navbatda, turli fanlar (tarix, iqtisod, sosiologiya, siyosatshunoslik, geografiya, demografiya va boshqa fanlar) birikmasi asosida olib borilishi zarurligini davr taqozo etmoqda. Insoniyat tarixida aynan shu vaqt oralig‘i yangi industrial jamiyatni yuqori nuqtasiga yetgan davr hisoblanadi, taraqqiy etgan davlatlarda esa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab postindustrial jamiyat o‘tish boshlandi. Rivojlanayotgan davlatlar safidan o‘rin olgan O‘zbekistonda industrial jamiyatga o‘tish kechroq boshlandi. Shuni hisobga olib, ushbu davrda yuz bergan tarixiy jarayonlarni, jumladan, respublika shaharlaridagi iqtisodiy-ijtimoiy transformasiyalarni chuqur va har tomonlama tahlil etish imkoni yuzaga keladi.

Fanlararo yondashuvni talab etadigan dolzarb masalalardan biri bu shaharlar tarixi mavzusi, xususan, sanoat shaharlarining shakllanish va rivojlanish tarixidir. Mavjud adabiyotlar shundan dalolat beradiki, ushbu mavzu asosan geograflar, iqtisodchilar va tarixchilar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda.

Shuni qayd etish zarurki, shaharlar mavzusiga oid tarixchi olimlar tomonidan yaratilgan bir qancha ilmiy tadqiqotlar, birinchidan, sanoat shaharlari mavzusini tadqiqot obyekti sifatida alohida tadqiq qilmagan, ikkinchidan esa,

ularda narrativ yondashuv ruhiyati ustun kelib, turli fanlar birikmasi asosida tahlil etilmagan. Tadqiqotchilar shaharlar tarixini kompleks olib, empirik umumlashmalar, tarixiy faktlar asosida yoritgan. Bu izlanishlarda asosan qisqa tarixiy davr ichida to‘plangan ijobiy tajribalar o‘z aksini topgan[4]. Shu jihatdan olib qaraganda, qayd etilgan ishlar ko’ra ko‘p hollarda zamonaviy talablarga javob bermaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, tadqiqotimizda qo‘yilgan maqsad va vazifalardan, obyekt va predmetidan kelib chiqib, tadqiq usullari bilan bog‘liq bo‘lgan qator masalalarning nazariy jihatlariga to‘xtalib o‘tish zarurdir.

Hozirgi zamon fanlari tizimida bevosita aholi hamda aholi punklari (xususan, shaharlar) va u bilan bog‘liq masalalarni o’rganishda zamonaviy iqtisodiy va sosial geografiya va ularning asosida shakllangan geourbanistika aloxida o‘rin tutadi. Shuning uchun ushbu fan doirasidagi nazariy tushuncha va qarashlar tadqiqotga metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi tabiiy.

Ilmiy adabiyot va tadqiqotlarda shahar tushunchasining talqini turli xil bo‘lib, bu to‘g‘risida yakdil bir to‘xtamga kelinmaganligini, shaharlar keng tarqalganligi va “shahar” tushunchasining odatiy holga aylanganligiga qaramasdan, jahonda bu tushunchaga mukammmal ta’rif beruvchi umume’tirof etilgan mezon yo‘qligini ko‘rish mumkin. Shuni hisobga olib, geograf va iqtisodchi mutaxisislar tomonidan tuzilgan “Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya: tushuncha va terminlar” nomli lug‘atda zamonaviy talablardan kelib chiqib berilgan ta’rif optimal deb hisoblaymiz. Unda, shahar – mamlakat qonunchiligi tomonidan shaharlar turkumiga kiruvchi, shahar yuridik maqomiga ega bo‘lgan aholi punktiga nisbatan aytiladi, deb ta’kidlangan [5. Gorkin 2013: 73].

Odatda, shaharlar (qishloq aholi punktlariga nisbatan) aholi soni ko‘pligi va zichligiga, hamda aholining noagrar sohalarda bandligi, turar joy qurilmalarning tipi (aksar holda ko‘p qavatli binolar), hayot tarzi bilan ajralib turadi. Keng tarqalgan mezon sifatida aholi soni qabul qilingan (aholi sonining eng kam chegarasi – 1 dan 2,5 ming kishi) [5. Gorkin 2013: 73].

Shaharlar mavzusini o‘rganishda bilishning fundamental usullaridan biri hisoblangan, shu jumladan, ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida, geografiya fanida ham keng tarqalgan qiyosiy tahlil usuli muhim rol o‘ynadi. Sababi, qayd etilgan fanlar doirasidagi tadqiqotlarida tajriba usuli o‘ta cheklangandir. Shuni hisobga olib, Zarafshon iqtisodiy rayoni shaharlarining mustaqillik davri tarixini o‘rganishda biz hudud ko‘rsatkichlarini boshqa rayonlar, respublika miqyosi va zaruratga qarab jahon tajribasi bilan qiyoslagan holda o‘rganishga harakat qildik.

Geourbanistikada keng tarqalgan usullardan biri bu tipologik usuldir. Tipologiya – bu asosiy xususiyatlarini aniqlash orqali murakkab obyektlarni o‘rganish usulidir. Shaharlarni o’rganishda shaharlar tipologiyasi usuli muhimdir, chunki shaharlar tipologiyasi biron bir shaharni boshqa shaharlar qatoridagi o‘rnini aniqlash imkonini beradi. Xullas, shahar tipi – bu qisqa, o‘ta ixchamlashgan shakldagi tasnif, o‘ziga yarasha formuladir. Chunki, shahar – obyekt sifatida barchaga xos bo‘lgan holat va individual jihatlar qorishmasi dir [3. Lappo 1997: 39-40].

Shaharlarning klassifikasiya usuli bu tipologiyaning debochasi (ostonasi) hisoblanadi. Chunki shahar klassifikasiyasi faqat bir belgini inobatga oladi (masalan, aholi soni), tipologiya esa – shaharlarni turi bo‘yicha taqsimoti – belgilar birikmasiga tayanadi. Boshqacha aytganda, klassifikasiyaning oliy bosqichidir [3. Lappo 1997: 40-41].

Geourbanistikada shaharlar tipologiyasining bir necha turi ishlab chiqilgan va amaliyotda qo‘llanilgan. Muhimi shundaki, shaharlar tipologiyasi ijtimoiy geografiya emas, asosan iqtisodiy geografiya nuqtai nazaridan ishlab chiqilganligi bizning tadqiqot uchun muhimdir. Ular quyidagilardan iborat: genetik tipologiya; bir necha bulimlardan iborat funksional tipologiya; shaharlarning sintetik (integral) funksional tipologiyasi. Jumladan, bular orasida tadqiqotimizning hududiy yo‘nalishiga yaqin hisoblangan – iqtisodiy geografik joylashuvi tipologik belgi sifatida – funksional turi Zarafshon iqtisodiy rayoni shaharlarini tahlil etishda uslubiy qo‘llanma vazifasini bajardi.

Bu jihatdan olganda, “O‘zbekiston shaharlari tarixi: an’analar, urbanizasiya va transformasiya jarayonlari (eng qadimdan hozirgacha)” mavzusidagi fundamental loyihasi qiziqish uyg‘otadi. Tadqiqot natijasida chop etilgan monografiyada shaharlar tarixi bilan bog‘liq, yuqorida qayd etilgan ayrim geografiya fani tadqiqot usullari haqida fikr yuritiladi.

Jumladan, qadimiy shaharlar tarixini tadqiq qilishda eng avvalo shaharlar genetikasi, ya’ni kelib chiqish tarixi katta ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan. Funksional tipologiyasi haqida to‘xtalib, respublika hududida dastlabki shaharlarning paydo bo’lishi uzoq o’tmishda ijtimoiy mehnat taqsimoti, tabiiy, geografik hamda iqtisodiy omillar ta’sirida sodir bo’lgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning funksional tipologiyasida tabiiy resurslar, hududiy mehnat taqsimoti, logistika va transport tizimi, sanoat taraqqiyoti kabi omillar muhim rol o‘ynayotgani aytilgan [9. Ziyayeva 2017: 6-7].

Zamonaviy shaharlar o‘z funksional vazifalariga qarab ko‘p funksiyali siyosiy-ma’muriy markazlar (viloyat markazlari va poytaxt shaharlar), ko’p tarmoqli yirik sanoat markazlari, bir necha yoki bir sanoat tarmog‘iga ixtisoslashgan shaharlar, transport va logistika markazlari; agroindustrial shaharlar, rekreasiya shaharlari, ilm-fan markazlari, unversitet shaharlariga ajratiladi[9. Ziyayeva 2017: 7].

Umuman olganda, shaharlarni klassifikasiyasi iqtisodiy geografiya fanining muhim usullaridan biri bo‘lib, shaharlarni biron bir belgi yoki ularning kombinasiya bilan bog‘liq tasniflash tushuniladi. Shahar aholi punktlari klassifikasiyasining eng ko‘p qo‘llaniladigan tasnifi quyidagilardir: kattaligi bo‘yicha (aholi soni va zichligi); vazifa (funksiya)lari; hududiy mehnat taqsimotidagi ishtiroki; kelib chiqishi; va nihoyat, iqtisodiy geografik joylashuvi [2. Internet manba].

Dunyo davlatlarida aholi sonining miqdoriy ko‘rsatkichdan kelib chiqqan holda, turli mezonlar qabul qilinganligini kurish mumkin. Masalan, eng kam ko‘rsatkich Uganda davlatida – 100 kishidan ortiq aholi punktiga shahar maqomi berilishi (shu bilan birga, ma’muriy yoki savdo markazi bo’lishi talabi ham

qo’yilgan) qayd etilgan. Ayrim aholisi siyrak hisoblangan mamlakatlarda ham shunga o’xshash holat kuzatiladi (Grenlandiya va Islandiyada 200 kishidan ortiq aholi puntklariga shahar maqomi beriladi). Maksimal mezonga ega davlat sifatida Yaponiyani misol qilish mumkin. Ushbu mamlakat qonunchiligiga asosan aholi soni 50 mingdan ortiq bo’lishi, shu bilan birga, aholining 60 % (uy xo’jaligini hisobga olib) noagrar sohada mehnat qilishi talab etiladi [5. Gorkin 2013: 73].

Milliy qonunchilik tizimda ham aholi soni miqdoriy mezoni qabul qilingan. Ayni vaqtda O’zbekiston Respublikasining bu boradagi normativ hujjatlari evolyusion jarayonda. Xususan, 2002 yilda qabul qilingan “Shaharsozlik kodeksi”ning 2 moddasi “Asosiy tushunchalar” shahar tushunchasiga izoh berilmagan bo’lsa [7. Internet manba], 2019 yildan (2019 yil iyun holati) boshlab loyiha tarzida muhokama jarayonida bo’lgan yangi tahrirdagi “O’zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksi”da bu bo’shliq barataraf etilmoqda. Unda quyidagi variant taklif etilgan: “shahar - ... O’zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishining tarkibiy qismi bo’lib, uy-joy binolari, ijtimoiy, ishlab chiqarish, transport, muhandislik va boshqa maqsadlardagi bino va inshootlar zich joylashgan, shuningdek o’ziga xos iqtisodiy, tarixiy, ilmiy va madaniy ahamiyatga ega bo’lgan, aholisining asosiy qismi sanoat korxonalarida, davlat boshqaruvi tuzilmalarida, umumiy o’rta va oliy ta’lim, fan va madaniyat, moliya-bank tizimi muassasalarida band bo’lgan va soni o’n ming kishidan ortiq bo’lgan hudud” [8. Internet manba].

Muhimi shundaki, amaldagi Kodeksda “shahar poselkasi” tushunchasi ham izohlanmagan edi. Darhaqiqat, 2009 yil 13 martda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O’zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma’muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 68-sonli qarori chiqdi [1. Internet manba] unga asosan respublikadagi shahar poselkalari safi bir necha bor ortib, 965 ta yirik qishloq aholi punktlariga shahar posyolkalari maqomi berildi.

Yangi tahrirdagi Qonun loyihasida ham bu masalaga barham berish rejalashtirilgan. Unga asosan, shahar posyolkasi deb, **“**O’zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan nomi, maqomi va chegaralari belgilangan O’zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishining tarkibiy qismi bo’lib, uy-joy binolari, ijtimoiy, ishlab chiqarish, transport, ta’lim, muhandislik va boshqa maqsadlardagi bino va inshootlar joylashgan, shuningdek o’ziga xos sanoat yoki ilmiy ahamiyatga ega bo’lgan, aholisining asosiy qismi sanoat korxonalarida, ilmiy va davlat boshqaruvi muassasalarida band bo’lgan va soni ikki ming kishidan ortiq bo’lgan hudud (tumanlarning ma’muriy markazi vazifasini bajaruvchi yoki aholining asosiy qismi band bo’lgan soxaga mutanosib ravishda sanoat, kurort, ilmiy, temir yo’l ho’jaligi, baliqchilik, tog’-konchilik, dala hovlilari posyolkalari)” aytiladi.

Shaharsozlik Kodeksining 9 moddasida respublikadagi aholi punktlarining bo’linish prinsiplari ko’rsatilib, jumladan, shaharlar, shahar posyolkalarining quyidagicha miqdoriy tartibi qayd etilgan [1]: eng yirik aholi punkti - aholisining soni 1 mlndan ortiq kishidan iborat; yirik aholi punkti- 250 mingdan 1 mlngacha;

katta aholi punkti – 100 mingdan 250 mingacha; o’rtacha aholi punkti – 50 mingdan 100 mingacha; kichik aholi punkti – 50 mingacha.

Darhaqiqat, ko’plab davlatlar amaliyotida, ya’ni shaharlar klassifikasiyasida ikkinchi kategoriya aholi punktlari – aholi soni miqdorlari 500 mingdan 1 mlngacha deb belgilangan. O‘zbekistonda vaziyat taqozosi bilan 500 ming va undan ortiq aholi soniga ega bo‘lgan shaharlar Samarqand va Namangan shahrlari kiradi. Bu holat hududlarni modernizasiyalash va mehnat resurslari migrasiyasini o‘ziga jalb etish imkoniyatini cheklash bilan bog‘liq qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Mutaxassislar tili bilan aytganda, O‘zbekiston yagona katta megopolisga hamda ko‘plab kichik shaharlarga ega bo‘lgan mamlakat hisoblanadi [6. Urbanizasiya: 16].

Shaharsozlik masalasida milliy qonunchilik tizimiga taklif etilgan yana bir muhim o‘zgarish bu shahar poselkalari klassifikasiyasidir. Yuqorida qayd etilan qonun loyihasiga taklif etilgan o‘zgarishda aholi soniga qarab shahar posyolkalari quyidagilarga bo‘linishi qayd etilgan [8. Internet manba]: yirik aholi punkti - aholisining soni 7 mingdan ortiq kishidan iborat; katta aholi punkti - 5 mingdan 7 minggacha kishidan iborat; o‘rtacha aholi punkti - 3 mingdan 5 minggacha kishidan iborat; kichik aholi punkti - 2 mingdan 3 minggacha kishidan iborat.

Shunday qilib aytish mumkinki, zamonaviy tarixiy tadqiqotlariga faol tarzda fanlararo tadqiqot usullari integrasiyalashmokda. Ushbu innovasion usul gumanitar, ijtimoiy, aniq va tabiiy fanlar amaliy natijalaridan o‘zaro keng foydalanishni nazarda tutadi. Shu jihatdan olganda, shaharlar tarixi mavzusini o‘rganishda avvalo geografiya fani, shuningdek, iqtisodiy fanlar yutuqlari, metodologik yondoshuvlarning tadbiq etilishi tadqiqot yuzasidan olinayotgan ilmiy natijalarni yanada chuqurlashtiradi. Muhimi, ushbu usul nafaqat o‘tmish va hozirgi kun tasvirini beradi, balki kelajakni ilmiy asosda, aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda bashorat qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. http://www.lex.uz/acts/1486944
2. Классификация городов // http://edu.tsu.ru/eor/resourse/174/html/39.html
3. Лаппо Г.М. География городов: Учеб. Пособие для геогр. Ф-тов вузов. – М., 1997. – С. 39-40.
4. Рахимов М. История основания и развития социалистического города Бекабада (1942-65 гг). Автореф.дисс. кан.ист.наук. -Т., 1968; Азизова Н.Х. История основания и развития социалистического города Янгиюля (1934-65 гг). Автореф.дисс. кан.ист.наук. Т., 1973; Турсунов С.Н. История развития новых социалистических городов Узбекистана Денау и Шерабада. Автореф.дисс. кан.ист.наук. Т., 1985. Турсунов Ж.Н. История экономического и социального развития городов Узбекистана (на примере городов Байсун, Шаргун, Шурчи). 1971-1990. Автореф.дисс. кан.ист.наук. Т., 1995; Каршиев Р.М. Экономическое и социально-культурное развитие г. Навои: опыт и проблемы (1958-1990 годы). Автореф.дисс. кан.ист.наук. Т.,

1996 ва бошқ.
5. Социально-экономическая география: понятия и термины. Словарь-справочник / под ред. А. П. Горкина. – Смоленск: Ойкумена, 2013. С. 73.
6. Урбанизация и индустриализация в Узбекистане: вызовы, проблемы и перспективы. CER. Аналитическая записка 2009/01. Ташкент, 2009. С. 16.
7. Ўзбекистон Республикаси шаҳарсозлик кодекси // http://lex.uz/acts/46868
8. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Ўзбекистон Республикасининг Шаҳарсозлик Кодекси (янги таҳрир). ID-2887. (Лойиҳа) // https://regulation.gov.uz/oz/document/2887
9. Ўзбекистонда замонавий шаҳар маданияти (1991-2016 йиллар) / масъул муҳ. Т.ф.д., проф. Д.Х.Зияева. Т., 2017. 6-7 бетлар.

4-SHO’BA. MUSTAQILLIK YILLARIDA O’ZBEKISTON DAVLATCHILIK TARAQQIYOTI: ISLOHOTLAR VA ISTIQBOLLAR.

O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA’LIMI TIZIMIDA AMALGA OShIRILGAN TADBIRLAR VA ULARNING NATIJALARI (2016-2024 yy)

Abdulloev Sherqo‘zi Axmatboboevich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi doktoranti

Annotatsiya: Mustaqillik yillarida barcha sohalar qatori ta’lim sohasida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi va salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritildi. Shunga qaramasdan bu borada ham bir qancha muammolar saqlanib qoldi. 2016 yildan e’tiboran bu boradagi islohotlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, 11 yillik ta’lim tizimiga o‘tildi, Prezident maktablari ish boshladi va o‘quv darsliklarining zamon talablari bo‘yicha qayta nashr qilinishi yo‘lga qo‘yildi. Bu esa, o‘z navbatida, maktab ta’imi sifatiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekistonda maktab ta’limi tizimida amalga oshirilgan tadbirlar va ularning natijalari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, o‘qituvchilar malakasini oshirish, ta’lim muassasalari, maktab-internatlar, robototexnika jihozlari.

O‘zbekistonda 2016 yildan e’tiboran O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirish uchun yangi o‘quvchi o‘rinlarini yaratish ishlariga katta ahamiyat berildi. Shu maqsadda Hukumat tomonidan tegishli tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va amaliyotgan joriy etildi. Jumladan, ta’lim-tarbiya sohasida qabul qilingan dasturlar asosida 2017-2023 yillarda 261 ta yangi o‘rta ta’lim muassasasini qurish va 2500 ta maktabni kengaytirish hisobidan 700 mingta o‘quvchi o‘rni yaratildi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bundan tashqari, bu davrda xorijiy tillarni o‘qitish ishlarini yaxshilash choralari ko‘rildi. Shu maqsadda nafaqat shu fan o‘qituvchilari malakasini oshirish ishlari olib borildi, balki ushbu sohaga xorijlik mutaxassislar ham jalb etildi. Xususan, birgina 2023 yilda mamlakatga 500 nafar chet tili mutaxassisi maktablarda ish boshladi. Kelgusi yillarda esa ularning sonini uch barobar oshirish mo‘ljallandi.

Bu davrda mamlakatda maktab ta’limini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish umummilliy harakatga aylandi. Bu borada nafaqat davlat idoralari tomonidan katta ishlar amalga oshirildi, balki xususiy tadbirkorlar tomonidan ham katta

ishlar bajarildi. Xususan, 2023 yildagi ma’lumotlarga ko‘ra, navoiylik Abdukarim Saksonov, samarqandlik Quyosh Haqberdiev va Ilhom Rustamov, buxorolik Oybek Namozov, qashqadaryolik Nurbek Ergashev kabi o‘nlab tadbirkorlar o‘z hududlarida yangi maktablar qurdi. Ta’lim muassasasini kapital rekonstruksiya qilib, zamonaviy asosda jihozlab berdi. Shuningdek, ohangaronlik shoir Barot Isroilov esa hovlisida kutubxona ochib, uni o‘z hisobidan 10 mingta kitob bilan ta’minladi va ushbu maskanni qishloq o‘quvchilariga sovg‘a qildi [1:2].

Bu davrda mamlakatda ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish ishlari ham amalga oshirildi. Bunda, avvalo, soha huquqiy asoslarini takomillashtirish choralari ko‘rildi. Xususan, 2022 yil aprel oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi. Mazkur hujjatda ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etishga yagona yondashuvni shakllantirish, ushbu maktablar tarmog‘ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ta’lim jarayoniga malakali rahbar va pedagog kadrlarni jalb qilish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o‘qitish va tarbiyalash tizimini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar belgilab berildi [3]. Xususan, 2022 yil 1 sentabrga qadar vazirlik, idora va tashkilotlar tasarrufida bo‘lgan ta’lim muassasalari negizida 19 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni hamda 141 ta ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish, 2022-2024 yillarda Agentlik tizimida 25 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni qurish va boshqa tadbirlar shular jamlasidandir [3]. Ushbu hujjatning qabul qilinishi Respublika bo‘ylab ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish va rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ham maktab ta’limi borasida keng imkoniyatlar yaratildi. Xususan, 2022 yil aprel oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ga Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorda islohotlar izchilligi va tizimliligini ta’minlash, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarning ta’lim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, ularning jamiyatga moslashuviga ko‘maklashish hamda qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha ko‘plab tadbirlar belgilab berildi [2]. Ushbu Qaror asosida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab internatlari Ichki ishlar vazirligiga biriktirildi va ular “Nurli maskan” deb nomlandi. Shuningdek, Ichki ishlar vazirligiga “Nurli maskan” maktablariga mas’ullarni biriktirish, o‘quvchilarga sifatli ta’lim va tarbiya berish, ularning maishiy sharoitlarini yaxshilash, shuningdek, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ishlarini amalga oshirish va boshqa vazifalar yuklatildi.

Bu davrda maktablarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida ham bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2022 yildagi ma’lumotlarga

ko‘ra, birgina shu yilning o‘zida 3,2 trillion so‘m mablag‘ hisobidan 807 ta maktabda qurilish va ta’mirlash ishlari amalga oshirildi. 2023 yilda esa o‘rta ta’lim maktablariga 40 ming dona zamonaviy kompyuterlar, 442 ta komplekt robototexnika jihozlari va boshqa zarur ashyolar yetkazib berildi. Amalga oshirilgan bunday tadbirlar maktab ta’limi sifatini oshirishga va o‘quvchilarning zamonaviy kompyuter bilimlarini puxta egallashga yordam berdi.

Shu bilan birga, maktab o‘quvchilarining ma’naviy-ma’rifiy savodxonligini oshirish va kitob o‘qishni rag‘batlantirish bo‘yicha ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, “Barkamol avlod” bolalar maktablari, bolalar va o‘smirlar sport maktablarida keng ko‘lamli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etildi. Yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni kuchaytirish, ularni adabiyot, san’at va sport to‘garaklariga faol jalb etish bo‘yicha ishlar izchil davom ettirildi. Amalga oshirilgan keng ko‘lamli tadbirlar natijasida O‘zbekistonlik o‘quvchilar 2023 yilda mintaqaviy va xalqaro fan olimpiadalarida 2 ta oltin, 15 ta kumush va 27 ta bronza medallarini qo‘lga kiritdi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarga maktab davridayoq kasbga ega bo’lishlarini ta’minlash borasida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, maktablarda 11-sinf-hayotga yo‘llanma beruvchi sinf deb belgilanib, yoshlarga kamida 2 ta chet tili hamda bitta zamonaviy kasb o‘rgatish ishlari yo‘lga qo‘yildi [6:1]. Ko‘rilgan bunday choralar bitiruvchi maktab o‘quvchilarining yangi kasb-hunar egallashlarida katta ahamiyat kasb etdi.

Bu davrda maktab ta’limi sohasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ham katta e’tibor berildi. Jumladan, 2016-2023 yillarda 5 ming 137 ta maktabda qurilish-ta’mirlash ishlari bajarildi. Xususiy sektor hisobiga nodavlat ta’lim tashkilotlari soni 364 taga yetib, 2017 yildan 2021 yilga qadar deyarli 6 barobar oshdi. Natijada, 643 ming yangi o‘quvchi o‘rni yaratildi.

Yuqorida tilga olingan maktablarda ta’lim sifatini oshirish ishlariga katta e’tibor berildi. Bu borada pedagog va xodimlar salohiyatini oshirish bo‘yicha ham talay ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ta’lim olish tamoyili asosida yangi – “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi orqali malaka oshirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Uning faoliyati natijasida, 341 ming o‘qituvchi malaka oshirdi. Natijada, 278 ming nafar pedagog attestatsiyadan o‘tkazilib, toifaga ega o‘qituvchilar ulushi 43,8 foizdan 64,8 foizga oshdi [5:5]. Xalq ta’limi tizimida faoliyat yuritayotgan o‘rta ma’lumotli o‘qituvchilar ulushi 9,5 foizdan 7,3 foizga kamaydi [4:3]. Bu esa, o‘z navbatida, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish ishlarida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Maktablarda xorijiy tillarni o‘qitish ishlarini yaxshilash bo‘yicha ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2021 yildan xorijiy tillar o‘qituvchilariga xalqaro sertifikat berish tizimi joriy qilindi. Ularga o‘z bilimini isbotlashi asosida shaffof tarzda oylik maoshini qo‘shimcha oshirish imkoni berildi. Natijada, mamlakatda xalqaro standartlarga javob beradigan chet tili o‘qituvchilari soni deyarli uch barobar oshdi. Bundan tashqari, har bir o‘quvchining sifatli bilim olishi, ta’limda tenglik tamoyili ustuvor bo‘lishi lozimligi borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida eng chekka hududlardagi

maktablarni ham bilimli va mahoratli o‘qituvchilar bilan ta’minlash ishlari yo‘lga qo‘yildi. Bu jarayonda olis hududlardagi maktablarda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar oylik maoshiga qo‘shimcha 100 foiz ustama to‘lash tartibining joriy etilgani muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 2022 yil sentabr oyidagi ma’lumotlarga ko‘ra, Respublikamizda 400 nafar o‘qituvchi chekka hududlardagi maktablarda o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berayotgani uchun 1000 AQSh dollariga teng miqdorda maosh olgan [5:5].

Ushbu tajribadan kelib chiqqan holda 2022 yil aprel oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan boshqa fan o‘qituvchilariga ham xalqaro sertifikat berish tizimini joriy qilish va inson qadrini ulug‘lash tamoyiliga asosan, ularning mehnatiga munosib haq to‘lash tizimini amaliyotga tatbiq etish topshirig‘i berildi. Shunga ko‘ra, Xalq ta’limi hamda Moliya vazirliklarining tegishli qo‘shma qarori bilan 2022 yil 1 sentabrdan xalqaro va milliy baholash tizimi sertifikatiga ega pedagog kadrlarga qo‘shimcha ustama haq to‘lash tizimi ishlab chiqildi. Bu bilan nafaqat chet tili o‘qituvchilari, balki ona tili va adabiyot (o‘zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, qoraqalpoq tili va adabiyoti), matematika, kimyo, fizika, biologiya hamda informatika va axborot texnologiyalari fanlari bo‘yicha sertifikat sinovidan muvaffaqiyatli o‘tgan pedagoglar ham ustama olish imkoniyatiga ega bo‘ldi [5:5].

Shu bilan birga, bu davrda o‘qituvchining jamiyatdagi mavqei va obro‘sini ko‘tarish ham hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar qatoriga kirar edi. Shu sababdan Hukumatimiz tomonidan ta’lim sohasi xodimlarining majburiy mehnatga jalb qilinishiga barham berildi, katta sondagi pedagog xodimlar huquqlari himoya qilindi.

Maktab ta’limi sifatini oshirish bo’yicha keyingi yillarda ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, bu davrda axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda maktab ta’limi jarayonini ortiqcha qog‘ozbozlikdan xalos etish orqali samaradorlikka erishish va boshqaruv jarayonlari shaffofligini ta’minlash maqsadida maktablarda pedagogik hujjatlarni yuritishni elektron shaklga o‘tkazish choralari ko‘rildi. Xususan, 2024-2025 o‘quv yilidan boshlab maktab hujjatlari to‘liq elektron shaklda yuritilishi belgilandi [9]. Sinf jurnali, baholar tabeli, qoldirilgan va o‘rni to‘ldirilgan darslarni hisobga olish daftari, pedagogik kengash bayonnomalari daftari, o‘quvchilar harakati daftari va shahodatnomalarni hisobga olish daftari kabi hujjatlar shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, sohada korrupsiyaga qarshi kurash ishlari ham olib borildi. Jumladan, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparati, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari hamda tizim tashkilotlari va muassasalari xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ichki lokal hujjatlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatini o‘zida jamladi. Shuningdek, vazirlikda korrupsiya holatlari haqida xabar berish uchun barcha turdagi aloqa kanallari (“Ishonch telefoni”, elektron pochta manzillari, rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi boshqa sahifalar) va “Vazirga murojaat” portali faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida

bir qancha yutuqlar qo‘lga kiritildi. Jumladan, vazirlik tizimidagi xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsion holatlar tahlil etilganda, ushbu ko‘rsatkichlar 2022 yilda 191 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib, 116 nafarni tashkil etdi [10].

Shuningdek, tizimda manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish va ma’lumotlarni oshkor qilish maqsadida, 2023 yilning to‘qqiz oyida 177 nafar xodim bo‘yicha to‘ldirilgan deklaratsiyalar tekshirildi. O‘rganish natijalari bo‘yicha vazirlikda 6 ta holatda davlat xaridlari bekor qilinib, mas’ullarga nisbatan intizomiy jazo choralari ko‘rildi. Shuningdek, maktabgacha va maktab ta’limi sohasiga ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli ishlatish bo‘yicha o‘tkazilgan 4 ta nazorat va monitoring tadbirlarida aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar bo‘yicha 5 nafar xodimga nisbatan tegishli choralar ko‘rildi.

Shu va boshqa amalga oshirilgan tadbirlar natijasida, mamlakatning xalqaro ta’lim reytingi va indekslaridagi mavqei yaxshilandi. Jumladan, “Inson kamoloti indeksi” tarkibidagi ta’lim indeksida 2015 yildagi 81-o‘rindan 2021 yilda 71-o‘ringa, Global innovsion indeksda 2015 yildagi 122 o‘rindan 2021 yilda 82-o‘ringa, Global innovsion indeksning tarkibidagi inson kapitali yo‘nalishi bo‘yicha 2015 yildagi 76 o‘rindan 2021 yilda 65 o‘ringa ko‘tarildi [5:5].

Ammo amalga oshirilgan keng ko‘lamdagi tadbirlarga qaramasdan bu sohada ham bir qancha muammolar saqlanib qoldi. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi tomonidan 2024 yil may oyida e’lon qilingan tahlil natijalari ham bu fikrni tasdiqlaydi. Jumladan, unda O‘zbekistonning maktab ta’limi darajasi hali ham xalqaro standartlardan orqada qolayotgani ta’kidlangan. Buni PISA -2022[2] tadqiqotida mamlakatning ko‘rsatkichlari ham buni tasdiqlaydi. Bu davrda PISA tadqiqotida 81 davlat ishtirok etdi. Unda O‘zbekiston 78 o‘rinni egalladi. Bu holat mamlakatni Kosovo, Dominikan Respublikasi va Kambodja bilan bir qatorga qo‘ydi [8].

Shuningdek, ushbu tadqiqot natijalarida maktab ta’limi sohasida malakali kadrlar yetishmasligi, ushbu kasbning jozibador emasligi, sinflarda o‘quvchilar sonining ko‘pligi, yangi texnologiyalar va innovatsion imkoniyatlarga e’tiborning kamligi, bolalar bog‘cha ta’limi bilan to‘liq qamrab olinmagani, ta’limdagi notenglik va ota-onalarning o‘quv jarayonini yetarlicha qo‘llab-quvvatlamayotgani kabilar eng asosiy muammolar sifatida keltirilgan [7].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, 2016 yildan e’tiboran Respublikamizda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Maktablarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy ta’lim uslublarini joriy etish, yangi darsliklar yaratish, o‘qituvchilar malakasini oshirish ishlarini yangi bosqichga ko‘tarish va boshqalar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, o‘qituvchining jamiyatdagi mavqei va obro‘sini ko‘tarish bo‘yicha ham keng ko‘lamli ishlar bajarildi. Amalga oshirilgan shu va boshqa tadbirlar maktab ta’limini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishga

[2] PISA (Programme for International Student Assessment) – бу таълим сифати бўйича 15 ёшдаги мактаб ўқувчиларининг билим олиш ва кўникмалари шаклланишини баҳолайдиган халқаро қиёсий тадқиқот. Тадқиқотнинг асосий йўналишлари - математика, ўқиш ва табиий фанлар саводхонлигидир.

yordam bermoqda. Shu bilan birga, bu davrda ushbu sohada ham bir qancha muammolar saqlanib qoldi. Jumladan, maktab ta’limida malakali kadrlarning yetishmasligi, o‘qituvchi kasbining jozibador emasligi, sinflarda o‘quvchilar sonining ko‘pligi va boshqalarni ko’rsatib utish mumkin. Bular esa, o‘z navbatida, ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biriga aylandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga// Yangi O‘zbekiston gazetasi. № 200 (989), 2023 yil 30 sentabr, shanba.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ga Qarori. Lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/pdfs/5960622
4. O‘zbekistonda ta’lim islohoti nega birinchi o‘ringa qo‘yildi? // Yangi O‘zbekiston gazetasi. № 242 (1031), 2022 yil 22 sentabr, payshanba.
5. Qobulov H. Inson kapitalini rivojlantirish ta’lim tizimini isloh qilishdan boshlanadi. // Yangi O‘zbekiston gazetasi. № 242 (1031), 2023 yil 21 noyabr, seshanba.
6. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining bitiruvchi yoshlariga// Yangi O‘zbekiston gazetasi. № 77 (599), 2023 yil 25 may, payshanba.
7. https://kun.uz/kr/93330825
8. https://strategy.uz/index.php?news=1913
9. https://talimxabarlari.uz/4827/
10. https://uzedu.itsm.uz/y3/lists/12/213

MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX VILOYATIDA XOTIN-QIZLAR HUNARMANDCHILIGI

Dildora Tursunova
A. Qodiriy nomli
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarda masofaviy
ta`lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Tarixda davlat va jamiyat taraqqiyotida hunarmandchik ham muhim ahamiyat kasb etgan. Hunarmandchilikning rivoji mamlakatning madaniy taraqqiyoti, savdo-sotiq va ishlab chiqarish asoslarini belgilab bergan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning mazmun mohiyatida avvalo, xalqimizning farovonligi kishilarning munosib mehnat qilishlarini

ta`minlash turibdi. Bugun O‘zbekistonda xotin-qizlarning xalqimizning tarixi, qadriyatlari, urf-odat va an`analarini o‘zida aks ettirgan milliy hunarmandchilik sohasidagi faoliyati ham diqqatga sazovardir. Barchamizga ma`lumki, o‘zbek hunarmandchiligi turli geografik muhit, voha va vodiy aholisi va viloyatlarimiz hududida o‘ziga xos an`analar asosida rivojlanib kelgan. Jizzax viloyatida ham hunarmandchilikning turli sohalarida xotin-qizlar faoliyati e`tiborga loyiq.

Kalit so‘zlar: Hunar, hunarmand, hunarmandchilik sohalari, milliy hunarmandchilik, “Hunarmand” uyushmasi.

Tarixdan hunar turlarining takomillashuviga qarab hududlarga shahar va davlat maqomi berilgan. Har bir davlat hunarmandchilik sohalarini rivojlantirishga harakat qilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning mazmun mohiyatida avvalo, xalqimizning farovonligi kishilarning munosib mehnat qilishlarini ta`minlash turibdi. Ayniqsa, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ta`lim olishlari va kasb-hunar egasi bo‘lishlari uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Bu borada hunarmand xotin-qizlarning ham faoliyati e`tiborga molikdir. Hunarmand ayollarimiz tomonidan tarixan tarkib topgan milliy hunarmandchiligimiz na`munalari xalqimizning betakror madaniyatini o‘zida aks ettiradi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta`kidlaganlaridek: “Ma`lumki, umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lgan xalq amaliy san`ti dunyodagi har bir xalq hayotida uning turmush-tarzida va qadriyatlari rivojida alohida o‘rin tutadi.” [1.358-b]

O`zbekistonda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish, himoyalash va qo`llab-quvvatlash uchun institutsional asos shakllandi va rivojlandi. Buni hunarmandchilikni qo`llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan Respublika xalq hunarmandlari va musavvirlari «Hunarmand» uyushmasi faoliyati misolida ham ko‘rish mumkin. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasi a’zolarining 46 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Qayd etilishicha, o‘tgan yilda hunarmandchilikni rivojlantirish dasturi doirasida 91 534 ta yangi ish o‘rni yaratilgan. Ularning 17 565 nafari usta hunarmand, 73 969 nafari shogirdlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ularning 68 foizi ayollar hisobiga, 44 foizi esa yoshlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Hunarmandchilikni o‘rganishdagi yondashuvlarga ko‘ra, hunarmandchilik, uy hunarmandchiligi va hunarmandchilik ishlab chiqarishitushunchalari bir xil ma’noga ega bo‘lib, davlat, jamiyat va shaharning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy muhitda o‘ziga xos ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.[2.21-b]

Tarixiy yozma manbalarda Jizzax vohasi aholisining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tarixi, turmush tarzi, urf-odatlari hamda madaniy merosi to‘g‘risida ma’lumotlar qayd etilgan bo‘lib, xususan Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asaridagi 1367–1368-yillarda bo‘lib o‘tgan urush voqealariga bag‘ishlangan bobda Dizak va uning yaqinidagi Xarman mavzei va Malik roboti (Malik ota ziyoratgohi joylashgan hudud) haqida ma’lumot berilgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida esa Dizak va uning atrofidagi Zomin, Yom,

Xavos singari qo‘rg‘on va kentlar aholisi, ularning turmush tarzi va urf-odatlari haqida yozilgan. [3.24-b]

Jizzax shahridagi ko‘pgina mahallalarning nomlari ham shu mahallalarda istiqomat qilib kelgan insonlarning kasb-hunarlarini ifodalaydi**.** Hunarmandchilik va kasb-korlari, bo‘yicha nomlangan mahallalar: Sovungarlik, Ko‘nchilik, Zargarlik, Qassoblik va boshqalar. Jizzaxda kulollik, temirchilik, sovungarlik, zargarlik, miskarlik, to‘quvchilik, ko‘nchilik, gilamdo‘zlik kabi hunarmandchilik sohalari bilan shug‘ullanilgan. Hatto, ushbu hunarmandchilik sohalari bilan atalgan mahalla va guzarlarning nomlari hozirgacha mavjud.[4.35-b]

Jizzax vohasi aholisi orasida to‘qimachilik va ipakchilik kasbi qadimgi hunar turi sifatida keng tarqalgan. Jumladan, XX asr boshlarida dehqon xo‘jaliklarida ayollar jundan va paxta tolasidan ip yigirib, gilam va gazlamalar to‘qishgan. Vohada gilam to‘qishda ikki xil xomashyo: paxta va jundan foydalanganlar. Paxtadan gilam to‘qish vohaning dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan hududlarida yashovchi aholi orasida mavjud bo‘lsa, bundan farqli o‘laroq, jundan gilam to‘qish chorvachilik rivojlangan hududlar aholisi hayotida muhim o‘rin tutgan.[5.224-b]

Jizzax viloyatida 1 ming 118 nafar hunarmand faoliyat ko`rsatib kelmoqda. Ulardan 566 nafari xotin-qizlardir. Usta-shogird maktablari tashkil etgan hunarmandlar 172 ta, ularning shogirdlari 527 nafardan ziyod. O`z navbatida hunari orqali tadbirkorligini rivojlantirish uchun 50 nafar xotin-qizlar imtiyozli kreditlar olgan. Jizzax viloyati Forish tumani Osmonsoy MFYda yashovchi Madinabonu Aliboyeva milliy liboslar tikish bilan shug`ullanadi. “Hokim va yoshlar” uchrashuvida o`z faoliyatini kengaytirish maqsadida kredit olishdi. “Yoshlar-kelajagimiz” jamg`armasi tomonidan yosh hunarmandlarga imkoniyat berilmoqda.

“Hunarmand” uyushmasi tomonidan “Mahallamizning faxriy hunarmand ayoli” loyihasi ommaga oshirilmoqda.

Jizzax viloyati Bahmal tumani Novqa MFYda yashovchi Safarboy Qurbonov “Egarsoz” ustalar sulolasi vakili. U 50 yildan ortiq vaqt davomida egarsozlik bilan shug`ullanib kelmoqda. Hunarmandning mahsulotlariga Qozog`iston, Qirg`iziston, Turkmaniston va Tojikiston ham xaridorlar kelishadi. Safarboy aka hozirda o’ndan ziyod shogirdlarga ega. Tumandagi hunarmand ayollar esa egarlarni bezatish, egar-jabdug`lar, xurjunlar tikish bilan shug`ullanishadi.

Milliy hunarmandchilikni rivojlantirish orqali hunarmand ayollarning mahsulotlariga qiziqish ortmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. T., “O‘zbekiston” 2020-y. 358-b.
2. Davlatova S. O’zbek an’anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (O’zbekistonning janubiy hududlari misolida) T. “YANGI NASHR” 2018

3. Jizzax tarixi. 24-b.
4. A.Pardayev. Jizzax bekligi-O’rta Osiyo xonliklari davrida (XVI asrdan XIX asrning 60-yillarigacha). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olsh uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent. 2004.-B.35
5. Abduqodirov S. Gilam turlari va gilam mahsulotlari tayyorlash texnologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari(Jizzax vohasi misolida). International scientific-online conference. 2022. 224-b.

O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIK ISLOHOTLARI

Rustamova Madina Musoqulovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida xotin-qizlarga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlari himoya qilinib, ko‘plab qonunlar qabul qilindi. Ushbu maqolada gender tenglik masalasi xususan, xotin-qizlarimiz bandligini ta’minlash, davlat va jamiyat sohalaridagi ishtiroki, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishiga erkinlik berish, rag‘batlantirish borasida salmoqli ishlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Гендерная политика, женщины и мужчины, социальные проблемы, семья и общество, поддержка, работа и брак, занятость и предпринимательство.

.

Yurtimizda mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq xotin-qizlarning jamiyat hayotida ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e’tibor berildi. Shu sababli mamlakatimizda olib borilayotgan xotin-qizlarga oid islohotlarda davlat va jamiyat qurilishi, ishlab chiqarish, oila, mahalla, jamoat tashkilotlari, fuqarolik institutlari faoliyatida ayollarning ijtimoiy faolligini ko‘rishimiz mumkin. Zero, ular jamiyat va millatning tayanchi, shaxsning fazl-u kamoli va axloqiy barkamolligida asosiy o‘rinni egallovchi insonlardir. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilib kelayotgan islohotlar tufayli ayollarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyi ancha mustahkamlandi.

Xotin-qizlarning iste’dod va imkoniyatlarini namoyon etish uchun barcha sharoitlar yaratib berildi. Shu bois mamlakatimizda keng ko‘lamli tub islohotlarni amalga oshirish, xalqning moddiy va ma’naviy madaniyatini yuksaltirish borasida xotin-qizlarning qo‘shgan hissalari tobora ortib bormoqda. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, hozirgi davrda ayollarga munosabat masalasida talab qilinayotgan qoidalar ongi islom dinining ezgu g’oyalari bilan sug’orilgan xalqimizda azaldan mavjudligining guvohi bo‘lamiz. O‘zbek xalqining hayotida mavjud bo‘lgan tartib-qoidalar xalq an’analari, islom dini va shariati asosida vujudga kelganini hisobga olsak, hayot qadimdan Sharqda oilaviy turmush tarziga asoslanganligi,

oilada ayollar e’zozlanganligi, ularning og’ir ishga jalb etilmaganligi, ijobiy fazilatlarining to‘la e’tirof etilishi bilan ifodalanadi.[1]

Gender tenglik juda ham chiroyli tushunchadir, bu erkaklar va ayollarga hamma narsada teng imkoniyatlar berish kerak degani, ya’ni bilim olish, kasb tanlash, lavozimida ko‘tarilishida erkaklar bilan ayollarga birdek imkoniyatlar yaratilishi – gender tenglikdir. Gender tenglik masalalari milliy qonunchiligimizda ham o‘z aksini topgan, ya’ni 2019-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi 562-son qonuni qabul qilindi.[2]

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarga nazar tashlasak ham buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Yangi qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlaydi” deb kafolatlangan.[3] Bu esa mamlakatimizda haqiqatdan ham erkaklar va xotin-qizlar uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratib berilayotganligidan dalolat beradi.

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda ham xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirishda teng huquqlilikni, jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni kafolatlashi mustahkamlab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 23-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida birinchi marta o‘zbek tilida so‘zlagan nutqida:-“Yangi O‘zbekistondagi demokratik o‘zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi - biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni tobora kuchaymoqda. Yangi parlamentimizda ayollar soni ikki barobarga ko‘paydi” - deb ta’kidladi.[4]

O‘zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda ayollar soni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti ayol deputatlar soni bo‘yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o‘rtasida 37-o‘ringa ko‘tarildi.[5]

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari a’zoligidagi xotin-qizlarning ulushi ham o‘tgan yillarga nisbatan ortganligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi a’zolarining 29 foizi, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi a’zolarining 28 foizi, O‘zbekiston Ekologik partiya a’zolarining 22 foizi, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi a’zolarining 21 foizi va O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi a’zolarining 20 foizini xotin-qizlar tashkil qilmoqda.

O‘zbekistonda xotin-qizlarini e’zozlash, jamiyatdagi rolini oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu maqsadda xotin-qizlar manfaatini ifodalovchi qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlari himoyasiga qaratilgan 20 ga yaqin me’yoriy-huquqiy hujjat, shu jumladan 2 ta qonun, 1 ta Prezident qarori, 4 ta Prezident

Farmoni, 13 ta Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi. Mazkur huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida ayollarning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni va roli tobora mustahkamlanmoqda.[6]

O‘zbekistonda ayollar huquqlarini kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik xotin-qizlarni mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishga jalb qilish uchun huquqiy asos yaratilgan. 1991-yil 27-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlarining Termiz konferensiyasida “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi” tashkil topdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 2-martdagi “O‘zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-1084 sonli Farmoni qabul qilindi.[7]

Ushbu farmon xotin-qizlar maqomining pasayish tendensiyasiga qarshi turish zarurligi tasdiqlandi va xotin-qizlar harakatiga katta ko‘mak bo‘ldi. Mana shu farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlar Qo‘mitasining raisi Bosh vazir o‘rinbosari bo‘ldi, shahar va tuman xotin-qizlar qo‘mitalarining raislari hokimlarning o‘rinbosarlari bo‘lishdi, shu tariqa xotin-qizlar qarorlar qabul qilish darajasidagi lavozimlarga ega bo‘lishdi. Shu bilan bir qatorda, 1997-yil 13-iyuldagi «Teng haq to‘lash to‘g’risida»gi hamda «Ayollarning siyosiy huquqlari» to‘g‘risida konvensiyalar qabul qilingan.

Mamlakatimiz fuqarolarining katta qismini yoshlar va xotin-qizlar tashkil etadi. Aholining 49,7 foizi hamda mehnat resurslarining 45 foizi ayollar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bugungi kunda Respublika bo‘yicha 15 ta “Ishga marhamat” monomarkazlari, 30 ta shahar va tumanda kasb-hunarga o‘qitish markazi, 136 ta MFYning har birida o‘quv maskani tashkil etilgan. 2016-yilda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida bor-yo‘g‘i 2 ta o‘quv markazi faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, hozirgi kunda ularning soni 181 taga etdi. O‘quv kurslarida 16 dan to pensiya yoshigacha bo‘lgan yoshdagi ish bilan band bo‘lmagan fuqarolar o‘qishi mumkin. Ular o‘rnatilgan tartibda mehnat idoralariga ish qidirayotgan yoki ishsiz sifatida ro‘yxatdan o‘tgach, mutaxassisligi bo‘yicha maqbul ish mavjud bo‘lmagan hollarda, yo‘llanmaga asosan o‘quv kurslariga jalb etiladi.[8]

2021-yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so‘m kredit va subsidiyalar ajratilib, 320 ming nafar xotin-qiz doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi. 190 ming nafar ayol kasb-hunarga o‘qitildi, 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to‘lovining boshlang‘ich badaliga mablag‘ ajratildi, 2 ming nafar qiz alohida grant asosida oliy ta’limga qabul qilindi. Natijada o‘tgan yili oliy o‘quv yurtlariga kirgan talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Umuman, 2020-yildan boshlab “Ayollar daftari” tizimi yo‘lga qo‘yilib, unga kiritilgan 900 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik ko‘mak berilgan.[9]

Xulosa qilib aytganda Mustaqillik yillarida xotin-qizlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yanada qo‘llab-quvvatlash orqali ijtimoiy-siyosiy faolligi va saylovlarda ishtirokini ta’minlashga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratildi. Bu esa ayollarning ijtimoiy himoya obyektidan faol shaxsga aylanishida, ya’ni jamiyatdagi mavqeini o‘zgartirishda muhim rol o‘ynadi. Qarorlar qabul qilishda

jinslararo tenglik ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot omili bo‘lganligi sababli ham qonunchilik hokimiyatida ayollar ishtirokining o‘sish dinamikasi kuzatildi: 1992-yili 9,4%, 1994-yili 6%, 1999-yili 9,4%, 2005-yili Qonunchilik palatasida 18%, Senat tarkibida 15%, 2009-yilda bu ko‘rsatkich 22% va 15%, 2014-yilda 18% va 15%, 2019 -yilda 32 % va 23% dan iborat bo‘ldi.

Iqtisodiy islohotlar ayollarning oilaviy va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakati, milliy hunarmandchilik, kasanachilik bilan shug‘ullanishiga imkon yaratdi. Tadbirkorlik salohiyatining ortib borishi esa ularning o‘z daromadiga ega bo‘lishiga hamda iqtisodiy mustaqilligiga xizmat qildi. 1991-yilda tashkil topgan “Tadbirkor ayol” uyushmasi va “Tashabbuskor ayol” markazi tadbirkor ayollarni huquqiy jihatdan qo‘llab quvvatlashda muhim rol o‘ynadi. Respublikada 115 mingdan ortiq tadbirkor, 4500 dan ortiq fermer xo‘jaliklarini xotin-qizlar boshqaradi.

Xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha huquqiy me’yoriy hujjatlar asosida davlat tomonidan kafolatlangan imtiyozlarni ta’minlovchi mexanizmlar shakllantirildi. Oila turmush tarzini yaxshilash va ijtimoiy muhofazasini ta’minlash, onalik va bolalikni himoya qilishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratildi. 1998-yil 2-fevralda Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi, 1-aprelda Respublika Ona va bola skrining markazi, 2002-yil 1-iyunda Respublika perinatal markazi tashkil etildi. Oila, onalik va bolalikni muhofaza qilishda sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi (onalar o‘limi 3,2 barobar, bolalar o‘limi 3,4 barobar kamaydi). O‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 1995-yilga nisbatan 6,0 yilga oshdi va 75,1 yoshni tashkil etdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kazakova M. “Mustaqil O‘zbekiston ta’lim tizimi rivojiga hissa qo‘shgan Buxorolik ayollar” “Scientific approach to the modern education system”, Paris, France, 3-5 February 2022
2. O‘zbekiston Respublikasining 02.09.2019-yildagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risi”da 562-son qonuni https://lex.uz/docs/-4494849
3. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023 yil https://lex.uz/docs/-6445145
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75- sessiyasidagi nutqi. // ―Xalq so‘zi, 2020-yil 23-sentabr.-B.1
5. Prezident tantanali bayram tabrigi, 07-mart 2020-yil. https://darakchi.uz/index.php/oz/87053
6. O‘zbekiston qonunchiligida gender tengligi va xotin-qizlar huquqlari kafolatlari.-Toshkent: Zamin nashr. 2020-B.96
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 2-martdagi “O‘zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-1084 sonli Farmoni https://lex.uz/uz/docs/-181343

8. Nozim Husanov Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri “Xotin-qizlar bandligini ta’minlashning qulay va samarali yechimlari” https://yuz.uz/uz/news/mehnat-bozorida-xotin-qizlarning-orni

9. Mirziyoyev Sh.M. Xotin-qizlar uchun ulkan imkoniyatlar belgilandi // https://iiv.uz/oz/news/xotinqizlar-uchun-ulkan-imkoniyatlar-belgilandi

O`ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI ARAFASIDA KAMBAG`ALLIKNI YUZAGA KELISHI SABABLARI VA OQIBATLARI

Xoliqulov R. Sh, O’zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi
Kamoliddin Isroilov-birinchi bosqich tarix fakulteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kambag’allik va uni keltirib chiqaruvchi sabablar, oqibatlar, uning odamlar uchun salbiy ta’sirlari hamda uni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida yozilgan. Kambag’allik hozirda dunyo bo’ylab ko’plab davlatlarning rivojlanishiga jiddiy to’siq bo’layotgan muammolaridan biridir. Qashshoqlik, ayniqsa, bolalarning rivojlanishiga jiddiy salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Og’ir sharoitda dunyoga kelayotgan chaqaloqlarning aksariyat qismi yashashning birinchi yilida vafot etmoqda va bu dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda.

Kalit so’zlar: kambag’allik, minimal turmush darajasi, qashshoqlik, kasallanish, ijtimoiy to’siqlar, bank moliyasi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, strategiya, O’zbekiston-2030.

Yangi O‘zbekistonda inson sha’nini ulug‘lash, xalq manfaati ustuvorligini ta’minlash oliy qadriyat darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatimizda har bir inson uchun millati, tili va ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar munosib va farovon hayotni yaratish yo'lida erishilayotgan yutuqlar yildan-yilga ko‘payib bormoqda.

Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish masalasi eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, bu muammoga ilg‘or tajriba va yangi yondashuvlar asosida yechim topish hamda ularni hayotga izchil tadbiq etish har qachongidan ham muhim. Ko‘p yillar davomida “yopiq mavzu” bo‘lib kelgan kambag‘allik 2020-yildan boshlab ochiq tan olinib, tariximizda ilk marta kambag‘allikni qisqartirish davlatimizning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi va bu muammo bilan jiddiy shug‘ullanish boshlandi. Birgina o‘tgan 2023-yilda mamlakatimizda 1 mlnga yaqin aholi kambag‘allikdan chiqarildi, “Ijtimoiy ximoya reyestri” orqali 2 mln 300 ming muhtoj oila, xotin-qizlar, yolg‘iz keksalar, nogironligi bor shaxslarga (ularning soni Respublikamizda 700 mingdan oshadi)[3] yordam ko‘rsatildi.

Mamlakatimizda kambag‘allik tushunchasi 2020-yilga kelibgina tilga olindi. 2020-yilning 24-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy

[3] Xalq so’zi,2024-yil,27-fevral, №42(8665),3-bet

Majlisga Murojaatnomasida kambag‘allik masalasi tilga olinib[4], unda Muhtaram Prezidentimiz mamlakatdagi kambag‘allar aholining taxmini 12-15 foizini, ya’ni 4-5 mln nafarni tashkil etishini qayd etdi.[5] O‘zbekiston aholi jonboshiga to‘g‘ri keladigan milliy daromad ko‘rsatgichi bo’yicha o‘rtacha daromadga ega mamlakatlar qatoridan joy olgan bo‘lib, bunday mamlakatlarda kuniga kishi boshiga 3,2 dollar kambag‘allik chizig‘ining o‘rtacha ko‘rsatgichi deb qabul qilingan.[6] Mutaxassislarning fikricha, O‘zbekiston sharoitida 5 kishidan iborat oilaning yalpi daromadi oyiga 480 dollardan kam bo‘lsa, bu oilani kambag‘al deb hisoblash mumkin.[7]

Kambag’allik atamasi ko’pincha odamlar yoki jamoalar minimal turmush darajasi uchun moliyaviy resurslar va boshqa zarur narsalarga ega bo’lmagan holatni anglatadi. Ya’ni odamlar, uy xo’jaliklari va butun jamoalar yashash yoki gullab yashnashi uchun zarur bo’lgan asosiy narsalarni sotib olish uchun mablag’ga ega bo’lmagan yetarli moliyaviy resurslarning yetishmasligidir.

Qashshoqlikda yashovchi odamlar va oilalar tegishli uy-joy, toza suv, sog’lom oziq-ovqat va hattoki tibbiy yordamsiz ham qolishi mumkin. Har bir davlatning qashshoqlik chegarasini aniqlash va uning qancha aholisi qashshoqlikda yashashini hisoblash uchun o’z mezonlari mavjuddir. Kambag’allik nafaqat daromadning, balki ko’plab omillarning natijasi bo’lgan ijtimoiy-iqtisodiy holatdir.

Hukumatlararo ko’pincha odamlarni, oilalarni va jamoalarni qashshoqlikdan chiqarishga yordam berish uchun ijtimoiy farovonlik dasturlarini amalga oshiradilar. Ba’zi mamlakatlarda boshqalarga qaraganda kuchli farovonlik tizimi (ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlari) mavjud. Misol uchun, Qo’shma Shtatlar ko’proq individualistic va nisbatan cheklangan farovonlik dasturlariga ega. Taqqoslash uchun, Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy yordam dasturlari va yordamga muhtojlar uchun ko’maklar ancha kengroq. So’ngi aholini ro’yxatga olish ma’lumotlariga ko’ra, 2022-yilda AQSHda qashshoqlikda yashaydiganlar soni butun mamlakat aholisining 11,5 foizni tashkil etmoqda. Buyuk Britaniya misolida olib qaraydigan bo’lsak, u yerda 4.3 mln bolalar qashshoqlikda o’smoqda yoki o’rtacha sinfdagi 30 foiz bolalar qashshoqlikda yashamoqdalar. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotiga kora, 2022-yilda O’zbekiston aholisining 14,1 foizi kam ta’minlanganlarni tashkil etgan. (Bunda eng kam iste’mol xarajatlari sifatida 498 ming so`m belgilab olingan.)

2023-yil 12-iyunda imzolangan “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. //https://president.uz/uz/lists/view/3324. (25.06.2021)

[5] Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent:O‘zbekiston, 2021.-B.438.

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida so‘zlagan nutqini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib qilish bo’yicha o‘quv qo’llanma. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2021.-B.-228.

[7] Mustafaqulov Sh.,Murodullayev N., Xamidov R. O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasida/Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar.2020. №1. –B.-80-81.

tadbirlar to‘g‘risida”gi PF o‘z vaqtida qabul qilingan hujjat bo‘lib, kambag‘allikni qisqartirish borasida boshlangan keng ko‘lamli ishlar barcha yo’nalishlarda “Inson-jamiyat-davlat” tamoyili asosida qat’iy davom ettirilmoqda. Fikrimizcha bu farmon bilan “20 ming tadbirkor-500 ming malakali mutaxassis” dasturini amalga oshirilishi Respublikada kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan muhim tashabbuslardan biridir.[8] Bu tashabbus natijasida, agar mamlakatimizda 2017-yildan buyon kambag‘allik 2 baravar kamaygan bo‘lsa, bu ko‘rsatgich 2030-yilga borib 7%ga tushurilishi reja qilingan. Bu masala “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ham o‘z aksini topgan.[9]

Bu muammolarni hal etish maqsadida mamlakatimizda “Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturlari doirasida qishloq va mahallalarning infratuzilmasi tubdan o‘zgarib aholini ichimlik suvi bilan ta’minlash, gaz va elektr tarmoqlarini yangilash, yangi bog‘lar va maktablar ko‘rish yoki borlarni zamonaviy talablarda ta’mirlash, avtomobil yo’llari va yo’l infratuzilmasini barpo etish kabi ko‘pgina ijtimoiy masalalarga yechimlar mahallalarning o‘zida topila boshlandi.

Yana bir tomoni, ushbu muammolarni uyma-uy yurish orqali aniqlash va hal qilishni, davlat organlarining aholi bilan bevosita ishlashni nazarda tutuvchi yangi tizim-Xalq qabulxonalari ishga tushirildi. Natijada, “mahalla-sektor-xalq qabulxonasi-mahalla” tamoyili asosida aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo’yicha ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu tizim kambag‘allik darajasiga tushib qolgan aholini tadbirkorlikga jalb etish, ularning real daromadini shakllantirishga harakat qildirmoqda.

2021-yil 3-dekabrda imzolangan “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo’yicha davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni bilan 2022-yil 1-yanardan boshlab har bir mahallada bandlikni ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo’yicha 9.300 nafar tuman (shahar) hokim yordamchilari ish boshladi. Ularga mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni “xonadonbay” o‘rganish, aholi bandligi, daromad manbayi, tomorqadan foydalanish holati hamda aholini daromadli mehnatga bo‘lgan intilishi va ehtiyojlarini tahlil qilish vazifasi belgilandi.

Mahallalarning moliyaviy mustaqilligni ta’minlash maqsadida 2022-yil26-dekabrda “Mahalla budjeti” tizimi joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo’yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, 2023-yil 1-yanvardan boshlab ko‘rsatgichi past bo‘lgan tumanlarda “mahalla budjeti” tizimi tariqasida jismoniy shaxslardan mol-mulk va yer solig‘ini undirish belgilangan.[10]

Soliq so’mmasining 10%i mahalla budjetiga qoldiriladigan bo’ldi.[11] Bu holat mahallalarning moliyaviy ahvolini yaxshilashga hamda bu yerdagi ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechilishiga olib keldi.

[8] Xalq so’zi,2023-yil,17-iyun, №124.(8647)
[9] Xalq so’zi,2024-yil,26-sentabr, №20. (8549)
[10] Xalq so‘zi, 2023-yil 6-iyun, №115 (8458)
[11] Xalq so‘zi, 2023-yil 16-noyabr, №243(8586), 2-bet

Kambag’allikning olib kelishi mumkin bo’lgan salbiy holatlaridan biri, ya’ni kambag’allikning bolalarga bo’lgan yomon ta’sirini ham alohida e’tirof etib o’tish zarur. Chunki qashshoqlikda o’sgan bolalar tez-tez og’ir kasalliklardan qiynalishadi. Kambag’allikda tug’ilgan chaqaloqlarda kam vaznli bo’lib tug’ilish ehtimoli yuqori, bu esa ijsmoniy va aqliy nogironlikka olib kelishi mumkin. Qashshoqlikda bo'lgan bolalar kasallik tufayli ko'proq maktablardagi darslarni o'tkazib yuboradilar va uyda ko'proq stressni boshdan kechiradilar. Bolalar uchun uysizlik ayniqsa og'ir muammo, chunki ular ko'pincha sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega emaslar yoki to'g'ri ovqatlanishmaydi, bu ko'pincha ularning sog'liq bilan bog’liq muammolarga duchor etadi. Ko’p odamlar qashshoqlikda tug’iladilar va uni yengishga umidlari kam bo’ladi. Boshqalari esa salbiy iqtisodiy sharoitlar, tabiiy ofatlar yoki kundalik turmush narxining oshishi, shuningdek, giyohvandlik, ruhiy tushkunlik va ruhiy salomatlik muammolari tufayli qashshoqlikka tushishi mumkin.

Kambag’allikni keltirib chiqaruvchi bundan boshqa yana quyidagi asosiy sabablarini keltirish mumkin:

-Yuqori yashash narxi;
-Ish o’rinlari o’sishining yo’qligi;
-Zaif infratuzilma;
-Urush va turli mojarolar;
-Ijtimoiy to’siqlar;
-Davlat yordamining yo’qligi va shu kabilar.

Qashshoqlikning kuchayishi jamiyatda keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin, chunki tengsizlik kuchayadi va o'z navbatida jinoyatchilik darajasining oshishiga olib keladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, qashshoqlik shunchaki daromad darajasi bilan bog'liq emas. Darhaqiqat, odamlarni qashshoqlik chegarasiga yoki undan pastga tushirishga majbur qiladigan bir qator omillar mavjud. Diskriminatsiya-ulardan biridir. Ba'zi hollarda hukumatlar ayrim shaxslar yoki jamoalarning sog'liqni saqlash, ta'lim yoki ijtimoiy xizmatlar kabi xizmatlardan foydalanishiga to'sqinlik qiluvchi muayyan qonun va qoidalarni qabul qilishi mumkin. Bu odamlar, shuningdek, mehnat bozoriga yoki uy-joyga kirishdan mahrum bo'lishi mumkin , bu esa ularning munosib turmush darajasiga erishishiga to'sqinlik qiladi. Boshqa hollarda, chuqur ildiz otgan ijtimoiy e'tiqodlar odamlarni, oilalarni va butun jamoalarni ajratib qo'yishi mumkin.

Shu o’rinda kambag’allikning zararli oqibatlariga ham to’xtalib o’tish joizdir. Kambag’allik insonlarning jismoniy va ruhiy salomatligiga ham katta ta’sir ko’rsatadi. Qashshoqlikda yashovchi ota-onalardan tug’ilgan bolalar kam vaznga ega va hayotining birinchi yilida omon qolish ehtimoli kamroq. Shuningdek, ular astma va boshqa bolalik kasalliklaridan aziyat chekishi mumkin.[12] Bunday sharoitda voyaga yetgan farzandlarning keying sog’ligida ham jiddiy muammolar kuzatiladi va ruhiy tushkinlik xavfi yuqoridir. Psixologik

tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qashshoqlikda yashash bolalar va o'spirinlarda bilim olish, muloqot qilish va akademik muvaffaqiyatlar uchun muhim bo'lgan kognitiv jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan sohalarda, jumladan, ijtimoiy-hissiy ishlov berish, xotira, til va boshqalarning tarkibiy va funksional miya rivojlanishidagi farqlar bilan bog'liq holatlariga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Kambag’allikni qisqartirish borasida dunyoning rivojlangan davlatlari o’ziga xos yo’llarni bosib o’tishgan. Shunday davlatlardan biri-Xitoy. Bugun Xitoy iqtisodiyoti mo‘jiza yaratgan dunyoning ikkinchi qudratli mamlakati, kambag‘allikni qisqartirishda o‘ziga xos tajriba to‘plagan davlatdir. Xitoy XX asrning 70-yillari oxirida bozor iqtisodiyotiga oid islohotlarni boshlagan qoloq mamlakat edi. Keyingi yillarda Xitoy aholi daromadlari bir necha bor o‘sgan, yuz millionlab odamlarni kambag‘allikdan xalos qilgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Xitoyning yer maydoni deyarli AQSH xududiga teng bo‘lsada, mamlakatda yer shari aholisining beshdan bir qismi istiqomat qiladi. Mamlakat tabiiy resurslarga boy emas. Shunga qaramasdan Xitoyning oltin valyuta zaxiralari miqdori 3 trillion AQSH dollaridan oshib ketdi.[13] Xitoy butun dunyoga chinakam mo‘jiza ko‘rsatmoqda. Shu sababli bugunki kunda O‘zbekiston kambag‘allikga qarshi kurashish bo’yicha Xitoy tajribasini o‘rganish va uni joriy etishdan manfaatdor.

Masalan, 2013-yil sentyabr-oktyabr oylarida Xitoy Xalq Respublikasi raisi Si Szinpin tomonidan Qozog‘iston va Indoneziyaga tashrifi chog‘ida ilgari surilgan “Bir makon, bir yo’l” tashabbusi butun dunyo mamlakatlarida, jumladan Markaziy Osiyo davlatlarida jiddiy qiziqish uyg‘otti. Bu tashabbus O‘zbekistonni to‘g‘ridan-to‘g‘ri dengizga chiqish imkonini yaratadi. Mamlakatlar o‘rtasida xalqaro turistik yo’lak yaratiladi. Osiyo, Yevropa va Afrikani bog‘laydigan yangi savdo yo’llari, transport yo’laklari paydo bo‘ladi, “Iqtisodiy belbog” deb atalmish yangi loyiha tufayli mamlakatlar o‘rtasida savdo-sotiq rivojlanadi, mahsulotlarni sotish uchun yangi bozorlar paydo bo‘ladi, uning natijasida yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Bu loyiha doirasida tashkil etilayotgan transport yo’lagi Avstraliya, Indoneziya va Osiyo mamlakatlarini Yevropa, Afrika va Lotin Amerikasi orqali AQSH bilan bog‘laydi. Turli hisob-kitoblarga ko‘ra, bu loyihaning umumiy qiymati 21 trillion dollarga tengdir.

Bu tashabbus natijasida rivojlangan mamlakatlardagi ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar bartaraf etiladi. ”Bir makon, bir yo’l” loyihasining birinchi xalqaro forumi 2017-yil 14-15 may kunlari, ikkinchisi 2019-yil 26-27 aprel kunlari Pekin shaxrida va uchinchi forum 2023-yil 18-oktyabrda bo‘lib o‘tdi. Unda dunyoning 37 mamlakatidan davlat rahbarlari, 150 davlat va 90 ta xalqaro tashkilot vakillari, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ishtirok etdi.[14] Eng e’tiborlisi, bu tashabbus doirasida amalga oshirilgan turli xil loyixalar tufayli sayyoramizda 40 million inson[15] kambag‘allik va qashshoqlikdan xalos bo‘ldi.

[13](Xalq so‘zi 2024 yil 20 yanvar, №15-16 (8638-8639))
[14] (Xalq so‘zi 2023-yil 17-oktyabr №220 (8563)
[15] (xalq so‘zi, 2023 yil 19 oktyabr, №222 (8565)

Xitoy O‘zbekistonning savdo xamkorlari orasida birinchi o‘rinni egallaydi. Masalan, 2023-yil oxirida ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar ayriboshlash hajmi salkam 9 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatgich 2024-yilda 10 milliard dollardan oshishi kutilmoqda.

Qashshoqlikni yaxshiroq tushunishga harakat qilish, qat'iy monitoring va baholash tizimiga asoslangan sa'y-harakatlarni moslashtirish orqali Xitoy 1981-2004-yillarda 600 milliondan ortiq odamni qashshoqlikdan qutqardi. Xo’sh, Xitoy davlati bunga qanday erishdi? Tez o'sish va urbanizatsiya Xitoyda so'nggi 25 yil ichida qashshoqlikni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi, shuningdek, qator islohotlar, jumladan, iqtisodiyotning global savdo va investitsiyalar tarmog’i ochildi.

1990-yilgacha Xitoyning qashshoqlikni qisqartirish dasturi, birinchi navbatda, eng yomon ta'sirlangan hududlarda qashshoqlikni bartaraf etishga qodir bo'lmagan bir yillik va bir sektorli loyihalarga bog'liq edi. Bundan tashqari, kambag'allarning qayerda joylashganligini baholash uchun foydalaniladigan statistik tizim cheklangan edi.

Hukumat XTTB (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki)ni qashshoqlikni qisqartirish bo'yicha yangi chora-tadbirlarni, jumladan, qolgan kambag'al qatlamlarga dasturlarni yo'naltirishni yaxshilashni o'rganish uchun jalb qildi. Hukumat, shuningdek, qashshoqlikning o'zgaruvchan taqsimotini va Xitoyning farovonligini o'tkazib yuborganlarning taraqqiyotini cheklab qo'ygan omillarni tushunish uchun aniqroq va o'z vaqtida ma'lumot olishni xohladi. Bankning Xitoy bilan qashshoqlikni qisqartirish bo'yicha hamkorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Bank moliyasi va texnik yordami bilan qo'llab-quvvatlanadigan pilot loyihalar;
2.Natijalarni baholash va xulosalarni siyosatni ishlab chiqish jarayoniga integratsiya qilish. Bunday holatlarni ko’plab keltirish mumkin.

Xulosa o’rnida aytadigan bo’lsak, kambag’allik insoniyatning turmush tarziga xavf soladigan muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish uchun eng avvalo odamlarda tadbirkorlik ruhini uyg‘otishimiz, biznes vakillarini qo‘llab-quvvatlash, ularga erkin faoliyat yuritishga zarur sharoitlar, qulayliklar va imkoniyatlar yaratib berishda davom etishimiz zarur. Ikkinchidan, olib borilayotgan ishlar ustidan ta’sirchan deputatlik nazoratini o‘rnatish lozim. Uchinchidan, hududlarda yoshlarning hayot tarzini, bandlik darajasini doimiy o‘rganib, tahlil qilib borish lozim. To‘rtinchidan, ishsiz fuqarolarni va ishga joylash tashabbusini bildirgan faol tadbirkorlarga “ijtimoiy kontrakt” tizimi asosida qo‘shimcha imtiyozlar paketini taqdim etish lozim. Beshinchidan, bu muammoni hal etish uchun, bu sohada ulkan tajribaga ega bo‘lgan xorijiy mamlakatlar bilan ko‘proq muloqat qilishimiz va bu muammodan xalos bo‘lishimizga yordam beradigan aniq, konseptual strategiyani ishlab chiqishimiz lozim. Chunonchi, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekistonda bu masalani bartaraf etishni mamlakatimizda strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo‘ydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xalq so‘zi, 2024-yil, 27-fevral, №42 (8665), 3-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. //https://president.uz/uz/lists/view/3324. (25.06.2021)
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent:O‘zbekiston, 2021.-B.438.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida so‘zlagan nutqini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib qilish buyicha o‘quv qo’llanma. –Toshkent: “Ma’naviyat”, 2021.-B.-228.
5. Mustafaqulov Sh.,Murodullayev N., Xamidov R. O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasida/Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar.2020. №1. –B.-80-81.
6. Xalq so‘zi 2023-yil 17-iyun, №124. (8467)
7. Xalq so‘zi, 2023-yil 26-sentyabr, №201, (8549)
8. Xalq so‘zi, 2023-yil 6-iyun, №115 (8458)
9. Xalq so‘zi, 2023-yil 16-noyabr, №243(8586), 2-bet)
10. Xalq so‘zi 2024-yil 20-yanvar, №15-16 (8638-8639))
11. Xalq so‘zi 2023-yil 17-oktyabr №220 (8563)
12. Xalq so‘zi, 2023-yil 19-oktyabr, №222 (8565)
13. Xalq so‘zi 2023-yil 17-oktyabr №220 (8563)
14. https://www.investopedia.com/terms/p/poverty.asp
15. https://cpag.org.uk/child-poverty/poverty-facts-and-figures
16. https://www.worldbank.org/en/news/feature/2010/03/19/results-profile-china-poverty-reduction

MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA MAHALLA INSTITUTINING SIYOSIY-HUQUQIY ASOSLARINI SHAKLLANISHI

Isamutdinov Ravshan Raxmonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi
Kotibiyati Saylov jarayonlarini tashkiliy ta’minlash bo‘limi
boshlig‘i o‘rinbosari, mustaqil izlanuvchi,

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligini ta’minlashda mahalla institutining siyosiy-huquqiy asoslari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, mustaqillik yillaridan to hozirgi kunga qadar qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: mahalla, milliy xavfsizlik, siyosat, huquq, xavfsizlik, jamoat xavfsizligi

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIK TARIXI: AN’ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR”

Bugungi kunda mamlakatimiz milliy xavfsizligini ta’minlash maqsadida mahalla institutining siyosiy-huquqiy asoslari shakllangan bo‘lib, o‘tgan davr mobaynida qabul qilingan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar mazkur institutni milliy xavfsizlikni turli sohalardagi faoliyati uchun muhim poydevor bo‘lib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida mahalla institutining siyosiy-huquqiy asoslarini shakllanishini tahlil etganimizda, respublikamizda bu sohaga doir amaliy tajribalar bo‘yicha milliy tizim shakllanganligi va rivojlanganligiga amin bo‘lamiz. Mahalla institutining siyosiy-huquqiy asoslarining shakllanishi bevosita fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati bilan bog‘liq holda takomillashib borganligini ko‘ramiz.

Jumladan, 1992-yil yanvar oyida Toshkent Davlat universiteti talabalar shaharchasida oziq-ovqat mahsulotlari, birinchi navbatda, non narxining keskin ko‘tarilishi natijasida talabalar ishtirokida norozilik harakati bo‘lib o‘tdi va ushbu norozilik harakati “Toshkentdagi talabalar qo‘zg‘oloni” nomi bilan tarixda qolgan. Qo‘zg‘olonda ikki talaba halok bo‘lgan, o‘nlab namoyishchilar yaralangan.

Mazkur voqealardan so‘ng 1992-yil 25-yanvar kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning poytaxt mahalla faollari bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tgan. Uchrashuvda “aholini ijtimoiy himoya qilish, milliy urf-odat va an’analarni tiklash, yoshlar o‘rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish vazifalari bo‘yicha mahalla qo‘mitalari tashabbusni o‘z qo‘liga olishi kerak. Bugun suveren respublikamiz uchun oson emas. Ammo biz bu qiyin davrni yengib o‘tamiz. Shaharlarda, qishloqlarda, mahallalarda vaqt ham, xotirjamlik ham kerak. Va bu har birimizga bog‘liq.[1,S.1]” – deya ta’kidlagan I.Karimov. Shuningdek, uchrashuvda Xamza va Akmal-Ikromov tumanlari ijtimoiy faollari N.Hasanov va S.Mirzayev, Oktyabr tumani Navro‘z mahalla qo‘mitasi raisi O.Ortiqov kabi mahalla faollari tomonidan qator takliflar ilgari surilgan.

Mahalla faollarining bildirilgan takliflariga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 12-sentabrdagi “Respublika “Mahalla” xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” to‘g‘risidagi PF-472-sonli farmoni bilan “Mahalla” xayriya jamg‘armasi tashkil etilgan hamda jamg‘armaning asosiy vazifalari O‘zbekiston aholisining tarixan tarkib topgan udum va an’analarini asrash va boyitishga har tomonlama ko‘maklashish, kam ta’minlangan oilalar, nogironlar, yetimlarga va yolg‘iz qolgan qariyalarga nisbatan insonparvarlik va mehr-shafqat munosabatida bo‘lish g‘oyalarini qilish, ularga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatish, bozor iqtisodiyoti sharoitida mahallalarni ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy rivojlantirishga ko‘maklashish etib belgilangan.

O‘z navbatida, Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-oktabrdagi “Respublika “Mahalla” xayriya jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi 480-sonli qarori bilan “Mahalla” xayriya jamg‘armasining boshqaruv tuzilmasi va yuqori organi konferensiya tasdiqlangan.

1992-yil 22-oktyabrda Toshkentda Respublika “Mahalla” xayriya jamg‘armasining ta’sis konferensiyasi bo‘lib o‘tgan. Jamg‘armaning 59 kishidan iborat boshqaruv organi saylangan. Yig‘ilganlar Respublika Prezidenti Islom Karimovni yakdillik bilan ushbu jamg‘armaning Faxriy Prezidenti, Shukur Temirovni jamg‘arma raisi etib saylashgan. Respublika “Mahalla” xayriya jamg‘armasi tashkil etilgan paytda Toshkent shahrida 279 ta mahalla faoliyat ko‘rsatgan.[2,B.1517]

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan mahallalar faoliyati bo‘yicha milliy qonunchilik tizimining negizi yaratilgan. Konstitutsiyaning 105-moddasiga ko‘ra, shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalar hamda shaharlardagi mahalla fuqarolarining yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari ekanligi belgilangan.

Bosh qomusimizdan kelib chiqqan holda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy asosi yaratilgan. 1993-yil 2-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi[3] 915-XII-son Qonuni bilan, fuqarolar yig‘inini chaqirish tartibi, rais (oqsoqol) va uning maslahatchilarini saylash tartibi, o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining iqtisodiy va moliyaviy negizi, vakolatlari, strukturasi hamda rais (oqsoqol)ning vakolatlari belgilab berilgan.

Dastlabki qabul qilingan qonunga muvofiq, fuqarolar yig‘ini raisiga, asosan, aholining ijtimoiy-maishiy muammolarni hal etish bo‘yicha qator vakolatlar berilgan. Shunday vakolatlardan fuqarolar yig‘ini raisi tashkilotlarga nogironlar, boquvchisidan mahrum bo‘lgan oilalar, ko‘p bolali oilalar, yolg‘iz onalar, shuningdek, tabiiy ofatlardan jabr ko‘rgan fuqarolarning moddiy va uy-joy, maishiy sharoitlarini yaxshilash to‘g‘risida taklif kiritishi bo‘lib, bu esa aholini ijtimoiy himoyalashda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari birlamchi axborot manba sifatida e’tirof etilganligini ko‘rishimiz mumkin.

1999-yil 16-fevral kuni Toshkent shahrida sodir etilgan terrorchilik harakatlaridan so‘ng mahalla instituti faoliyatida tub burilish yasagan davr bo‘ldi. Mazkur voqealardan keyin mahalla institutini ijtimoiy xavfsizlikni amalga oshirishi bilan birgalikda jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni takomillashtirilib, mahalla fuqarolar yig‘ini huzurida jamoatchilik tuzilmalari instituti yaratilgan. 1999-yil 15-martdagi Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan jinoyatlarning oldini olish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi[4] 113-sonli qaroriga muvofiq, joylarda jamoat tartibini saqlashni ta’minlashda ichki ishlar organlariga ko‘maklashish uchun “Mahalla posboni” jamoat tuzilmalari hamda mahalla fuqarolar yig‘inlari huzurida yarashtirish komissiyalari tashkil etilgan bo‘lsa, 1999-yil 19-apreldagi Vazirlar Mahkamasining “Jazoni o‘tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko‘rsatish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va hokimliklar huzuridagi maxsus komissiyalar, “Mahalla posboni” jamoat tuzilmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi yarashtirish komissiyalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 180-sonli

[5] qaror bilan esa ushbu jamoatchilik tuzilmalarning nizomlari tasdiqlangan. “Mahalla posboni” tuzilmasini tashkil etilishi mahalla hududida jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikni oldini olishda fuqarolarni ishtirokini ta’minlashga turtki bo‘lgan.

Bundan tashqari, 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi 758-I-son qonuni [6] bilan endilikda fuqarolar yig‘ini kengashi tegishli hududda jamoat tartibini ta’minlashda, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishini hisobga olishni tashkil etishda, o‘smirlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish ishida, voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yaqindan yordam ko‘rsatish mumkinligi nazarda tutildi.

2007-yil mart oyidan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bolali ehtiyojmand oilalarga, ikki yoshgacha bo‘lgan farzandi tarbiyasi bilan band ishlamayotgan onalarga nafaqa hamda kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to‘lash [7] vakolati berildi.

Shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari orqali kam ta’minlangan oilalar farzandlari bo‘lgan yoshlarga, shu jumladan nikohdan o‘tish va to‘y marosimlarini o‘tkazishda qo‘shimcha moddiy yordam ko‘rsatish [8] tartibi joriy etildi.

2013-yilda mahalla instituti faoliyati yanada takomillashtirilib, 2013-yil22-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish qo‘shimchalar kiritish haqidagi [9] O‘RQ-350-son qonuni bilan mustaqillikdan so‘ng uchinchi bor yangi tahrirdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi qonunga muvofiq, fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha komissiyalarni tuzish, qayta tashkil etish hamda ularning faoliyatini tugatish, shuningdek, fuqarolar yig‘ini tomonidan ichki ishlar organlarining profilaktika bo‘yicha tegishli inspektori bilan birgalikda “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi joriy etilgan. Bu esa fuqarolar yig‘inida jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikni barvaqt oldini olish bo‘yicha jamoatchilik nazoratini o‘rnatish imkoniyatini paydo qildi.

Ushbu qonundan kelib chiqqan holda ikkita muhim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Birinchisi, 2013-yil 7-oktyabrdagi Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [10] 274-sonli qarori bo‘lib, unga ko‘ra fuqarolar yig‘ini huzurida jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan 8 ta komissiya tashkil etildi hamda ularning namunaviy nizomlari tasdiqlandi.

Ikkinchisi, 2014-yil 4-mart kuni qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolar yig‘inining “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 47-sonli qaror bilan “Mahalla posboni”

jamoatchilik tuzilmalarining faoliyati zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirildi.

2020-yil 18-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [11] PF-5938-sonli farmoniga muvofiq, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armalari faoliyati tugatilib, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi hamda uning hududiy bo‘limlari tashkil etildi.

Amaldagi fuqarolar yig‘ini huzuridagi 8 ta jamoatchilik komissiyalari optimallashtirib, yangi 4 ta jamoatchilik komissiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mahalla boshqaruvida ham bir qator lavozimlar tugatilib, yangi lavozimlar joriy etildi (4-ilova). Jumladan, fuqarolar yig‘ini raisining 3 nafar o‘rinbosari (huquq-tartibot masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma’naviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari, obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari) va 2 nafar maslahatchisi (yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi, keksalar va faxriylar ishlari bo‘yicha maslahatchisi) lavozimlari kiritildi.

2022-yilda mamlakatimizda “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb e’lon qilindi hamda shu yildan boshlab har bir mahallada 2 ta yangi lavozim joriy etildi. Ular tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi lavozimi va yoshlar yetakchisi lavozimi hisoblanadi. Mazkur lavozimlarning joriy etilishi davlat organning mahalladagi vakillari sifatida baholandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan to hozirgi kunga qadar ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha mahalla institutini siyosiy-huquqiy asoslari takomillashtirilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. И. А. Каримов “Встреча с активистами махаллинских комитетов Ташкента” // Правда Восток, 28 января 1992 (№19). – С.1.

2. Sh.Jalilov. Mahalla yangilanish davrida (O‘zini o‘zi boshqarish idoralari tajribasidan). – T.: Mehnat, 1995. – B.15-17.

3. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentyabrdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi 915-XII-son Qonuni. https://lex.uz/acts/86020.

4. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 15-martdagi “Fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan jinoyatlarning oldini olish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 113-sonli qarori. https://lex.uz/docs/279072.

5. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-apreldagi “Jazoni o‘tash joylaridan ozod qilingan shaxslarga ijtimoiy-maishiy jihatdan va ishga joylashishda yordam ko‘rsatish bo‘yicha qoraqalpog‘iston respublikasi vazirlar kengashi va hokimliklar huzuridagi maxsus komissiyalar, “Mahalla posboni” jamoat tuzilmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi yarashtirish komissiyalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 180-sonli qarori. https://lex.uz/uz/docs/622966?ONDATE=19.04.1999.

6. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi 758-I-son Qonuni. https://lex.uz/acts/86256.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-martdagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3864-sonli farmoni 1-bandi. https://lex.uz/docs/1145040?ONDATE=19.03.2007%2000#1145090.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 18-maydagi “Yosh oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3878-sonli farmoni 1-bandi. https://lex.uz/docs/1200664?ONDATE=18.05.2007%2000#1200965.

9. O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-apreldagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish qo‘shimchalar kiritish haqidagi O‘RQ-350-sonli qonuni. https://lex.uz/acts/2156899.

10. Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 7-oktyabridagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 274-sonli qarori. https://lex.uz/ru/docs/2248961.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son farmoni. https://lex.uz/docs/4740345.

ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLAR CHAQIRIQLARI VA O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATI

Usarov Sirojiddin Raxmatullayevich,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
“Jahon tarixi” kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti xalqaro munosabatlar tizimida juda murakkab bo‘lgan bir bosqichda ro‘y berdi. Dunyo geosiyosiy makonidagi o‘zgarishlar sharoitida yangi-yangi chaqiriqlar va tahdidlarni yuzaga chiqmoqda. Bu esa har bir davlatni o‘z tashqi siyosiy prinsiplarini ularga javob beradigan darajada qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Xalqaro munosabatlarning to’la huquqli subyekti sifatida O‘zbekiston

Respublikasida ham tashqi siyosiy faoliyatning asosiy prinsiplari takomillashtirib borilmoqda. Maqolada ushbu masalalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy dunyo, xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat prinsiplari, konstitutsiya, konsepsiya.

XX asrning 90-yillari xalqaro munosabatlar tizmida keskin o‘zgarishlar bilan tarixga kirdi. Bu paytga kelib dunyo geosiyosiy manzarasidagi transformatsiyalar, globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarining tobora chuqurlashuvi, “qutblararo” ziddiyatlarning inqirozi kuzatildi. Bu uchinchi mingyillik oralig‘ida ro‘y bergan xalqaro munosabatlar tizimidagi rivojlanishining sifat jihatidan yangi fazasi kirishi edi [1, B. 13]. Mazkur yangi faza davlatlar barqarorligi va taraqqiyotini ko‘p jihatdan ular yuritayotgan tashqi siyosat strategiyasiga bog‘liq qilib qo‘ydi. “Dunyoda globallashuv, beqarorlik va qarama-qarshilik kuchayib borayotgan sharoitda aynan yaqin va o‘zaro manfaatli hamkorlik barqaror rivojlanish va taraqqiyotga erishish, tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi” [2, B. 267]. Shu ma’noda, zamonaviy dunyoda xalqaro va davlatlararo munosabatlarda har qachongidan ko‘ra faollik, uzluksiz muloqotlar maydoni yuzaga keldi. Xalqaro maydondagi ana shunday murakkab va qiyin, ta’bir joiz bo’lsa katta evrilishlar pallasida O‘zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosiga aylandi.

Xalqaro munosabatlarda kechayotgan murakkab va keyingi rivojini prognoz qilish qiyin bo’lgan voqeliklar hamda davlatlar tashqi siyosati, unda kuzatilayotgan o‘zgarishlar mazkur jarayonlarni ilmiy asosda o‘rganishni, bu borada yangi ilmiy yondashuvlar ishlab chiqishni taqozo etishi o‘z navbatida ushbu yo‘nalishning ahamiyatini yanada oshirib yubordi. Jahon bo‘ylab xalqaro munosabatlar va davlatlar tashqi siyosatini o‘rganuvchi ilmiy markazlarning ko‘payishi, o‘zaro axborot almashinuvining shiddatlashuvi kabi jarayonlar xalqaro munosabatlardagi transformatsiyalar to‘g‘risida turli nuqtai nazarlarning ilgari surilishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun bugun xalqaro munosabatlar fan sifatida rasman shakllanganiga bir asrdan ortiq vaqt o‘tgan bir sharoitda*, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining mavjud nazariy-metodologiyasini doimiy takomillashtirish, bu munosabatlarga javob beradigan umumiy nazariya yoki yondashuvni ishlab chiqish soha mutaxassislari oldidagi dolzarb va asosiy vazifalardan biriga aylandi. Shu vaqtgacha idealizm, liberalizm, realizm, postbixevioralizm, bixevioralizm, federalizm, plyuralizm, neorealizm, ratsionalizm, postpozitivizm, konstruktivizm, sivilizatsion, globalizm kabi yondashuvlar asosida xalqaro munosabatlar masalalariga munosabat bildirib kelingan [3] va bu jarayon xalqaro munosabatlardagi zamonaviy o‘zgarishlar jarayonida davom etmoqda [4, B. 1-49]. Eng asosiysi, “xalqaro munosabatlarning rivojlanishini tahlil qilish siyosiy jarayonlardagi tashqi va ichki omillarini tizimli

* Xalqaro munosabatlar mustaqil fan sifatida o‘z tarixini 1919-yildan boshlaganligi keltiriladi. Shu yili Eybersvitdagi (Buyuk Britaniya) Uels universitetida birinchi xalqaro munosabatlar nazariyasi va tarixi kafedrasi tashkil etilgan edi.

tahlil qilishning bir necha darajalarini o‘rganish va ishonchli axborotga asoslangan bo‘lishi kerak [5, B. 10]”.

Keyingi vaqtlarda xalqaro munosabatlarni o‘rganishda psixologiya, sotsiologiya va antropologiya fanlari yutuqlaridan foydalanish kuzatilmoqda [6, B. 43]. Qolaversa, ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyoti xalqaro munosabatlar nazariyasi va metodologiyasini yangicha yondashuvlar yordamida o‘rganish zaruriyatini yuzaga chiqardi. Xalqaro munosabatlarni tizimli yondashuv asosida o‘rganish bo‘yicha tizimli modellashtirish, axborot texnologiyalari sohasining taraqqiyoti bo‘lsa xalqaro munosabatlar masalalarini tadqiq etishga kompyuter modellashtirishini olib kirdi [7, B. 53-66].

Xalqaro munosabatlarni o‘rganish bo‘yicha ishlab chiqilgan turli yondashuvlar va nazariy-metodologiyasining takomillashuvi “XX asrning oxirgi o‘n yilligiga kelganda xalqaro munosabatlarni mustaqil ilmiy yo‘nalish (dissiplina) sifatida to‘liq tan olinishiga olib keldi, lekin baribir xalqaro munosabatlarning umumiy nazariyasini ishlab chiqish ochiq bo‘lib qolmoqda”(tarjima bizniki – *S.U.*) [8, B. 171]. Muayyan ma’noda bunga “ayni paytda ilmiy bilimlarning nazariy va uslubiy jihatlarining eng ko‘zga ko‘ringan xususiyati fanlararo to‘siqlarni yengish, yangi ko‘p tarmoqlarni sintez qilishga intilish hisoblanishi [9, B. 9]”ni sabab sifatida ko‘rsatish o‘rinli.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda kuzatilayotgan va bir tizimga solish murakkab kechayotgan jarayonlarda asosiy hal qiluvchi rolni uning aktyorlari bo‘lgan davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar tashkil qiladi. Bu munosabatlarning rivoji yoki tanazzulini davlatlarning tashqi siyosati prinsiplari va yo‘nalishlari belgilab beradi. Zeroki, har qanday davlatning tashqi siyosiy manfaatlari, maqsad va vazifalari, avvalo, milliy ehtiyojlar, manfaatlar, qadriyatlar bilan, ularni xalqaro maydonda himoyalash, ta’minlash bilan bog‘liq [1, B. 13].

Xalqaro munosabatlarning yangi teng huquqli ishtirokchisiga aylangan davlatlar uchun dunyodagi geosiyosiy transformatsiyalar sharoitida mamlakat tashqi siyosatini milliy manfaat asosida yuritish murakkab bir vazifaga aylandi. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy tashqi siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o‘zgarayotgan vaziyat, hamda mamlakatning ichidagi keng ko‘lamli o‘zgarishlarga asoslanib shakllanadi [10]”. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IV bobida davlatning tashqi siyosati prinsiplari bir moddada (17-modda) belgilab berilgan edi [11, B. 8].

Yangi tahriridagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining (2023-yil 30-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi referendumiga ko‘ra qabul qilingan) davlatning tashqi siyosatida o‘ttiz yillikdan ortiq vaqt mobaynida xalqaro munosabatlarda bo‘lgan o‘zgarishlar o‘z aksini (17 va 18-moddalar) topdi. Jumladan, eski tahrirdagi “chegaralar dahlsizligi” o‘rniga “chegaralar buzilmasligi” prinsipi belgilab qo‘yildi. Bunda o‘zgarishga uchragan tushuncha xalqaro siyosatda juda muhimligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, xalqaro munosabatlarda kuzatilayotgan vaziyat taqozosidan kelib chiqib yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 17-moddasiga “davlatlarning hududiy yaxlitligi” prinsipi

qo‘shildi [12, B. 8]. To‘g‘ri, mazkur prinsip “xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplari” qatorida turadi, lekin uni asosiy tashqi siyosat prinsiplari darajasida aks ettirganlik so‘nggi o‘n-o‘n besh yillikdagi xalqaro maydonda kuzatilayotgan voqeliklar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu voqeliklar yana bir bor mazkur prinsipning qanday ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib beradi.

Huddi shunday zamonaviy xalqaro munosabatlardagi keskin o‘zgarishlar, yangi-yangi chaqiriqlarining kuzatilayotganligi mamlakat tashqi siyosiy faoliyatini aniq yo‘nalishlarda aks ettirish zaruriyatini kun tartibidagi ustuvor vazifa qatoriga chiqardi. Birinchi marta 1996-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, unda davlatning tashqi siyosati 7 moddadan iborat holatda berib o‘tilgan edi [13]. Mazkur huquqiy hujjat aytish kerakki, hali mamlakat uchun tashqaridan jiddiy hamda xavotirli bir tahdidlar kuzatilmagan sharoitda qabul qilingan edi.

Mustaqillikning dastlabki o‘n yilligida O‘zbekiston hamda dunyo boshiga tushgan bir qancha jiddiy, musibatli sinovlar mamlakat tashqi siyosat prinsiplarini va ustuvor yo‘nalishlarini yana bir karra qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi. Natijada O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 10-sentabrdagi O‘RQ-330-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan yuqoridagi “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni o‘z kuchini yo‘qotdi va mamlakat uchun yangi Tashqi siyosiy faoliyat konsensiyasi qabul qilindi [14, B. 6-19]. 4 ta katta bo‘limdan iborat bo‘lgan Konsepsiya aytish kerakki, o‘zida mamlakat tashqi siyosiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan deyarli barcha masalalarni keng qamrovda olganligi bilan ajralib turdi.

Mazkur Konsepsiya qabul qilinganligiga ham bugun o‘n yildan oshdi. Ana shu muddat ichida Markaziy Osiyoda va dunyo geosiyosiy maydonida katta va keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ldi va bo‘lmoqda. Bu esa mamlakat tashqi siyosiy faoliyat yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish masalasini kun tartibiga chiqardi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida davlatning “ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosatni inobatga olib hamda uzoq muddatli strategik maqsadlaridan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi takomillashtirilishi”ni ilgari surgan edi [15]. Albatta, davlatning ichki siyosati bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa huquqiy hujjatlardan farqli ravishda mamlakatning tashqi siyosatining Bosh qomusdan keyingi asosiy hujjati hisoblanuvchi Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi takomillashtirilish nisbatan murakkab hisoblanadi, unda mamlakat tashqi siyosatining barcha masalalari qamrab olinishi talab etiladi. Undan tashqari, O‘zbekiston tashqi siyosatida har qachongidan ko‘ra faollik kuzatilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi qabul qilingandan keyin (2012-yil sentabr) to 2024-yilgacha O‘zbekiston bitta davlat bilan ittifoqchilik (Qozog‘iston, 2021-yil) va sakkizta davlat bilan o‘zaro munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga ko‘tardi. O‘z-o‘zidan davlat ichki va tashqi siyosatida bunday

tub o‘zgarishlar qisqa vaqt ichida hamda ushbu yo‘nalishning barcha jihatlarini qamrab oluvchi huquqiy hujjatni ishlab chiqishni murakkab vazifaga aylantiradi. Ya’ni takomillashtirilajak Konsepsiya to‘la ma’noda Yangi O‘zbekistonning ichki siyosatidagi tub o‘zgarishlarni hamda faol amaliy tashqi siyosatni o‘zida to‘liq aks ettirishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O’zbekiston va jaxon hamjamiyati:xalqaro munosabatlar va tashqi aloqalarni tashkil qilish. S.Jurayev, O.Axmedov, M.Raximova. – Toshkent:G’afur G’ulom nomidagi nashsriyot-matbaa ijodiy uyi,
2. Mirziyoyev SH.M. Integratsiya va hamkorik yo’lidagi yangi imkoniyatlar. //Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari.4-jild.-Toshkent:”Ozbekiston”NMIU.
3. Теория международных отношений: Учебное пособие в 2-х т. / Кол.авт.; Под общей ред. О.А.Колобова. Т.1. Эволюция концептуальных подходов. – Нижний Новгород: ФМО ННГУ, 2004. – 393 с.
4. Tayyar ARI. Uluslararası İlişkilerde Büyük Tartışmalar ve Post-Modern Teoriler // Postmodern Uluslararası İlişkiler Teorileri-2. Uluslararası İlişkilerde Eleştirel Yaklaşımlar // Der: Prof. Dr. Tayyar ARI. – Bursa: DORA, 2014. – S.1-49.
5. Рахимов М. Современная история и международные отношения Узбекистан. – Ташкент: “Фан”, 2020.
6. Рахимов М. Международное сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии. – Ташкент: “Yangi nashr”, 2011.
7. Дегтеров Д. Компьютерное моделирование международных отношений // Международные процессы, 2011. № 3. http://intertrends.ru/system/Doc/ArticlePdf/693/Degterev-27.pdf
8. Основы общей теории международных отношений: Учебное пособие / Под ред. А.С.Маныкина. – М.: Изд-во МГУ, 2009.
9. Рахимов М. Марказий Осиёнинг энг янги тарихи ва халқаро муносабатларини фанлараро ўрганиш масалалари // Ўзбекистон энг янги тарихининг долзарб масалалари, 2019. № 1.
10. O‘zbekiston tashqi siyosati // https://mfa.uz/uz/cooperation/
11. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Расмий нашр. Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2014. – 76 б.
12. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Расмий нашр. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2023. – 240 б.
13. Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 26 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсий фаолиятининг асосий принциплари тўғрисижа”ги Қонуни // Халқ сўзи, 1996 йил 31 декабрь

14. Ўзбекистон Республикасининг Ташқи сиёсий фаолияти концепцияси. 2012 йил 10 сентябрь. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг ахборотномаси. № 9/1. 2012.
15. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // https://president.uz/uz/lists/view/4057

O‘ZBEKISTONDA HARBIY TA’LIM TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Yaqubov G‘ulom Salahiddinovich
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston harbiy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan harbiy ta’lim tizimining mamlakatimizdagi rivojlanish bosqichlari ilmiy adabiyotlar tahlili asosida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yosh avlod, harbiy ta’lim, mudofaa ishlari, harbiy transport, harbiy mahorat, harbiy kadr, Yangi O‘zbekiston.

Milliy davlatchiligimiz vujudga kelishi va taraqqiy topgan davrlarda harbiy sohada erishilgan yutuqlar shon-shuhratini tarixiy dalillar asosida zamondoshlar ongi-xotirasida mustahkamlash va imkon qadar keng ommaga, ayniqsa, yosh avlodga yetkazish, ularning dunyoqarashlari, qalblarida milliy qadriyatlar ruhi, millat tamadduniga daxldorlik, ona Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg‘usini har tomonlama kuchaytirish, buyuk sarkardalarimiz meros qilib qoldirgan boy jang san’ati sirlarini o‘rganish, bu borada ilmiy-ommabop, badiiy, o‘quv-uslubiy adabiyotlarni, shu jumladan multimedia imkoniyatlaridan foydalangan holda tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo Jaloliddin Manguberdi jasorati va Amir Temurning bebaho merosi, Vatan ozodligi va farovonligi yo‘lida o‘zini qurbon qilgan zamondosh vatandoshlarimizning qahramonligi asosida, O‘zbekiston xalqiga sodiq, qat’iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan o‘smir yigitlar orasidan harbiy ta’lim muassasasalari uchun o‘quvchilarni tarbiyalashga hukumat doirasida e’tibor qaratilgan holda sohaga doir strategik dasturlar amalga oshirib kelinmoqda.

Yuksak intellektual salohiyatga, zamonaviy fikrlash hamda dunyoqarashga ega, davlatimiz manfaatlari va suverenitetini fidokorona himoya qilishga tayyor bo‘lgan har tomonlama kamol topgan, jismonan sog‘lom va ma’naviy yetuk yosh avlodni tarbiyalash tizimini yaratishga qaratilgan davlat siyosatini faol va izchil amalga oshirishni ta’minlash maqsadida 2019-yil 28-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari va davlat xizmati

uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4375-son qarori qabul qilingan edi.

Tadqiqotga jalb qilingan va tahlilga tortilgan ilmiy adabiyotlar tahliliga ko‘ra, O‘zbekistonda harbiy ta’lim taraqqiyoti va uning rivojlanish yillarini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo‘lib, tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisobladik. **Birinchi bosqich:** – 1991-2000-yillarni o‘z ichiga oladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida o‘zining rivojlanish taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilab borgan O‘zbekistonda t*a’lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yo‘nalish deb e’lon qilingan edi. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining demokratik xarakterda ekanligi, ta’limning uzliksizligi va izchilligi,* ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi, davlat ta’limi standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi, ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv, ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirishdan iborat asosiy tamoyillari belgilab berilgan edi [1, B. 27].

Birinchi bosqichning tarixiy ahamiyati shundan iborat ediki, mazkur yillar davomida O‘zbekiston o‘zining milliy harbiy qismlarini tuzish va uni dastlabki mahalliy kadrlar bilan ta’minlashning ilk davri bo‘ldi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini shakllantirishning huquqiy asoslarini yaratishga kirishildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentininig 1991-yil 6-sentabrdagi farmoniga asosan Mudofaa ishlari vazirligi tashkil qilindi va uning vazifalari belgilandi. Mudofaa ishlari vazirligi zimmasiga umumiy safarbarlik, Milliy gvardiyani tuzish, fuqarolar mudofaasini amalga oshi rish, harbiy ta’lim sohasini boshqarish, harbiy xizmatga chakirish va muqobil xizmatni tashkil kilish, qo‘shinlarni joylashtirish, harbiy texnika va qurol-yarog‘larni saqlash va takomillashtirish vazifalari yuklatildi.

1992-yil 14-yanvarda esa O‘zbekistan Respublikasi Oliy Kengashining “O‘zbekiston Resiublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o‘quv yurtlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida O‘zbekiston Resiublikasi hududida joylashgan sobiq ittifoq Qurolli Kuchlarining barcha qismlari, harbiy o‘quv yurtlari, muassasa va tashkilotlar ularning qarshiligiga qaramay, O‘zbekiston tasarrufiga o‘tkazildi. 1992-yil 24-martda Milliy xavfsizlik xizmati qoshida Chegara qo‘shinlari boshqarmasi tashkil etilib, mamlakat hududidagi chegara qo‘shinlari bo‘linmalari uning tasarrufiga o‘tkazildi [2, B. 227-228].

1992-yil 18-mayda “O‘zbekiston Respublika hududida joylashgan havo desanti qo‘shinlari, harbiy transport aviatsiyasi, razvedka qo‘shinlari, ta’minot qismlari haqida“gi farmon bilan bu qo‘shinlar Respublika tasarrufiga o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 12-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan havo hujumiga qarshi harbiy qismlar haqida”gi, 13-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan kimyoviy harbiy qismlar haqida”gi farmonlari bilan mamlakatimiz hududida joylashgan mazkur turlardagi qo‘shinlar Respublika tasarrufiga olindi va sifat jihatidan takomillashtirildi. Shu tarzda mustaqil mamlakat Qurolli Kuchlarini barpo etishning tashkiliy davri yakunlangan edi. 1992-yildan e’tiboran

Respublikamiz hududidagi barcha harbiy ta’lim muassasalarining shtat tuzilmasi takomillashtirila boshlandi. Jumladan, Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurti, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti, Samarqand oliyavtomobil qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti – ko‘p tarmoqli o‘quv muassasalariga aylandi [3, B. 195]. 1995-yil avgustida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy doktrinasi mamlakatning harbiy sohadagi siyosatini belgilab berdi. Shunday qilib, O‘zbekistonda harbiy ta’lim rivojining birinchi bosqichining asosiy xarakterli xususiyatlari quyidagi jihatlarda ko‘zga tashlandi. Mazkur bosqich milliy harbiy ta’lim tizimi yuzaga kelishining ilk bosqichi sifatida ko‘rib chiqildi. Mazkur davrda mavjud harbiy ta’lm muassasalarining milliylashtirilishi davri sifatida namoyon bo‘ldi. Harbiy ta’lim tizimi mazmunan yangi yo‘nalish, yangi ta’lim bosqichlari bilan boyidi. Shu bilan birga mavjud harbiy ta’lim muassasalari va bu yerda olib borilgan ta’lim jarayonlarida sovet davri andozasining ayrim element va xususiyatlari saqlanib qolgan edi.

Tadqiqotchi A.X.Yaxyayeva harbiy ta’lim tizimi rivojining birinchi bosqichida O‘zbekistonda harbiy kadrlar tayyorlash tizimining yaratilishini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, mustaqillik yillarining dastlabki davrida oliy harbiy ta’lim tizimida oliy harbiy kadrlarni tayyorlash masalasi ayrim ziddiyatli holatlar bilan birgalikda kechdi. Mustaqillik yillarining dastlabki vaqtida harbiy kadrlarning taqchilligi sababli oliy harbiy ta’lim muassasalarida o‘qituvchi lavozimida xizmat qilayotgan kadrlarda pedagogik mahorat yetishmasligi kuzatildi. Shuningdek, harbiy bilim yurtlari kafedralarida fundamental tadqiqotlar olib borish yo‘lga qo‘yilmagani, o‘qituvchilarning fanlarni o‘qitish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar tayyorlash bilan cheklanib qolishlari harbiy fan sohalarining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan holda, o‘z navbatida, oliy harbiy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyat juda pastligiga olib kelganligini ko‘rsatib o‘tadi.

Ikkinchi bosqich: – 2001-2016-yillarni o‘z ichiga olgan holda harbiy ta’lim tizimining o‘ziga xos milliy tiklanish davri deyish mumkin. Mazkur davrning aynan shu yillardan boshlanishidagi asosiy omillardan biri 2000-yilning 3-fevralida O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi qabul qilinishi bo‘ldi. 2000-2002 yillar O‘zbekiston Mudofaa Doktrinasiga muvofiq Mudofaa vazirligi va Chegara qo‘shinlari bo‘linmalari, Ichki ishlar vazirligi va Milliy Xavfsizlik xizmatining maxsus qismlari, shuningdek, boshqa idoralarning harbiy tuzilmalarini o‘z ichiga olgan Qurolli Kuchlar tizimi yaratildi. Serjantlar korpusining yaratilishi milliy armiyaning mavqeini kuchaytirdi. Unga muvofiq 2001-yil iyulda Markaziy, Sharqiy, Toshkent va Janubi-G‘arbiy maxsus harbiy okruglarda, keyinchalik esa (2007-yil) Shimoli-G‘arbiy harbiy okrugda serjantlar tayyorlash maktabi tashkil etildi. Maktablarda Mudofaa, Ichki ishlar vazirligi, Chegara qo‘shinlari uchun mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. O‘quv jarayoni 5 va 6 oylik dasturlar asosida tashkil qilindi [4, B. 17].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 1-may Qaroriga asosan Mudofaa vazirining “Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurtida harbiy kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi

buyrug‘i e’lon qilindi. Natijada 2003-yil 7-mayda Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurti shtat tuzilmasiga katta o‘zgartirishlar kiritildi.

Akademiyada oliy harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, ofitserlarning saviyasini ko‘tarish hamda ularning malakasini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 6-iyundagi qabul qilingan Qarori asosida ta’lim tizimi va o‘qitish jarayoni tubdan o‘zgartirildi. 2003-yil sentabrdan akademiyaga o‘qishga kirish uchun maxsus imtihonlar topshirish yo‘lga qo‘yildi. Sirtqi ta’lim tugatildi va ikki yillik kunduzgi ta’lim asosida mutaxassislar tayyorlash joriy etildi. 2004-yildan boshlab O‘zbekiston Qurolli Kuchlari Birlashgan shtab boshlig‘ining buyrug‘iga asosan olti oylik shtab ofitserlarini tayyorlash bo‘yicha oliy kurslar tuzildi. Undan oldinroq, Mudofaa Vaziri va Oliy attestatsiya komissiyasining Qaroriga muvofiq 2003-yil akademiyada adyunktura tashkil etildi. O‘z navbatida, ofitserlarning ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishiga imkoniyat yaratdi. Mazkur akademiyada 3 ta anyunkt ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirib “harbiy fanlar nomzodi” unvonini oldi. O‘zbekiston Qurolli Kuchlari Akademiyasining faoliyati muntazam ravishda “Trudы Akademii” nomli jurnalda chop etiladi. Mazkur jurnal bir yilda ikki marotaba nashr qilinib uning birinchi qismida xizmat davomida foydalanish uchun materiallar chop etilsa, ikkinchi qismi maxfiy ma’lumotlar uchun ajratilgan edi [4, B. 20].

Uchinchi bosqich: – 2017-yildan hozirgi kunga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan xronologik chegara belgilab olindi. Mamlakatimiz taraqqiyotida yangi bosqich Yangi O‘zbekiston davrida ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarida bo‘lgani singari ta’lim sohasi xususan, harbiy ta’limda ham keng islohotlar va tub burilishlar davri boshlandi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoev tomonidan 2017-yil 9-fevral kuni ichki ishlar organlarining faoliyati, tizimdagi mavjud muammo va kamchiliklar, istiqboldagi vazifalarga bag‘ishlab o‘tkazgan yig‘ilishida quyidagilar ta’kidlagan edi: “Ichki ishlar tizimida kadrlar bilan ishlash, ularning malakasi va mas’uliyatini oshirish ishlariga alohida e’tibor qaratilib, nazoratga olinishi lozim deb o‘ylayman. Bu borada Ichki ishlar vazirligi tizimidagi o‘quv muassasalari, jumladan, Ichki ishlar Akademiyasining o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tish zarur. Ushbu o‘quv maskani yosh ofitserlarga chuqur bilim berish bilan birga o‘zining tarbiyaviy ta’sirini ham o‘tkazishi lozim”-ligi alohida ta’kidlangan edi [5, B. 175].

Harbiy ta’lim rivojlanishining uchinchi bosqichi dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida, mamlakat hayotining boshqa jabhalari bilan bir qatorda, harbiy sohaning eng muhim yo‘nalishlari bo‘yicha zamon talablariga mos qarorlar qabul qilindi. Amalga oshirilgan tizimli va kompleks chora-tadbirlar natijasida qisqa davr ichida milliy harbiy kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor berila boshladi.

Mazkur bosqichning asosiy jihatlaridan, uni metodologik asoslab bergan hujjat O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 28-yanvarda

qabul qilingan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonning e’lon qilinishi bo‘ldi [6, B. 32]. Taraqqiyot strategiyasining tarkibida mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirishni nazarda tutuvchi yettinchi yo‘nalishida belgilangan maqsadlardan kelib chiqqan holda mamlakat harbiy ta’lim tizimining keyingi taraqqiyot bosqichidagi muhim yo‘nalishlar belgilab olindi. Ya’ni, mazkur strategiyaning bevosita “Davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish” deb nomlangan 90-maqsadida oliy harbiy ta’lim muassasalariga nomzodlarni saralash va tanlab olish tizimini yanada takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi [7].

Mamlakat mudofaa tizimi, harbiy ta’lim va harbiy soha – mamlakat osoyishtaligini ta’minlashning eng muhim tizimi bo‘lishi bilan birga, juda katta ta’lim va tarbiya dargohidir. Ushbu muassasalarning xalqqa yaqinlashuvi natijasida vatanparvarlik va fidoyilik tuyg‘ulari, yurtni sevish va ardoqlash, sadoqat va matonat ko‘nikmalari va tushunchalari shakllanib, mustahkamlanib boradi. Yoshlarimiz o‘z vatanining bo‘lg‘usi qahramonlaridirlar. Shu sababli davlat rahbari ayni mavzuga alohida diqqat qaratdi. Mamlakat aholisini va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish bilan bog‘liq ishlarni «Jasur jangchi – yoshlar uchun namuna» shiori ostida yanada jadallashtirish, harbiy okruglar qo‘mondonliklariga kamida 10 tadan maktabni otaliqqa olish hamda harbiy qism komandirlari tomonidan ularda vatanparvarlik va harbiy shon-sharaf darslarini yo‘lga qo‘yish vazifasi qo‘yildi [8].

Mamlakatimizda harbiy ta’lim tizimi rivojlanishining mazkur bosqichida harbiy okruglar, oliy harbiy ta’lim muassasalari, mudofaa ishlari bo‘yicha boshqarmalar, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi bilan birgalikda harbiy akademik litseylar, ro‘yxatga kiritilgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga yoshlarda oliy harbiy ta’lim muassasalari faoliyati hamda harbiy xizmat to‘g‘risida tushunchalarni shakllantirish, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish hamda taalluqli fanlar bo‘yicha ta’lim jarayonini tarkibli va sifatli tashkil etish tizimi joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan harbiy ta’lim tizimining muhim jihatlaridan biri ta’limning turli yo‘nalishlarda olib borilayotganligi bilan xarakterlanadi. Yaqin-yaqingacha harbiy ta’lim sohasining harbiy tibbiy yo‘nalishida olib borilgan ta’lim sohasi faqatgina Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi Harbiy-tibbiyot fakulteti bazasida shaklllantirilgan holda olib borilar edi. Asosiy vazifasi harbiy tibbiy ta’lim yo‘nalishida intellektual salohiyatga ega, ona yurtiga sadoqatli, qo‘shinlarni tibbiy ta’minlashni samarali tashkil etishga qodir bo‘lgan, tibbiy xizmatning yuqori malakali ofitserlarini, rezerv va zaxiradagi ofitserlar tarkibini tayyorlash, Qurolli Kuchlar tibbiy xodimlarining harbiy va kasbiy tayyorgarligi darajasini muntazam oshirish hamda ularni qayta tayyorlash, harbiy tibbiyot sohasida ilmiy-tadqiqotlar olib borish bo‘lgan Harbiy-

tibbiyot fakulteti ma’lum bir davr oraligida mazkur yo‘nalishida samarali yutuqlarga erisha oldi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida harbiy ta’lim tizimining asosiy rivojlanish bosqichlarining mamlakat harbiy kadrlar tayyorlash tizimining tarixiy rivojlanish yo‘llarini o‘zida namoyon etadi. Zero, bugungi globallashuv davrida harbiy ta’lim tizimining zamon bilan hamnafas va uyg‘un holda olib borilishi mamlakat harbiy ta’lim tizimining tarixiy tajribalariga asoslanadi. Shu bilan birga harbiy ta’liim tizimi azkur rivojlanish taraqqiyot bosqichlarida mazmunan milliy o‘zlik, milliy mentalitet va o‘ziga xoslik jihatlarini ta’lim va tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lishi ham tarixiy zaruratdir. Chunki, aynan shu omillar harbiy ta’limning bir qator mmahalliy va milliy jihatlarini o‘zida ifoda etadi. Davr yosh avlod tarbiyasida mazkur jihatlarning barchasini e’tiborga olishni taqozo etmoqda. Shunday ekan, mamlakatimizdagi harbiy ta’lim tizimi keyingi yillarda ham doimo zamon talablariga mos ravishda taraqqiy etib boraverishi zarur holatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ergashev Q. O‘zbekistonda xalq ta’limi rivoji tarixi. – T: O‘qituvchi, 1998. – B. 27.
2. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan (qadimgi davrdan hozirgacha). Mas’ul muharrir: D.X. Ziyayeva. – T: Sharq, 2012. – B. 227-228.
3. Uzoqov, A.M., Nurullayev, L.L., Nazarov, T.T. Harbiy tarix. – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, Durdona, 2022. – B. 195.
4. Yax’yayeva A.X. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining shakllanishi va harbiy ta’limning rivojlanish tarixi (1991-2005 yillar Mudofaa vazirligi misolida). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022. – B. 17.
5. Saloxiddinov N.F. O‘zbekiston Respublikasi IIV ta’lim muassasalarida bo‘linmalarni boshqarish asoslari. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – Toshkent, 2020. – №4. (47). – B. 175.
6. Vaxidov A.C., Beysenov K.S. Maxsus fanlar sikli. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV MOI, 2023. – B. 32. (194)
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. // Yangi O‘zbekiston. 2022 yil, 1 fevral, №22 (544).
8. Abdurahmonov I. Harbiy soha-katta tarbiya va ta’lim dargohidir. https://mininnovation.uz/.

ПРОБЛЕМЫ, ДОСТИЖЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВА РАЗВИТИЯ 3Д ОЦИФРОВКИ КУЛЬТУРНОЙ НАСЛЕДИЕ САМАРКАНДА

Хасанова Шохиста – преподаватель кафедры История Узбекистана СамГУ имени Шарофа Рашидов

Аннотации: Развитие информационных и коммуникационных технологий (ИКТ) открывает новые возможности для защиты и продвижения культурного наследия. В результате появился огромный рынок получателей информации с оборудованием и возможностью доступа к широкополосным сетям передачи данных. С другой стороны, технология предоставляет все более совершенные инструменты для оцифровки артефактов и обмена их результатами. В статье представлена история сотрудничества ученых-компьютерщиков из Люблинского технического университета и ученых-музеологов из Самаркандского государственного университета. Сотрудничество сосредоточено на трехмерной оцифровке артефактов культурного наследия из Центральной Азии с особым упором на останки средневековой династии Тимуридов. Также были представлены результаты сотрудничества и планы по его ужесточению. ИКТ делает возможной передачу достижений средневековья в настоящее время интернет делает их доступными для всех.

Ключевые слова. 3Д оцифровка, информационно-коммуникационные технологии, культурное наследие, архитектурные памятники, сохранение, ЛТУ.

Введение.

Самарканд является городом богатой истории и находится в центре Великого Шелкового пути, где имеется множество объектов культурного наследия. Это археологические, архитектурные, монументальные объекты наследия, а также множество музейных предметов хранящихся в музеях Самарканда. На сегодняшний день по официальным данным в Самаркандской области имеется 1607 объектов культурного наследия, из них 992 археологические, 537 архитектурные и 78 монументальные. Кроме того в фондах более 40 музеев хранятся около 500 000 ед. археологических, этнографических, фото-документальных, искусствоведческих и других видов музейных предметов.

Изучение, сохранение и пропаганда этих объектов культурного наследия является одной из важнейших задач учреждения культуры и охраны объектов культурного наследия. В этих целях проводится большая работа со стороны Международных, республиканских и местных организаций.

Большое внимание уделяется в этом направлении со стороны государства Республики Узбекистан. За последнее время принят ряд

документов по сохранению и пропаганды культурного наследия в Узбекистане.

С появлением и развитием информационных и коммуникационных технологии (ИКТ) многие учреждения культуры начали использовать эти новый технологии в своих работах по сохранению и использованию объектов культурного наследия.

Развитие информационных и коммуникационных технологий (ИКТ) открывает новые возможности на местах для защиты и использования культурного наследия. В результате появился огромный рынок получателей информации с оборудованием и возможностью доступа к широкополосным сетям передачи данных.

В последние годы технологическое развитие в области ИКТ привело к развитию систем оцифровки, и с другой стороны возможность широкого приема цифровой информации практически всем обществом. Технологическое развитие систем оцифровки предоставляет все больше новых технических и программных средств, расширяя возможности их использования и снижая затраты на процесс оцифровки.

Проблемы:

В Узбекистане учреждение занимающие сохранением и использованием объектов культурного наследия недостаточно используют ИКТ в своей работе. По этому основной задачей этих организаций является использование всех возможностей и новых технологий. Один из методов использование ИКТ в этой области является 3Д оцифровка объектов культурного наследия.

Оцифровка объектов культурного наследия - это метод сохранения их внешнего вида в двоичном виде, который может быть автоматически обработан с использованием компьютерных технологий. Как и любой цифровой продукт, двоичная информация об объектах культурного наследия может быть легко и дешево воспроизведена, сохранена, передана, обработана и передана. Из-за его дешевого дублирования и хранения во многих местах по всему миру, это практически неразрушимо. Это важный элемент защиты культурного наследия. Помимо архивных свойств цифровой информации об объектах культурного наследия, важным элементом является возможность ее простой и дешевой передачи и обмена, в том числе в Интернете.

Учитывая эти проблемы по изучению, сохранению и использованию объектов культурного наследия сотрудники Самаркандского государственного университета совместно специалистами Люблинского Технологического университета с 2015 года начали сотрудничество в этой направление.

В ходе выполнения задачи стоящие перед нашим совместным проектом, мы выяснили, что для полноценного исполнения оцифровки объектов культурного наследие в Узбекистане имеются нижеследующие проблемы и задачи:

1. Отсутствие программы по 3Д оцифровки и обработки объектов культурного наследия Узбекистана.
2. Отсутствие специалистов выполнявшие работу по 3Д оцифровки и обработки полученные данные.
3. Отсутствие программы технологии обработки 3Д оцифрованных объектов культурного наследия в виде архитектурных памятников и музейных предметов.
4. Отсутствие оборудования (лазерные сканеры, высокотехнологические компьютеры, скоростные интернет связи и другие).
5. Отсутствие целевых финансированных программ 3Д оцифровки и обработки объектов культурного наследия.

Исходя из этих ситуации в Узбекистане, мы с нашими партнерами из Люблинского Технологического университета разработали план действия нашей совместной работы, поэтому направление.

Достижение.

Сотрудничество имело междисциплинарный характер, что означает, что обе стороны привносят в него уникальные знания и навыки. Такая ситуация создала взаимное уважение между партнерами и, посредством полученной синергии, позволила достичь исключительных результатов. Партнеры из Узбекистана представляли собой, специализированные знания в области истории и истории искусства. Они также обеспечили доступ к разнообразным предметам материальной культуры, над которыми могли бы работать с навыками польских специалистов. Специалисты, представляющие “Лабораторию 3D” из Люблинского Технологического университета (LUT) занималась 3D-оцифровкой объектов культурного наследия с использованием, как лазерных сканеров, так и технологии структурированного света. В Люблине они обработали полученные данные, сгенерировав цифровые 3D- модели различного качества и свойства. Эти модели были пригодны как для архивирования, так и для совместного использования на веб-сайтах, создания мира виртуальной реальности и создания интерактивных панорам всенаправленных или трехмерных распечаток.

Совместного сотрудничества между университетами Люблина и Самарканда можно разделить на 3 периода:**Первый период** - 2015–2016 годы, был дистанционным сотрудничеством, в ходе которого были созданы как первые публикации, так и документы о официальном сотрудничестве между нашими университетами.

Второй период - 2017–2019 годы, являются годами первых трех научных Экспедиций сотрудников Люблинского технологического университета, кафедры Компьютерных наук (проф. Ежи Монтусевич, профессор. Марек Милош и доктор Яцек Кенсик) в Центральную Азию. Сфера их деятельности охватывала Узбекистан, Казахстан и Кыргызстан. Представители из стран Центральной Азии также посетили Польшу. Были организованы две научные конференции: международные конференции по

информационным технологиям в области управления культурным наследием (2018 год в Люблине, Польше и в 2019 году в Самарканде, Узбекистан). Также были созданы совместные исследования и публикации, а также портал «3D Digital Silk Road, silkroad3d.com».

Третий период - 2020–2022 годы - это реализация проекта «3D Digital Silk Road», финансируемого Национальным агентством по академическому обмену (PPI/APM/2019/1/00004). Существующее сотрудничество было распространено еще на три новых университета в Узбекистане. Это были Национальный университет Узбекистана, Чирчикский Государственный Педагогический университет и Ургенчский Государственный университет. Первоначальная продолжительность проекта совпала с пандемией коронавируса, которая значительно ограничивала деятельность но несмотря на это, была организованная виртуальная конференция, результатом, которой стала публикация двух монографий (Материальное культурное наследие Великого Шелкового пути на территории Современного Узбекистана и Нематериальное культурное наследие Великого Шелкового пути на территории современного Узбекистана).

Кроме того, была организована виртуальная научная экспедиция Люблинского Технологического университета в Центральную Азию, благодаря которой были подготовлены две коллекции цифровых 3D-моделей и созданы две виртуальные выставки.

В 2021–2022 годах были организованы 4 последовательных научных экспедиций, Люблинского Технологического университета, в Центральной Азии (15–28 августа, 2021 - Ташкент: 10–22 октября 2021 года - Ургенч: 5–18 мая, 2022 - Самарканд: 5–12 июня 2022 года - Бухара), которые позволили оцифровать объекты культурного наследия в Ташкенте, Чирчике, Ургенче, Хиве, Самарканде, Шахрисабзе и Бухаре. В общей сложности 13 различных сотрудников Департамента компьютерных наук LUT приняли участие в этих экспедициях.

Документирование состояния (геометрии и внешнего вида) памятников составляющих материальное культурное наследие Шелкового пути, с учетом их количества, рассеяния и разнообразия, является сложным процессом. Работа на местах в местных условиях трудна и требует от участников хорошего здоровья, настойчивости в действиях и творческого подхода к решению возникающих проблем. Сканирование на открытом воздухе в течение многих часов при температуре до +42°C в тени, специализированное оборудование после нагрева до температуры 60°C отказывается работать, когда перегретый планшет замедляет загрузку данных, отправляемых сканером, показывает, что ваше оборудование не было рассчитано на такие условия. Компетентная команда, однако, смогла преодолеть все эти невзгоды и несовершенство оборудования. Во время этих экспедиций было отсканировано 110 небольших и крупных объектов культурного наследия, что принесло около 400 ГБ необработанных данных в виде точечных облаков, фотографий и видео.

За это время, в общем, в результате совместной работы было опубликовано 5 монографий, боле 100 научных статей, 3 альбома каталога, организовано 5 Международных научных конференций, 5 фотовыставок, 2 виртуальные выставки, 6 научных семинар, 4 мастер-класса и другие мероприятия.

В результате совместной работы, область исследований, разработанная с 2015 года, наконец-то привела к созданию неформальной научной и исследовательской школы с международным охватом в области трехмерной оцифровки объектов культурного наследия, их архивирования, реконструкции и обмена. На протяжении многих лет авторы провели всестороннее исследование в области использования трехмерных компьютерных графических технологий в защите объектов культурного наследия, что приводит к постоянному архивированию внешнего вида и геометрических размеров этих объектов и их широкой доступности.

В результате проведенных мероприятий: множество эффективных методик для проведения 3D-сканирования в местных условиях методы обработки полученных данных в организованной лаборатории Lab 3D, методы цифровой реконструкции поврежденных объектов, методы подготовки цифровых моделей для 3D-печати, методы внедрения цифровых моделей в мир виртуальной реальности (VR), методы распространения интерактивных цифровых 3D моделей с описаниями в свободном доступе в интернете, а также методы сохранения геометрии и внешнего вида объектов культурного наследия в цифровой форме.

Перспектива

В результате совместной работы ВУЗов Узбекистана и Люблинским Технологическом университетом, появилось возможность развивать эту ИКТ в Узбекистане и других соседних странах Центральной Азии. Для этого необходимо продолжать совместное сотрудничество с зарубежными специалистами и партнерами. А также осуществлять следующие работы:

1. В каждом учебном заведение Узбекистана участвующий в вышеуказанном проекте с привлечением специалистов в учреждение культурного наследия, создать Центр 3Д технологии по оцифровки объектов культурного наследие.
2. Подготовить специалистов из числа студентов, магистров, аспирантов и докторантов с привлечением различных специалистов (археологов, историков, этнографов, искусствоведов, архитекторов, музееведов, программистов и других)
3. Разработать перспективный план работы по 3Д оцифровки археологических, архитектурных памятников и музейных предметов объектов культурного наследия Узбекистана и его регионов.
4. Решать вопрос финансирование выполнения этих работы.
5. Приобретение необходимых оборудований и приборов для выполнения этих работы.
6. Организовать различные мероприятие по обмену опыта, научные

конференции, семинар-тренинги, мастер-классы и другие.

7. Опубликовать результаты работы в виде монографии, учебных пособий, научные статьи, доклады на научных конференциях, лекции для студентов, научно-популярные статьи в СМИ.

Резюме

Один из формы изучения, сохранение и использование объектов культурного наследие Узбекистана и Центральной Азии является 3Д оцифровка этих объектов, которой доказал совместный проект узбекских и польских специалистов «3D digital SilkRood». Это технология даст большие возможности в архивирование состояния этих объектов, для изучения и проведение научного исследование, использование полученных данных в проектирование реставрации и консервации сооружение, восстановление, архитектурных и археологических объектов, а также музейных предметов. Кроме этого технология 3Д оцифровка объектов культурного наследия, даст возможность для создания новых экспозиции и выставки, виртуальные выставки, подготовки тематических лекции и докладов, разработки монографии, учебных пособий, каталогов, альбомов, буклетов, путеводителей и других издательских продукций.

Самой основной задачей это1 3Д оцифровки объектов культурного наследие является пропаганда и ознакомление с широкой аудиторей любителей истории и искусства этих объектов, через всемирную сеть Интернет на различных языках мира.

Для успешной работы в области сохранения и использования объектов культурного наследия, применение в нем программу и новый технологии 3Д оцифровка объектов культурного наследия, необходимо решать вопросы вышеуказанных в данной статье перечень выполняемых из 7 пунктов работ.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. 3D компьютерные технологии как инструмент современной археологии

/ Марек Милош, Ежи Монтусевич, Рахим Каюмов // Вестинк Казну им. Аль-Фараби, Серия: Математика, Механика и информатика.- 2015, вып. 86, № 3, с. 181-190.

2. Избранные способы создания трехмерных виртуальных моделей музейных керамических объектов / Ежи Монтусевич, Збигнев Чиж, Рахим Каюмов // Прикладная информатика.- 2015, вып. 11, № 1, с. 1-16

3. 3D цифровые технологии в практической подготовке археологов / Ежи Монтусевич, Марек Милош, Рахим Каюмов // INTED 2016: 10-я Международная конференция по технологиям, образованию и развитию. - 2016, с. 7451-7458.

4. Предложение методологии удаленного доступа к исходным материалам для трехмерного сканирования музейных объектов методом SFM / Яцек Кесик, Ежи Монтусевич, Рахим Каюмов // EDULEARN 15: 7-я Международная конференция по образованию и новым технологиям

обучения, Барселона (Испания) 6-8 июля 2015: материалы конференции. - 2015, с. 1831-1840

5. Подход к компьютерной реконструкции музейных экспонатов / Яцек Кесик, Ежи Монтусевич, Рахим Каюмов // Достижения в области науки и технологий. Журнал исследований. - 2017, вып. 11, № 2, с. 87-94.

6. Многопрофильные технологии для создания виртуальных музеев - пример развития археологического музея / Ежи Монтусевич, Марек Милош, Яцек Кесик, Рахим Каюмов // INTED 2018: 12-я Международная конференция по технологиям, образованию и развитию. 2018, с. 326-336.

7. Концепция недорогой интерактивной и геймифицированной виртуальной экспозиции / Ежи Монтусевич, Марчин Барщ, Станислав Скулимовский, Рахим Каюмов, Мухаммед Бузруков // INTED 2018: 12- я Международная конференция по технологиям, образованию и развитию. 2018, с. 353-363.

8. 3D-информационные технологии в сохранении и популяризации культурного наследия - серия семинаров для музеологов, проведенных учеными-компьютерщиками / М. Милош, Й. Монтусевич, Й. Кесик // EDULEARN 20: 12-я ежегодная международная конференция по образованию и новым технологиям обучения, Валенсия, Испания, 6-7.07 2020: материалы конференции. 2020, с. 544-549.

9. Определение площади поверхности керамической плитки на средневековой мозаике Шер-Дор в Самарканде - Проблемы и решения / Марек Милош, Эльжбета Милош, Ежи Монтусевич // Цифровые приложения в археологии и культурном наследии. - 2020, вып. 16, с. 1- 6.

10. Марек Милош, Юрий Монтусевич, Яцек Кешик, Информационные технологии 3D в охране и популяризации культурного наследия Шелкового пути. Люблин. 2022

O‘ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI FAOLIYATI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Qurbonov Bekjon G‘ayrat o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti
Tayanch doktoranti

Annotatsiya: O‘zbekiston musulmonlari idorasi mamlakatimizda nufuzi yuksak nodavlat notijorat tashkilotlardan biridir. Mo‘min-musulmonlar birdamligini ta’minlash, toat-ibodatlar uchun zarur sharoitlar yaratish, Islom ahkomlarini aniq va to‘g‘ri yetkazish, toat-ibodatlar uchun qulayliklar yaratish, musulmonlarning aqidaviy birligini saqlash, ajdodlarimizning tarixiy merosini tadqiq etish, xayriya ishlarini olib borish, jamiyatda totuvlikni ta’minlash O‘zbekiston musulmonlari idorasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridir.

Kalit so‘zlar: diniy idora tarixi, diniy ta’lim, madrasa, masjid, vaqf.

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIK TARIXI: AN’ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR”

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari, 16 ta diniy konfessiya a’zolari bag‘rikenglik tamoyili asosida tinch-totuv yashab kelishmoqda. Davlatimiz har bir konfessiya faoliyatiga yaqindan yordam berib kelmoqda[1, B. 9].

Tarixga qaytadigan bo‘lsak, sovet davrida va mustaqillik yillarida islom diniga e’tiqod qiluvchi hamdo‘st davlatlarning hamkorlik jarayoniga ta’sir ko‘rsatgan omillar ichida eng muhim institutsional holat O‘zbekiston musulmonlari idorasining vujudga kelishi hisoblanadi.

II Jahon urushi davom etayotgan bir paytda sovet davlati hududida dinga va dindorlarga munosabat o‘zgardi. AQSh va Angliya kabi ittifoqchi davlatlarning undovi, qolaversa, aholini frontga keng ko‘lamli jalb qilish maqsadida diniy siyosatni keskin yumshatishga majbur bo‘ldi[2, B. 21].

O‘rta osiyo va Qozog‘iston diniy boshqarmasi dastlab 1943-yilda tashkil topgan bo‘lib, ikkinchi jahon urushining eng og‘ir paytlarida sobiq ittifoq aholisining islom diniga bo‘lgan munosabati ijobiy tomonga o‘zgara boshladi. Ateizm o‘rniga o‘zbeklar musulmonlarcha bag‘rikenglikdan najot topdilar. Mahalliy aholining iltimosi bilan, musulmonlarni birlashtiruvchi tashkilot tuzish maqsadida, Eshon Boboxon hazratlari boshchiligida bir guruh faollar O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Yo‘ldosh Oxunbobonevdan ruxsat so‘rashadi. Oxunboboev bu haqda Moskva bilan muzokaralar olib boradi va ruxsat olishga erishadi. 1943-yilda Moskvada Eshon Boboxon hazratlari Iosif Stalin bilan uchrashadi. Stalin unga musulmon ulamolari qurultoyini chaqirishni, ularga urushda g‘alabaga erishish uchun amaliy yordam berish yo‘llarini qidirishni taklif etishni aytadi[3, B. 23].

Umuman olganda, sobiq ittifoq davrida Toshkentda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi, Ufada RSFSR musulmonlari idorasi, Bokuda Ozarbayjon musulmonlari idorasi va Kavkaz musulmonlari idorasi kabi 4 ta islom diniy tashkilotlar mavjud bo‘lgan[4, B. 16].

Shu tariqa 160 kishidan iborat qurultoyda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasini tashkil yetish va Eshon Boboxon hazratlarini muftiy etib saylash to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Boshqarma tashkiliy tuzilmasi sifatida Hay’at (11 kishi), taftish hay’ati (5 kishi) va Respublikalarda qoziyotlar faoliyatni boshlaydi. O‘sha yillari musulmonlar vakillarining haj safariga borishlari yo‘lga qo‘yildi, “Mir Arab” madrasasi qaytadan faoliyat boshladi (1945), masjidlar haqida Nizom ishlab chiqildi, diniy boshqarma kutubxonasiga asos solindi, xalqaro aloqalar kengaydi[5, B. 155].

1957-yildan boshqarmaga Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon hazratlari muftiy etib saylandi. Yangi muftiy tashabbusi bilan SSSR hududida Qur’oni karimning nusxalari va tarjimalari, Imom al-Buxoriyning “Al-Jomi’ as-Sahih” hadislar to‘plami nashr etildi hamda 1971-yilda Toshkentdagi Namozgoh masjidi binosida Imom Buxoriy nomli Toshkent islom instituti tashkil topishi diniy ta’limga katta yo‘l ochdi. 1929-yil O‘zbekistonda diniy ta’lim tizimi batamom to‘xtatilgan edi. Oradan qariyb qirq yil o‘tib Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon

hazratlari diniy ta’lim tizimini rasmiy ko‘rinishda tiklashga muvaffaq bo‘ldilar[6, B. 62].

O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasining markaziy boshqaruvi Toshkent shahrida joylashgan bo‘lib, qolgan to‘rtta Respublikada “qoziyot” ya’ni vakolatxonalari faoliyat yuritgan. 80 yillar oxiri – 90 yillar boshlari O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi tarixida anchagina murakkab davr bo‘ldi. Sovet davlati hali bo‘linib ketmasidan Respublikalardagi qoziyotlar o‘z ishlarini mustaqil ravishda idora eta boshlagan edilar. 1990-yildan boshlab qoziyotlar diniy boshqarma tasarrufidan chiqib, o‘zlarining mustaqil diniy idoralarini tashkil etishgan. Natijada, markazi Toshkentda bo‘lgan diniy boshqarmaning nomini o‘zgartirish zaruriyati vujudga kela boshlagan.

1990-yilda Qozog‘iston qoziyati diniy boshqarma tarkibidan chiqib ketdi va Qozog‘iston musulmonlari idorasi tashkil topdi. 1992-yil 27-fevralda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Qoraqalpog‘iston musulmonlarining 5-qurultoyi qaroriga ko‘ra Movarounnahr musulmonlari idorasi deb atala boshlangan[7, B. 18]. Movarounnahr musulmonlari ulamolar kengashining 1995-yil 4-dekabr majlisida tasdiqlangan Nizomga asosan “Movarounnahr musulmonlari idorasi” nomi “O‘zbekiston musulmonlari idorasi” deb o‘zgartirildi[8, B. 3]. Ushbu o‘zgarish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 1998-yil 12-avgustda 05-raqamli guvohnomasi bilan tasdiqlangan.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi mamlakatdagi musulmonlarni birlashtirib turuvchi, ularga ma’naviy rahbarlik va homiylik qiluvchi, katta nufuzga ega bo‘lgan rasmiy va nodavlat diniy tashkilotdir. O‘zbekiston musulmonlari idorasining oliy rahbar organi Ulamolar kengashi hisoblanadi. Ulamolar kengashi ochiq ovoz berish yo‘li bilan besh yil muddatga O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiyni saylaydi.

O‘zbekiston musulmonlari idorasining oliy boshqaruv organi ulamolar kengashi, oliy ijro organi oliy hay’at bo‘lib, unga muftiy rahbarlik qiladi. Muftiyga o‘rinbosar va huquqiy maslahatchilar, shuningdek, bo‘lim mudirlari yordam ko‘rsatadilar. Idora viloyatlarda va Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘zining vakillarini tayinlagan va musulmonlarning diniy hayotlariga oid barcha tadbirlarni ular bilan hamkorlikda amalga oshirib kelmoqda.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi masjidlar orqali musulmonlarga islom ahkomlarini aniq va to‘g‘ri talqin etishda yordam beradi, islom dini tarixiga oid nodir qo‘lyozmalar va kitoblarni to‘plash hamda ularni tadqiq qilish, muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil qilish bilan shug‘ullanadi. O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida bugungi (10.04.2024ga ko‘ra) kunga kelib 2132 masjid faoliyat ko‘rsatmoqda. Masjidlarda 5000 dan ziyod imom-xatiblar, imom-noiblar va muazzinlar fuqarolarga xizmat ko‘rsatmoqdalar.

Hozirgi kunda, O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida hududiy birliklarda joylashgan vakillik idoralari organlari (viloyat, shahar vakilligi), 2132 ta masjid, 10 ta o‘rta maxsus islom bilim yurti (madrasa), 3 ta oliy diniy ta’lim

muassasasi, nashriyot, “Vaqf” xayriya jamoat fondi, fatvo va ilmiy tadqiqot markazlari hamda 5 ta ixtisoslashgan ilmiy maktab faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, diniy ta’lim muassasalari va ilmiy maktablarda yurtdoshlarimiz uchun "Qur’oni karim va tajvid" o‘quv kurslari ishlab turibdi[9].

Diniy idorani turli yillarda Shayx Eshon Boboxonov (1943–1957), Shayx Ziyovuddinxon Boboxonov (1957–1982), Shamsiddinxon Boboxonov (1982–1989), Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (1989–1993), Muxtorjon Abdulloh Buxoriy (1993–1997), Abdurashid Bahromov (1997–2006), Usmonxon Alimov (2006–2021), Shayx Nuriddin Xoliqnazar (2021–h.v.) boshqarib kelmoqdalar.

Ularning sa’y harakatlari bilan milliy qadriyatlarni tiklash, diniy ta’lim, haj va umra safari, musulmon davlatlar bilan aloqalarni o‘rnatish, nashr va fatvo kabi yo‘nalishlarda ulkan ishlar amalga oshirildi.O‘zbekiston Musulmonlari idorasi tasarrufidagi Toshkent islom instituti, Mir Arab Oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi va 10 ta o‘rta maxsus islom bilim yurtlari, jumladan 2 ta ayol-qizlar madrasasi imkoniyatlaridan foydalanib kelmoqda. Ularda 2000 dan ziyod talabalar ta’lim olishmoqda. Shuningdek, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy merosimizni o‘rganish va targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida “Shamsuddinxon Boboxonov” nashriyot-matbaa ijodiy uyi faoliyat yurgizmoqda. Shuningdek, “Hidoyat” va “Mo‘minalar” jurnallari, “Islom nuri” gazetasi O‘zbekiston musulmonlari idorasining davriy nashrlari sifatida chop etib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatgan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasining 1943-1991-yillardagi faoliyati o‘lka musulmonlari madaniy-ma’rifiy hayotida islom an’analarining qayta tiklanishida ma’lum ahamiyatga ega bo‘lgan. Sovet tuzumining tazyiq va keskinliklari Diniy boshqarmaning ichki va tashqi faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Bu jarayonda musulmonlar hayotidagi muhim o‘zgarishlardan biri islom ta’lim muassasalari faoliyatiga rasmiy ruxsat berilishida ko‘zga tashlanadi. Diniy boshqarma rahbarlari diniy ta’lim muassasalarining o‘quv faoliyatini tashkillashtirishda faol ishtirok etganlar. Bu talabalar sonini oshirish, ta’lim sifatini yaxshilash hamda ularning xorij islom universitetlarida tahsil olishlari yuzasidan qator tadbirlar olib borilganligida ko‘zga tashlanadi. O‘zbekiston musulmonlari idorasining asosiy tamoyillari va uning Respublikada tutgan o‘rni va ahamiyatini o‘rganish amalga oshirildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2016.
2. Maria Elisabeth Louw. Everyday Islam in Post-Soviet Central Asia. - New York: Routledge. 2007.
3. Ислам и мусульмане в Стране Советов. – Москва, 1980.
4. O‘zbekiston Milliy arxivi M-152-fondi, 1-ro‘yxat, 3-yig‘ma jild.

5. Ахмадуллин В. А. Особенности советской двухуровневой подготовки исламских кадров: опыт и уроки // Ислам в современном мире: внутригосударственный и международно-политический аспекты. — 2015.
6. Salmonov A. O‘zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati: uydirma va tarix haqiqati. – T. Tafakkur. 2015.
7. H.Karamatov va boshqalar. Islom ziyosi o’zbegim siymosida. Toshkent:Toshkent islom universiteti.
8. O’.Alimov. O’zbekiston musulmonlari idorasi.Toshkent: Movaraunnahr,2020.